

M.J. KARIMOVA

O'ZBEKISTON  
TARIXI



O'QUV QO'LLANMA



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI

TOSHKENT PEDIATRIYA TIBBIYOT INSTITUTI

M.J. KARIMOVA

# O'ZBEKISTON TARIXI

O'QUV QO'LLANMA

**Bilim sohasi:** 500000 – Sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot  
**Ta'lim sohasi:** 510000 – Sog'liqni saqlash  
**Ta'lim yo'nalishlari:** 5510200 – Pediatriya ishi;  
5510100 – Davolash ishi; 5510900 – Tibbiy biologiya ishi;  
5510100 – Xalq tabobati



TOSHKENT – “EFFECT-D” – 2023

UO'K: 94(575.1)  
KBK: 63.3(2Y)  
K-25

*Taqrizchilar:*

**T.Sh. Shirinov** – O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov nomidagi Ilmiy-ma’rifiy memorial majmua rahbari, tarix fanlari doktori, professor.

**N.E. Muhammadiyev** – Toshkent pediatriya tibbiyot instituti Ijtimoiy fanlar, pedagogika va psixologiya kafedrası professori f.f.n.

**Karimova M.J.**

**O‘zbekiston tarixi.** O‘quv qo‘llanma / Toshkent: “EFFECT-D” nashriyoti. 2023. – 164 b.

Mazkur o‘quv qo‘llanmada Amir Temur va temuriylar davrida o‘zbek davlatchiligi va O‘zbekiston hududlarining xonliklarga bo‘linib ketishi, uning sabablari va oqibatlari yoritilgan. Amir Temur va temuriylar davridagi yer egaligi, bu davrda yuritilayotgan siyosati, ijtimoiy -iqtisodiy, madaniy hayoti va xonliklar davridagi siyosiy, ijtimoiy -iqtisodiy, madaniy hayoti bayon etilgan. O‘quv qo‘llanmada mavzuga oid ma’lumotlar nazorat savollari, mavzuga oid test savollari, interaktiv uslublar, grafik organayzerlar, va glossariy o‘rin egallagan. Fanni izchil, atroflicha o‘zlashtirish uchun yordam tariqasida qo‘llanmada O‘zbekiston tarixiga oid ilmiy va ommaviy adabiyotlar ro‘yxati tavsifa etilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi Toshkent pediatriya tibbiyot institutining 2023-yil 27-oktyabrdagi 454-sonli buyrug‘iga asosan nashrga tavsifa etildi (рўйхатга олиш рақами 454-137).

ISBN: 978-9910-9826-6-8

**SamDUKF ARM**  
-sonli

© Karimova M.J., 2023.  
© “EFFECT-D” nashriyoti, 2023.

## MUNDARIJA

<b>KIRISH</b> .....	4
<b>I BOB. AMIR TEMUR DAVLATINING TASHKIL TOPISHI</b> .....	7
§ 1.1. XIV asr o‘rtalarida Movarounnahrda ijtimoiy -siyosiy vaziyat. Amir Temurning siyosiy kurashmaydoniga kirib kelishi .....	7
§ 1.2. Amir Temur davlatining tashkil topishi, uning harbiy, siyosiy faoliyati .....	13
§ 1.3. Amir Temurning O‘rta Osiyo va jahon tarixida tutgan o‘rni. “Temur Tuzuklari”- davlat boshqaruv ishidagi muhim manba sifatida ....	37
§ 1.4. Markazlashgan davlatlarning parchalanishi. Shohruh Mirzo hukmronligi davrida Temuriylar saltanati. Movarounnahrda Mirzo Ulug‘bek hukmronligi. Mirzo Ulug‘bek davrida madaniyat, ilm-fan va adabiyot ravnaqi. Alisher Navoiyning siyosiy va adabiy faoliyati .....	60
<b>II BOB. O‘ZBEKISTON HUDUDLARINING XONLIKLARGA BO‘LINIB KETISHI, UNING SABABLARI VA OQIBATLARI</b> .....	103
§ 2.1. Shayboniylar davlati, uning siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy hayoti..	103
§ 2.2. O‘rta Osiyo ashtarxoniyalar hukmronligi davrida .....	111
§ 2.3. Buxoro amirligi davrida siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot.....	116
§ 2.4. Xiva xonligi va uning tarkibiga kirgan xalqlarning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayoti.....	124
§ 2.5. Qo‘qon xonligining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayoti.....	131
<b>GLOSSARIY</b> .....	146
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR</b> .....	158



## KIRISH

Mamlakatimiz tarixida Amir Temur va temuriylar davri hamda O'zbekiston hududlarining xonliklarga bo'linib ketishi, uning sabablari va oqibatlarini o'rganishni alohida o'rini bor. Chunki bu davrda, Turonzamin xalqlari dunyo miqyosida siyosiy, harbiy, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan yetakchi o'ringa chiqib oldi, ilm – fan, madaniy va ma'rifiy taraqqiyotga alohida e'tibor berildi. Ushbu davr mamlakatimiz tarixida sodir bo'lgan har tomonlama rivojlanish bosqichlarini, voqea – hodisalarni izchil va haqqoniy o'rganish muhim ahamiyatga egadir. "Buyuk bobolarimizning ma'naviy olami xususida fikr yuritganda, - deb ta'kidlagan edi birinchi prezidentimiz I.Karimov, - Sohibqiron Amir Temur haqida alohida to'xtalishimiz tabiiydir. Chunki, cheksiz azmu shijoat, mardlik va donishmandlik ramzi bo'lgan bu mumtoz siymo buyuk saltanat barpo etib, davlatchilik borasida, o'zidan ham amaliy, ham nazariy meros qoldirdi, ilmu fan, madaniyat, bunyodkorlik, din va ma'naviyat rivojiga keng yo'l ochdi".<sup>1</sup>

Qo'llanma Amir Temur va temuriylar davlatining vujudga kelishi jarayonlari, bu borada Amir Temurning say-harakatlari manbalar asosida yoritib berishga xarakat qilindi. Temurning "Temur tuziklar"idan foydalanib, undan misollar keltirdik va ba'zi sohalarni taxlil qildik. Mamlakatning iqtisodini ko'tarishda qishloq xo'jaligi, hunarmandchilik va boshqa sohalardagi ishlari ochib berilgan. Mamlakatning obodonchiligi yo'lidagi sayl-xarakatlar ko'rsatilib, binokorlik, naqqoshlik, bog'lar yaratish sohalarining rivojlanishi mamlakatdagi qurilish inshootlarini o'ziga xos tomonlari yoritib berilgan.

Temuriylar davrida ham Amir Temur davridagidek siysiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot davom etganligi, bu davrda temuriylardan Ulug'bek davridagi ilm fan taraqqiyoti gurkillab rivojlanganligi, Ulug'bek akademiyasida qator olimlar faoliyat ko'rsatganligi, buning natijasida kelajakda jahon ilm faniga ta'sir etgan talay ilmiy adabiyotlar yaratilganligi aniq misollar bilan keltirilgan.

<sup>1</sup> Каримов И. Юксак маънавият енгилмас куч. –Т.: "Маънавият". 2008.44-45 б.

Madaniy sohada xattotlik, rassomchilik, musiqa san'ati haqida ham qiziqarli misollar keltirilgan. Savdo sohasini rivojlantirishda elchilik munosabatlaridan foydalanganliklari haqidagi fikr – mulohazalar ham diqqatga molikdir.

Lekin temuriylar davriga kelib toju-taxt uchun bo'lgan kurashlar xokimiyatni Shayboniyxon va uning avlodlariga bo'shatib berishga sabab bo'ldi. Bu avlodni xokimiyat tepasida bir asr davomida olib borgan siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy hayotida markazlashgan davlat tuzish darajasiga ko'tarilganligini ko'rishimiz mumkin. Jumladan Abdullaxon davrida mamlakatda iqtisodiyot ko'tarilgan, dehqonchilik, hunarmandchilikni turli sohalari rivojlangan. Xorijiy davlatlar bilan savdo-sotiq yuqori darajaga ko'tarilgan. Qo'llanmada manbalardan misollar keltirib, bu haqda ma'lumotlar berilgan. Lekin Abdullaxonning bir katta xatosi tufayli, hokimiyatga Shayboniylar o'rniga Asharxoniylar xonadoni vakillari keldi. Buni sababini faktik misollar bilan qo'llanmada, manbalardan keltirib o'tganmiz. Ashtarxoniylar davrida ham bobodoqlik, urushlar avj oldi. Abulfayzxonning ichkilikka berilishi, qo'rqoqligi, qa'tiyatsizligi sabab xokimiyatga mang'itlar urug'idan bo'lgan Muhammad Rahimbiyni kelishiga va Buxoro amirligiga asos bo'ladi. Talabalarga Xiva va Qo'qon xonliklarga bo'linish sabablari manbalardan misollar bilan tushuntirib berilgan.

Vatanimiz tarixiga qiziqish oshib borayotgan hozirgi davrda, talabalarni aynan mana shu mavzular yuzasidan amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rishlari, savollarga to'g'ri javob olishlari, ajdodlarimiz tomonidan amalga oshirilgan ulkan ishlarga nisbatan hurmat va g'urur tuyg'usini uyg'otadi. Tariximizdagi bo'lib o'tgan jarayonlarni taxlil qilar ekanmiz, qilib o'tilgan xato va kamchiliklardan o'zimiz uchun to'g'ri xulosa chiqaramiz.

O'ylaymizki, shu maqsadda tashlagan qadamimizning dastlabki ishi bo'lgan qo'llanmamiz, ayrim kamchilik va xatolardan xoli emas. Shuning uchun o'z fikr va mulohazangizni bildirsangiz faqat xursand bo'lamiz.

Bu davrda dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo-sotiq rivojlangan, ilm-fan, madaniyat boshqa davrlardan ko'ra ancha o'sib shuhrat qozongan. Lekin biz ajdodlarimiz tarixidan ancha begona bo'lib, sobiq sho'rolar davrida bu tarixdan baxramand bo'la olmadik. Tariximiz buzib ko'rsatildi. Mustaqillik sharofati bilan biz Amir



Temur va temuriylar va hududimizdagi xonliklar davri tarixi haqida bilishga uni o'rganishga erishdik. Xozirgi kunda yirik olimlarimizning ko'plab yaratgan kitoblari hamda Temur va uning vorislari va xonliklar davri haqida xikoya qiluvchi tarixiy manbalar tarjima qilinib dunyo yuzini ko'rdi. Bu quvonarli xol albatta. Bizning shu o'rinda qilgan kichik xizmatimiz shu bo'ldiki, qo'llanmamizda aynan shu manbalardan va olimlarimiz kitoblaridan foydalanib talabalarimizga amaliy mashg'ulotlarida foydalanishda qulaylik yaratish maqsadida biz shu qo'llanmaga qo'l urdik.

## I BOB. AMIR TEMUR DAVLATINING TASHKIL TOPISHI

### § 1.1. XIV asr o'rtalarida Movarounnahrda ijtimoiy -siyosiy vaziyat. Amir Temurning siyosiy kurashmaydoniga kirib kelishi

**Tayanch iboralar:** "Temur tuzuklari", so'fiylar sulolasi, "Jangi loy", sarbadorlar, Oltin O'rda "Anqara jangi", jangovar tartib, bayroq, tug', tirkash, kamar, nayza, jang, o'nlik, yuzlik, minglik, rabot, korizlar, bog'lar, soliq, suyurg'ol, tarxon, naqqoshlik, xattotlik, miniatyura, savdo va elchilik aloqalari, pul islohoti, handasa, riyoziyot, tarix, adabiyot, mantiq, musiqa, fiqh, ilmi nujum, rasadxona, "Ziji Ko'ragoniy", "Tarixi arba' ulus".

XIV-asr o'rtalarida mo'g'ul hukmdorlari o'rtasida Chig'atoy ulusiga qarashli bo'lgan hududlarda toju – taxt, davlat va mol – dunyo uchun kurash kuchaydi. Bu davrda Movarounnahrda mahalliy zodagonlarining mavqei mustahkamlanib bordi. Mahalliy xokimlar bir – birlari bilan birlashish o'rniga yovlashib, saltanatni talon-taroj qilar edilar. Bu ayniqsa amir Qazog'on<sup>1</sup>ning vafotidan<sup>2</sup> keyin (1358) yanada avj olib, mamlakat mayda qismlarga bo'linib ketdi. Jumladan, Keshda Xoji Barlos, Xo'jandda Boyazid Jaloyir, Balxda Amir Xusayn, Shiburg'onda<sup>3</sup> Muhammad Xoji Aparad bosh bo'lgan bo'lsalar, Kayxusrav va O'ljoytular Qatlon<sup>4</sup> va Arhang<sup>5</sup> viloyatiga bosh bo'lish

<sup>1</sup> Amir Qazog'on (Qozog'on) – chingiziyalar sulolasiga mansub hukmdor. 1346-1358 yillarda Movarounnahrda hukmronlik qilgan, Uqtoy ko'on avlodidan. Donishmandcha va Baenkuhlonlarni xon deb z'olon qilgan va ular nomidan tannga zarb qilib, butun xokimiyatni q'ulida ushlab turgan.

<sup>2</sup> Muiniddin Natanziiy. Muntaxab ut-tavoxiri muinunii. "O'zbekiston" T.:2011.- 50.

<sup>3</sup> Afyonistonning shimolida joylashgan qadimiy shaxar, Juzjon viloyatining mat'muriy markazi.

<sup>4</sup> Panj dar'sininig unig soxhiliida joylashgan qadimiy viloyat. Arab va foris tilidaagi ezma manbalarda eziliishi: Xatlon, Xuttal, Xuttalon. XVI asrdan boshlab K'ulob, hozir Tojikistonning Xatlon viloyati.

<sup>5</sup> Amudar'e b'uyidaagi Badaхshon viloyatiga q'ushni viloyat, qadimda Toxariston viloyatidaagi shaxar. XVI asrdan boshlab uni Imom (Xazrat Imom) deb ham ataganlar. Hozirgi nomi Imomsoxib, Panj dar'sininig chap soxhiliida, Afyonistonda joylashgan.

da'vosini qildilar<sup>6</sup>. Shuningdek Xorazmni so'fiylar sulolasi, Buxoro va uning atroflarini sadrlar, Termizni sayidlar, Shoshni maliklar qo'liga oldilar<sup>7</sup>. To'xtovsiz urushlar va nizolar oddiy xalqning ahvolini og'irlashtirib qo'yishdan tashqari boy va zodogonlarning manfaatlariga ham putr yetkazdi. Shuning uchun mamlakatda feodal tarqoqlikka barham berish va markazlashgan kuchli davlatni barpo etish hamda mo'g'ullar istibdodidan ozod bo'lishga intilish g'oyasi tobora kuchayib bordi<sup>8</sup>. Mamlakatning parokandaligidan foydalangan Mo'g'ul xoni Tug'luq Temur 1360 yili yanvar oyida Movarounnahrda yurish boshladi<sup>9</sup>. Xo'jand daryosidan kechib o'tishganda Boyazid Jaloyir o'zining lashkari bilan ularga qo'shilib, Keshga yurdilar<sup>10</sup>. Bu vaziyatda Kesh viloyatining hukmdori Hoji Barlos Tug'luq Temurxonga bardosh beraolmasligini fahmlab, o'z yaqinlari bilan Xurosonga qochadi. Tabiiyki, o'z amakisi Hoji Barlos bilan birga 24 yoshli Amir Temur ham safar taraddudida edi. Ammo juvonmardlik ruhida tarbiyalangan Temurda oriyat, hamiyat kuchli bo'lib vatani, xalqi boshiga og'ir kunlar soya solib kelayotgan bir paytda yurtni dushman irodasiga tashlab o'zi chetda tomoshabin bo'lib turolmasdi. Binobarin, u qat'iy fikrga kelib, amakisi Hoji Barlosga, "Siz Xuroson tomon borishga azm qilibsiz! Viloyat va mamlakat hokimsiz va boshliqsiz qolib, unga fitnayu futur yo'l topgay va zarar yetgay. Agar maslahat ko'rsangiz, men o'z viloyatimga borib, u joydan podshoh xizmatiga yuzlanay, uning amirlari vazirlarini ko'ray, toki viloyat xarob bo'lmasin", deb, amakisini Xurosonga kuzatib, o'zi Keshga qaytib keladi<sup>11</sup>.

Haqiqatdan ham Amir Temur yo hayot yo mamot iborasini diliga jo qilib, o'limni bo'yniga olgan holda Tug'luq Temurxon dargohiga boradi. Tole yor bo'lib, Amir Temurning o'z xohishi bilan kelganini ko'rgan Tug'luq Temurxon, unga iltifotlar ko'rsatadi. Ammo Tug'luq Temurxon

<sup>6</sup> Низомиддин Шомий. Зафарнома. Т.: "Ўзбекистон", 1996. - 28 б.  
<sup>7</sup> Мусаев Н. Ўрта Осиёда дехқончилик маданияти ва аграр муносабатлар тарихидан. (Тош даври охиридан – XX аср бошларига қадар). Т.: "Фан" 2005. - 106 б.  
<sup>8</sup> Қаримов Ш. Шамсутдинов Р. Ватан тарихи. Т.: "Ўқитувчи", 1997. - 356-357 б.  
<sup>9</sup> Низомиддин Шомий. Зафарнома. Т.: "Ўзбекистон", 1996. - 29 б.  
<sup>10</sup> Низомиддин Шомий. Зафарнома. Т.: "Ўзбекистон", 1996. - 20 б. Мухаммад Хайдар мирзо. Тарихи Рашидий. Т.: "SHARQ" 2010. - 66 б.  
<sup>11</sup> Қаранг Низомиддин Шомий. Зафарнома. Т.: "Ўзбекистон", 1996. - 29; Шарафуддин Али Яздий. Зафарнома. Т.: "ШАРҚ", 1997. - 21 б. Мухаммад Хайдар мирзо. Тарихи Рашидий. "SHARQ" Т.: 2010. - 68 б. Турғун Файзиев. Темурийлар шажараси. "Ёзувчи", "Хазина" Т.: 1995. - 17 б.

amirlari o'rtasida hamjihatlik yetishmas edi. Bu illat ayniqsa Movarounnahr yurishida yaqqol namoyon bo'ladi<sup>12</sup>. Amir Temur o'zining Temur Tuzuklarida bu haqda yozgan bo'lib, uning bergan maslahatidan Tug'luq Temurxon ma'mnun bo'lib, unga Shaxrisabz (Kesh) viloyati hokimligini topshirdi<sup>13</sup>. 25 yoshga to'lgan Amir Temur Shaxrisabz (Kesh) viloyati xukmdori bo'lib qoldi. Tug'luq Temur Movarounnahrda Chingiziylar mavqeini tiklagandek bo'lsa ham amalda, mahalliy xukmdorlar mustaqil siyosat yurgazishga intilganlar<sup>14</sup>. Shuning uchun Tug'luq Temur Movarounnahrda ikkinchi marta 1361 yili yurish boshladi. Amir Boyazid jaloyir<sup>15</sup> xonni kutib olishga chiqdi. Amir Xoji Barlos<sup>16</sup> ham birinchi gal unga itoat etmaganiga qaramasdan, tavakalliga xonga peshvoz chiqdi. Xon Amir Boyazidni o'ldirishga farmon berganini eshitgan Xoji barlos Shaxrisabzga qarab jo'nadi. U o'z odamlari bilan mo'g'ul lashkarlaridan qochib, Xurosonga borgan. Bu yerda bir guruh bezorilar tomonidan o'ldirildi<sup>17</sup>. Mahalliy beklar (jumladan, Hamidbek) Tug'luq Temurdan Kesh viloyatini Amir Temurga berishini so'rashgan. Xon bu iltimosga rozi bo'ldi<sup>18</sup>.

O'sha qish Tug'luq Temur Amir Husaynga qarshi urush boshlash harakatiga tushgan. Amir Husayn ham lashkari bilan Vaxsh daryosi bo'ylariga kelib turgan. Xar ikkala tomon bir-biriga qarama-qarshi turganda, Kayxisrav Xatloniy o'z odamlari bilan xon tomonga o'tib ketgan. Buni ko'rgan Amir Husayn chekinishga majbur bo'lgan. Uning ortidan quvgan xon qo'shinlari Jayhun daryosidan o'tib, Qunduzgacha borishgan. Tug'luq Temur butun Movarounnahrni o'ziga bo'ysundirgach, o'g'li Ilyos Xojani bu yerda qoldirib, o'zi saltanatiga qaytib ketadi<sup>19</sup>.

<sup>12</sup> Ўша ерда .18 б.

<sup>13</sup> Низомиддин Шомий. Зафарнома. Т.: "Ўзбекистон", 1996. -30 б. Азамат Зиё. Ўзбек жавдатчилиги тарихи. "ШАРҚ" Т.: 2001. -157 б.

<sup>14</sup> Азамат Зиё. Ўзбек жавдатчилиги тарихи. "ШАРҚ" Т.: 2001. -155 б.

<sup>15</sup> Amir Bоязид Жалойир – Хўжанд вилоятининг амари. 1361 йилда подшоҳ Туғлуқ Темурнинг буйругига кўра қатл этилган. Асарнинг бошқа бир нусхасида келтирилишича, амир Боязид Хуросондан қайтиб келган Хожидан Барлос билан учрашган.

<sup>16</sup> Хожидан Барлос – Мовароуннахрнинг XIV аср иккинчи ярмидаги йирик ва нуфузли беқларидан, Амур Темурнинг амакиси. 1361 йили ўлдирилган.

<sup>17</sup> Қаранг. Мухаммад Хайдар мирзо. Тарихи Рашидий. "SHARQ" Т.: 2010. -70 б. Мирзо Мухаммад Хайдар Аъзий. Тарихи Рашидий. "O'zbekiston" Т.: 2011. -68-69 б.

<sup>18</sup> Мухаммад Хайдар мирзо. Тарихи Рашидий. "SHARQ" Т.: 2010. -70-71 б.

<sup>19</sup> Шарафуддин Али Яздий. Зафарнома. Т.: "ШАРҚ", 1997. -26 б. Мухаммад Хайдар мирзо. Тарихи Рашидий. "SHARQ" Т.: 2010. -71-72 б.; Шарафуддин Али Яздий. Зафарнома. Т.: "ШАРҚ", 1997. -26 б.

Tug'luq Temur yurtiga ketishdan oldin mo'g'ul amirlari ustidan hukmronlikni Bekjakka, mamlakat ishlari bilan shug'ullanishni Amii Temur zimmasiga yuklagan. Lekin Amir Bekjak o'zboshimchalikka berilib, zulm qilishni avjiga chiqargach, Amir Temur mamlakatdan ketishga va amir Xusaynni topishga qaror qiladi<sup>20</sup>.

Amir Temur vatanni tark etib, deyarli to'qqiz yil davomida amir Husayn bilan yonma-yon faoliyat ko'rsatdi. Ularning ikkalasini ham bir maqsad-umumiy dushmanga qarshi kurash birlashtirgandi. 1363-1364 yillari ular Movarounnahrni chingiziyulardan xalos etishga muvaffaq bo'ldilar, Ilyos Xoja Movarounnahrni tashlab qochdi. Xusayn ulug' amirlik maqomiga erishib, chingiziyulardan bo'lgan Qobilshohni rasman xon deb e'lon qilib, butun hokimiyatni qo'liga oladi. Amir Temurga esa yana Kesh viloyati nasib etadi<sup>21</sup>.

1365 yil Ilyosxo'ja puxta tayyorgarlik ko'rib, Samarqand sari yo'lga chiqadi. Temur bu to'g'rida xabar topgach, bundan Husaynni ogoh qilgan. Husayn o'z askarlari bilan yetib kelgach, Temur bilan birgalikda Chinoz bilan Toshkent oralig'ida qarorgoh qurgan. Shu yilning bahorida Ilyosxo'ja va Amir Husayn qo'shinlari thqnashgan. Tarixga "Jangi loy" nomi bilan kirgan ikki o'rtadagi bu to'qnashuv g'oyatda shiddatli bo'ladi. Jang paytida qattiq jala quygan, hamma yoq loy bo'lib, otlar va jangchilar balchiq-loy kechib jang qilishgan. Har ikkala tomondan juda ko'plab odamlar qirilgan<sup>22</sup>.

Temur qo'mondonligidagi o'ng qanot mardonavor jang qilib dushmanni yengib muvaffaqiyat qozonayotgan bir paytda Xusayn boshchiligidagi chap qanot kutilmaganda jang maydonini tashlab, ketishga otlangan. Bunda mo'g'ul qo'mondonlari ishlatgan harbiy hiylasi ham kata rol o'ynagan. Faqat Temurning ehtiyotkorligi va saboti ularni uzil-kesil mag'lubiyatdan saqlab qolgan. Bu jangda Temur va Husayn 3000 dan oshii ishshinini jang maydonida qoldirib chekinishga majbur bo'lgan. "Jangi loy" voqeasidan so'ng Temur bilan Husayn o'rtasidagi nizo kuchayib, bora-bora raqiblikka aylanadi<sup>23</sup>. Amir Husayn shu ketishda Jayhundan kechib o'tib, panoh topish uchun Bag'longa yo'l olgan. Temur ham Shahrisabzga yetib

kelgach, o'z tobelari va yaqinlarini Jayhundan o'tkazib, Balx navohiysida qaror topdi<sup>24</sup>.

Amir Temur Shahrisabzda lashkar to'plashga kirishgan. U Xoja O'g'lonni, Jovarchi va Abbos bahodirni yetti qo'shin bilan hujumchilar sifatida Samarqandga yuboradi. Lekin lashkar o'rtasida birlik yo'qligi kutilgan natijani bermadi. Amir Temur bundan zarur xulosalar chiqarib, yaxshilashga xarakat qilgan. U Amudaryodan o'tib Balxda to'xtab, bu yerda el-ulusni yig'ib, daryo sohilini qo'riqlashni buyurgan. Bu yerda bo'layotgan eng mayda ishlardan ham xabardor bo'lib turishga harakat qilgan. U Xoja O'g'lonni urushda yo'l qo'yan xatolari uchun jazoladi<sup>25</sup>.

Mo'g'ullar Loy jangidagi g'alabadan so'ng mamlakatda talon-tarojlikni avj oldirishib, qotillik va zo'rvonlik bilan mashg'ul bo'lishdi. Ammo mazlumlarning duosi xosiyat ko'rsatishi natijasida otlariga mudhish ofat yetdi. Chunonchi, ba'zi yuz otga ega bo'lganlarning bir oti ham tirik qolmadi. Katta lashkardan o'n ming otliq ajralib, Samarqand tarafga yo'l oldi<sup>26</sup>. Shunday og'ir vaziyatda nafaqat Samarqand, balki umuman Movarounnahr hayotida Sarbadorlar<sup>27</sup> harakati alohida rol o'ynadi. Unda keng xalq ommasi – dehqonlar, hunarmandlar, ziyolilar, mayda yer egalari va qullar qatnashgan.

Hofizi Abru "Zubdat ut-tavorix..." asarida sarbadorlarning Samarqandda hokimiyatni o'z qo'llariga olishining tafsilotlarini yozgan. Jumladan, Amir Husayn va Amir Temur "loy jangi" da mo'g'ullardan yengilib Amudaryoning narigi qirg'og'iga - Balx tomonga o'tib ketgach, vaqtni g'animat bilgan mo'g'ullar Samarqand atrofiga yetib kelganlar. Samarqand aholisi bu ahvoldan tashvishga tushib, shahar jomye masjidiga yig'ilganlar. Shaharni mo'g'ullardan mudofaa qilish tadbirlari xususida turli fikrlar bildirganlar. Lekin jo'yaliroq taklif bo'lmagach, Movlonzoda ismli Buxoro madrasa mullavachasi o'rnidan turib, shaharni himoya qilishni o'z bo'yniga

<sup>20</sup> Шарафуддин Али Яздий. Зафарнома. Т.: "ШАРҚ", 1997.-26 б. Мухаммад Хайдар

<sup>21</sup> Мирзо.Тарихи Рашидий. "SHARQ" Т.:2010. -72 б.; Мирзо Мухаммад Хайдар Аъзний.

<sup>22</sup> Тарихи Рашидий. "O'zbekiston" Т.:2011. -68-69 б.

<sup>23</sup> Азамат Зиё. Ўзбек жавдатчилиги тарихи. "Шарқ" Т.:2001. -156 б.

<sup>24</sup> Муиниддин Натанзий.Мунтахаб ут-таворихи муиний. "O'zbekiston" Т.:2011. -223 б.

<sup>25</sup> Каримов Ш.Шамсутдинов Р. Ватан тарихи. Т.: "Ўқитувчи", 1997.- 362 б.

<sup>26</sup> Шарафуддин Али Яздий. Зафарнома. Т.: "ШАРҚ", 1997.-40 б. Мухаммад Хайдар

<sup>27</sup> Мирзо.Тарихи Рашидий. "SHARQ" Т.:2010. -92-93 б.; Мирзо Мухаммад Хайдар Аъзний.

Тарихи Рашидий. "O'zbekiston" Т.:2011. -90-91 б. Сарбадорлар ҳаракати дастлаб XIV асринг биринчи ярмида Хуросон ва Эронда кенг тарқалган бўлиб, у моҳият эътибори билан мўғуллар ҳукмронлигини ағдариб ташлашга қаратилган эди.

<sup>28</sup> Муиниддин Натанзий.Мунтахаб ут-таворихи муиний. "O'zbekiston" Т.:2011. -223 б.

<sup>29</sup> Сарбадор форсча сўз бўлиб, "бошини дорга тикувчи" деган маънони билдирган.



olib, xalqni oyoqqa turg'izgan. Chunki shu kungacha juzya boj-xiroji olgan xokim uni o'z xoyu havasiga sarf qilib, kuchli dushman paydo bo'lgach xalqni o'z xoliga tashlab qochgan. Movlonzoda shahar mudofasiga tayyorlanib, shahar darvozalarini berkittirgan. Ko'chalar va bog'lar atrofiga g'ovlar qurdirdi. Faqat bir ko'chani ochiq qoldirib, shu joyda Movlonzodaning o'zi besh yuz kishisi bilan pistirmada turgan. Dushmanning qorovul qismlari hech kim qarshilik ko'rsatmaydi degan o'yda, shaharga beparvo kirib kelganda, Movlonzodaning ishorasi bilan nog'oralar chalinib, dushmanga har tomondan o'q-yoylar, toshlar yog'dirilgan, dushman tayoq bilan savalangan. Natijada mo'g'ullarning ming askari majruh bo'lib, yuz-tasi esa qo'lga olingan. Ertasi kuni ham mo'g'ullar butun kuchlarini ishga solib, turli harbiy hiylalar qo'llasa hamki shaharni egallay olmadilar va Samarqandni bosib ololmasliklarini tushundilar. Keyingi kun Samarqand atrofidagi yerlarni taladilar. Bir necha kun o'tgach, ularning otlari vabo kasaliga chalinib, ko'pi o'ldi. Askarlarning aksari piyoda qoldi va o'z viloyatlariga qaytishga qaror qildilar<sup>28</sup>.

Sarbadorlar g'alabasi haqidagi xabar avval Amir Temurga va u orqali amir Xusaynga yetib borgan. 1366 yil bahorida amir Xusayn va Amir Temur Samarqandga yo'l olishgan. Samarqand yaqinidagi Konigilda o'tkazilgan g'alaba marosimida amir Husayn buyrug'i bilan sarbadorlarning yo'l boshchilari va aftidan, faol ishtirokchilari qatl qilingan. Amir Temurning aralashuvi tufayligina Movlonzodaning hayoti saqlanib qolinadi<sup>29</sup>. Amir Husayn sarbadorlarga siyosiy raqib sifatida qaragan. Manbalarning guvohlik berishicha, sarbadorlarning g'alabasidan keyin samarqandliklar Movlonzoda itoatiga o'tib, uni imom va amir (sifatida) qabul qilganlar. Movlonzoda qo'lida mujassamlashgan ham diniy, ham siyosiy hokimiyat bir yil davom etgan<sup>29</sup>.

Sarbadorlar harakati bostirilgach, Samarqandda amir Husayn xukmronligi tiklangan. Amir Temur bilan amir Xusayn birgalikda harakat qilsalarda, ular o'rtasidagi munosabatlar borgan sayin keskinlashib borgan. Amir Husayn turli bahonalar topib, amir

Temurning barcha yaqinlari mol-mulkini musodara qilib, soliqchilar qo'lga topshirgan. Hatto amir Temurning nikohida bo'lgan amir Xusaynning singlisi O'ljoy Turkon – og'oning qimmatbaho uzuk, sirg'a va boshqa taqinchoqlari ham olib qo'yilgan. Amir Xusayn garchi bularni bilsada qaytarib bermagan. To'lanmay qolgan bir qism mablag' uchun naqd pul yoki biror buyum topolmagach, Amir Temur uch ming dinor evaziga o'z yilqilarini devonga eltgan. Amir Husayn qabul qilmasdan, pul talab qilgan<sup>30</sup>.

Amir Xusayn va amir Temur o'rtasida ziddiyatlarning kuchayishi, ularning, boshqa amirlar tomonidan murosaga keltirib turilishi 1360-yillarning oxirida amir Xusaynning ochiqdan-ochiq amir Temurga qarshi kurashga tayyorlanishi bilan yakunlandi. U Balxga ko'chib shaharning mudofaa istehkomlarini mustahkamlashga kirishdi<sup>31</sup>.

## § 1.2. Amir Temur davlatining tashkil topishi, uning harbiy, siyosiy faoliyati

1370-yil 9-aprel chorshanba kuni nufuzli amirlardan Shayx Muhammad Sulduz, Kayxisrav Xuttaloni, O'ljoytu apardi, Dovud dug'lot, Sarbug'o jaloyir, Joku barlos, Muayyad Arlot, Badaxshon hokimi Shayx Muhammad, Husayn bahodir hamda boshqa amirlar va sardorlar sayyid Baraka, termizlik aka-uka sayyidlar Abul Maoliy va Ali Akbar kabilar huzurida Amir Temur hokimiyati bir ovozdan tan olinib, Movarounnahr hukmdori etib saylandi. Bu vaqtda u o'ttiz to'rt yoshda edi<sup>32</sup>. Shu tariqa siyosiy qaramlik, iqtisodiy va madaniy taraqqiyotdagi boshboshdoqlik davriga rasman chek qo'yildi.

Movarounnahrda Amir Temur hukmronligining o'rnatilishi, unga bu yerda ulkan saltanat barpo etish imkonini berdi. U o'z hokimiyatini mustahkamlashda qator tadbirlarni amalga oshirganki, bu uning davlatchilik mohiyatini anglashdagi salohiyatini nechog'lik teran bo'lganligidan dalolat beradi. Jumladan, Amir Temur Balxni egallagandan keyin, Samarqand sari yo'l olgan. Har yerdan kelgan amirlarga, o'z yurtlariga qaytishga ruxsat beradi. O'zi Shahrizabzda bir

<sup>28</sup> Низомиддин Шомий. Зафарнома. Т.: "Ўзбекистон", 1996. - 413-414 б.

<sup>29</sup> Ўша ерда. - 415 б.; Шарафуддин Али Яздий. Зафарнома. Т.: "ШАРҚ", 1997. - 41 б. Муиниддин Натанзий. Мунтахаб ут-тавориҳи муиний. "O'zbekiston" Т.:2011. -73, 224-225 б.

<sup>30</sup> Азамат Зиё. Ўзбек жавдатчилиги тарихи. "Шарқ" Т.:2001. -157 б.

<sup>30</sup> Шарафуддин Али Яздий. Зафарнома. Т.: "ШАРҚ", 1997.-41 б.Муиниддин Натанзий.Мунтахаб ут-тавориҳи муиний. "O'zbekiston" Т.:2011. -73 б.

<sup>31</sup> Каримов Ш.Шамсутдинов Р. Ватан тарихи. Т.: "Ўқитувчи", 1997.- 366 б.

<sup>32</sup> Шарафуддин Али Яздий. Зафарнома. Т.: "ШАРҚ", 1997.- 67-68 б.

olib, xalqni oyoqqa turg'izgan. Chunki shu kungacha juzya boj-xiroji olgan xokim uni o'z xoyu havasiga sarf qilib, kuchli dushman paydo bo'lgach xalqni o'z xoliga tashlab qochgan. Movlonzoda shahar mudofasiga tayyorlanib, shahar darvozalarini berkittirgan. Ko'chalar va bog'lar atrofiga g'ovlar qurdirdi. Faqat bir ko'chani ochiq qoldirib, shu joyda Movlonzodaning o'zi besh yuz kishisi bilan pistirmada turgan. Dushmanning qorovul qismlari hech kim qarshilik ko'rsatmaydi degan o'йда, shaharga beparvo kirib kelganda, Movlonzodaning ishorasi bilan nog'oralar chalinib, dushmanga har tomondan o'q-yoqlar, toshlar yog'dirilgan, dushman tayoq bilan savalangan. Natijada mo'g'ullarning ming askari majruh bo'lib, yuz-tasi esa qo'lga olingan. Ertasi kuni ham mo'g'ullar butun kuchlarini ishga solib, turli harbiy hiylalar qo'llasa hamki shaharni egallay olmadilar va Samarqandni bosib ololmasliklarini tushundilar. Keyingi kun Samarqand atrofidagi yerlarni taladilar. Bir necha kun o'tgach, ularning otlari vabo kasaliga chalinib, ko'pi o'ldi. Askarlarning aksari piyoda qoldi va o'z viloyatlariga qaytishga qaror qildilar<sup>28</sup>.

Sarbadorlar g'alabasi haqidagi xabar avval Amir Temurga va u orqali Amir Xusaynga yetib borgan. 1366 yil bahorida Amir Xusayn va Amir Temur Samarqandga yo'l olishgan. Samarqand yaqinidagi Konigilda o'tkazilgan g'alaba marosimida Amir Husayn buyrug'i bilan sarbadorlarning yo'l boshchilari va affidan, faol ishtirokchilari qatl qilingan. Amir Temurning aralashuvi Movlonzodaning hayoti saqlanib qolinadi<sup>29</sup>. Amir Husayn sarbadorlarga siyosiy raqib sifatida qaragan. Manbalarning guvohlik berishicha, sarbadorlarning g'alabasidan keyin samarqandliklar Movlonzoda itoatiga o'tib, uni imom va amir (sifatida) qabul qilganlar. Movlonzoda qo'lida mujassamlashgan ham diniy, ham siyosiy hokimiyat bir yil davom etgan<sup>29</sup>.

Sarbadorlar harakati bostirilgach, Samarqandda Amir Husayn xukmronligi tiklangan. Amir Temur bilan Amir Xusayn birgalikda harakat qilsalarda, ular o'rtasidagi munosabatlar borgan sayin keskinlashib borgan. Amir Husayn turli bahonalar topib, Amir

Temurning barcha yaqinlari mol-mulkini musodara qilib, soliqchilar qo'lga topshirgan. Hatto Amir Temurning nikohida bo'lgan Amir Xusaynning singlisi O'ljoy Turkon – og'oning qimmatbaho uzuk, sirg'a va boshqa taqinchoqlari ham olib qo'yilgan. Amir Xusayn garchi ularni bilsada qaytarib bermagan. To'lanmay qolgan bir qism mablag' uchun naqd pul yoki biror buyum topolmagach, Amir Temur uch ming dinor evaziga o'z yilqilarini devonga eltgan. Amir Husayn qabul qilmasdan, pul talab qilgan<sup>30</sup>.

Amir Xusayn va Amir Temur o'rtasida ziddiyatlarning kuchayishi, ularning, boshqa amirlar tomonidan murosaga keltirib turilishi 1360-yillarning oxirida Amir Xusaynning ochiqdan-ochiq Amir Temurga qarshi kurashga tayyorlanishi bilan yakunlandi. U Balxga ko'chib shaharning mudofaa istehkomlarini mustahkamlashga kirishdi<sup>31</sup>.

## § 1.2. Amir Temur davlatining tashkil topishi, uning harbiy, siyosiy faoliyati

1370-yil 9-aprel chorshanba kuni nufuzli amirlardan Shayx Muhammad Sulduz, Kayxisrav Xuttaloni, O'ljoytu apardi, Dovud dug'lot, Sarbug'o jaloyir, Joku barlos, Muayyad Arlot, Badaxshon hokimi Shayx Muhammad, Husayn bahodir hamda boshqa amirlar va sardorlar sayyid Baraka, termizlik aka-uka sayyidlar Abul Maoliy va Ali Akbar kabilar huzurida Amir Temur hokimiyati bir ovozdan tan olinib, Movarounnahr hukmdori etib saylandi. Bu vaqtda u o'ttiz to'rt yoshda edi<sup>32</sup>. Shu tariqa siyosiy qaramlik, iqtisodiy va madaniy taraqqiyotdagi boshboshdoqlik davriga rasman chek qo'yildi.

Movarounnahrda Amir Temur hukmronligining o'rnatilishi, unga bu yerda ulkan saltanat barpo etish imkonini berdi. U o'z hokimiyatini mustahkamlashda qator tadbirlarni amalga oshirganki, bu uning davlatchilik mohiyatini anglashdagi salohiyatini nechog'lik teran bo'lganligidan dalolat beradi. Jumladan, Amir Temur Balxni egallagandan keyin, Samarqand sari yo'l olgan. Har yerdan kelgan amirlarga, o'z yurtlariga qaytishga ruxsat beradi. O'zi Shahrisabzda bir

<sup>28</sup> Нязомиддин Шомий. Зафарнома. Т.: "Ўзбекистон", 1996. - 413-414 б.

<sup>29</sup> Уша ерда. - 415 б.; Шарафуддин Али Яздий. Зафарнома. Т.: "ШАРҚ", 1997. - 41 б. Муиниддин Натанзий. Мунтахаб ут-тавориhi муиний. "O'zbekiston" Т.:2011. -73, 224-225 б.

<sup>29</sup> Азамат Зиё. Ўзбек жавдатчилиги тарихи. "Шарқ" Т.:2001. -157 б.

<sup>30</sup> Шарафуддин Али Яздий. Зафарнома. Т.: "ШАРҚ", 1997.-41 б. Муиниддин Натанзий. Мунтахаб ут-тавориhi муиний. "O'zbekiston" Т.:2011. -73 б.

<sup>31</sup> Каримов Ш. Шамсутдинов Р. Ватан тарихи. Т.: "Ўқитувчи", 1997.- 366 б.

<sup>32</sup> Шарафуддин Али Яздий. Зафарнома. Т.: "ШАРҚ", 1997.- 67-68 б.

necha kun turgach, Samarqand sari yuradi. Amir Temur bu shaharni o'zining markazi qilib belgilaydi. Venger sharqshunosi Herman Vamberining so'zlari bilan aytganda,- "Jayxunning bu tomonida hokimiyatni tiklagandan keyin Samarqandni poytaxt qilish uchun daryoning u sohiliga kechdi. Samarqand shahri shu kundan boshlab Temurning vafotigacha uning safar mashaqqatlaridan keyin istirohat qiladigan joyi bo'lib qoldi"<sup>33</sup>. Amir Temur shahar devorlarini qurdirib, uylar va binolar barpo etadi. Shaharning tevarak atrofida ham binolar bunyod ettirib, ko'rkam bog'larni ko'paytirib, shaharni ko'kalamzor maskanga aylantiradi. Barcha yomon yo'llarni to'g'rilatib, xalq yuradigan yo'llardagi xarobazorlarni tuzatib obod qildiradi. Rabotlar va xonaqohlar qurdirib, faqiru, miskinlar uchun xayriya tarzida ularning eshiklarini ochib qo'yadi. Sayidlarga nisbatan izzatu-ikrom ko'rsatadi<sup>34</sup>. Imomlar, islom ulamolari, qozilar va ulug' shayxlarga bo'lgan hurmat-e'tiborini shu darajaga yetkazdiki, ilmu-fan behad ravnaq topib, talabalarning nafaqasi lozim bo'lgan miqdordan ham ko'proq qilib belgilanadi. Buning natijasida bir necha ming nafar turli ilmlarni egallagan sohibkamol iste'dod egalari uning saxovatidan bahramand bo'ldilar. Xar bir olim va fozil kishilar izzatga, martaba va shuhratga sazovor bo'ldilar<sup>35</sup>.

Sohibqiron hokimiyatga kelgan dastlabki davrlarida mo'g'ul bosqinchilari qoldirgan asoratlarini bartaraf etish, saltanatni butun choralar bilan mustahkamlash, hususan butun Turonzamin yaxlitligi va osoyishtaligini ta'minlash choralarini ko'rdi. Amudaryo, Sirdaryo atrofi hududlarining bir qismini, shuningdek, Farg'ona va Shosh viloyatlarini o'z davlatiga qo'shib oldi. Mamlakatning istiqboliga katta viloyatlarini o'z davlatiga qo'shib oldi. Mamlakatning istiqboliga katta umid va ishonch bilan qaragan Temur ruhiyatini nafaqat o'zining tug'ma bahodirligi va jasorati bilan, balki ayni zamonda Allohga va Quronga bo'lgan ishonchu e'tiqodi bilan ham mustahkamlangan edi<sup>36</sup>.

Amir Temur Movarounnahrni mo'g'ul istilochilaridan tozalab, markazlashgan ulug' davlatni barpo etdi. Tarix uning zimmasiga Oltin o'rdadek qudratli mo'g'ul imperiyasining asosin yemirishdek ulkan vazifani qo'ygan edi. Amir Temur bu vazifani ham buyuk jasorat bilan

<sup>33</sup> Херман Вамбери. Бухоро ёхуд Мовароуннахр тарихи. Т.: 1990. - 35 б.

<sup>34</sup> Ибн Арабшоҳ. Ажойиб ал-мақдур фи тарихи таймур. (Темур тарихида тақдир ажойиботлари). II китоб Т.: "Меҳнат", 1992. - 69 б.

<sup>35</sup> Муиниддин Натанзий. Мунтахаб ут-тавориҳи муиний. "O'zbekiston" Т.: 2011. - 110-111 б.

<sup>36</sup> Каримов Ш. Шамсутдинов Р. Ватан тарихи. Т.: "Ўқитувчи", 1997. - 368 б.

ado etib, Rus knyazliklari va sharqiy Yevropa xalqlarini qariyb 170 yillik mo'g'ul asoratidan xalos bo'lishlariga yo'l ochib berdi. Nihoyat, 1402 yilda turk sultoni Boyazid ustidan g'alaba qozonib, butun Yevroppa mamlakatlarini dahshatli tahlikadan xalos qildi. Bularning barchasi tarixiy haqiqat<sup>37</sup>.

Amir Temur asosiy karvon yo'llari ustidan nazorat o'rnatish<sup>38</sup>, ulus qudratini yanada oshirish, xalq turmush tarzini yaxshilash singari ustuvor maqsadlar yo'lida o'sha davrda tengi yo'q bo'lgan harbiy kuchlar bilan Jeta, Eron, Afg'oniston, Kavkaz Iroq, Shom, Misr, Dashti Qipchoq, Shimoliy Anado'li, Hindiston kabi mintaqalarga bir necha bor qo'shin tortib bordi, olamshumul zafarlar quchdi<sup>39</sup>.

Buyuk lashkarboshi novator harbiy tashkilotchi sifatida Temurbek o'ta intizomli armiya tuzishga, muhoraba chog'ida qo'shin qismlarini san'atkorona boshqarishga, jang taqdiri xal bo'ladigan joylarga harbiy kuchlarni o'z vaqtida ustalik bilan yo'llashga, har qanday to'siq va g'ovlarni tadbirkorlik bilan bosib o'tishga, armiyadagi jangovar guruhni kerakli darajada ushlab turishga muyassar bo'ldi<sup>40</sup>.

Sohibqiron turk-mo'g'ul xalqlari, xususan «Yasoq qonunlari» asosida Chingizxon lashkari tuzilishini, ularning jang olib borish amollarini atroflicha o'rganib, tahlil qiladi va zarur o'zgartirishlar kiritgan.

Temur barpo etgan armiyani tuzilishi Chingizxon tuzgan qo'shin tizimi va tuzilishiga ma'lum darajada yaqin bo'lsa-da, biroq quyidagi muhim jihatlari bilan farqlanar edi<sup>41</sup>:

1. Chingiziylar qo'shini yalpi majburiyat asosida harbiy xizmatga chiqariladigan xalq lashkaridan iborat bo'lgan holda, Temurbek armiyasi umumxalq xarakteriga ega emas edi.

2. Chingizxon davrida qo'shin asosini qo'chmanchi omma tashkil qilgan edi. Temurbek qo'shiniga oliy bosh qo'mondon ko'rsatgan aniq talabga binoan chorvadorlar qatori kosibchilik, hunarmandchilik, dehqonchilik bilan mashg'ul o'troq aholidan ham sezilarli miqdorda askar olingan.

<sup>37</sup> Т.Файзиев. Темурийлар шажараси. Т.: "Ёзувчи", "Хазина" 1995. - 376.

<sup>38</sup> Низомиддин Шомий. Зафарнома. Т.: "Ўзбекистон", 1996. - 319 б.

<sup>39</sup> Дадабоев Х. Амир Темурнинг ҳарбий маҳорати. Т.: "Ёзувчи", 1996. - 7 б.

<sup>40</sup> Ўша ерда. - 8 б.

<sup>41</sup> Х. Дадабоев Амир Темурнинг ҳарбий маҳорати. Т.: "Ёзувчи", 1996. - 7 б.



3. Temurbek qo'shinida harbiy kuchlarning asosini tashkil qiluvchi otliq askarlar bilan bir qatorda piyodalardan tuzilgan qismlar ham anchagina bo'lgan. Ma'lumki, Chingizxon qo'shini, zabt etilgan mamlakatlar aholisidan majburiy tartibda tuzilgan hasharni hisobga olmagan, piyoda askarlarga ega bo'lmagan.

4. Temurbek Sharqda birinchilardan bo'lib, o'z armiyasiga o't sochar qurol, ya'ni to'p-ra'dni olib kirdi.

5. Sohibqiron tog'li hududlarda jang harakatlari olib boruvchi piyodalardan tuzilgan maxsus harbiy qismlarni tashkil qildi<sup>42</sup>.

6. Temurbek jahon g'arb san'ati tarixida birinchi bo'lib qo'shinni jang maydonida yetti qo'lga bo'lib joylashtirish tartibini joriy etdi.

7. Temurbek armiyasida ayollardan tuzilgan bo'linmalar bo'lib, ular jang chog'i erkaklar bilan bir safda turgan, qahramonlik va matonat namunalari ko'rsatgan<sup>43</sup>.

Temurbek qo'shini tarkibini Movarounnahr, Dashti Qipchoq, Eron, Badaxshon, Mo'g'uliston, Xorazm, Mozadaron, Jeta singari yerlardan yig'ilgan askarlar tashkil qilgan.

Unda muntazam qo'shinga xos bo'lgan ko'pgina belgilar mavjud edi: qo'shin son jihatdan aniq va puxta tashkil qilingan, uning jangovar tartibi - yasol jangdan-jangga takomillashtirilib borilgan, armiya o'z zamonasining ilg'or qurol va texnikasi bilan qurollangan, aynan bir turdagi qurol-yarog', aslaha-anjom bilan ta'minlangan<sup>44</sup>, qismlar bir-biridan kiyim boshi, tutgan bayroq yoki tug'i orqali farqlangan<sup>45</sup>. Jumladan, har bir harbiy qismning kiyimi turlicha, masalan, qizil yoki ko'k yoki jigarrang va hokozo ranglarda bo'lib, ayrim qismlarning kiyimi qaysi rangda bo'lsa, barcha qurollari - tirkash, kamar, nayza, o'q uzuvchi qurollar - sar va hokazolarning qinlari ham o'sha rangda bo'lgan<sup>46</sup>. Bu haqda Ibn Arabshoh ham quyidagilarni bayon qiladi: "Temurning ishlari nihoyasiga yetgach, u o'z qo'shiniga Samarqandga jam bo'lishini buyurdi. Keyin ular uchun o'zi o'ylab topib ixtiro qilgan tarkib va tazribda (maxsus) qalpoqlar tayyorlashlarini hamda jangchilar ularni kiyib, (yurishga) o'tlanishlarini amr qildi. Bu

<sup>42</sup> X. Дадабоев Амир Темурнинг харбий маҳорати. Т.: "Ёзувчи", 1996. - 8 б.

<sup>43</sup> Ибн Арабшоҳ. Ажойиб ал-мақдур фи тарихи таймур. (Темур тарихида тақдир ажойиботлари). II китоб Т.: "Мехнат", 1992. - 99-100 б.

<sup>44</sup> Темур Тузуқлари. Т.: "Ғофур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат", 1996. - 104-105 б.

<sup>45</sup> X. Дадабоев. Амир Темурнинг харбий маҳорати. Т.: "Ёзувчи", 1996. - 9 б.

<sup>46</sup> Мўминов И. Амир Темурнинг Ўрта Осиё тарихида тутган ўрни ва роли. Т.: "Фан", 1993. - 40 б.

qalpoqlar ular uchun (shartli bir) belgi edi". Bunday ajralib turish jang paytida qo'shinni boshqarishda juda qo'l kelgan<sup>47</sup>. Taktika jihatdan Temurbek armiyasi o'ziga xos xususiyatlarga ega edi. Qo'shinning yasoli Qoraxoniylar, G'aznaviylar, Saljuqiylar, Chingiziylar qo'shini jangovar tarqibidan farqli o'laroq, yetti qism - qo'lga ajratilgan, razvetka a'lo darajada yo'lga qo'yilgan, qismlarning jang maydonida hamda yurish vaqtida talab<sup>48</sup> darajasida harakat qilish uchun zarur tadbir va rejalar ishlab chiqilgan<sup>49</sup>, ularni jang paytida operativ boshqarishga alohida qatta e'tibor qaratilgan. Temurbek o'nlik, yuzlik, minglik<sup>50</sup> hamda tuman qo'mondonlarini tanlash masalasiga bevosita rahbarlik qilgan. Lashkarboshilik salohiyatiga ega bo'lgan qo'mondonlarning to'g'ri tanlanganligi va o'z joyiga qo'yilganligi aksar hollarda jang natijasining muvaffaqiyatli yakunlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan<sup>51</sup>. Bu haqda u o'zining "tuzuklari"da jang jarayonlarini quyidagicha bayon qilgan: urush olib borilgan vaqtlarda shoshmasdan, bir zaylda shiddat bilan jangga kirishni kuzatish, g'anim tomonni jang qilish tartibini chamalab ko'rish, ularni bor askarlari bilan bir yo'la ot qo'yib, shiddatkorona hujum qiladimi yoki favj-favj bo'lib, ketma-ket hamla qiladimi, yoki g'anim hamla vaqtida, jang qilib orqaga qaytib, keyin yana hamlaga kirishadimi yoki birinchi hamlasi bilan chegaralanib, oxirigacha savashadimi? G'anim agar orqasiga qaytmay savash qursa, sipoh uning hamlasidan yetgan zarbaga sabr - toqat qilib, oxirigacha turib berishi, undagi shijoat bir soatlik sabr bo'lishi kerakligi aytilgan<sup>52</sup>. Har bir o'nlikdan saralangan jangchilar orasidan mulohazakor va mard jangchi tanlab olinib, qolgan 9 jangchining roziligidan so'ng o'ngboshi etib saylanardi. O'ngboshilardan esa faoliyat va qobiliyatiga qarab yuzboshi saylangan. 10 ta yuzboshidan esa harbiy ishlarda mohir va tajribaga ega amirlar farzandi yoki aslzodalar avlodidan bo'lgan jasur kishilardan mingboshi tayinlangan. Har bir boshliq kerak bo'lib, o'rnini bosishi mumkin bo'lgan yordamchiga ega bo'lgan<sup>53</sup>.

<sup>47</sup> Дадабоев X. Амир Темурнинг харбий маҳорати. Т.: "Ёзувчи", 1996. - 9 б.

<sup>48</sup> Ўша ерда.

<sup>49</sup> Темур Тузуқлари. Т. "Ғофур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат", 1996. - 125-134 б.

<sup>50</sup> Темур Тузуқлари. Т. "Ғофур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат", 1996. - 88 б.

<sup>51</sup> Дадабоев X. Амир Темурнинг харбий маҳорати. Т.: "Ёзувчи", 1996. - 10 б.

<sup>52</sup> Темур тузуқлари. Тошкент. О zbekiston. 2018. - 149 б.

<sup>53</sup> М.Иванин. Икки буюк саркарда: Чингизхон ва Амир Темур. Т.: «Янги аср авлоди». 2017. - 183б.



Yurishga chiqqan har bir oddiy jangchi kamon, o'q solingan sadoq, shamshir yoki uzun qilich, arra, bigiz, igna, arqon, bolta, o'q, bilan qurollanishgan. Ularning har biriga 2 ot, har 5 kishiga bir chodir ajratilgan edi. Bundan tashqari, gurzi, oybolta (tabar), qilich bilan qurollangan jangchilarning maxsus otryadlari bo'lgan. Har bir o'ng boshining o'z chodiri va 5 oti bo'lishi lozim edi, u sovut, shamshir, kamon, o'q, cho'qmor, gurzi, sovut bilan safarga chiqishi shart edi. Mingboshilar qurol-yarog' zaxirasiga ega bo'lishgan. Piyoda jangchida shamshir, kamon, jang oldidan maxsus buyruq bilan tasdiqlangan miqdorda kamon o'qlari bo'lishi majburiy bo'lgan<sup>54</sup>.

Amir Temur qo'shinida harbiy ishni bilimdonlari ko'pchilikni tashkil qilgan bo'lib, uning hurmatiga sazovor bo'lgan Abbos Bahodur, Jokubek Barlos, Jahonshoh, shayx Sayfuddin, Iygu, Temurbilgut, Oqbug'o, Tobon bahodur, Amir shayx Nuriddin, Amir shohmalik, Uchqora bahodurlar bo'lgan. Amir Temur uchun ikkinchi darajali omillar bo'lmagan. Manyovrlarni, qo'shin ko'rigini ham o'zi o'tkazgan<sup>55</sup>.

Amir Temur o'zi bevosita maydonga tushmasa-da, uning bayrog'i janglarda ko'zga tashlanib turgan. O'sha paytlarda bayroqning ahamiyati dushman qo'mondonining asirga olinishi yoki o'ldirilishining ahamiyatidan kam bo'lmagan. Chunki bayroqning qulashi butun qo'shinni talvasaga solib uni mag'lubiyatga olib kelgan. Jang maydonlari oldindan dushmanning barcha imkoniyatlarini hisobga olib ulgurgan yo'l boshlovchilar tomonidan belgilangan. Yo'l boshlovchilar jang maydoni va suv miqdorini bilishi, jangning qaysi paytida quyosh qay tomondan tushushigacha aniq bilishi, hisobga olgan bo'lishi shart hisoblangan<sup>56</sup>.

Amir Temur davrida devorteshar (manjaniq), toshotar (arroda), to'plar (ra'd), himoya qalqonlari (turd), shotular, kamandlar, arqonlardan foydalanganlar. Devor va burjlar tagidan lahm qazilgan, qa'la devorlarida rahna ochilgan<sup>57</sup>.

Amir Temurning askarlarining orasida butparas turklar, olovga sajda qiluvchi majusiy ajamlar, koinlaru sehergarlar, zolimlaru

<sup>54</sup> Ж. Х. Исмоилова, Л.Г. Левтеева. Ўзбекистон харбий санъати тарихи. Ўзбекистон НМИУ. 2013. 116-117 б.

<sup>55</sup> Ўша ерда. -119 б.

<sup>56</sup> В. Череванский. Амир Темур. Т.: "Езувчи", 1993. -86-87б.

<sup>57</sup> Ж. Х. Исмоилова, Л.Г. Левтеева. Ўзбекистон харбий санъати тарихи. Ўзбекистон НМИУ. 2013. 116-124 б.

munkirlar bor edi. U shunday bag'ri keng bo'lgani va shuning uchun unga musulmonlardan tashqari, nasroniylar, zardo'shtiylar, buddaviy va boshqa dinlarga mansub kishilar sadoqat bilan xizmat qilishgan<sup>58</sup>.

Amir Temur harbiy harakatlar olib borishning yangi tizimiga asos soldi. Unga ko'ra, strategik maqsadlar, shiddatli hujum, hal qiluvchi yo'nalishlarda kuchlarni bir yerga to'plash, dadil manyovr va tashabbuskor harakatlar, hal qiluvchi jangda dushmanni tor-mor keltirish orqali amalga oshirilgan. Otliq qo'shin hujumini tashkil etish strategiyasi va taktikasi Amir Temur armiyasida o'zining to'liq yakunini topdi<sup>59</sup>. Jumladan, "Temur tuzuklarida" yoritilishicha: Amir Temur dushman lashkari 12 ming otliqdan kam bo'lsa, o'zi ham dushmanga qarshi 12 ming otliqni tayyorlab borgan. U otliq askarlarni 9 qismga bo'lgan. Qo'lda bir favj, barong'orda 3 favj, javong'orda 3 favj, hirovulda 1 favj va qorovulda 1 favj turgan. Yana urush maydonini tanlashga ham e'tibor berilgan: yerning suvga uzoq yaqinligi, askar saqlashda uning xavfsizligi, dushman turgan joy teparoqda joylashganligi va oftobga ro'baro' bo'lib, askarlarning ko'zini qamashtirmasligi, urush maydoni oldi ochiq, keng joy bo'lishini e'tiborga olish kerak bo'lgan<sup>60</sup>.

Agar g'anim qo'shinlari 12 mingdan ortiq, lekin 40 mingdan kam bo'lsa, Amir Temur unga kamida 40 ming askarni jo'natib, unga farzandlaridan birini qo'mondon qilib tayinlagan, ularga yordam uchun ikki tajribali amir va boshqa lashkarboshilarni bergan. Agar g'anim armiyasi 40 mingdan oshiq bo'lsa, unga qarshi Amir Temurning o'zi chiqqan<sup>61</sup>. U dushmanni chekinishi mumkin bo'lgan yo'llarni bexato topgan. U chekinayotgan dushmanni ta'qib qilib, yakson qila oladigan harakatchan otryadlarni tayyor holda tutib turgan<sup>62</sup>. Bu davrda Movarounnahr xavfsizligi va yaxlitligini Xorazmsiz tasavvur qilib bo'lmadi. Chunki bu hudud fuqarolari iqtisodiy, siyosiy va madaniy sohalarda azaldan mushtarak bir xalq

<sup>58</sup> Х. Содиков. Амир Темур салтанатида хавсизлик хизмати. Т.: "Art Flex". -86.

<sup>59</sup> Ж. Х. Исмоилова, Л.Г. Левтеева. Ўзбекистон харбий санъати тарихи. Ўзбекистон НМИУ. 2013. -121б.

<sup>60</sup> Темур тузуклари. Тошкент. О zbekiston .2018.-146-147 б.

<sup>61</sup> Ж. Х. Исмоилова, Л.Г. Левтеева. Ўзбекистон харбий санъати тарихи. Ўзбекистон НМИУ. 2013. -122 б.

<sup>62</sup> Ўша ерда. -124 б.

edi<sup>63</sup>. 1372 yildan 1388 yilga qadar Xorazmni to'la bo'ysundirish uchun 5 marta yurish qildi. Gap shundaki, mo'g'ullar davrida Xorazm ikkiga bo'lingandi. Shimoliy Xorazm poytaxti Urganj bilan Oltin O'rdada mulkiga qarar edi, Markazi Qiyot (hozirgi Beruniy) bo'lgan Janubiy Xorazm esa Chig'atoy ulusi tarkibida bo'lgan. 1359 yilda Oltin O'rdada Berdibekxon vafotidan keyin boshlanib ketgan g'alayonlardan foydalangan qo'ng'iroq urug'iga mansub so'fiylar sulolasi mustaqil davlat tuzish maqsadida Oltin O'rdadan ajralib chiqadi. Bu sulola vakillaridan bo'lgan Xusayn So'fi birlashgan Xorazm davlati tuzish orzusida Chig'atoy ulusiga qarashli bo'lgan Janubiy Xorazmni, Qiyot va Xiva shaharlarini bosib oladi. Amir Temur Husayn So'fining bu harakatidan norozi bo'lgan. Chunki Chig'atoy ulusiga tegishli bo'lgan Janubiy Xorazm hududlarini qo'ldan chiqarilishi mamlakat birligiga va yosh hukmdor sha'niga putur yetkazishi mumkin edi. Movarounnahrning yaxlitligini saqlab qolish Temur davlatining qudratini mustahkamlar edi.

1372 yili Amir Temur Xorazmga elchi yuborib, Husayn So'fidan 5 yil burun bosib olgan Qiyot va Xivani qaytarib berishini talab qilgan. Lekin Husayn So'fi bu viloyatlarni qilich bilan qo'lga kiritganligini ta'kidlab, Temurga uni faqat qilich bilangina olishi mumkinligini aytgan<sup>64</sup>. Uning bunchalik katta ketishiga Amir Temur mavqeining oshib borayotganligini ko'ra olmagan Xatlon hokimi Kayxusravning Husaynni Amir Temurga qarshi gij-gijlashi va yordam berishga va'da qilganligi ham sabab bo'lgan. Temur o'rtada urush chiqarmaslik maqsadida ikkinchi marta mavlono Jaloliddin Kashini yuborgan. Xusayn So'fi elchini asir olib qamab qo'yadi<sup>65</sup>. 1372 yilning bahorida Amir Temur Xorazmga yurish qilgan. Jangda Husayn So'fi yengilgan. Kotni tashlab chiqib, Urganjga chekingan. Biroq oradan ko'p vaqt o'tmasdan vafot etgan. Hokimiyatni uning ukasi Yusuf So'fi egallagan. U Amir Temurning urush xarajatlari uchun ketgan tovonni to'lash va Husayn So'fining qizi (O'zbekxonning nabirasi Xonzoda)ni o'g'li Jahongirga berish talabini bajarishga rozi bo'lgan. Lekin Yusuf So'fi ikki o'rtada tuzilgan yarash shartlarini buzib Kot shahrini qaytadan bosib oladi. Natijada 1373 yilda Amir Temur ikkinchi marta

<sup>63</sup> Аҳмедов Н. Амр Темур ривоят ва ҳақиқат. Т.: "Қомуслар Бош тахририяти", 1996. - 40-41 б.

<sup>64</sup> Низомиддин Шомий. Зафарнома. Т.: "Ўзбекистон", 1996. - 91 б.

<sup>65</sup> Ўша ерда.

Xorazmga yurish qiladi. Lekin ikki o'rtada urush bo'lmaydi. Chunki Yusuf So'fi Temurga tavba qilib, shartnomani so'zsiz bajarishga va'da beradi. So'zining isboti sifatida Xonzodaning sepi bilan 1374-1375 yillarda Amir Temurning o'g'liga uzatadi<sup>66</sup>. Shu tariqa Janubiy Xorazm Amir Temur davlati tarkibiga qo'shib olingan. Lekin shundan keyin ham Sohibqiron Xorazm ustiga yana uch marta qo'shin tortib borgan. Bunga sabab, Amir Temur O'trordan Xorazmga yuborgan elchi va choparni Yusuf So'fining buyrug'i bilan hibisga olib qamadilar. To'ybug'a boshliq Xorazm askarlari Buxoro atrofini talon taro - qildilar va o'sha yerda ko'chib yurgan turkmanlarni taladilar. Amir Temur 1376-77 yillari Qamariddinga (1362-1388 yillari hukmronlik qilgan Mo'g'iliston xoni) qarshi yurishdan oldin Yusuf So'fidan Xorazm qo'shinini yordamga yuborishni so'rganida, u qudratli Amir Temurning talabini bajarmaganidagina emas, balki Buxoro va Samarqand atroflariga bosqinlarni hatto ko'paytirdi. Amir Temur faqat 1379-80 yiligina Yusuf So'figa qarshi yurish qilishga imkoniyat topdi va uch oylik qamaldan keyingina Urganchni olishga muvaffaq bo'ldi. Abdurazzoq Samarqandiyning yozishicha, Urganch qamali paytida Yusuf So'fi va Ming So'fi o'rtasida xokimiyat uchun kurash kuchayib ketdi. Bu kurash taxtdan ag'darilgan va o'ldirilgan Yusuf So'fi tarafdorlarini qattiq ranjitdi, natijada ular amir Xo'jayloq rahbarligida shahar darvozalarini Amir Temur qo'shinlariga ochib berdilar. Amir Temur amriga binoan, Xorazm poytaxti shafqatsiz ravishda talangan, hunarmand ustalar va olimlar esa Samarqandga olib ketilgan edi. Bu safar Suyurg'atmish (Amir Temur davlatida nomiga qo'yilgan soxta xon) va Amir Temur nomlariga xutba o'qilib, tanga zarb etilgan. Bu yurish Amir Temurning Xorazmga to'rtinchi yurishi edi, shundan keyingina Xorazmning janubi-sharqiy qismi uzil - kesil Amir Temur tassarrufiga o'tgan. Xorazmning shimoliy-sharqiy qismi bo'lsa, avvalgiday Qo'ng'iroq sulolasining hukmi ostida edi. Shu 1379-80 yilning o'zida hokimiyatni Ming So'fidan olgan Sulaymon So'fi To'xtamish bilan ittifoq tuzdi va uni o'ziga oliy hukmdor deb tan oldi, bunga 1379-80 yildan to 1387 yilgacha Xorazmda To'xtamish nomiga zarb etilgan tangalar ham dalolat beradilar.

Keyinchalik ro'y bergan voqealarga qaraganda, Sulaymon So'fi va Xorazm qo'shinlari To'xtamish va Qamariddinlarning 1387 yilgi

<sup>66</sup> Низомиддин Шомий. Зафарнома. Т.: "Ўзбекистон", 1996. 119-б.



Movarounnahrda qilgan yurishlarida qatnashgan. Mu'iniddin Natanziyning aytishicha, bu bosqinda Xorazm qo'shinini Oqcha o'g'lon bilan 1372 yili sotqinligi uchun Amir Temur tomonidan qatl etilgan. Kayxusrav Huttaloniyning o'g'li boshqarib borganlar. Bunga javoban, Amir Temur, 1388 yili Xorazmga yurish qildi va uning poytaxtini vayron qildi. Sulaymon So'fi va Eltutmish o'g'lonlar Qumkent yaqinida yana mag'lubiyatga uchrab Dashti qipchoq tomonga qochdilar. Shunday qilib, Xorazm Temur davlatining tarkibiga faqat 1388 yiliga qo'shildi va 1390-91 yili Amir Temur bu yerga o'ziga qarashli amir Muso-akani hukmdor etib tayinladi<sup>67</sup>.

Bu davrda Movarounnahrda vaziyat murakkab bo'lib, Oltin O'rda va Mo'g'ulistonda faoliyat ko'rsatayotgan siyosiy kuchlar Amir Temur davlatiga xavf solib turgan. Jumladan, Oltin O'rda xoni To'xtamish (1376-1395) Amir Temurning safardaligidan foydalanib, 1387-1388 yillari Movarounnahrda hujum uyushtirib, uni talon-taroj qilgan. Bu bilan kifoyalaniq qolmasdan yuqorida nomi keltirilgan Xorazm hukmdorini markaziy xokimiyatga qarshi undagan<sup>68</sup>. Unga qarshi Amir Temur 1389-1395 yillar oralig'ida 3 marta yurishlar uyushtirib, To'xtamish qo'shinlarini tor-mor qilgan. "Bir necha yildan so'ng, - deb yozadi M.Ivanin, - To'xtamishxonga qarshi bo'lgan yurishdan qaytgach, Amir Temur Xorazm xalqiga yana o'z yerlariga qaytish uchun ruhsat beradi, ammo, ularni kuzatib turish maqsadida Kent va Xiva shaharlarini qurishni va mustahkamlashni buyuradi"<sup>69</sup>. Shuni ham ta'kidlash joizki, manbalarda qayd etilishicha 1391 yilda Sohibqiron Urganchni qayta tiklash haqida maxsus farmon bergan. Bu voqealar haqida Sharafuddin Ali Yazdiy. o'zining "Zafarnoma" asarida quyidagilarni bayon qilgan. "Va sohibqironkim, ba'zi viloyatlarni olib buzard erdi va ba'zini tuzub, imorat qilur erdi, ul podshohlik maslahati uchun erdikim, podshoh siyosat qilmagancha viloyat tuzalmas. Uch yil Xorazmning buzulg'onidin kechti, yana hazratning inoyat va marhamatu lutfi ul shaharning ahvoliga tushub, Dashti Qipchoq yurishidin qaytqonda Musikakim, Xanki Qavchinning o'g'li erdi. Xorazmg'a yabardikim, borib imorat qilg'ay. Ul borib

<sup>67</sup> Бурибой Аҳмедов. Ўзбек улуси. Т.: "А.Қодирий номидаги халқ мероси", 1992.- 90-91 б.

<sup>68</sup> Азамат Зиё. Ўзбек жавдатчилиги тарихи. "Шарк" Т.:2001. -161 б.

<sup>69</sup> Нарзулла Аҳмедов. Амир Темур ривоят ва ҳақиқат. Т.: "Қомуслар Бош тахририяти", 1996.- 43 б.

qal'aning yasadi va hozir o'shul imorat tururkim, sohibqiron davlatidin bo'lg'on turur."

Amir Temur Mo'g'ulistonga ham bir necha marta harbiy yurishlar uyushtirib, o'z siyosiy raqiblarini yo'lini to'sib turgan. Bunga Qamariddin Chig'atoy ulusining g'arbiy qismini, ya'ni Movarounnahr va uning tevarak - atrofida yerni egallab, ularni Mo'g'ulistonni qo'shib olishga urinishi sabab bo'lgan. Amir Temur o'n yil mobaynida Mo'g'uliston ustiga yetti marta harbiy yurish uyushtirdi.

**Birinchi yurish** hijriy 772 (1370-71) yili bo'lib, unga amir Qamariddinning Toshkentga hujum qilishi va uni bosib olishi sabab bo'lgan. Amir Temur mo'g'ullarga qarshi qo'shin yuborgan. Qamariddin Toshkentni tashlab ketishga majbur bo'lgan. Amir Temur qo'shinlari dushmani Qo'chqor mavzeigacha ta'qib qilib bordilar<sup>70</sup>. Mo'g'ulistonga qilgan bu yurishda Temur O'zgand va Farg'ona viloyatlaridan mo'g'ullarni haydab yubordi<sup>71</sup>.

**Ikkinchi yurish** hijriy 775 yil oxirida ( 1374 may oyida) boshlangan. Amir Temur qo'shinlari Sirdaryodan o'tishi bilan Munqaz va Avrang Temur eli unga itoat qilishini bildirgan. O'shanda Toshkent hokimi Bahrom jaloyir ham Suyurg'atmishxon bilan Amir Temur hokimiyatini tan olgan. Biroq Munqaz va Avrang Temur elining bergan va'dalariga vafo qilmasdan, Toshkentga bosqin uyushtirishlari yoki amir Qamariddinga qo'shib ketishlari xavfi bor edi. Amir Temur - mana shularni hisobga olib, har ehtimolga qarshi, bir necha amir - Abbas bahodir, Shayx Ali bahodir va Xitoy bahodirlarni qo'shin bilan Toshkent atrofida qoldirib, o'zi Samarqandga qaytdi. Bir oz vaqt o'tgach, Amir Temurning shubhalari to'g'ri bo'lib chiqdi. Kepak Temur o'ziga tobelarni olib Mo'g'uliston tarafga qochib ketdi. Abbas bahodir, Shayx Ali bahodir va Xitoy bahodir, Bahrom jaloyirni o'zlariga qo'shib, Kepak Temur va odamlarining orqasidan tushdilar va Oysha xotin ko'prigida unga yetib oldilar. Ikki o'rtada qattiq urush bo'lsada, tarafning birontasi ustunlikka erisholmadi. Ertasi kuni yana urushga tayyorgarlik ko'rildi, Biroq urush boshlanmasdan oldin Temur amirlarining qarorgohiga mo'g'ullarning elchisi keldi<sup>72</sup>. Temuriy amirlar o'zaro kelishib sulhga rozi bo'ldilar<sup>73</sup>.

<sup>70</sup> Бурибой Аҳмедов. Амир Темурни ёд этиб. "Ўзбекистон" Т.:1996. -326 б.

<sup>71</sup> Муиниддин Натанзий. Мунтахаб ут-тавориҳи муиний. "O'zbekiston" Т.:2011. -116 б.

<sup>72</sup> Аҳмедов Б. Амир Темурни ёд этиб. "Ўзбекистон" Т.:1996. -326-327 б.

<sup>73</sup> Мирзо Мухаммад Хайдар Аъний. Тарихи Рашидий. "O'zbekiston" Т.:2011. -96 б.

Amir Temur tuzilgan sulhdan qoniqmasdan, bir oydan keyin Mo'g'ulistonga qo'shin tortdi. Yangi (Qozog'istonning hozirgi Jambul shahri) dan o'tgandan keyin dushman lashkari ko'rindi. Shu yerda mo'g'ullar hiyla-nayrang ishlatdilar. Ular yo'lning ikki tarafiga pistirmalar qo'yidilar va asosiy kuchini o'sha yerda qoldirib, o'zlari oz kuch bilan chekina boshladilar. Amir Temur turklarning O'g'uzxon zamonidan qolgan bu usuldan yaxshi xabardor bo'lgan. Shuning uchun mo'g'ullarning nayrangiga uchmasdan lashkarlarining bir qismini chekinganlar ketidan jo'natib, o'zi qo'shinning asosiy qismi bilan mo'g'ullarning o'sha yerda turgan qismiga hujum qilgan. Pirovardida, Amir Temur mo'g'ul qo'shinlarini yengsada, hujumni davom ettirmagan. Bunga Amir Muso bilan Zinda chashmalarning fe'l-atvori va kayfiyatidagi o'zgarishlar sabab bo'ldi<sup>74</sup>. Turkistonda ular Sohibqironga qarshi fitna uyushtirishib, kechasi uning chodiriga bostirib kirishgan. Bu paytda Amir Temur chodirda bo'lmagan.

Amir Temur Samarqandga borguncha o'zini bu voqealardan xabarsizday tutgan. Samarqandga borganlarida fitnachilar sardori amir Muso, Zinda chashma, Hizr Yasovuriyning o'g'li Abu Ishoq, hazrat Xudovanzoda Abdulmaoliy va Shayxulislom mavlono Abullaysiy hibsga olinganlar. So'roqlardan keyin Zinda chashm suyurg'ol mulkidan mahrum qilinib, Hudovanzoda Abdulmaoliy bilan birgalikda yurtdan chiqarib yuborilgan. Fitna boshlig'i amir Muso esa o'limga mahkum etildi<sup>75</sup>, lekin qarindoshi Saroymulk xonim o'rtaga tushib<sup>76</sup>, jallodning qo'lidan qutqarib oldi<sup>77</sup>.

Mo'g'uliston ustiga hijriy 776 yil sha'bon oyining birinchi kuni (1375 yilning 5 yanvarida) boshlangan **uchinchi yurish**<sup>78</sup> umuman olganda muvaffaqiyatli tugagan. Amir Qamariddinning asosiy kuchlari Jorun, Ko'k toma va Burka ruriyonda tor-mor keltirildi. Bu yurishda Temur qo'shinlari Qamariddinni Poyitoqqacha ta'qib qilib borgan. Bu yerlarda yashiringan amir Qamariddinni tutish uchun amirzoda Jahongir yuborildi<sup>79</sup>.

<sup>74</sup> Мирзо Мухаммад Хайдар Аъзӣ. Тарихи Рашидий. "O'zbekiston" Т.:2011. -97 б.  
<sup>75</sup> Мухаммад Хайдар мирзо. Тарихи Рашидий. "SHARQ" Т.:2010. -98 б.; Мирзо Мухаммад Хайдар Аъзӣ. Тарихи Рашидий. "O'zbekiston" Т.:2011. -97-98 б.  
<sup>76</sup> Мирзо Мухаммад Хайдар Аъзӣ. Тарихи Рашидий. "O'zbekiston" Т.:2011. -97 б.  
<sup>77</sup> Бўрибой Аҳмедов. Амир Темурни ёд этиб. "Ўзбекистон" Т.:1996. -327-328 б.  
<sup>78</sup> Мирзо Мухаммад Хайдар Аъзӣ. Тарихи Рашидий. "O'zbekiston" Т.:2011. -99 б.  
<sup>79</sup> Ўша ерда. 100-б.

Amirzoda Jahongir bosh bo'lgan ilg'or qismlar Ila daryosining narigi tarafiga o'tib mo'g'ullarga qaqshatqich zarba bergan. Amir Temur Poyitog'da ellik uch kun turgan. Shu vaqt ichida amirzoda Jahongir Qamariddinni ko'p qidirdi, topolmagach, oxiri Uch karmondan katta o'lja va asirlar olib qaytdi. Asirlar orasidan Qamariddinning og'asi amir Shamsiddinning qizi Bayon og'a bilan uning qizi Dilshod og'a ham bor edilar<sup>80</sup>. Amir Temur Tangritog'ning dilkusho manzilida katta to'yu tomosha berib<sup>81</sup> Dilshod og'oni xotinlikka oldi<sup>82</sup>. So'ng, qo'shinlar Yassi dovonidan oshib, Farg'onaning O'zgandiga keldilar. Amir Temur Qarshiga borganda lashkarini yurtlariga tarqatib yubordi. O'zi 1375-76 yil qishni Qarshining g'arbiy tarafida, joylashgan Zanjir saroyda o'tkazdi.

O'sha qishda Xo'jand va O'ratepada turgan beklar Odilshoh (Bahrom jaloirning o'g'li), Shayx Muhammad (Bayon suldusning o'g'li)<sup>83</sup> va Sor Bug'a qipchoq Amir Temurga qarshi isyon ko'tardilar<sup>84</sup>. Avval Oq o'rda<sup>85</sup> xoni Urusxon (1361-1375) huzuriga, uning vafotidan keyin Mo'g'ulistonga, Qamariddinning oldiga qochib bordilar. Bu voqealardan Amir Temur saltanatida to'zish boshlanibdi, degan xulosaga kelgan Qamariddin qish o'rtasida (1376 yilning yanvar oyida) sohibqironning Xorazmdaligidan foydalanib, Farg'onaga yurish qilgan va Andijonni bosib olgan. Buning ustiga, o'sha paytda Farg'onada hokim bo'lib turgan Umarshayx mirzodan norozi bo'lgan qozoq hazorasi mo'g'ullar tarafiga o'tib ketishgan<sup>86</sup>. Umarshayxning o'zi ham lashkarlarini uy-uyiga tarqatib yuborib, kam sonli cherik bilan qolgan edi. Shu sababli, u Qamariddinga qarshilik ko'rsata olmadi.

Andijonda bo'lgan bu voqeadan tashvishga tushgan Amir Temur tez fursatda lashkar yig'ib, Farg'onaga otlandi. Qamariddin Andijon Koson, O'sh va O'zgandni talab Otbosh tarafga chekinib borib,

<sup>80</sup> Низомиддин Шомий. Зафарнома. Т.: "Ўзбекистон", 1996. - 97 б.; Шарафуддин Али Яздий. Зафарнома. Т.:1997.- 77 б. Мирзо Мухаммад Хайдар Аъзӣ. Тарихи Рашидий. "O'zbekiston" Т.:2011. -101 б.

<sup>81</sup> Мирзо Мухаммад Хайдар Аъзӣ. Тарихи Рашидий. "O'zbekiston" Т.:2011. -101-103 б.  
<sup>82</sup> Бўрибой Аҳмедов. Амир Темурни ёд этиб. "Ўзбекистон" Т.:1996. -328 б.

<sup>83</sup> Низомиддин Шомий. Зафарнома. Т.: "Ўзбекистон", 1996. - 97 б.; Шарафуддин Али Яздий. Зафарнома. Т.: "ШАРҚ", 1997.- 78 б.

<sup>84</sup> Шарафуддин Али Яздий. Зафарнома. Т.: "ШАРҚ", 1997.- 80 б.

<sup>85</sup> Ок ўрда – Жўжи улусининг сўл қаноти. Таркибига Сирдарё ва Орол денгизидан то Ишим ва Сариксувгача, шарқда Балхаш кўлигача бўлган ерлар кирган. пойтахти Сигноқ.  
<sup>86</sup> Бўрибой Аҳмедов. Амир Темурни ёд этиб. "Ўзбекистон" Т.:1996. -329 б.

yo'ning ikki tarafiga pistirmalar qo'ydi<sup>87</sup>. Amir Temur qurshovni yorib chiqib, mo'g'ullarning yo'l ustida turgan qismini tor-mor keltirdi.

Amir Temur amirzoda Jahongirning o'limi tufayli Samarqandga qaytishga majbur bo'ldi<sup>88</sup>. Ta'ziya marosimlari o'tgandan keyin, 1376 yili mo'g'ullarga qarshi urush davom ettirildi. Amir Temur Qamariddinga qarshi amirzoda Umarshayx, amir Oqbo'g'a va Xitoy bahodirni jo'natdi. Ular amir Qamariddinga Qoratepaning etagida yetib olib katta shikast yetkazdilar. Lekin Qamariddin qolgan odamlari bilan qochib qutuldi. Temuriy amirlar katta o'lja va asirlar olib qaytdilar.

1377 yil bahorida Amir Temur Mo'g'ulistonga to'rtinchi marta harbiy yurish uyushtirdi<sup>89</sup>. Issiqko'ning Bug'am degan joyida Qamariddin bilan bo'lgan birinchi to'qnashuvdan keyin mo'g'ullar mag'lub etilib, chekindilar. Sohibqironning o'zi Qamariddinni Qo'chqorgacha quvib bordi. Shu yerda Samarqanddan kelgan chopar Oq O'rda xonzodalaridan bo'lgan To'xtamish o'g'lon O'rusxondan mag'lub bo'lib, oliy ostonaga bosh urib kelganligi haqida xabar keltirdi<sup>90</sup>. Oq o'rda tarafdin xavfsirab yurgan Amir Temur bu xabardan yana ham ko'proq tashvishga tushdi. Chunki, To'xtamishdan qo'li baland kelgan Urusxon endi Movarounnahr yoki Xorazmga ko'z tikishi mumkin edi. Shuni hisobga olib, Amir Temur yurishini shu yerda to'xtatishga va Samarqandga qaytib To'xtamishxon va Oq o'rda masalasi bilan mashg'ul bo'lishga qaror qilgan. Amir Temur saroyida To'xtamishxoniga izzat-hurmat ko'rsatildi. Temurning yordami bilan To'xtamishxon Sarbon bilan Sig'noqda mustahkam o'rnashdi.

Amir Temur Urusxon va Xuroson tashvishlaridan forig' bo'lgach, 1383 yili amirzoda Alini katta qo'shin bilan Mo'g'ulistonga yuborgan. Bu Temurning beshinchi yurishi edi. Amirzodaga Qamariddinni tutib kelish buyurilgan edi. Lekin amirzoda Ali topshiriqning uddasidan chiqa olmadi. Yo'lda pistirmaga duch kelib, ko'p odamlaridan ayrilib orqasiga qaytishga majbur bo'ldi. Sohibqiron endi Mo'g'ulistonga tajribali amirlarni Sayfulmuluk, Sotilmish hamda Arg'unshoh

<sup>87</sup> Бўрибой Аҳмедов. Амир Темурни ёд этиб. "Ўзбекистон" Т.:1996. -329 б.

<sup>88</sup> Низомиддин Шомий. Зафарнома. Т.: "Ўзбекистон", 1996. - 101-102 б.; Шарафуддин Али Яздий. Зафарнома. Т.: "ШАРҚ", 1997. - 80-81 б.

<sup>89</sup> Бўрибой Аҳмедов. Амир Темурни ёд этиб. "Ўзбекистон" Т.:1996. -330 б.

<sup>90</sup> Низомиддин Шомий. Зафарнома. Т.: "Ўзбекистон", 1996. - 103 б.; Шарафуддин Али Яздий. Зафарнома. Т.: "ШАРҚ", 1997. - 82 б.

axtachini<sup>91</sup> tumanlari bilan yubordi. Oradan ko'p vaqt o'tib ulardan darak bo'lmagach, Temur amir Jahonshohga Qamariddinni tutib kelishni qattiq tayinlaylab, Elchi Bug'o, Shamsuddin Uchqora va Soin Temur bahodir va 10 ming otliq askar bilan yuboradi. Ular Otaqumda Sayfulmuluk, Sotilmish hamda Arg'unshoh axtachi qo'shinlari bilan uchrashganlar.

Amir Jahonshoh Qamariddinni qidirib Kultepagacha borishgan. Tarixchi Muhammad Haydar<sup>92</sup> uni birmuncha tevarak atrofda kezib yurganligini, so'ng istisqo kasaliga<sup>93</sup> muhtalo bo'lib o'lganligini yozgan<sup>94</sup>. Amir Temur so'nggi yurishlarida (1389y.) katta g'alabaga erishgan. Mo'g'ulistonning yana bir nufuzli amiri Anqo to'raning kuch qudrati sindirilgan<sup>95</sup>. Movarounnahrda markazlashgan davlatni qaror topishga erishildi.

Amir Temur O'rusxonning tayziqidan qochib, o'z huzuriga homiylik istab kelgan To'htamishga bir necha bor harbiy yordam beradi<sup>96</sup>. 1379 yilda To'xtamish Temurning yordamida Oq O'rdaning taxtini egallashga muvaffaq bo'ladi. Ammo To'xtamish Oq O'rdani qo'lga kiritgandan so'ng, o'z homiysining yordamini tez unutdi. U oyoqqa turib olgach, kezi kelganda hatto Amir Temurga qarshi ish ko'ra boshladi.

1380 yilda Kulikova maydonida Mamay ustidan qozonilgan g'alaba To'xtamishga Oltin O'rta taxtini egallab, Jo'ji ulusining har ikkala qismini qayta birlashtirishga imkon berdi. U Oltin O'rdani birlashtirish va uning qudratini oshirishga kirishdi. O'z zafarlaridan sarmast bo'lgan To'xtamish Oltin O'rdani tiklash bilan uning chegaralarini kengaytirish maqsadida Rossiya yerlariga, Zakavkazye va Ozarbayjonga bir necha bor yurishlar qildi. 1384 yilda u Moskvaga bostirib kirib, shaharga o't qo'yib yubordi. Hatto 1387-1388 yillarda To'xtamish Temurning navbatdagi harbiy yurishi vaqtida fursatdan foydalanib, Movarounnahrda hujum qildi.

Oltin O'rdaning qayta birlashtirilishi va uning kuchayib borishi, Amir Temur davlatiga xafli bo'lib, uning faoliyatiga tahdid solmoqda

<sup>91</sup> Ахгачи- хон отхонасининг хизматчиси.

<sup>92</sup> Мухаммад Хайдар мирзо. Тарихи Рашидий. "SHARQ" Т.:2010. -116 б.; Мирзо Мухаммад Хайдар Аёзий. Тарихи Рашидий. "O'zbekiston" Т.:2011. -114 б.

<sup>93</sup> Истиско касали – корнига сув йиғилиши орқасида бўладиган оғир касаллик; водянка.

<sup>94</sup> Бўрибой Аҳмедов. Амир Темурни ёд этиб. "Ўзбекистон" Т.:1996. -332, 335 б.

<sup>95</sup> Қаранг:Шарафуддин Али Яздий. Зафарнома. Т.: "ШАРҚ", 1997. - 124-128 б.

<sup>96</sup> Қаранг:Шарафуддин Али Яздий. Зафарнома. Т.: "ШАРҚ", 1997. - 83-86 б.



edi. Bu xavfni bartaraf qilish uchun Temur To'xtamishga qarshi 1389, 1391 va 1394-1395 yillarda uch marta harbiy yurish qiladi<sup>97</sup>. Hijriy 790 yilning oxirida (1388 yil dekabr oxirida) To'xtamish Movarounnahrda Elyig'mish o'g'lonning umumiy qo'mondonligi ostida katta qo'shin yubordi. Bu qo'shin Sirdaryodan o'tib, Jizzaxning Ochiq mavzesini lashkargoh qildi. Amir temur bu xabarni eshitgach, oradan bir necha kun o'tishi bilan, qahraton qish va qor bo'ronga qaramasdan, tamom qo'shinlarning butunlay to'planishini kutib o'tirmasdan, unga qarshi yo'lga chiqdi. Xo'jandda unga Andijndan amirzoda Umarshayx kelib qo'shildi, Elyig'mish o'g'lon qo'shini ikki tomondan qurshab olinib tor-mor keltirildi.

Hijriy 791 yil safar oyida (1389 yil fevral) Temur Ikar degan yerga keldi. Bu yerda qishlab, erta bahorda barcha viloyatlarni kelib to'plagan, hijriy 791 yil rabi ul-avval oyida (1389 yil mart oyining boshi) Sirdaryodan o'tdi va To'xtamishni ketma-ket mag'lubiyatga uchratib, uni to Avrang jako'y va Oltomgacha ta'qib qilib bordi. Movarounnahr shaharlarida Mo'g'ilistonning dushmanlik faoliyati kuchayishi natijasida bu yurish shu yerda to'xtatildi<sup>98</sup>.

Ayniqsa, so'nggi ikki yurish uning uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ldi. Temur 1391 yilda 200 ming qo'shin bilan Samarqanddan chiqib, qishni Toshkentda o'tkazgan. Bahorda Dashti Qipchoq orqali o'tib Janubiy Uralga yetib borgan<sup>99</sup>. Bu yurish haqida Amir Temur 1391 yil aprelida, "Turon sultoni Temur Bulg'or hokimi To'xtamishga qarshi 200 minglik askar bilan bu yerlardan o'tdi", degan satrlarni Ulug'tog' etagidagi qoyatoshlardan biriga o'ydirib yozdiradi<sup>100</sup>. Temur va To'xtamish qo'shinlari hozirgi Samara bilan Chistopol shaharlari oralig'ida joylashgan Qunduzcha (Kondurcha) daryosi vodiysida ro'para keladi. 1391 yilning 18 iyunida bu yerda uch kun qirg'inbarot jang bo'lib, u To'xtamish qo'shinining batamom mag'lubiyati bilan tugaydi<sup>101</sup>. Qunduzcha vodiysida bo'lib o'tgan jang o'zining ko'lami, qo'llanilgan harbiy usullari, Volgabo'yi xalqlari tarixida tutgan o'rni jihatidan muhim ahamiyatga ega edi. U Amir Temurni jahon sarkardasi darajasiga ko'tardi. Garchi Temur jangda To'xtamish

<sup>97</sup> Қаранг: Шарафуддин Али Яздий. Зафарнома. Т.: "ШАРҚ", 1997.- 137-141, 173-178 б.

<sup>98</sup> Темур ва Улуғбек даври тарихи. Т.: "Қомуслар бош тахририяти". 1996.-82 б.

<sup>99</sup> Абдулахад Муҳаммаджонов. Темур ва темурийлар салтанати. Т.: "Қомуслар бош тахририяти", 1996. -14 б.

<sup>100</sup> Низомиддин Шомий. Зафарнома. Т.: "Ўзбекистон", 1996. - 158 б.

<sup>101</sup> Шарафуддин Али Яздий. Зафарнома. Т.: "ШАРҚ", 1997.- 137-140 б.

ustidan g'alaba qozonib, juda katta o'ljani qo'lga kiritgan bo'lsada, ammo Oltin O'rdaning harbiy va iqtisodiy qudrati hali kuchli bo'lib, u tamomila shikast topmagan edi. Shuning uchun ular o'rtasida raqiblik davom etdi.

Temur va To'xtamish qo'shinlari o'rtasida so'nggi shiddatli jang 1395 yilda Shimoliy Kavkazda Terek daryosi vodiysida sodir bo'ladi<sup>102</sup>. Bu jangda ham Temur qo'shinlari dushmaniga qaqshatqich zarba bergan. Katta talofat berib mag'lubiyatga uchragan Oltin O'rda xoni Rus knyazliklari yerlari tomon chekinib, o'rmonlardan o'ziga panoh izladi. Temur To'xtamishni rus yerlarida ta'qib etib Moskvagacha boradi<sup>103</sup>. Qaytishda Ryazan knyazligi yerlari orqali o'tib, quyi Volga bo'yi va uning markaziy shaharlari Saroy Berka, Saroy Botu va Xojitarxon (Astraxon) shaharlarini egallaydi<sup>104</sup>. Temur Oltin O'rda tasarrufidagi viloyatlarning xo'jalik va savdo-sotiq ishlariga katta putur yetkazadi. Bu viloyatlar va ulardagi yirik shaharlar ancha vaqtlargacha iqtisodiy jihatdan qaddini rostlay olmadilar. Natijada Xitoyi Yaqin Sharq mamlakatlari bilan bog'lagan savdo yo'lining Oltin O'rda orqali o'tgan shimoliy tarmog'i barham topadi. Endilikda butun savdo qatnovi yana Movarounnahr shaharlari (O'tror, Toshkent, Samarqand va Buxoro) orqali Balx, Hirot va Sultoniyanadan o'ta boshladi.

Rossiya muarrixlari B.D.Grekov va A.Y. Yakubovskiyning xulosalariga qaraganda<sup>105</sup>, Temurning To'xtamish ustidan g'alaba qozonib Oltin O'rdaga bergan qaqshatqich zarbasi faqatgina O'rta Osiyo uchun emas, balki butun Sharqiy Yevropa, shuningdek Rus knyazliklari uchun ham ulkan ahamiyat kasb etdi. Chunki, Oltin O'rdaning so'ngi xonlari Mamay va To'xtamishlarning Rus yerlarida olib borgan uzluksiz talon-tarojlik yurishlari Moskva knyazligiga tahlika solib, uning atrofidagi rus knyazliklarining yagona Rossiya davlatiga birlashishiga imkon bermay, ularning tinkasini quritgan edi. Bunday g'oyaning barham topishi bilan shubhasiz, Rossiya davlatining markazlashuvi yo'lida tabiiy ravishda shart-sharoit vujudga keldi.

<sup>102</sup> Низомиддин Шомий. Зафарнома. Т.: "Ўзбекистон", 1996. - 209-214 б.

<sup>103</sup> Ўша ерда. - 178-179 б.

<sup>104</sup> Шарафуддин Али Яздий. Зафарнома. Т.: "ШАРҚ", 1997.- 181-182 б.

<sup>105</sup> Муҳаммаджонов А. Темур ва темурийлар салтанати. Т.: "Қомуслар бош тахририяти", 1996. -15 б.

Bu g'alaba tufayli Amir Temur birinchi va oltinchi iqlim (Xorazm, Movarounnahr, Farg'ona, Dashti Qipchoq) viloyatlari, uluslari va qal'alarini o'z tasarrufiga kiritib Markaziy Osiyodagi qariyb bir yarim asrlik mo'g'ullar xukmronligiga barham berdi. Feodal tarqoqlikka chek qo'yildi. Shuningdek hududda osoyishtalik qaror topdi, adolat o'rnatildi, savdo-sotiqni rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar ochildi. Markaziy Osiyoda qudratli markazlashgan temuriylar davlati vujudga keldi<sup>106</sup>. Shundan keyin Amir Temur o'zining diqqat e'tiborini butunlay Eron, Iroq, Suriya, Kichik Osiyo yarim oroli, Hindistonni bosib olishga qaratadi<sup>107</sup>.

Amir Temur Eronga qarshi 1386 yildan boshlab "uch yillik", 1392 yildan boshlab "besh yillik" va 1399 yildan boshlab "yetti yillik" urushlar olib boradi<sup>108</sup>. Bu harbiy yurishlari esa saltanatning jahon miqyosidagi mavqeini ko'tarish savdo va boshqa sohalaridagi aloqalarini kengaytirish, buyuk Ipak yo'lini tiklash kabi maqsadlarga xizmat qildi. Buni quyidagi dalillar ham isbotlaydi.

XIV asrning ikkinchi yarmida Eron bir necha mayda davlatlarga bo'linib ketgan edi. Uning bir tomoni Jaloyirlar hukmronligidagi (1336-1441) Ozarbayjonga, ikkinchi tomoni Xuroson viloyatining bir qismini tashkil etib Sarbadorlarga (1336-1381) tegishli bulgan. Shuningdek, Hirotida Kurdlar sulolasi ham faoliyat ko'rsatayotgan edi. Bu feodal tarqoqlik Eronda o'zaro ziddiyatlarni yanada kuchaytirdi<sup>109</sup>.

Erondagi siyosiy qarama-qarshiliklardan foydalangan Amir Temur 1380 yili o'g'li Mironshoh Mirzoni bir necha lashkarboshilar bilan Xurosonni zabt etish uchun yuboradi<sup>110</sup>. Kurdlar hokimi G'iyosiddin Pirali boshchiligida Hirot shahri aholisi Temur askarlariga qattiq qarshilik ko'rsatdilar. Shahar 1381 yilda taslim bo'ladi. Shu yili mustaqil Sarbadorlar davlati barham topgan. Xoja Ali Muayyadning o'zi xokimiyatni uni Temurga topshirib, umrining oxiriga qadar Sohobqiron saltanatida sadoqat bilan xizmat qildi<sup>111</sup>. Eronning

<sup>106</sup> Аҳмедов Н. Амир Темур ривоят ва ҳақиқат. Т.: "Қомуслар Бош тахририяти", 1996.- 48-49 б.

<sup>107</sup> Муҳаммаджонов А. Темур ва теурийлар салтанати. Т.: "Қомуслар бош тахририяти", 1996. - 16 б.

<sup>108</sup> Каримов Ш., Шамсутдинов Р. Ватан тарихи. Т.: "Ўқитувчи", 1997. - 38 б.

<sup>109</sup> Нарзулла Аҳмедов. Амир Темур ривоят ва ҳақиқат. Т.: "Қомуслар Бош тахририяти", 1996. - 49 б.

<sup>110</sup> Низомиддин Шомий Зафарнома. Т.: "Ўзбекистон", 1996. - 112 б.

<sup>111</sup> Низомиддин Шомий Зафарнома. Т.: "Ўзбекистон", 1996. - 114-116 б.

Qobushon, Tuyo, Nishopur, Sabzavor kabi shaharlari Temurga jangsiz taslim bo'lgan.

1383 yilda Amir Temur Seyistonni, Eronning janubiy va shimoliy-g'arbiy hududlarini egallagan. 1387 yilda Fors viloyatining hokimi Shohshujo o'z ixtiyori bilan suratda Temurga taslim bo'ladi. Qizini Jahongir Mirzoning o'g'li Pirmuhammadga xotinlikka berib, ikki o'rtadagi sulhni nikoh bilan mustahkamlaydi<sup>112</sup>.

1382-1397 yillardagi bir necha yurishlardan so'ng Temur Ozarbayjon, Armaniston, Astrobod va Mozandarinni qo'lga kiritadi. 1402 yilga qadar Gurjistonga besh marta yurish qilib, uni egallaydi<sup>113</sup>. Xullas, Amir Temur G'arbda Kichik Osiyogacha, Janubda Arabiston yarim oroligacha bo'lgan hududlarni egallaydi.

1398 yilning may oyida Temur 90 ming askar bilan Amudaryodan o'tib Hindistonga yurish qiladi. Avgustda Qobul shahrini zabt etgach, olti oy mobaynida Mo'lttonni qamal qilib turadi<sup>114</sup>. So'ngra dekabr oyida Hind daryosidan o'tib, Dehliga hujum boshladi. Dehli ostonasida sodir bo'lgan jang Temurning ko'p yillik yurishlari tarixida eng shiddatli va ko'p talofat ko'rgan urushlardan hisoblanadi. Bu harbiy to'qnashuvda Dehli hukmdori Sulton Mahmud dushman saflariga qarshi o'rnatilgan jangovor fillarni ishga solgan. Temur askarlari fillarning yshliga mixlar qoqilgan taxtalarni tashlashgan. Ustiga shox- shabba ortilgan aravalarga o't qo'yishib, yo'llarini to'sishgan. Fillarning bir qismi shikast topib, qolganlari qo'rquvdan orqaga qaytib, hind askarlarini safini buzib, ularning bir qismini yanchib yuborgan. Dehli hokimi jangda yengiladi<sup>115</sup>. O'lja olingan boyliklar bilan malakali binokor usta va hunarmandlar Samarqandga jo'natiladi, qolgan qismi amir va lashkar boshliqlariga bo'lib beriladi<sup>116</sup>. Temur qo'shin tortib Gang daryosi sohillarigacha boradi. O'sha yerdan orqaga qaytib, 1399 yilning bahorida Samarqandga yo'l olgan. U o'zi bilan ko'pgina Hindiston fillarini ham olib keladi.

Poytaxtda Amir Temur qisqa vaqt dam olgach, G'arbiy Osiyoga yo'l olgan. Qish mavsumini u Qorabog'da o'tkazib, 1400 yilning yozida Suriyaga yurish qilgan. Avval Halab (Aleppo) va Bayrut

<sup>112</sup> Каримов Ш. Шамсутдинов Р. Ватан тарихи. Т.: "Ўқитувчи", 1997. - 38 б.

<sup>113</sup> Қаранг: Шарафуддин Али Яздий. Зафарнома. Т.: "ШАРҚ", 1997. - 108-109, 173, 227, 229-232, 246-247, 250-251 б.

<sup>114</sup> Ўша ерда. - 1997. - 191 б.

<sup>115</sup> Қаранг: Шарафуддин Али Яздий. Зафарнома. Т.: "ШАРҚ", 1997. - 206-208 б.

<sup>116</sup> Ўша ерда. - 209 б.

shaharlarini, 1401 yilning boshlarida bir oylik qamaldan so'ng Damashqni egallagan. Damashq zabt etilgach, Temur qo'shiniga biroz dam berish maqsadida Qorabog'ga qaytadi. Chunki, muttasil yurishlar, shiddatli janglardan xorigan, behisob o'ljalar ham joniga tekkan qo'shinlarning jangovarlik shiddati yo'qolgan, olmishdan oshib qolgan Sohirqiron qattiq xastalangan edi. Ammo kasallik Temurning qaddini ham, irodasini ham buka olmadi. Shu ahvolda u usmonli turk sultoni Boyazid Yildirimga qarshi urush e'lon qiladi<sup>117</sup>.

O'z davrining jangovar suvoriylari hamda 14- asr ikkinchi yarmida yangi tartibda tuzilgan piyoda askarlar – “yanichar”lardan iborat qo'shinga ega bo'lgan usmonli turklar 1354 yili Gallipolni, 1362 yili Adrianopolni zabt etdilar. 1365 yili Sulton Murod Xudovondiyor poytaxtni Bursadan Adrianopol (turkcha Edirne) ga ko'chirgan. Bu shahar 1453 yilgacha poytaxt bo'lib turgan. Sulton Boyazid (1389-1402 yillar) davrida usmonli turklar Kichik Osiyo yarim orolida kuchli davlatga aylandi. Ular butun Bolqon yarim orolini eabt etishga kirishdi. 1396 yil 25 sentabrda Nikopol ostonasida Turkiya sultoni Boyazid qariyb 200 ming kishilik armiyasi bilan salbchilarning 70 minglik birlashgan qo'shiniga qaqshatqich zarba beradi. Jangda yevropa ritsarlarining barcha sarasi halok bo'ldi, qolganlari (10 mingga yaqin kishi) asir olindi. So'ngra Sulton Boyazid Konstantinopolni qamal qilib, Vizantiya ustidan o'z hukmronligini o'rnatdi<sup>118</sup>. Bu voqealardan so'ng butun Sharqiy Yevropa davlatlari tahlikaga tushib qoladi. Xuddi shu paytda Temurning Kichik Osiyo yarim Oroliga usmonli turklar sultoni Boyazidga qarshi yurishi boshlanadi. Bu davrda sodir bo'lgan bunday murakkab siyosiy vaziyatdan Sulton Boyazid ham, Sharqiy Yevropa davlatlari hukmdorlari ham o'z manfaatlari yo'lida foydalanishga harakat qiladilar. Sharqiy Yevropa davlatlari Boyazidga qarshi kurashish uchun Temur bilan ittifoq tuzishga intilsalar<sup>119</sup>, Turkiya sultoni esa Temurni birgalikda Yevropaga qarshi kurashga da'vat etadi<sup>120</sup>.

1401 yilning avgust oyida Konstantinopolning muvaqqat hokimi Ionn VII Paleolog Boyazidga qarshi birgalikda kurashish taklifi bilan

<sup>117</sup> Мухаммаджонов А. Темур ва темурийлар салтанати. Т.: “Қомуслар бош таҳририяти”, 1996. -17-18 б.

<sup>118</sup> Уша ерда.-19 б.

<sup>119</sup> Уша ерда.-18 б.

<sup>120</sup> Низомиддин Шомий Зафарнома. Т.: “Ўзбекистон”, 1996. – 323 б.

Qorabog'ga–Temur qarorgohiga Dominikan monaxlari Frensis bilan Aleksandrni elchi qilib yuborgan. Yunoniston imperatori Manuel III va arxiyepiskop Ioan ham shu maqsadda Temurga murojat qilishgan. Venetsiya Amir Temurga Boyazidga qarshi urush boshlasa, o'z kemalari bilan yordam qilishga va'da bergan. O'z navbatida Temur bilan Boyazid o'rtasida ham yozishmalar olib borilgan. Boyazid o'z maktubida Temurga birgalikda Yevropaga qarshi kurashish imkoniga ishora qiladi. Biroq Temur bu taklifni rad qilib, usmonli turklar saroyida panoh topgan turkmanlarning isyonkor Oqquyunli va Qoraquyunli qabilalarining boshliqlarini unga topshirishini talab qiladi<sup>121</sup>. O'zaro muzokaralar davomida har ikki tomon ham bo'ladigan katta jangga tayyorgarlik ko'rdilar.

Temur bilan Boyazid qo'shinlari o'rtasida jang 1402 yilning 28 iyulida Anqara yaqinida boshlangan<sup>122</sup>. Shuning uchun bu urush tarixda “Anqara jangi” nomi bilan ma'lum. Bu jangda har ikki tomondan hammasi bo'lib, janglarda chiniqqan 400 ming nafar jangchi va lashkarboshilar ishtirok etadi. Bu tarixiy jangda Temurning buyuk sarkardalik qobiliyati va mahorati yana bir marta namoyon bo'lgan. 200 minglik Temur qo'shinining o'ng qanotiga kenja o'g'li Shohrux o'g'li bilan Xalil Sultonlar chap qanotiga Mironshoh, Shayx Nuriddinbek va boshqalar qo'mondonlik qiladi<sup>123</sup>. Samarqanddan yetib kelgan yangi jangovar qismlardan tashkil topgan qo'shin markazini Temurning sevimli nabirasi valiahdi Muhammad Sulton boshqargan. Markaz va qanotlar ortida sohirqiron va uning ikki nabirasi Pirmuhammad va Iskandarlar boshliq zahiradagi qismlar joylashtirilib, ular jang holatini muttasil kuzatgan holda dushmanga to'satdan beriladigan hal qiluvchi zarbaga tayyor turishgan. Boyazid armiyasining o'ng qanotiga Sultonning qaynisi serb knyazi Lazarevich qo'mondonlik qilgan. Bu qism yonar o'q otuvchi qoruralar bilan qurollangan serblarning madad kuchlaridan iborat edi<sup>124</sup>. Makedoniyalik askarlardan iborat qo'shinning so'l qanotini Boyazidning o'g'li Sulaymon Chalabiy boshqargan. Bu qanot turk suvoriylari bilan kuchaytirilgan edi. Besh minglik piyoda “yanichar”lar hamda otliq

<sup>121</sup> Ибн Арабшоҳ Ажонб ал-макдур фи тарихи таймур. (Темур тарихида тақдир аjoyиботлари). I китоб Т.: “Меҳнат”, 1992. - 255 б.; Низомиддин Шомий Зафарнома. Т.: “Ўзбекистон”, 1996. – 327 б.

<sup>122</sup> Хильда Хукхэм. Етти иклим султони. Т.: “Адолат”, 1999. – 249 б.

<sup>123</sup> Шарафуддин Али Яздий. Зафарнома. Т.: “ШАРҚ”, 1997. - 259 б.

<sup>124</sup> Хильда Хукхэм. Етти иклим султони. Т.: “Адолат”, 1999. – 249 б.

sipohiy qismlardan iborat markaz esa Boyazid va uning o'g'illari Muso, Iso va Mustafolar tomonidan boshqarilgan. Ularga otliq askarlar madad berib turgan. Otliq askarlardan iborat zaxira kuchlariga Boyazidning yana bir o'g'li Mehmed Chalabiy qo'mondonlik qilgan<sup>125</sup>.

Ikki katta qo'shin o'rtasida boshlangan jang avjiga chiqib, hal qiluvchi pallaga yetganda Boyazid lashkarining Onado'li qismlari Temur tomoniga o'tib ketishgan<sup>126</sup>. Manbalarning guvohlik berishicha, turklar lashkarining kattagina qismi dushmanga jangsiz taslim bo'lgan, natijada Sulton Boyazidning qo'shini batamom tor-mor etilib, o'zi asir olingan<sup>127</sup>. U bilan birga uning xotini serb malikasi Olivera, o'g'illari Muso va Iso Chalabiylar ham asirga tushadilar<sup>128</sup>. Bu g'alaba tufayli Amir Temur butun Kichik Osiyo yarim orolini zabt etib, O'rta dengizning sharqiy sohilida joylashgan Izmir shahriga yetib boradi. Izmir zabt etilgach, salbchilarning Yaqin Sharqdagi oxirgi qarorgohi tugatilib, Egey dengizda joylashgan Xios va Lesbos orollaridagi Genuya mulklarining hukmdorlari taslim bo'ldilar. O'z navbatida Misr podshohlari ham Temurga o'z itoatkorliklarini izhor etishgan. Temur usmonli turklarning Anqara, shuningdek, Nikeya, Bursa va Izmir shaharlarini hamda ko'plab qishloqlarini talon-taroj qilgan. Bursa shahrida u Vizantiya va boshqa g'ayridinlarning Boyazidga yig'ib bergan bo'jlaridan iborat katta o'ljani qo'lga kiritgan.

Yevropaga xavf solib turgan kuchli imperiyaga berilgan zarba uchun Temurdan endigina uyg'onayotgan butun Yevropa minnatdor bo'ldi. Boyazid ustidan qozonilgan g'alaba bilan Fransiya qiroli Karl VI va Vizantiya imperatori Amir Temurga o'z muboraknomalarini yuborishgan. Ammo Temur usmonli turklar davlatini butunlay yo'q qilib yuborish niyatida emas edi. U bundan manfaatdor ham emasdi. Chunki salb yurishlarining oqibatlari, Yevropa davlatlarining Yaqin Sharq mamlakatlaridagi ilinjilari hali musulmon olami yodidan ko'tarilmagan edi. Shuning uchun ham Temur Boyazidga ehtirom ko'rsatib shoxona to'n kiydirib, yaxshi so'zlar bilan ko'nglini oldi. Boyazid, "Balki men xato qildimki, sohibqironning so'zlarini eshitmadim, bu jihatdan xaromni topdim. Agar sohibqiron avf qilib, gunohimdin kechsa, men farzandlarim bila to tirik bo'lsam xizmatdin

<sup>125</sup> Ўша ерда.

<sup>126</sup> Ўша ерда. – 250 б.

<sup>127</sup> Шарафуддин Али Яздий. Зафарнома. Т.: "ШАРҚ", 1997. - 260-261 б.

<sup>128</sup> Хильда Хукхэм. Етти иклим султони. Т.: "Адолат", 1999. – 250-251 б.

o'zga ish qilmaymen",-dedi<sup>129</sup>. Amir Temur uning vorislariga himmat ko'rsatib, ularga katta muruvvat ko'rsatdi. U Sulaymon Chalabiyni turklarning Yevropadagi viloyatlariga hokim qilib tayinlab, unga hukmdorlik toji va yorliqlar in'om etdi va mansabdorlik sarposini kiyg'izdi. Edirne (Adrianopol) yarim orolining shimoli - g'arbiy qismi suyurg'ol sifatida Iso Chalabiya in'om etilib, Bursa shahri uning markaziga aylandi. 1403 yilda vafot etgan Boyazid katta izzat-ikrom bilan Bursa shahridagi Usmonlilar sulolasining xilxonasiga dafn etildi<sup>130</sup>. Temur bu g'alabasi bilan Ovropa xalqlariga ikkinchi marta xizmat qildi. Konstantinopolning usmonli turklar tomonidan bosib olinishini qariyb 50 yil orqaga surdi<sup>131</sup>.

Amir Temur 1404 yilning may oyida Samarqand tomon o'tlanib, iyulda poytaxtga yetib keladi. 70 yoshni qoralagan Sohibqiron Xitoy safariga tayyorgarlik ko'ra boshlagan. Albatta, u bu yurishni ancha ilgari rejalashtirgan. Shu bois Xitoyga yurish bo'yicha tayyorgarlik ishlari ham ancha oldin boshlangan edi. 1397 yildagi ko'chmanchi o'zbek qabilalari bilan bo'lgan urush davridayoq Xitoy bilan chegaradosh bo'lgan Ashir shahrida aholi sonini oshirish hamda u yerga 40 ming otga ega bo'lgan aholini ko'chirib, ularga o'sha yerlarda dehqonchilik qilish va savdoni rivojlantirish, oziq-ovqat zahiralari to'plash haqida buyruq bergan edi. Undan tashqari Temur Xitoyga o'z odamlarini yuborib, uni obdon o'rganish masalalariga e'tibor beradi. 1405 yil 8 yanvarda 200 ming kishilik lashkar bilan Xitoy sari o'tlangan. Qish o'sha yili juda qattiq kelgan<sup>132</sup>. Shunga qaramay u lashkarga to'xtovsiz harakat qilishni topshirdi. 1405 yil 14 yanvarda Sohibqiron O'tror shahriga yetib kelgan. U shu yerda To'xtamishdan kelgan elchini qabul qilgan. Sharafuddin Ali Yazdiyning yozishicha,- elchi To'htamishxonning arz-dodini o'qub bergan. Unda,- "nima qilgan bo'lsam, shunga yarasha jazoimni oldim. Endi hazrat gunohimni kechirsalar, bundan keyin bunday ishlarni qilmayman. Tirik ekanman faqat xizmatlarida bo'laman",-deyilgan.

<sup>129</sup> Шарафуддин Али Яздий. Зафарнома. Т.: "ШАРҚ", 1997. - 261 б.

<sup>130</sup> Муҳаммаджонов А. Темур ва temuрийлар салтанати. Т.: "Қомуслар бош тахририяти", 1996. - 18-21 б.

<sup>131</sup> Нарзулла Аҳмедов. Амир Темур ривоят ва ҳақиқат. Т.: "Қомуслар Бош тахририяти", 1996. - 51 б.

<sup>132</sup> Низомиддин Шомий. Зафарнома. Т.: "Ўзбекистон", 1996. - 415 б.; Шарафуддин Али Яздий. Зафарнома. Т.: "ШАРҚ", 1997. - 397 б.

Sohibqiron bunga javoban, Xitoyga yurish boshlaganligini, undan qaytsa, Jo'ji ulusini unga topshirishini aytgan<sup>133</sup>.

Sohibqiron shamollab kasalga chalinadi va yotib qoladi. Shu yilning 18 fevralida Amir Temur vafot etgan<sup>134</sup>.

Harbiy yurishlarida erishgan g'alabalari, tashqi va ichki siyosatda tutgan odilona yo'li Temur davlati qudratining oshishi va jahon miqyosiga ko'tarilishida hal qiluvchi omil bo'ldi. Shu bilan bir qatorda hamma masalalarda, xususan xorijiy mamlakatlar bilan aloqalar o'rnatish va munosabatlarni rivojlantirish tadbirlarini tinmay davom ettirib bu mavqeni muqtahkamlab bordi. Rossiya uchun og'ir kulfatlar keltira boshlagan Oltin O'rda xoni To'xtamishni mavh etib, Sharqiy Yevropadagi bir necha mamlakatlarni bosib olib, butun Yevropaga katta xavf-xatar solib turgan turk sultoni Boyazidning jilovini tortishi Ovrova xalqlari taraqqiyotida yangi bir davrni boshlab berdi. Yevropaliklar Sohibqironni xaloskor sifatida tan olib, uning qudratli, markazlashgan imperiyasi bilan hamma sohada hamkorlik o'rnatishga intildilar. Ko'p o'tmay o'zaro munosabatlar yangi izga ko'cha boshladi. Mag'ribdan Mashriqqacha bo'lgan ulkan hududda tinchlik va tartib o'rnatilishi natijasida savdo yo'llari, diplomatik aloqalar yana jonlandi. Jumladan, Samarqandga "Xitoy, Oltoy, Chekka Mag'rib, Misr, Rum, Farang va Xind mamlakatlaridan elchilar kelgan. Amir Temur ularni har birini o'z xuzuriga chorlab, tortiq va in'omlar ulashgan<sup>135</sup>. Kastiliya qiroli Genrix III ning elchilari Paypo de Sato Mayor va Erkan Sanches de Palasulloslar Sohibqiron qabulida bo'lishgan. Temur esa o'z navbatida qiroli Genrix III huzuriga Muhammad al-Keshiyi yorliq bilan yuborgan. Diplomatik munosabatlar Sultoniya arxiyepiskopi Ioani va Ispaniya elchisi Ryui Gonzales de Klavixonning<sup>136</sup> tomonidan amalga oshirilgan.

Temur va ovropalik hukmdorlarning bir-birlariga yuborgan nomalari muhim ilmiy qimmatga ega bo'lib, bu hujjatlar xorijiy davlatlar kutubxonalarida saqlanmoqda. Jumladan, Temurning Fransiya qiroli Karl VI ga yo'llagan ikki nomasi hamda uning javobi nusxalari Parij milliy kutubxonasida, Angliya qiroli Genrix IV ning

<sup>133</sup> Шарафуддин Али Яздий. Зафарнома. Т.: "ШАРҚ", 1997.- 295 б.

<sup>134</sup> Каримов Ш.Шамсутдинов Р. Ватан тарихи. Т.: "Ўқитувчи", 1997.- 394-396 б.

<sup>135</sup> Низомиддин Шомий. Зафарнома. Т.: "Ўзбекистон", 1996. - 415 б.; Шарафуддин Али Яздий. Зафарнома. Т.: "ШАРҚ", 1997.- 394 б.

<sup>136</sup> Шарафуддин Али Яздий. Зафарнома. Т.: "ШАРҚ", 1997.- 290 б.

Temur va uning farzandlariga yo'llagan maktublarining nusxalari London kutubxonasida saqlanmoqda. Ular Angliya qirolining ko'p jildlik "Yozishmalar" kitobidan ham joy olgan. O'sha maktublarning bir qismi "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" haftnomasida (1992 yil 23 may) e'lon qilindi. Ularda Boyazid ustidan qozonilgan g'alabani mohiyati ko'rsatilib, tomonlar o'rtasidagi munosabatlarni mustahkamlash, hamma sohalarida, xususan savdo-sotiq aloqalarini yo'lga qo'yish va uni keng ko'lamda rivojlantirish, karvon yo'llari xavfsizligini ta'minlash masalalariga oid fikrlar olg'a surildi. Jumladan, Sohibqironning Fransiya qiroli Karl VI ga 1402 yilning 1 avgustida yo'llagan maktubida "tijorat ishlarining foydali bo'lushiga erishaylik",- deyilsa, Karl VI ning maktubida, jumladan Temurning "xristian mazhabiga mansub fuqarolariga nisbatan muruvvatli bo'layotganidan minnatdorchilik" bildirgan. Ko'rinib turibdiki, hozir O'zbekistonda ommalashib borayotgan xalqaro tijorat tushunchasiga o'sha vaqtlar, ya'ni bobomiz Temur zamonida asos solingan edi. Tashqi siyosiy - iqtisodiy aloqalar, elchilik munosabatlari singari ko'pgina boshqa muhim ishlar tarixi va ibtidosini ham shunday tushunmoq va sharhlamoq zarur<sup>137</sup>.

### § 1.3. Amir Temurning O'rta Osiyo va jahon tarixida tutgan o'rni. "Temur Tuzuklari"- davlat boshqaruv ishida muhim manba sifatida

Amir Temur o'z davlatini barpo qilishda o'tmishda mavjud siyosiy boshqaruv tajribalaridan keng foydalangan. U qadimgi va o'rta asrlarda Sharq mamlakatlaridagi siyosiy hamda ma'muriy idora usuli, boshqaruv tizimlari haqida keng tasavvurga ega bo'lgan. Mazkur davlat o'z tarkibiy tuzilishiga ko'ra ko'proq harbiy-siyosiy tartiblarga asoslangan. Amir Temurning davlat boshqaruv tizimi markazlashgan siyosiy tartib asosiga qurilgan bo'lib, bu sohada o'rta asrlardagi idora usullari tajribasi bilan boyitilgan edi. Amir Temurning Nizomulmulk tomonidan yaratilgan "Siyosatnoma" asaridan davlat ishlarida keng qo'llanma sifatida foydalanishi, "Temur tuzuklari"da "Siyosatnoma"-dan fikrlar keltirishi bunga yorqin misoldir. Shuningdek, Amir Temur

<sup>137</sup> Нарзулла Ахмедов. Амир Темур ривоят ва ҳақиқат. Т.: "Қомуслар Бош таҳририяти", 1996.- 55-56 б.



saltanat ishlarida o'zining pirlari maslahatlaridan ham foydalangan. Jumladan, asli xurosonlik bo'lgan shayx Zaynuddin Abubakr Toyobodiy, Sayyid Baraka, Mir Sayyid Sharif Jurjoniy, Termiz sayyidlaridan Ala-al mulk, Abul Maoliy va Ali Akbarlar Amir Temurga davlatni boshqarish ishlarida kengash, mashvaratu maslahat, hushyorlik, ehtiyotkorlik amallariga rioya etishni maslahat berganlar. Davlat boshqaruv ishlarida Sohibqiron islom qonun-qoidalariga asoslangan. Uning Quroni Karim va hadisi shariflarga bo'lgan munosabati samimiy va oliy darajada bo'lgan. Payg'ambar avlodlari, shayhul-mashoyixlarga hurmati cheksiz bo'lgan. Davlatni kuchaytirishda ham aynan shunday kishilarga tayanib ish yuritgan<sup>138</sup>.

Amir Temur davlatchilikning sakkizta asosiga amal qilgan:

-davlat siyosiy jihatdan mustaqil bo'lishi;

-davlat va jamiyatning yaxlitligi buzilmasligi;

-davlat va jamiyat muayyan qonunlar, tartiblar, mafkura asosida boshqarilmog'i.

-boshqaruv tizimining muvofiqlashtirib turuvchi qoidalar shakllangan bo'lishi;

-jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar ahvoli diqqat e'tiborida bo'lishi;

-fan va madaniyat ravnaqi to'g'risida doimiy qayg'urish;

-har bir shart-sharoiti, tartiblariga ko'ra davlat jamiyat ichki taraqqiyoti masalalarini tashqi dunyodagi mavjud omillardan foydalangan holda olib borishi<sup>139</sup>;

-davlat tepasidagi kuchlar o'tmish, zamona va kelajakni teran tafakkur, mustahkam iymon, g'oyat yuksak ma'naviyat va millatparvarlik ila anglamog'i lozim.

Amir Temur davlatchilikning bu asoslariga to'qqizinchisini, jamiyat rivoji va barcha ijtimoiy tabaqalar, manfaatlarini ta'minlashni qo'shdi.

Boshqaruv ikki idoradan: dargoh va vazirlik (devon) dan iborat bo'lgan. Dargohni Oliy hukmdor boshqargan. Dargoh faoliyatini boshqarish, uning devonlar, mahalliy hokimiyat idoralari bilan bog'lanib turish ishlari Oliy devon zimmasida bo'lgan.

Oliy devonda – ijroiya hokimiyatda bosh vazir, harbiy vazir, mulkchilik va soliq ishlari vaziri, moliya vaziri turgan. Sarhadlar va tobe' mamlakatlarning boshqaruvi bilan shug'ullanuvchi yana uch vazir bo'lgan va devonbegiga hisobot berib turgan<sup>140</sup>. Amir Temurning fikricha, vazir to'rt sifatga ega bo'lishi kerak. Bular: 1) asllik va toza nasllik; 2) aqlu farosatlilik; 3) raiyat va sipoh ahvolidan boxabarlik; 4) sabr-toqatlilik va tinchliksevarlik. Binobarin, shu to'rt sifatga ega bo'lgan kishilargina hazrat Amir farmoni bilan vazirlik mansabiga tayin etilgan, mamlakat ishlari, raiyat va sipohning ixtiyori ularning qo'lga topshirilgan<sup>141</sup>.

Markaziy hokimiyat tizimida shayxulislom, kozikalon, qoziyi ahlos (odat bo'yicha hukm chiqaruvchi qozi), qozi askar, sadri a'zam (vaqf yerlari, mulklari mutasaddisi), dodxoh (shikoyatlarni ko'ruvchi), eshikog'a, saroy vaziri, yasovul (hukmdorning shaxsiy buyrug'ini bajaruvchi), qalaqchi (xiroj miqdorini aniqlovchi), muhassil (soliq undiruvchi), tavochi (asosiy qo'shinlarni to'plash ishiga mutasaddi amaldor), qorovulbegi, qutvol (qal'abon), muhtasib (shariat qoidalari ijrosini, bozor tartiblarini nazorat qiluvchi) va boshqalar bo'lgan<sup>142</sup>. Shuningdek, dargohda bosh hojib, xojiblar, xazinabon, xonsolar, jibachi, qushchi, bakovul, kotiblar, bitikchilar, tabiblar, sozandalar, dorixonachilar bo'lgan. Devonda kirim va chiqimlarni qayd etish turk-o'zbek va fors-tojik tillarida olib borilgan<sup>143</sup>. Sharafuddin Ali Yazdiy Temur saroyidagi so'z ustalari, sharhlovchilar, kotiblar ham turkiy tilda ham forsiy tilida yozganliklarini ma'lum qiladi<sup>144</sup>.

Amir Temurning tarixdagi xizmati shundan iboratki, u davlatchilikning boshqaruv tizimi, ichki va tashqi siyosatining tartib-qoidalari, huquqiy asoslarini yangi tarixiy sharoitda takomillashtirdi. Uning tashqi va ichki favqulodda voqealardan voqif etib turuvchi ming nafar piyoda, ming nafar tuya mingan, ming nafar ot mingan choparlari bo'lgan. Butun saltanat bo'ylab bir kunlik yo'l oralig'ida otxonalari bo'lgan aloqa manzillari tashkil etilgan. Har bir otxonada 50-200 boshdan ot-ulov tutilgan.

<sup>140</sup> Ўша ерда.-133 б.

<sup>141</sup> Аҳмедов Б. Амир Темурни ёд этиб. -Т.: "Ўзбекистон", 1996. -11 б.

<sup>142</sup> Сағдуллаев А.,Аминов Б.,Мавлонов Ў.,Норкулов Н. Ўзбекистон тарихи: давлат ва жамият тараққиёти.Т.: "Академия", 2000. -133 б.

<sup>143</sup> Мўминов И. Амир Темурнинг Ўрта Осиё тарихида тутган ўрни ва роли. Т.: "Фан", 1993. -33 б.

<sup>144</sup> Ўша ерда.

<sup>138</sup> Сағдуллаев А.,Аминов Б.,Мавлонов Ў.,Норкулов Н. Ўзбекистон тарихи: давлат ва жамият тараққиёти.Т.: "Академия", 2000. -134.

<sup>139</sup> Сағдуллаев А.,Аминов Б.,Мавлонов Ў.,Норкулов Н. Ўзбекистон тарихи: давлат ва жамият тараққиёти.Т.: "Академия", 2000. -132 б.

Sohibqiron mamlakatni boshqarishda o'z yaqinlariga suyangani<sup>145</sup>. Mamlakatning g'arbiy viloyatlari o'rtanacha o'g'li Mironshohga, Balx viloyati katta o'g'li Jahongir mirzoga, Xuroson kichik o'g'li Shohruh mirzoga suyurg'ol etilgan. U nabiralarga ham suyurg'ol bergan. Jumladan, Isfaxonni Umarshayxning o'g'li Rustamga, Bog'dodni Mironshohning o'g'li Abubakrga suyurg'ol qiladi<sup>146</sup>.

Tarixiy manbalarda, yilnomalarda Temurning dinga munosabati haqida ma'lumotlar saqlanib qolgan. "Temur tuzuklari"da aytilishicha, Temur saltanati qudratini tartib va tinchlik o'rnatishni dini islomsiz, qonunlarsiz tasavvur qilolmagan. Temur mamlakatda shariat qonun-qoidalarini hayotga tatbiq qilish uchun qator chora-tadbirlar ishlab chiqadi. Xususan, u sayyidlar orasidan islom ahllariga sadrlar tayinlaydi, vaqf yerlarini boshqarish uchun mutavalliy, shahar va viloyatlarga esa qozi, muftiy va muhtasiblar belgilaydi<sup>147</sup>. Bulardan tashqari u shaharlarda masjid, xonaqoh va madrasalar qurdiradi, yo'l ustiga rabotlar, daryolarga ko'priklar barpo qiladi<sup>148</sup>. "Musulmonlarga diniy masalalarni o'rgatib, - deydi Temur, - shariat aqidalari va islom dini ilmlari, tafsir, hadis fiqhdan dars bersin deb, har bir shaharga olimlar va mudarrislar tayinladim. Turli mamlakatlardagi sadrlar va qozilarga shariatning asosiy talablari qanday bajarilayotganidan meni xabardor qilib turishni buyurdim<sup>149</sup>. Shunga o'xshash har el va har shaharda sipoh va raiyat orasida bo'ladigan urf-odatlariga oid janjalli ishlar haqida menga ma'lumot berib tursin deb adolat amirlarini tayinladim. Shu tariqa islom dinini rivojlantirib, shariatni musulmon mamlakatlariga yoydim"<sup>150</sup>.

Amir Temur o'z oldiga ulug' davlatning ichki siyosati va ishchan davlat tizimini qadimiy tajribalaradan ijodiy foydalangan holda tuzish, harbiy siyosatni zamona talabi asosida tobora takomillashtirib, mo'g'ul istilosi asoratlarini tezroq bartaraf etib, xalq xo'jaligini oyoqqa qo'yish, savdo-sotiqni, hunarmandchilik va to'qimachilikni yo'lga qo'yish, muhimi aholi manfaatlarini himoya qilish, islom dinini

<sup>145</sup> Сагдуллаев А., Аминов Б., Мавлонов Ў., Норкулов Н. Ўзбекистон тарихи: давлат ва жамият тараққиёти. Т.: "Академия", 2000. -133 б.

<sup>146</sup> Сагдуллаев А., Аминов Б., Мавлонов Ў., Норкулов Н. Ўзбекистон тарихи: давлат ва жамият тараққиёти. Т.: "Академия", 2000. -134 б.

<sup>147</sup> Темур тузуқлари. Т.: "Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат", 1996. -73 б.

<sup>148</sup> Ўша ерда.

<sup>149</sup> Темур тузуқлари. Т.: "Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат", 1996. -73 б.

<sup>150</sup> Ўша ерда.

kuchaytirish, ilm-fan, madaniyat, me'morchilikni tubdan rivojlantirish, obodonlashtirish ishlarini keng ko'lamda jadallashtirish kabi dolzarb vazifalarni qo'ygan edi. Bu vazifalarni bajarishga Movarounnahrda hukmronlikni qo'lga kiritgandanoq kirishgandi.

Uning bunday sayi harakatlari bir necha o'n yillar tanazzulda bo'lgan ulkan hududni qoloqlikdan chiqarish, uni taraqqiyot bosqichiga ko'tarish oson emas hamda katta kuch-g'ayrat, mablag', bilim va oqilona tadbirlarni talab qilardi. Amir Temurdagi tabiat in'om etgan noyob aql-zakovat, iste'dod, qobiliyat ana shu o'rinda ham qo'l keldi. U shijoat, matonat, fidoyilik bilan tinim bilmay, kuch-g'ayratini shu maqsadlarga safarbar etdi<sup>151</sup>.

Amir Temur davrida Movarounnahrda aholining yashash darajasi va sharoiti yaxshilangan. Yagona markazlashgan davlatning shakllanishi va rivoj topishi bilan oddiy aholining tinch va osuda yashab, mehnat qilishiga shart-sharoit yaratildi.

Mo'g'ullar istilosi davrida va undan keyin Amir Temurning markazlashgan davlat barpo etgunga qadar O'rta Osiyo va unga qo'shni hududlarning xalq ommasi nihoyatda og'ir azob-uqubatlar, qiyinchiliklar bilan hayot kechirayotgan edi. Mo'g'ullarning vayronagarchilik va buzg'unchilik ishlari tufayli mehnatkash aholining yashash sharoiti quyi darajaga tushib qoldi. Xo'jalikni qayta tiklash ishlariga e'tiborsiz bo'lgan ko'chmanchi mo'g'ullar xalq boshiga turli soliqlarni soldilar, ular orasidan ba'zilarini qullarga aylantirdilar.

Amir Temur hokimiyat tepasiga kelgach, u mamlakatda qayta tiklash ishlari, obodonchilik, sug'orish tarmoqlarini ta'mirlash ishlariga katta e'tibor qaratdi. Turli toifaga mansub mulk sohiblarini bir qo'l ostida birlashtirdi. Qattiq intizom har qanday zodagonni o'z hukmdori oldida bosh egishga majbur qilar edi. Mehnatkash xalq, jumladan hunarmand qatlamiga mansub kishilarning yashash darajasi ancha yaxshilandi. Shaharlarda, madaniyat markazlarida yaratuvchilik, obodonchilik ishlari nihoyatda kuchayib ketdi<sup>152</sup>.

Amir Temur va uning avlodlari davrida ham temuriy shahzodalar va xonzodalar tarbiyasiga a'lohida e'tibor berilgan. Tarixchi olim Bo'riboy Ahmedovning ta'kidlashicha, yangi tug'ilgan shahzodalarni,

<sup>151</sup> Нарзулла Аҳмедов. Амир Темур ривоят ва ҳақиқат. Т.: "Қомуслар Бош таҳририяти", 1996. -56 б.

<sup>152</sup> Каранг: Ибн Арабшоҳ. Ажонб ал-мақдур фи тарихи таймур. (Темур тарихида тақдир ажойиботлари). II китоб Т.: "Меҳнат", 1992. - 127-129 б.

hayotiy tajribasi bo'lgan buvalari yoki katta onalari tarbiyasiga topshirganlar. Jumladan Mirzo Ulug'bek bir oylik bo'lmasdan Amir Temur uni suyukli xotini Saroymulk xonim (Bibixonim)ning tarbiyasiga topshirgan<sup>153</sup>.

Ulug'bek chaqaloqligidan boshlab bobosining juda ko'p harbiy yurishlarida birga bo'lgan. Amir Temur bolalarini yurishlarda suyagi qotib, ko'zi pishishini, dunyoni ko'rib chiniqishini istagan.

Shahzodalar 4 yoshidan boshlab, maxsus qissaxonga biriktirilgan. Shahzodaning bu yoshida hech narsaga befarq bo'lmasdan, aksincha, o'z hayoti davomida olishi mumkin bo'lgan barcha informatsiyaning 70 foizini 5 yoshgacha olishini ajdodlarimiz bilganlar. Qissaxonning aytib bergan hikoyat va rivoyatlari shahzodaning zehni peshlab, xotirasini mustahkamlashga yordam bergan. Temuriy shahzodalardan bo'lgan Ulug'bekning kelajakda osmon ilmi nujm bilan shug'ullanib, mashhur olim bo'lib yetishishida, uning qissaxoni Xamza ibn Ali Tusiyini o'rni beqiyosdir<sup>154</sup>.

Ajdodlarimiz farzandlarining savodini chiqarishdan tashqari, unga biror kasbni ham o'rgatishga harakat qilganlar. Jumladan Temuriy shahzodaning xat savodi chiqqandan keyin, u 8 yoshidan madrasaga o'qishga berilgan. Madrasada diniy ilmlardan qur'on, tafsir, fiqh va qiroatni o'rgatganlar. Shahzodalar Qur'onni yaxshi bilganlar, yaxshi qiroat qilganlar. Ularga dunyoviy ilmlardan riyoziyot, falakiyot, mantiq, adabiyot, tarix singari fanlarni o'qitganlar. Shu fanlar qatorida shahzodalar musiqa, musiqashunoslik, she'riy nutq va aruz ilmi bilan ham jiddiy shug'ullanganlar. Jumladan, biz astronom olim sifatida tanigan Mirzo Ulug'bek ham o'z davrida she'rlar yozib, 5-6 kuy bastalaganligi tarixdan ma'lum<sup>155</sup>.

Saroyda maxsus muallimlar shahzodalarga harbiy ishlarini o'rgatib, har-xil tabaqa vakillari, shuningdek elchilar bilan muomala qilish madaniyatini hamda davlat ishlarini boshqarishga o'rgatganlar.

Harb ilmini o'rgatishda maxsus ustozlar yollanib, ular shahzodalarga avvalo ot minish san'atini o'rgatganlar. Shahzodalar nayza otishni o'rganib, nayzani daraxt shoxiga ilingan xalqa orasidan o'tkazib otishgan. Ular ot ustida chavg'on, ya'ni chim xokkeyi ham o'ynaganlar.

<sup>153</sup> Б. Ахмедов. Амир Темурни ёд этиб. Т., «Ўзбекистон» 1996. 60 б.  
<sup>154</sup> Ўша асар. 61 б.  
<sup>155</sup> Ўша асар. 124 б.

Saroyda qilichbozlik san'atiga ham alohida e'tibor berganlar. Shuningdek, poyga qo'yish, ko'pkari chopish singari o'yinlar harbiy doirasiga kirgan. Shuning uchun bularni hammasini shahzodalar 7-8 yoshidan to 12 yoshgacha o'rganganlar. O'n ikki yoshidan boshlab esa, har bir shahzoda "Suluk ul-muluk - podsholar uchun qo'llanma"si bilan tanishtirilgan. Unda hukumat vazifalarini qay yo'sinda bajarish, amirlarni qanday tayinlash, arz eshitish, hukm chiqarish singari masalalar yoritilgan. Shahzodalarga amaliy saroy odobi ham o'rgatilgan. Ular qo'shni mamlakatlardan kelgan hukmdorlar hamda elchilar oldiga salomga kirib, ular bilan tanishganlar, kerak bo'lganda podshoga xizmat ko'rsatib, elchi olib kelgan xatni podshoga olib berganlar<sup>156</sup>.

Shahzodalar o'n ikki yoshga to'lganda, ularga viloyat berilib, obro'li amir yoki beklardan biri murabbiy etib tayinlangan. Bola 16 yoshga to'lguncha murabbiy uning nomidan viloyatni boshqargan.

Temuriylar davridagi saroy tarbiyasidan amir va beklarga taqlid qilib, o'z farzandlari tarbiyasida foydalanganlar. Hunarmand va dehqonlar esa beklar oilasidagi bola tarbiyasini namuna sifatida qabul qilganlar. Buning natijasida temuriylar davrida ilm-fan taraqqiyoti va madaniyatning rivojlanishiga, umuman olganda ko'p sohalarida yuksalishga erishildi.

"Temur tuzuklari"da<sup>157</sup> Amir Temur o'z mamlakatini boshqarishda aholini ma'lum ijtimoiy qatlamlarga bo'lganligiga qayd etilgan. Ular asosan o'n ikkita guruhga bo'lingan holda o'sha davrdagi omma va xossaning bir-biriga nisbatan yaqqol ko'rsatadi. Bular quyidagi ijtimoiy toifalar:

1) sayyidlar, olimlar va shayxlar, 2) katta tajribaga ega ilmiy kishilar, 3) duo qiluvchi taqvodorlar, 4) lashkarning sipohlari, sarhang va amirlari, 5) askarlar va xalq ommasi, 6) davlat boshqaruv ishlarini ipidan-ignasigacha biladigan maslahatgo'y dono va aqlli kishilar, 7) vazirlar, kotiblar, devon boshlig'i, 8) tibbiyot ahli, munajjim va muhandislar, 9) muhaddislar va muarrixlar, 10) tasavvuf vakillari va oriflar 11) hunarmandlar va san'atkorlar 12) ajnabiy sayyohlar va savdogarlar.

<sup>156</sup> Б. Ахмедов. Амир Темурни ёд этиб. Т., «Ўзбекистон» 1996. 125 б.  
<sup>157</sup> Темур Тузуклари. Т.: 1991. -53, 63-66 б.; Темур Тузуклари. Т.: "Фофур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат", 1996. -82-84 б.



“Saltanatim qonun qoidalarini,- deydi Amir Temur o‘z “Tuzuklari” da,- shu o‘n ikki toifaga bog‘lab tuzdim. Shu o‘n ikkita toifani saltanatim osmonining o‘n ikki burji va davlatim korxonasining o‘n ikki oyi deb hisobladim”<sup>158</sup>. Amir Temur birinchi toifadan diniy, huquqiy va aqliy masalalarni o‘rgandi. “Ular saroyimga doimo kelib- ketib, majlislarimni bezab turishdi, - deb ta’kidlaydi u. Ikkinchi toifaga Temurbek dono kishilar, ehtiyotkor arboblar, sergak va oxirini o‘ylab, uzoqni ko‘rib ish tutuvchi odamlarni qo‘shadi. “Ularning suhbatlaridan, ishlaridan naf olib, tajriba hosil qilardim”, deb aytadi Amir Temur. Uchinchi toifaga, asosan xudojo‘y kishilar kiritilgan. “Ular haqida majlislarda, to‘ylarda, jang maydonida ko‘p barokotlar topdim”, - deydi jahongir. To‘rtinchi toifaga amirlar, sarhanglar hamda sipohsololrlar, ya‘ni harbiy boshliqlar kiritilgan va podshohi olam yaqin maslahatchilari, suyanchihi bo‘lganlar. “Sipohiygirlik ishlarida ularga tayanib, ulardan kengash tilar edim”, - deydi hazrat sohibqiron. Beshinchi toifaga kirgan sipoh va riyat toju taxtning asosiy suyanchig‘i bo‘lib, Amir Temur hamisha ularga bir ko‘z bilan qaradi, ularning boshini siladi<sup>159</sup>.

Amir Temur o‘z yonidagi ishongan kishilari –mahrami asrorlari bilan har ishni kengashib olgan. Ulardan dilidagini sir tutmagan. “Ular bilan sirdoshlik qilib, yashirin ishlar, mahfiy sirlarni ularga topshirgan”. Shu bois mahrami asrorlar oltinchi toifaga kiritilgan. Yettinchi toifadagi vazirlar, sarkotiblar va devon munshiylariga Amir Temur mamlakat ko‘z gusi sifatida e‘tibor bergan. “Tuzuklar”da davom etib,- Amir Temur, deydi,- “elu ulusda bo‘layotgan voqealarni, sipohu riyatning turish-turmushini menga bildirib turadilar. Bular davlat xazinasi, sipoh va riyatga oid ishlarni tartibga solib yuritdilar. Saltanat mulkiga tushgan rahnalarni berkitishning zarur chora-tadbirlarini ko‘rdilar”. -deb hurmatini bildiradi. U (sakkizinchi toifa) xakimlar, tabiblar, munajjimlar va muhandislarni ham davlat tayanchi deb hisoblagan. Amir Temur,- “muhandislar bilan ittifoqda oliy imoratlar bino qilib, bog‘u bo‘stonlarning tarhini (loyihasini) chizdirdim”, - deydi. To‘qqizinchi toifa bo‘lgan muhandislar (hadis olimlari) va rivoyat aytuvchilar (tarixshunoslar) bo‘lib, Amir Temur bu

<sup>158</sup> Ахмедов Б. Амир Темурни ёд этиб. -Т.: “Ўзбекистон”, 1996. -8 б.  
<sup>159</sup> Ўша ерда.

toifani ham o‘ziga yaqin tutgan, ul zakovat va bilimlaridan foydalangan<sup>160</sup>.

Mashoyih, so‘filar va oriflar (o‘ninchi toifa) ham hazrat sohibqironga ma‘qul bo‘lgan. U davlat va sipohiygirlik ishlaridan forig‘ bo‘lgan paytlarida ularning suhbatidan bahra olgan. Sohibqiron ahli sanoat, ya‘ni kosiblarning (o‘n birinchi toifa) hurmatini baland tutgan. Chunki ular sipoh uchun kerak bo‘lgan qurol—yarog‘ va kiyim kechakni ular qadoq qo‘llari bilan yaratganlar. U savdogarlarni qo‘llagan chunki, ular mamlakatni ichki va tashqi savdosida hamda uning taraqqiyotiga hissa qo‘shib kelganlar<sup>161</sup>.

Yuqoridagi ijtimoiy qatlamlar Amir Temur davlatini ma‘muriy-boshqaruv tizimidagi tartiblar bilan aloqador holda uning harbiy-siyosiy xarakterda bo‘lganligini ham ko‘rsatib turibdi.

Amir Temur o‘z hukmronligi davrida davlat va harbiy boshqaruv, soliq tizimi ishlari bilan bir qatorda, dehqonchilik va obodonchilik ishlariga ham alohida e‘tibor bergan. Oddiy dehqonlarning turmush- ishlariga ham adolat mezonlarini o‘rnatishga harakat qilgan. “Amr qildimki”, - degan u “tuzuklar”ida, - hosil pishib yetilmasdan burun riyatdan molu jihot olinmasin, hosil yetilgach, hosilni uchga bo‘lib olsinlar. Agar riyat soliq to‘plovchi yubormasdan, soliqni o‘zi keltirib bersa, u holda u yerga soliq to‘plovchi yubormasinlar. Agarda soliq olishga yuborishga majbur bo‘lsalar, ular soliqlarni buyruq berish va yaxshi so‘z bilan olsinlar; kaltak, arqon ishlatib, ishni urush-so‘kishgacha olib bormasinlar<sup>162</sup>.

Amir Temur davrida yerga egalikning to‘rt turi mavjud bo‘lib, bular davlat yerlari, xususiy mulk yerlari, vaqf yerlari va jamoa yerlaridir. Yerga egalikning suyurg‘ol<sup>163</sup> – xususiy mulk turi keng tarqalgan bo‘lib, Temur o‘z farzandlariga, qo‘shin boshliqlariga, amir va sultonlarga davlat oldidagi xizmatlari uchun yer-suv va mol-mulkni inom etgan.

Hukmdor tomonidan, mamlakatda tinchlik va tartib o‘rnatishda, jang taqdirini hal qilishda ulkan xizmatlari uchun yirik davlat arboblari va harbiy sarkardalarga, amir, bek, saroy amaldorlari, sayidlar va boshqalarga tarxonlik yorlig‘i berilgan. Tarxonni suyurg‘ol bilan

<sup>160</sup> Ахмедов Б. Амир Темурни ёд этиб. -Т.: “Ўзбекистон”, 1996. - 9 б.

<sup>161</sup> Ўша ерда. -10 б.

<sup>162</sup> Темур Тузуклари. Т.: “Гофур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат”, 1996. - 124 б.

<sup>163</sup> Ўша ерда. - 73 б.

aralashtirib yubormaslik kerak. Suyurg'oldan keladigan foydaning 2/3 qismi suyurg'ol egasiga tegishli bo'lsa, qolgan qismi soliq sifatida to'langan. Tarxonlik yorlig'ini olgan mulkdorlar barcha soliq to'lov va majburiyatlardan ozod qilingan. Tarxonlik unvoniga ega bo'lganlarning gunohlari to'qqiz martagacha kechirilgan.

Sayid va xo'jalarga qarashli yer ushr yerlari deb atalgan. Ular o'z yerlaridan olgan daromadlarining o'ndan bir qismini davlatga soliq sifatida to'laganlar. Amir Temur o'z davlati tasarrufida in'om etilgan yerlar ustidan muntazam nazorat o'rnatirgan. Bu haqda "Temur tuzuklari"da shunday deyiladi: "Tiyul (xiroj va soliq yig'ib olish sharti bilan inom e'tilgan yer-mulk) qilib berilgan har bir mamlakatga ikkitadan vazir tayinlasinlar. Biri viloyatdan yig'ilgan mollarni yozib, raiyat ahvolini tekshirib tursinki, jogirdor fuqarolarga jabr-zulm yetkazib, uning holini xarob etmasin. U viloyatdan yig'ilgan butun mol -ashyolarni kirish daftariga yozishi lozim. Ikkinchi vazir esa (daromadning) xarj etilgan qismini chiqish daftariga yozsin va (yig'ilgan mollardan) sipohiylarning maoshiga taqsim qilsin. Qaysi amirga tiyul berilar ekan, uni 3 yilgacha o'z holiga qo'ysinlar. Uch yil o'tgandan so'ng, uni tekshirib ko'rsinlar. Agar ahvol bunga xilof ravishda bo'lsa ul viloyatni xolisaga (davlat ixtiyoridagi barcha soliqlardan ozod etilgan yer-suv)o'tkazib, 3 yilgacha o'sha togidor (inom etilgan yer-suv egasi)ga ulufa (oziq-ovqat, maosh, soliq turi) berilmasin"<sup>164</sup>. Amir Temur mulk qilib berilgan joylarda ham nazoratni kuchaytirib, mamlakatda don, paxta, poliz va meva-chevaning mo'l bo'lishini ta'minlashga e'tibor bergan.

"Temur tuzuklari"da mamlakatdagi soliq tizimi ma'lum meyorga tushirilganligi bayon qilinadi<sup>165</sup>. Jumladan, kimki sahroni obod qilsa, birinchi yili undan hech narsa olinmagan. Ikkinchi yili raiyat o'z roziligi bilan bergan narsa olingan. Uchinchi yili qonun-qoidaga ko'ra xiroj olingan<sup>166</sup>. Soliqning asosiy turi xiroj bo'lib, u ekindan olingan hosilga va yerning unumdorligiga qarab yig'ilgan. Sug'oriladigan yerlardan hiroj hosilning 1/3 qismi miqdorida olingan. Agar yer egasi xirojni pul hisobidan to'lashga rozi bo'lsa, unda hosilning uchdan bir qismi bozor narxi hisobidan pulga chaqilgan<sup>167</sup>.

<sup>164</sup> Temur Tuzuklari. T.: "Fo'fur Fulom nomiдаги Адабиёт ва санъат", 1996. - 90 б.

<sup>165</sup> Ўша ерда. - 122-125 б.

<sup>166</sup> Ўша ерда. 124 б.

<sup>167</sup> Ўша ерда. - 123 б.

Lalmikor yerlarning hosili sug'oriladigan yerlarga nisbatan kam bo'lgani uchun, bunday yerlarda dehqonchilik qilgan muzoriylar umumiy hosilning 1/6 qismi miqdorida soliq to'laganlar. Bunday yerlar, odatda zamonasining ilm-fan, ma'rifat va ma'naviy hayotining akobir va ashraflari hisoblangan sayidlar, xo'jalar, ulamo va mashoyixlar tasarrufida bo'lgan. Bu davrda bog' va daraxtzorlardan "mol sardaraxt", yaylovlardan "mol o'tloq" va "suvloq" kabi soliqlar olinib, ularni to'plashda qadimdan rasm bo'lgan tartib-qoidaga amal qilingan<sup>168</sup>.

Do'kondor hunarmandlardan tamg'o solig'i olingan. Zarur bo'lganda aholi katta qurilishlarga jalb etilgan. Bu ishlarda mirobona, dorug'ona soliqlari undirilgan. Chegara hududlarida bojxona bo'lib, chetdan keladigan savdogarlardan boj undirilgan<sup>169</sup>. Mamlakat xavf ostida qolgan paytlarda favqulodda soliq (avorizot) yig'ib olingan. Mamlakat hududidan chopar yoki elchilar o'tayotganda, zarurat tug'ilganda, aholi ularga ot-ulov topib berishi lozim bo'lgan. Amir Temur davlatida olib borilgan soliq siyosatining adolatlilik xarakteri, uning davlat va jamiyat manfaatlaridan kelib chiqqanligida edi.

Amir Temur amaldorlardan doimo qonun va adolatga bo'y-sunishini talab qilgan. Ularga gunohkor deb hisoblanganlarga nisbatan kuch ishlatish, ularni qamchi yoki tayoq bilan urish taqiqlangan, bu qoidani buzganlar o'limga hukm qilingan. Temurning soliq siyosati va bu siyosatga oid tartib-qoidalarni o'rganish hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Amir Temur davlatida huquqiy munosabatlar Qur'oni Karim va Hadisi sharifdan bayon qilingan tartib qoidalarga asoslangan. Uning huquq va qonun unsurlari "Temur tuzuklari" da o'z aksini topgan. Bu asarda davlat yumushlari, harbiy soha, raiyat va ijtimoiy tuzumning barcha qatlamlari haqida so'z yuritilgan. "Temur tuzuklari" da ta'kidlanishicha, dunyoviy jihatlarni hukmdorning o'zi nazorat qilgan va kerakli jazoni ham aynan davlat boshlig'i bergan. Jumladan, ispan va elchisi Rui Gonsales de Klavixoning estaliklarida takidlanishicha, Temur shaharda olti yilu o'n bir oy bo'lmagan vaqtda, o'z o'miga hokim qilib tayinlab ketgan kishi, uning ishonchidan foydalanib o'z lavozimini suiste'mol qilib, ko'p xatoliklarga yo'l qo'yadi. Sohbiqiron

<sup>168</sup> Temur Tuzuklari. T.: "Fo'fur Fulom nomiдаги Адабиёт ва санъат", 1996. - 124 б.

<sup>169</sup> Сагдуллаев А., Аминов Б., Мавлонов У., Норкулов Н. Ўзбекистон тарихи: давлат ва жамият таракқиети. Т.: "Академия", 2000. - 137.

Samarqandga qaytgach, bu kishini oldiga chaqirib mol-mulkini musodara qilib, o'zini jazolaydi<sup>170</sup>.

Shariat ishlari qoziga berilgan. Biroq davlatning devonida, uning turli bo'g'inlarida ham alohida qozilar, sud, jinoyat va jazo ishlarini amalga oshirganlar. Masalan, lashkar uchun maxsus qozi, raiyat uchun alohida qozi tayinlangan<sup>171</sup>.

Amir Temurning ulkan markazlashgan davlatuda osoyishtalikni o'rnatish, iqtisodiyot va savdo-sotiq sohasida olib borgan siyosati, mamlakatdagi shaharlarni obodonlashtirish, ilm-ma'rifat, hunar va kasb egalari qadrini ko'tarish natijasida madaniyat taraqqiyoti yuksak pog'onaga ko'tarildi. Bu davrda madaniy hayotning kuchayish darajasi IX – XII asrlar orasidagi ilk musulmon renessansidan qolishmaydi. Bunda, ilm-fan, adabiyot va san'at, hunarmandlik va me'morchilik ravnaq topdi<sup>172</sup>. Temur mamlakatning iqtisodiy qudratini oshirishga harakat qildi. U ishg'ol qilgan mamlakatlarda katta boyliklarni qo'lga kiritib, ularni Movarounnahrda shaharlarni obodonchiligi uchun sarf qildi. Temur Samarqandda hashamatli binolar barpo qilish uchun g'isht teruvchi ustalar, pardozlovchilar, quruvchilar, o'ymakor ustalar, naqqoshlar va boshqalarni o'zga mamlakatlardan keltirdi. Minglab hunarmand va kosiblar Armaniston, Ozarbayjon, Kirmon, Fors va boshqa viloyatlardan olib kelindi<sup>173</sup>. Turkiyadan esa mergan ovchilar va boshqa hunarmandlarni: g'isht teruvchilar, zardo'z ustalarni, shuningdek, turli mutaxassislar – injenerlar, arqon to'quvchilarni ham olib keldi. Sohibqiron bu yerga har xil dastgohlarni olib keltirdi, bu dastgoxlardan arqon ishlab chiqarilardi.<sup>174</sup> Shundan keyin hozirgacha bu yerda bo'lmagan kanop va zig'irpoya ekildi<sup>175</sup>. Qamishdan shakar olish yo'lga qo'yildi. Movarounnahrda mayda hunarmandchilik,

<sup>170</sup> Руи Гонсалес де Клавихо. Амир Темур Европа элчилари нигоҳида. Буюк Амир Темур тарихи. – Т.: “Ғофур Ғулом”, 2007.- 126-127 б.

<sup>171</sup> Сағдуллаев А., Аминов Б., Мавлонов Ҷ., Норкулов Н. Ўзбекистон тарихи: давлат ва жамият тараққиёти. Т.: 2000. -137.

<sup>172</sup> Раҳмонов М. Темур ва темурийлар даври санъатига бир назар.// Амир Темур ва Темурийлар даврида маданият ва санъат. (Мақолалар). Т.: “Ғофур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат”, 1996.- 4 б.

<sup>173</sup> Хайруллаев М.М., А. Ҳуринбоев, О. Бўриев ва бошқалар. Темурийлар бунёдкорлиги давр манбаларида. Т.: “Абдулла Қодирий”, 1997.- 9-10 б.

<sup>174</sup> Руи Гонсалес де Клавихо. Амир Темур Европа элчилари нигоҳида. Буюк Амир Темур тарихи. Т.: “Ғофур Ғулом”, 2007.- 143 б.

<sup>175</sup> Мўминов И. Амир Темурнинг Ўрта Осиё тарихида тутган ўрни ва роли. Т.: “Фан”, 1993. -30 б.

to'qimachilik, ganchkorlik taraqqiy etdi, metall va nodir toshlar qayta ishlana boshladi<sup>176</sup>. Zahiriddin Boburning xabar berishicha, o'sha davrda Samarqandda eng yaxshi qog'oz ishlab chiqarila boshladi<sup>177</sup>.

Bu davrda tasviriy san'at-miniatura san'ati va monumental rassomlikda ham yuksalish yuz bergan, Bir talay miniatura asarlari maydonga kelgan. Bizgacha yetib kelgan tasviriy san'at yodgorliklari Samarqand, Hirot va Buxoroda bu san'atning o'ziga xos uslublari shakllangani, hayotni real tasvirlash rivojlanib borganligini ko'rsatadi.

Samarqandning Bog'i Shamolidagi Sohibqiron qurdirgan saroy rasmlarini chizgan Pirsaid Ahmadning tengi yo'q musavvir bo'lganini aytib, uning san'atidan hatto Sharqning buyuk rassomi Moniy ham uyalar edi,-deb yozadilar<sup>178</sup>. Zaxiriddin Bobur esa Dilkusho bog'i saroyidagi rasmlarda Temurning Hindiston safari tasvirlanganligini hikoya qiladi<sup>179</sup>.

Amir Temur davrida memorchilik san'ati ham taraqqiy etdi. Xususan, Temur Samarqandda Bibixonim, Ko'ksaroy masjidi, Shohi-zinda maqbarasini barpo qildi. Kesh (Shahrisabz) shahrida Oqsaroy qurilgan. Bu saroy haqida Amir Temur saroyiga kelgan Ispan elchisi Rui Gonsales de Klavixo o'zining kundaligida quyidagicha yozgan. Yigirma yildan beri qurilayotgan qasrning kirish qismi uzun, darvozasi juda baland. Kiraverishning chap va o'ng tomonida g'ishtdan ark qilinib, naqshlariga tilla suvi yuritilgan. Arkning ostida eshiksiz kichik xonalar joylashgan. Xonalarning pollari pastroq bo'lsa-da, juda chiroyli bezaklar bilan ziynatlangan. Bu xonalar Sohibqiron qasrga kelgan vaqtda odamlar o'tirishlari uchun qurilgan. Darvozaning orqasida ham shunga o'xshash xonalar bo'lib, ulardan katta hovliga chiqiladi. Hovlining yerlariga oq toshtaxtalar yotqizilgan, atrof juda ko'rkam bezatilgan. Eni uchuz qadamcha keladigan hovlining o'rtasida katta hovuz bor, hovlidan saroyning katta xonalaridan biriga o'tiladigan eshik juda mohirlik-la, tilla va dur-u gavharlar bilan bezatilgan<sup>180</sup>....mehmonlar uchun qurilgan to'rtburchak shakldagi katta

<sup>176</sup> Хайруллаев М.М., А. Ҳуринбоев, О. Бўриев ва бошқалар. Кўрсатилган адабиёт. - 9-10 б.

<sup>177</sup> Ҷша ерда.

<sup>178</sup> Раҳмонов М. Темур ва темурийлар даври санъатига бир назар.// Амир Темур ва Темурийлар даврида маданият ва санъат. (Мақолалар). Т.: “Ғофур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат”, 1996.- 6 б.

<sup>179</sup> Бобурнома. Т.: “Юлдузча”, 1990.-44 б.

<sup>180</sup> Руи Гонсалес де Клавихо. Амир Темур Европа элчилари нигоҳида. Тошкент-2007.-Б.- 110.



xonaga kirib boriladi Xonaning devorlariga tilla, dur-gavharlardan bezak berilgan, shiftlariga tilla suvi yurg'izilgan. Elchilarni tepa qavatga olib chiqishdiki, bu yerda xonalar shunchalik ko'pki, ularni birdaniga ta'riflab tugata olmaysan. Xonalarning bari oltin, dur-gavharlar bilan ziynatlangan, buni Parij ustalari ko'rsa, hayratda qolishlari tabiiy. Bunday ishlar ularda juda yuqori baholanadi<sup>181</sup>. Bulardan tashqari, Samarqand atrofida Bog'i Shamol, Bog'i Dilkusho, Bog'i Nav, Bog'i Chinor bog'lari barpo etildi. Amir Temur obodonchilik ishlariga katta e'tibor berib, ko'priklar, irrigatsiya inshootlari, rabotlar qurdirdi, kanallar o'tqazdi, ko'plab maktab, madrasa va xonaqohlar, hammomlar barpo qildi<sup>182</sup>. Uning davrida Samarqand yangicha usulda qayta qurildi<sup>183</sup>.

Amir Temur ustalarni Xorazm-Urganchdan, so'ng Tabrizdan, undan keyin Isfixon va Sherozdan, yana Bog'dod, Xalab va Damashqdan so'ng Hindistondan Samarqandga va Movarounnahrning ba'zi boshqa shaharlariga keltirgan. Bu haqda Ibn Arabshohning asarida quyidagicha keltirilgan: "Temur Damashqdan, - deb ko'rsatadi Arabshoh,- fazilat sohiblarini, turli hunar ahllarini va qanday bo'lmasin, biror kasb egasi bo'lgan mohir kosiblarni - to'quvchilar, tikuvchilar, san'atkorlar, duradgorlar, (temir) qalpoq yasovchilar, otboqarlar (mol tabiblari), chodir yasovchilar, naqqoshlar, yoy yasovchilar, lochindorlar - bir so'z bilan aytganda qanday hunar ahli bo'lsa (birga) olib keladi"<sup>184</sup>.

Damashqdan so'ng Amir Temur Bog'dod tomon yo'l olib, "odamlarning bir qismini Ollohdod (sohibqironning amirlaridan biri) bilan (birga) Samarqandga jo'natdi"<sup>185</sup>. Bu guruh uch-to'rt oydan so'ng 1401 yilning kuzida Samarqandga yetib keladi. "Ularning saflarida Shom ahlidan bir guruh (kishilar) bor ediki: (ularning) eng ko'zga ko'ringani vazir ash-Shohidiyning o'g'li qozi Shihobuddin Ahmad bo'lib, qolganlari esa, mol tabiblari, bo'yoqchilar, shoyi to'quvchilar edilar. Bular Temur Shomdan olib kelgan qimmatbaho

<sup>181</sup> Уша ерда.-Б.111.

<sup>182</sup> Хайруллаев М.М., А.Ўринбоев, О.Бўриев ва бошқалар. Темурийлар бунёдкорлиги давр манбаларида. Т.: "Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси", 1997.- 20 б.

<sup>183</sup> Мўминов И. Амир Темурнинг Ўрта Осиё тарихида тутган ўрни ва роли. Т.: "Фан", 1993.- 25 б.

<sup>184</sup> Ибн Арабшоҳ Ажонб ал-мақдур фи тарихи таймур. (Темур тарихида тақдир ажойиботлари). I китоб Т.: "Меҳнат", 1992.- 246 б.

<sup>185</sup> Уша ерда.-250 б.

yuklarning avvalgisi va u tergan asirlar-u boyliklar mevasidan Samarqandga yetib kelgan dastlabki samara edi"<sup>186</sup>.

O'rta Osiyo san'atining ko'zga ko'ringan tadqiqotchilari - san'atshunoslik fanlari doktorlari L.I.Rempel va G.A.Pugachenkovalar konkret ravishda har tomonlama olib borgan tekshirishlar natijasida XIV asrning oxiri va XV asrning boshlarida umuman Movarounnahr, xususan Samarqandda yangicha san'at yuzaga kelganligini qayd etadilar. Movarounnahr - O'rta Osiyoning original, o'ziga xos memorchiligi, san'ati, xususiyatlarini hamda O'rta va Yaqin Sharqda rivojlangan badiiy tafakkurni o'zida ifodalagan edi<sup>187</sup>.

Amir Temur davrida qurilgan Shirinbeka, Bibixonim, Tuman og'obidalarida naqqoshlik va hattotlik bilan birga tasviriy lavhalar ham mavjuddir. Shirinbeka og'ob maqbarasida tasvir ko'p ranglarda, qolgan ichki bino devorlarida oq va moviy rangdagi tabiat manzaralari tasvirlanadi. Hattotlik san'ati taraqqiyotiga XV asrda an'anaviy nasxi, kufiy, devoriy xatlari bilan birga peshtoqlarni bezovchi suls va tezkornasta'liq noyob qo'lyozma asarlar ko'chiriladigan maxsus ustaxonalar kitobchilikning ravnaqiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Bu davrda Samarqandda miniatyura rassomchilik maktabi tashkil topdi. Hozir Turkiya va Berlin kutubxonalarida saqlanayotgan ko'chirma - xomaki miniatyura nusxalari XIV-XV asrlarga oid bo'lib, ularda alohida shaxslar, daraxtlar, gullar, kichik kompozitsiyalar, naqshlarda chiziqlar uyg'unligi, harakatlar aniqligi, qiyofalarning o'z o'rnida joylash-tirilishi bilan ajralib turadi. Tarixiy shaxslarning qiyofalari ham miniatyuralarda aks etgan.

Amir Temurning tiriklik vaqtidagi qiyofasi aks etgan miniatyuralar hali topilmagan. Asl holatiga yaqin suratlar "Zafarnoma"ning dastlabki ko'chirilgan nusxalarida uchraydi. Uning bir muncha yorqinroq qiyofasi Hirotda (1467 y) ko'chirilgan "Zafarnoma"da keltiriladi. Dastlab Mirak Naqqosh boshlagan va Behzod yakunlagan ushbu miniatyurada boy kompazitsiya va serjilo bo'yoqlar uyg'unligi bilan ajralib turadi<sup>188</sup>.

<sup>186</sup> Уша ерда.-251 б.

<sup>187</sup> Мўминов И. Амир Темурнинг Ўрта Осиё тарихида тутган ўрни ва роли. Т.: "Фан", 1993.- 27 б.

<sup>188</sup> Мусаев Н.У., Азимов Ҳ.И. Маданиятшунослик. (Ўқув қўлланма). Т.: "ТДЮИТ", 2009.- 153 б.

Amir Temur hukmronligi davrida Samarqand, Hirot va boshqa shaharlarda xalq sayillari va tomoshalar ommaviy tus olgani va ularda keng omma qatnashgani haqida Sharafitdin Ali Yazdiy, Ibn Arabshoh, Rui Gonsales de Klavixo kabi o'sha davrning mashhur muarrixlari qimmatli ma'lumotlar beradilar. Jumladan, Klavixo Samarqandda o'tgan shunday sayil va tomoshalarning guvohi bo'lib, bu haqda u quyidagilarni yozadi: "To'qqizinchi oktabr, payshanba kuni Sohibqiron nabirasining to'yi munosabati bilan butun shahar aholisiga ma'lum qilib, savdogar, do'kondorlar, hatto gazmol sotuvchilaridan tortib zargarlargacha, barcha hunarmandlar – oshpazlardan tortib, qassob va tikuvchi etikdo'zlargacha, umuman shahardagi barcha kasb egalari va kasabalarining hammasi o'rda atrofida o'z chodirlarini tikib, katta sayil o'tkazsinlar va har bir kasaba o'z hunariga monand o'yinlar ko'rsatib hammani xursand qilsinlar", -deb farmoyish bergan. Bu sayilga elchilar ham taklif etiladi. Saylni o'tkazish uchun o'rda atrofida benihoya go'zallik kashf etgan edi<sup>189</sup>.

Yevropalik elchilar Amir Temur davlatidagi boylik va hashamni to'laligicha his qildilar, bu haqda Klavixo quyidagilarni yozadi. Ular taklif etilgan uy benihoya qimmatbaho shohidan yaselib, unda har biri to'rt poyali, yaxlit yasalgan xontaxtalarning uzunligi ikki yarim, kengligi bir yarim qarich keladi. Xontaxta ustiga yettita oltin quvacha qo'yilgan. Quvachalardan ikkitasining sirtiga yirik-yirik marvarid, zumrad, feruzalar o'yib joylashtirilgan. Har birining o'yilgan chiziqlari zihiga yoqut yopishtirilgan. Bundan tashqari, xontaxta ustida oltita dumaloq tilla kosa qo'yilgan bo'lib, ulardan birining ichiga yirik dumaloq guldor marvaridlar bilan sayqal berilgan. Kosa o'rtasiga yo'g'onligi ikki barmoq keladigan chiroyli rangdagi tabiiy yoqut yopishtirilgan<sup>190</sup>. Podshoh nomidan uyushtirilgan ushbu bazmga elchilar ham taklif etildilar. Bu tomosha o'zining hashamatli, ko'rkamligi, undagi o'yinlarning serzavqligi bilan elchilarda chuqur taassurot qoldirgan.

Arabshoh Sohibqiron Samarqandda to'plagan mashhur olimlar, munajjimlar, san'atkorlardan o'z xotirasida qolganlarni tilga olib

<sup>189</sup> Руи Гонсалес де Клавихо. Амир Темур Европа элчилари нигоҳида. Буюк Амир Темур тарихи. Т.: "Фофур Фулом", 2007.- 126 б.; Руи Гонсалес де Клавихо. Самарқандга- Амир Темур саройига саёҳат кундалиги. (1403-1406 йиллар). Т.: "O'zbekiston", 2010.- 174 б.

<sup>190</sup> Руи Гонсалес де Клавихо. Самарқандга- Амир Темур саройига саёҳат кундалиги. (1403-1406 йиллар). Т.: "O'zbekiston", 2010.- 161 б.

tabrizlik mohir xattot Ibn Bagir, Tojuddin as-Salmoniy, munajjim va misgar mavlono Ahmad, sherozlik zargarlardan al-Hoj Ali va al-Hoj Muhammad, Hofiz sangtarosh va naqqosh Oltunlar nomini alohida qayd qiladi. "Uning (Temurning) naqqoshlari ko'p, ularning eng ustini Abdulhay al-Bag'dodiy bo'lib, u o'z san'atida mohir edi: bog'bonlardan Shihobuddin Ahmad al-Zarkashiy: shisha va misga naqsh soladiganlar va ulardan boshqalar hisobsizdirlar. Ularning har biri o'z asrining allomasi, o'z davrining mo'jizakor (kishi)lari edilar.... Xullasi kalom, Temur har bir (foydali) jonni yig'ib, nimaiki bo'lsa sarasini Samarqandga keltirdi. Natijada Samarqandda har bir ajib fan ahli namoyondalaridan va san'atlar g'aroyib uslubidan, fazilatidan ustun turgan o'z sohasida alloma kishilar yig'ilgan edi"<sup>191</sup>.

Arabshoh qoldirgan ma'lumotlar orasida, Amir Temur Samarqandda qurdirgan saroylar ichida devoriy rasmlar bo'lgani haqidagi gaplar muhimdir. Bu qarzlarning qay biriga o'z majlislarini, o'z suratlarini turli shakllarda chizdirgan. "... Birida kulib turgan, ikkinchisida qahrangan, o'zgarida esa jang tasviri, rasmiy tantanalar tasvirlanadi: yana bir xillarida podshohlar, amirlar, sayidlar, ulamolar va ulug'lar bilan suhbat majlislari ko'rsatiladi: uning huzurida qo'l qovushtirib turgan sultonlar xizmat yuzasidan boshqa mamlakatlardan kelgan o'zga podshohlar-u sultonlarning vakillari, o'zining ov halqalari-yu yashirin haydalarini, Hind, Dashti Qipchoq va Ajamdagi zafarli janglari – dushmanlarining qay ahvolda yengilib qochganini ko'ramiz. Boshqa birlarida amir avlodlari, nabiralari suratlarini, ayshu ishrat majlislari va sharbatli qadahlar-u qadah sohiblarini, o'z ulfati qo'shiqchilarining, g'azalxonlik kuychilarning, pokxonimlarning va bulardan boshqa, uning butun umri mobaynida o'zga mamlakatlarda voqea bo'lgan va bir-biriga ulanib ketgan hodisalarni uchratamiz". Bularning hammasi mubolag'asiz va oshirmasdan, qay holda yuz bergan bo'lsa, shundayligicha aks ettirildi. Bundan maqsad, o'zining ishlaridan g'oyibona xabardor bo'lib turish, ularni mushohada etmaganlarga yaqqol namoyon qilib ko'rsatish edi.

Ming afsuski, bu devoriy suratlar ular bilan bezatilgan saroy va qarlar singari yo'q bo'lib ketgan. Amir Temurning XV asr, undan keyingi vaqtlarda ishlangan suratlarini saqlangan. Ammo-lekin bu miniatyuralardagi sohibqironning tasviri uning o'ziga xos siymosini,

<sup>191</sup> Ибн Арабшох. Кўрсатилган адабиёт. -86-87 б.

shakl-shamoilini, sifatlarini qay darajada to'g'ri va aniq ifoda etganligini, ular Amir Temur davridagi portretlardan ko'chirmami yo bo'lakcha ekanligi haligacha aniqlanmagan. Shuning uchun hozirgi zamon tasviriy san'atidagi urinish izlanishlarni benuqson deb bo'lmaydi<sup>192</sup>.

Amir Temur hukmronligi davrida xonanda va sozandalar rasmiy-diplomatik, harbiy va boshqa tantanalarning doimiy qatnashchilariga aylanib, xalq tomoshalari, ommaviy bayramlar ularsiz o'tmas edi. Bu esa, o'z navbatida, musiqaning boshqa san'atlar qatoridan muhim o'rin egallashini ta'minladi. Manballarda keltirilishicha, o'zbek xalqi musiqasi qatori harbiy-rasmiy musiqalar turlari, mumtoz maqom san'ati, mintaqaning boshqa turkiy hamda arabzabon, forsiy zabon xalqlarining musiqaviy folklori rivoj topdi. Eng muhimi, musiqiy anjomlar jasorat va mardlik timsollariga aylandi<sup>193</sup>. "Amr qildimki,-deb yozadi Amir Temur o'z "Tuzuklari"da, - qaysi bir amir biron mamlakatni fath etsa, yo g'anim lashkarini yengsa, uni uch narsa bilan taqdirласinlar: fahrli xitob, tug' va nog'ora berib, uni "bahodir" deb atasinlar"<sup>194</sup>.

Amir Temur "Tuzuklari"da xalq cholg'u asboblari bo'lgan munosabati yaqqol namoyon bo'lgan. "Amr qildimki, o'n ikki katta amirlarning har biriga bitta bayroq va bir nog'ora berilsin. Amir ul-umaroga bayroq va nog'ora, tuman tug'i va chortug' taqdim etsinlar. Ming-boshiga esa bir tug' va karnay bersinlar. Yuzboshi va o'n boshiga bittadan katta nog'ora bersinlar. Aymoqlarning amirlariga bo'lsa, bittadan burg'u taqdim etsinlar. To'rt beglarbegining har biriga bittadan bayroq, nog'ora, chortug' va burg'u bersinlar"<sup>195</sup>.

Qizig'i shundaki, Sohibqiron fikricha, oddiy xalq orasida keng tarqalgan milliy cholg'u asboblari qonuniy ravishda hokim va lashkar boshilarning ijtimoiy va harbiy maqomini belgilab beruvchi timsolga aylandi<sup>196</sup>. Temur davriga xos bo'lgan ma'naviy ko'tarinkilik musiqas san'atining deyarli barcha jabhalari uchun keng imkoniyat

<sup>192</sup> Умаров А. Мусаввирлик санъати ҳақида.// Амир Темур ва Темурийлар даврида маданият ва санъат. (Мақолалар). Т.: "Ғафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат", 1996.- 29-30 б.

<sup>193</sup> Умаров А. Мусаввирлик санъати ҳақида.// Амир Темур ва Темурийлар даврида маданият ва санъат. (Мақолалар). Т.: "Ғафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат", 1996.- 34 б.

<sup>194</sup> Темур Тузуклари. Т.: "Ғафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат", 1996.- 102 б.

<sup>195</sup> Ўша ерда. 104 б.

<sup>196</sup> Ўша ерда.

tug'dirib berdi: sozandalik va xonandalik, musiqa ta'limi, bastakorlik ijodi, musiqa ilmi bularning barchasi kamol topdi. Asrlar qa'rida shakllangan an'anaviy "ustoz-shogird" ta'lim tizimi keng quloch yozdi. O'z mohiyatiga ko'ra, tom ma'nodagi Uyg'onish harakatini yaratgan bu jarayon nafaqat Temur saltanatining poytaxti Samarqandda, balki uning avlodlari Shohruh, Ulug'bek, Xusayn Boyqaro, Bobur va boshqalar davridagi Buxoro, Xiva, Kitob, Balx, Qobul shaharlarida ham qizg'in kechdi. O'rta asrlar an'anasi shahar aholisining kasb-koriga ko'ra alohida jamoa (mahalla) bo'lib yashashni taqozo etar edi. Xalq ichida tanilgan san'atkorlar hokimlar farmoniga ko'ra, yoki o'ziga qulaylik yaratish maqsadida kasbdoshlari bilan jamoa bo'lib yashashni afzal ko'rar edilar. Shunga binoan "xonandalar mavzesi", "sozandalar mahallasi", "bastakorlar ko'chasi" paydo bo'lgan. Bu kasb sohiblarining alohida obro' va nufuzga sazovor bo'lganlari atrofida, maxsus ijod, ijro va ilmiy mavqega ega ijodiy maktablar shakllandi<sup>197</sup>.

Amir Temurning o'zi musiqaning his-tuyg'ularga ta'siridan yaxshi boxabar bo'lib, amaliyotda undan mohirona undan foydalangan. Zamondoshlarining bayon etishlaricha, Sohibqiron saroyda o'tkazilgan tanatanalarda doimo musiqachilarning ijrosini maroq bilan tinglab, yangi yaratilgan asarlarga baho berishni xush ko'rgan<sup>198</sup>. Uning bu fazilatlarini merosxo'rlaridan tortib sarkardalarigacha - butun saroy ahli yaxshi bilgan.

Sohibqiron harbiy yurishlarda ham musiqiy asboblarga bo'lgan ixlosini unutmagan. Jumladan, uning harbiy amaliyot tarixiga kiritilgan qator kashfiyotlari nihoyatda qiziqarlidir. Masalan, mo'jaz shahar yoki qishloqqa hujum boshlashdan oldin, u yerga ehtiyotkorlik bilan karnaychi va nog'orachilar kiritilgan. Erta tongda behosdan bu asboblarning yangrashi aholini dovdiratib, harbiylarga katta yordam bergan. Amir Temurning musiqiy asboblarga bo'lgan mehrini uning harbiy yurishlari tasvirlangan ko'pgina miniatyuralar ham tasdiqlaydi<sup>199</sup>.

Musiqiy amaliyot butkul ijodiy jarayonining shiddat bilan rivojlanishi, avloddan-avlodga o'tib sayqallana borgan musiqa ilmining

<sup>197</sup> Умаров А. Кўрсатилган адабиёт. - 36 б.

<sup>198</sup> Ғофурбеков Т. Муסיқа.// Амир Темур ва Темурийлар даврида маданият ва санъат. (Мақолалар). Т.: "Ғафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат", 1996.- 40 б.

<sup>199</sup> Ўша ерда.



ravnaqi – bu jabhalarning har biri uchun alohida va barchasi uchun birday allomalarning maydonga kelishiga zamin hozirladi. Amir Temur saroyida mashhur musiqachi Xo'ja Abdulqodir Marog'iy (1340-1435) ijod etgani ma'lum. Bu alloma ko'p yillik umrining aksariyati qismini Amir Temur va Temuriylar saroyida o'tkazgan. Marog'iyning musiqachi sifatida yuksak qobiliyatidan xabardaor bo'lgan Amir Temur, 1393 yilda uni Bog'doddan Samarqandga olib kelgan. Bu yerda unga ijod etishi, eron va turk xalqlarining musiqalarini izchil o'rganishi uchun barcha sharoit yaratilgan. Amir Temur vafotidan keyin Marog'iy Shohruh, Xalil Sulton va boshqa Temuriylarning saroyida xizmat qilgan. U bastakor sifatida 200 dan ortiq asar yaratgan. Ular qatorida ko'p qismli turkum asarlar, shuningdek usullarning yangi talqinlari – "Zarb al-fatx", "Chohor zarb", "Mayatayn", maqom bo'limlaridan "Tasnif-i Xo'ja" va boshqalar. Temur davrida musiqa san'atining barcha jabhalari yuksak taraqqiyot pallasiga ko'tarildi<sup>200</sup>.

Navoiyning "Majolis un-nafois" tazkirasida Amir Temur she'rlar yozmagan bo'lsa-da, ko'p nazmiy va nasriy asarlardan xabardor bo'lib, ularning katta qismini yoddan bilganligini, she'riyat ahlini qadrlaganligini yozgan. O'zaro suhbatlarda, olimlar va shoirlarning majlislarida, do'stlik va o'rtoqlik gurunlarida Sohibqiron, Navoiy iborasi bilan aytganda, o'z o'rni va mavridida she'riy asarlardan ayrim parchalarni, nasriy asarlardagi eslanishga loyiq bo'lgan epizod va syujetlarni, ularning qahramonlariga oid baytlarni ma'lum bir voqeaga nisbat keltirish munosabati bilan yoddan ayta olgan<sup>201</sup>. Jumladan Amir Temur o'zining "tuzuklari"da Amir Husaynning qilgan xiyonatini bayt orqali yoritgan:

Yorga yetkur sabo, kim makr qilmishdir manga,  
Qildi ersa kimga makrin, qaytadir bir kun anga<sup>202</sup>

Tarixchi olim Ashraf Ahmedovning "Amir Temur jahon tarixida" kitobida ham Temurning adabiyot va she'riyatni nihoyatda qadrlagani qayd etiladi. YA'ni "Amir Temur she'rda juda katta ijtimoiy-falsafiy, axloqiy ma'no, nafosatni ko'rgan, sezgan va undan butun umri

<sup>200</sup> Ўша ерда. - 44 б.

<sup>201</sup> Шерхон Қораев. Соҳибқирон ижод аҳлига қандай муносабатда бўлган? Амир Темур таваллудининг 685 йиллигига. 06.04.2021. <https://qashqadaryozg.uz/read/so-ib-iron-izhod-a-liga-andaj-munosabatda-b-igan>

<sup>202</sup> Темур тузуклари. Тошкент. "O'zbekiston" 2018. -Б.50.

davomida foydalangan, uning zavqi bilan yashagan. Amir Temur hayotining eng qiyin damlarida she'r unga murakkab masalalarni oson yechishga yordam bergan"

V.V.Bartold ham Amir Temurning o'z saroyidan forsigo'y muarrixlar bilan bir qatorda turkiy (uyg'ur) baxshilariga o'rin berganligi, ular Amir Temur tarixini she'riy yo'l bilan bitganliklarini ta'kidlab o'tadi<sup>203</sup>.

Amir Temur tarixda o'z davrining mohir diplomati sifatida chuqur iz qoldirgan. U o'z maqsadlariga erishishda diplomatiyaning tinch yo'li bilan harbiy tadbirlarni mohirona qo'shib olib borgan. Xitoy olimlarining tadqiqotlariga ko'ra, Amir Temur Min xonligining poytaxti Pekin (Xonbaliq) shahriga 8 marta elchilar yuborib, Xitoy bilan diplomatik va savdo aloqalarini rivojlantirgan<sup>204</sup>. Jumladan, 1387 va 1389 yillari kuzda Mavlono Hofiziy, 1388 yilda Tosh ad-din (Tamuding), 1391 yilda Shoxalil (Shaxali), 1392 yilda Nig'mat ad-Din (Nimaopuding), 1394 va 1395 yillarda Darvish (Diyelibeyshi), 1396 yilda Alomat ad-Din (Alamadan) boshchiligida Pekinga Amir Temur nomidan elchilar kelgan. Bu elchilar orqali sohibqiron Xitoy xoniga ot, tuya va boshqa narsalar yuborgan. Xitoy xoni esa bular evaziga kumush pul, ipak matolar qaytargan. 1396 yilda Amir Temur Alomat ad-Din orqali Xitoy xoniga maktub ham yo'llab, uning yuborgan narsalaridan ma'mnun bo'lganligini ta'kidlagan<sup>205</sup>.

XIV asr 70-yillaridanoq Yevropa davlatlari vakillari Turkistonga kelib, bu yerdagi yangi, mustaqil davlatning qudrati va imkoniyatlari bilan jiddiy qiziqqanlar. Amir Temur ham o'z navbatida, ayniqsa, katta imperiya shakllangach, o'sha davrning deyarli barcha taniqli davlatlari va ularning hukmdorlari bilan faol diplomatik aloqalar o'rnatgan, turli davlatlarga o'z elchilarini yuborgan va o'z navbatida unga yuborilgan chet el vakillarini qabul qilgan. Bu haqda hurmatli akademik I.Mo'minov ham o'z fikrlarini bildirganlar. "Amir Temur diplomat sifatida u Vizantiya, Venetsiya, Genuya, Ispaniya – Kastiliya, Fransiya, Angliya bilan iqtisodiy aloqalar o'rnatish va uni mustahkamlash sohasidagi faoliyatini avj oldirdi. Til, din,

<sup>203</sup> Шерхон Қораев. Соҳибқирон ижод аҳлига қандай муносабатда бўлган? Амир Темур таваллудининг 685 йиллигига. 06.04.2021. <https://qashqadaryozg.uz/read/so-ib-iron-izhod-a-liga-andaj-munosabatda-b-igan>

<sup>204</sup> Хўжаев А. Буюк ипак йўли: муносабатлар ва тақдирлар. Т.: "ЎзМЭ", 2010. - 199 б.

<sup>205</sup> Ўша ерда.

millatlarning har xilligi Temurning Yevropa mamlakatlari bilan diplomatik, savdo-sotiq munosabatlari o'rnatish va mustahkamlash ishidagi g'oyat muhim aksiyalarni birinchi bo'lib, boshlashga xalaqit bermadi. "Yashindek tez va shiddatkor" Boyazid ustidan g'alabasidan so'ng bunday munosabatlar yanada kuchaydi"<sup>206</sup>. Ana shunday davlatlardan biri Ispaniya bo'lgan. Rui Gonsales de Klavixoning «Kundaligi»da qayd etishicha, Kastiliya va Leon (Ispaniya) qiroli Genrix III ning dastlabki elchilari Payo de Soto Mayor va Ernan Sanches de Palazuelos Kichik Osiyoga safar qilib, Amir Temur va Sulton Boyazid lashkarlari o'rtasida 1402 yil Anqara ostonasida yuz bergan katta jangni ko'rishga muvaffaq bo'ldilar<sup>207</sup>. Amir Temur jangni kuzatgan Ispaniya elchilarini yaxshi qabul qiladi, izzat-ikrom ko'rsatib, vataniga qaytishga ruxsat etadi va o'z nomidan Muhammad al-Hojini maktub va sovg'a-salomlar bilan Ispaniya qiroli huzuriga elchi qilib yuboradi. Bunga javoban Kastiliya va Leon qiroli Genrix III de Trastamara 1403 yili Amir Temur huzuriga o'z elchilari Fra Alfonso Pag'om de Santa Mariya, Rui Gonsales de Klavixo va Gomes de Salasarlarni maktub va hadyalar bilan yuboradi. Ular 1404 yilning kuzida Samarqandga yetib keladilar. Amir Temur Ispaniya elchilariga juda katta iltifot ko'rsatadi, ularning sharafiga ziyofatlar beradi va nihoyat, qimmatbaho sovg'a-salomlar bilan qadrlab qaytishga ruxsat etadi<sup>208</sup>. Har ikkala davlat hukmdorlari elchilar orqali yuborgan maktublarida mamlakatlar o'rtasida tinchlik aloqalarini mustahkamlash, ayniqsa, savdo-sotiqni rivojlantirish haqida alohida ta'kidlab o'tganlar. Ushbu elchilikda bevosita qatnashgan Rui Gonsales de Klavixo o'z sayohati haqida batafsil kundalik yozib borgan va u fanda «Samarqandga, Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi» nomi bilan tanilgan<sup>209</sup>.

Amir Temur o'zining barcha murojaatlarida, nomalarida, Sharq diplomatiyasi etiketlariga rioya qiladi. Amir Temurning shaxsan o'zi

<sup>206</sup> Мўминов И. Амир Темурнинг Ўрта Осиё тарихида тутган ўрни ва роли. Т.: «Фан», 1993.- 41 б.

<sup>207</sup> Руи Гонсалес де Клавихо. Амир Темур Европа элчилари нигоҳида. Буюк Амир Темур тарихи. Т.: «Ғофур Ғулом», 2007.- 3-168 б.; Руи Гонсалес де Клавихо. Самарқандга- Амир Темур саройига саёҳат кундалиги. (1403-1406 йиллар). Т.: «O'zbekiston», 2010.- 3-261 б.

<sup>208</sup> Ўша ерда. - 114-141 б.; Ўша ерда. - 154-192 б.

<sup>209</sup> Қаранг: Руи Гонсалес де Клавихо. Самарқандга- Амир Темур саройига саёҳат кундалиги. (1403-1406 йиллар). Т.: «O'zbekiston», 2010.- 3-261 б.

"elchilarga o'lim yo'q" degan qadimdan qolgan diplomatik qoidaga doimo amal qilgan. Temur saltanatida chet ellik elchilarning yashashlari va faoliyat ko'rsatishlari uchun qulay va xayrixoh muhit hukm surgan hamda katta qabullarda, bayramlarda ular egallashlari lozim bo'lgan joy tartibiga qabul tartibi va sovg'a-salom almashish tartibiga jiddiy e'tibor berilgan<sup>210</sup>.

Uning devoni boshqa davlatlardan kelgan elchilar bilan doim to'la bo'lgan. U boshqa davlatlar va xalqlar bilan o'zaro foydali bo'lgan savdo-iqtisodiy va madaniy aloqalar o'rnatish va rivojlantirishga har jihatdan yordam bergan. U mo'g'ullar hukmronligi davrida o'z ahamiyatini yo'qotgan Buyuk Ipak yo'lini qayta tiklashdek ulug' maqsadiga erishdi. Chunki Amir Temur xalqaro savdo aloqalarini kengaytirish mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi uchun zarur ekanligini yaxshi anglagan. Buning uchun u ichki va tashqi savdo ishlariga katta e'tibor berib, karvon yo'llarining xavfsizligini ta'minlab, ularda karvonsaroylar barpo etish ishlariga alohida e'tibor berdi<sup>211</sup>.

Amir Temur olib borgan faol diplomatik siyosat tufayli uning saltanati bilan jahonning o'sha davrda taniqli bo'lgan barcha davlatlari orasida doimiy aloqa o'rnatilgan. Va bu o'z navbatida dunyodagi ko'pgina mamlakatlar bilan savdo-iqtisodiy aloqalarning rivojlanishiga va madaniyat taraqqiyotiga xizmat qilgan. Jumladan Amir Temurning xitoy xoqqoni Tayszuga yo'llagan maktubida "Karvonsaroylararo yo'llar ochildi, yo'llardagi qaroqchilar yo'q qilindi, uzoq yurtlarga boruvchilar o'zlarini xotirjam his etadigan bo'ldi", deb takidlab o'tilgan. Shu bilan birga Amir Temur Vizantiya, Venetsiya, Ispaniya, Fransiya, Angliya kabi Yevropa mamlakatlari bilan iqtisodiy aloqalar o'rnatdi<sup>212</sup>.

**Xulosa** qilib aytganda Amir Temur XIV asr o'rtalarida Movarounnahrda kuchayib ketgan feodal tarqoqligiga barham berdi, mamlakatni mo'g'ullar istilosidan ozod etib, el-yurtni bir tug' ostiga birlashtirdi va markazlashgan feodal davlatga asos soldi. Bu Amir Temurning Turkiston xalqlari oldida qilgan birinchi katta xizmati bo'ldi. Chunki, birlik, tinchlik, omonlik el-yurt farovonligiga garovdir. XIV asrning 80-90 yillari Amir Temurning Mo'g'uliston, Oq o'rda va

<sup>210</sup> Ўша ерда. - 154-157 б.

<sup>211</sup> Хўжаев А. Кўрсатилган асар. - 199 б.

<sup>212</sup> Ўша ерда.

Oltin O'rdada feodal xukmronligiga qarshi olib borgan kurashlari mamlakatimizning sharqiy – shimoliy va shimoliy – g'arbiy tarafdan xavfsizligini ta'minladi. Movarounnahr aholisi Mo'g'uliston va Dashti Qipchoq ko'chmanchilarining talon-taroj xurujlaridan xalos bo'ldi. Bu – Amir Temurning Movarounnahr va uning xalqiga ko'rsatgan ikkinchi katta xizmati bo'ldi. Amir Temur 1395 yili To'xtamishni<sup>213</sup> va 1402 yili Turkiya hukmdori Boyazid Yildirimni tor-mor keltirib, Bolqon yarim oroli xalqlarini Turk sultoni asoratidan xalos etdi<sup>214</sup>. Russiyani esa mo'g'ullar istibdodidan qutulishini kamida uch asrga qisqartirdi. Bu – Amir Temurning jahon xalqlari, xususan bulg'orlar, serblar, makedoniyaliklar va ruslarga qilgan beqiyos iltifoti bo'ldi<sup>215</sup>. Temur davrida o'lka xalqlari moddiy, madaniy va ma'naviy jihatdan ulkan yutuqlarga erishdi. Bu davrni tom ma'noda aytganda xalqimiz tarixida Ikkinchi uyg'onish davri deb hisoblash mumkin.

**§ 1.4. Markazlashgan davlatlarning parchalanishi.  
Shohruh Mirzo hukmronligi davrida Temuriylar saltanati.  
Movarounnahrda Mirzo Ulug'bek hukmronligi. Mirzo Ulug'bek  
davrida madaniyat, ilm – fan va adabiyot ravnaqi. Alisher  
Navoiyning siyosiy va adabiy faoliyati**

Samarqandda Amir Temurning. dafn ma'rosimlari tugar-tugamas, vorislar o'rtasida toju-taxt uchun kurash boshlanib, saroy doirasida beqarorlik va parokandalik kuchaydi. Sohibqiron hayotlik chog'idayoq o'ziga valiahd etib o'rtancha o'g'li Mironshoh hamda kenja o'g'li Xuroson noibi Shohruh Mirzolarga emas, balki nabirasi – o'sha vaqtdagi Hindiston va Qobul viloyatlarining hukmdori Pirmuham-madni tayinlagan edi. Amir Temur hayot paytida uning bu xohishiga o'g'illaridan yoki nabiralaridan birortasi qarshilik ko'rsatmagan bo'lsada, vafotidan keyin hokimiyat talashuvchilar ko'paydi. Shulardan biri, Mironshohning o'g'li Toshkent hokimi Xalil Sulton Amir Temurning vafoti haqidagi xabarni eshitishi bilanoq Samarqand-ga yo'l olgan. U 1405 yilning 18 mart kuni Samarqandni egallab,

<sup>213</sup> Шарафуддин Али Яздий. Зафарнома. Т.: “ШАРҚ”, 1997.- 175-179 б.  
<sup>214</sup> Уша ерда. - 260-261 б.  
<sup>215</sup> Бўрибой Аҳмедов. Амир Темурни ёд этиб. Т.: “Ўзбекистон”, 1996. -72 б.

o'zini Movarounnahrning oliy hukmdori deb e'lon qiladi<sup>216</sup>. Pirmuhammadning yo'lini to'sib, uning rejalarini buzib yuborish niyatida hatto u Amudaryoning o'ng tomonidagi yerlarni o'z tasarrufiga oladi.

Xalil Sulton garchi Temurdan qolgan xazinalar vositasida sohibqironning nufuzli ayon va kiborlaridan ma'lum qismini o'z tarafiga og'dirib, Movarounnahr taxtini egallab olgan bo'lsa-da, ammo ko'p vaqt o'tmay, u o'zining nojo'ya xatti-harakatlari bilan Temurning sadoqatli amirlari, viloyat noiblari va shahzodalarning kuchli noroziligi va isyoniga sabab bo'ldi. Birinchi bo'lib Turkiston hamda Farg'onaning hokimlari Shayx Nuriddin bilan amir Xudoydod Xalil Sultonga qarshi isyon ko'taradilar. Xatto uning o'z ukasi Mirzo Sulton Husayn Amudaryoning chap sohili viloyatlarida o'z hokimiyatini o'rnatmoq niyatida akasiga qarshi bosh ko'taradi. O'z navbatida Temur taxtining asosiy valiahdi Pirmuhammad Amudaryodan kechib o'tib, Xalil Sultonga qarshi Nasafga qo'shin tortadi. Temur saltanatida boshlangan o'zaro urushlar shu tariqa avj olib ketdi. Bu haqda Davlatshoh quyidagi fikrlarni keltirgan, “...sultonzoda Halilulla ulug' Amir Temur ko'ragonning vafotidan so'ng Samarqand taxtiga o'ltirdi... (U) Sohibqiron o'z hukmronligi davrida Eron va Turonning xirojidan jam qilgan xazinani ochdi va nayson<sup>217</sup> bulutiday (ko'p), balki Badaxshon la'li konlari va Ummon dengizi<sup>218</sup>dek ko'p oltin hamda javohirni lashkar va raiyatga in'om qildi...(Halil Sulton) to'rt yil Samarqand va Movarounnahr diyorida saltanat qildi. Oxiri Xudaydod Husayniy, Xudaydod jete<sup>219</sup>, Berdibek va boshqa amirlar unga hujum qildilar. Buning sababi shu ediki, (Halil Sulton) xoji Yusufuddinning kanizaklaridan Shodi Mulkga oshiq bo'lib, o'z nikohiga oldi<sup>220</sup>. Ul xotin saltanat ishlariga aralashdi, umaronni nazarpisand qilmadi (va shu tufayli) sakkiz yuz o'n birinchi yili (1409 y.) shahzoda Halilni tutib band qildilar. Shodi Mulk og'aning quloq va

<sup>216</sup> Низомиддин Шомий. Зафарнома. Т.: “Ўзбекистон”, 1996. – 306 б.; Люсьен Кэрэн. Амир Темур салтанати. Т.: “Маънавият”, 1999. – 176 б.

<sup>217</sup> Найсон-Кадимий Сурия календарининг еттинчи ойи; апрел ойига тўғри келади.

<sup>218</sup> Уммон денгизи – Жанубий Арабистон денгизи.

<sup>219</sup> Жете – XIII асрнинг ўрталарида Чигатой улуси икки қисмга (Мовароуннахр ва Мўғулистон) бўлиниб қолди. Мўғулистонликлар Мовароуннахрдаги мўғулларни қороунас (дургай), мовароуннахрликлар эса уларни жете (босмачи) деб атаган.

<sup>220</sup> Низомиддин Шомий. Зафарнома. -Т.: “Ўзбекистон”, 1996. – 307- б.

burnini kesdilar, (so'ng) shahzodani Shohruhiya<sup>221</sup> qal'asiga jo'natdilar..."<sup>222</sup>. Oqibatda Xurosonda Shohrux Mirzo, Balx, G'azni va Qandahorda Pirmuhammad, G'arbiy Eron va Ozarbayjonda Mironshohning o'g'illari Umar Mirzo bilan Abubakr Mirzolar hokimi mutlaq bo'lib qoldilar. Sirdaryodan shimolda joylashgan viloyatlar: Turkiston, Sabron, O'tror, Sayram, amir Berdibekning tasarrufida qoladi. O'ratepa bilan Farg'onani amir Xudaydod egallab oladi. Xorazmni esa Oltin O'rdaning nufuzli amirlaridan Idiku O'zbek bosib oladi<sup>223</sup>.

Garchi Shohrux 1405 – 1408 yillarda Xalil Sultondan Samarqandni tortib olishga va otasi Amir Temurning toju – taxtini egallashga harakat qilsa-da, buning uddasidan chiqa olmagan. Bunga Balx, Seyiston, Xuroson va Ozarbayjonda Temuriy shahzodalar va ayrim nufuzli amirlarning birin-ketin ko'tarib turgan g'alayonlari jiddiy to'sqinlik qiladi. O'zaro taxt talashishlar natijasida Temurning valiahdi Pirmuhammad va o'rtancha o'g'li Mironshoh g'alayon va fitnalarning qurboni bo'ladilar. Pirmuhammad 1407 yil 22 fevralda vaziri Piralitoz boshliq fitnachilar qo'lida shahid bo'lgan. 1408 yil 22 aprel kuni turkmanlarning Qoraqayunli urug'i boshlig'i Qora Yusuf bilan bo'lgan jangda Mironshoh halok bo'lgach, Ozarbayjon va Iroq viloyatlari Temuriylar qo'lidan ketadi.

1409 yil bahorida Movarounnahrda vaziyat yanada keskinlashadi. Amir Xudaydod O'ratepa va Shohruhiya shaharlarini osongina qo'lga kiritib, Samarqandga tomon qo'shin tortgan. Zarafshon daryosi bo'yidagi Sheroz qishlog'i yaqinida sodir bo'lgan jangda Xalil Sulton qo'shini mag'lubiyatga uchraydi, o'zi asirga olingan. Bu paytda Seyiston hokimi Shohqutbiddin va Kirmon hokimi Sulton Uvayslarning qo'zg'olonini bostirib, viloyatda to'la osoyishtalik o'rnatishga erishgan Shohrux Mirzo e'tiborini Movarounnahrqa qaratgan. 1409 yil 25 aprelida u Amudaryodan o'tib, Samarqand sari yurish qilgan va shaharni jangsiz egallashga erishadi<sup>224</sup>. "Hikoya qiladilarki, Shohrux sulton Samarqand taxtida o'ltirgach, Temurning Ko'k saroy va

<sup>221</sup> Шохрухия-Охангарон дарёсининг Сирдарёга қуйиладиган жойида жойлашган қадимий шаҳар бўлиб, мўғуллар истилосига қадар Банокат аталган. Амир Темур уни тиклаган ва ўгли Шохрух номи билан шундай атаган.

<sup>222</sup> Аҳмедов Б. Давлатшоҳ Самарқандий. Т.: "ФАН", 1967. -52 б.

<sup>223</sup> Мухаммаджонов А. Темур ва темурийлар салтанати. -Т.: "Қомуслар бош тахририяти", 1996. -50-6

<sup>224</sup> Уша ерда. -51-6

Samarqand arkida saqlanayotgan xazinasiga qadam bosdi. Ablahlarning dimog'i aqldan holi bo'lganidek, (Shohrux ham) ul hazinani ganjdan holi topdi...

Shohrux sulton... giryon bo'ldi va podshohona himmatini ul kufron ne'matini daf qilish uchun sarfladi va Shohrux amirlari jumlasidan bo'lgan amir Shohmalik (turli) tadbir bilan ularning orasiga ixtilof soldi. (Natijada) Xudaydod jete Xudaydod Husayniyni o'ldirdi. Qolganlari (bir-biri bilan) ovora bo'ldilar va Movarounnahr Shohrux tasarrufiga kirdi. Sulton Halil banddan xalos bo'lib amakisining saodatli davlat palosini o'pishga musharraf bo'ldi. Shohrux sulton bor shavqat (va) imkoniyatni uning xususida sarf qilib, shahzodani o'zi bilan birga olib Jayhundan o'tdi. Samarqand taxti va saltanatini (esa) o'zining asl farzandi amirzoda Ulug'bekka muqarrar qildi va amir Shohmalikka, shahzodaning mulozamatida, ul diyorning hukumatini topshirdi. Bu voqea sakkiz yuz o'n birinchi yili (1409 yili) (sodir) bo'ldi<sup>225</sup>.

Temur vafotidan keyin qariyb besh yil davom etgan o'zaro feodal urush va isyonlar, shubhasiz mamlakat aholisining iqtisodiy ahvoliga keskin ta'sir etib, xalqning jiddiy noroziligiga sabab bo'lgan edi. Temurzodalar oliy hokimiyat uchun, noiblar o'z viloyatlarida mustaqil bo'lib olish uchun kurashdilar. Bunday boshbodoqlikka xotima berish maqsadida Shohrux boshlagan harakat mamlakat fuqarolarining ko'pgina tabaqalari tomonidan quvvatlangan. Shu boisdan Shohrux Temur hukmronligi o'rnatilgan viloyatlarni o'z qo'l ostiga olishga muttasil harakat qiladi. 1420 yillarga kelib u Temur merosining Suriya va Arabistondan tashqari, asosiy qismini o'z tasarrufiga oladi. Shohrux bundan buyon mamlakatni boshqarishda temuriyzoda va nufuzli amirlardan iborat hokimlarning aksariyatiga ishonchsizlik bilan qaraydi<sup>225</sup>. Ularning o'rniga deyarlik hamma viloyatlarda o'z o'g'illari va nabiralarini hamda o'ziga yaqin tutgan qarindoshlarini noiblikka tayinlaydi. Shohrux Balx bilan Badaxshon viloyatlarini Ibroxim Sultonga, Qobul, G'azni va Qandahorni Qaydu Mirzoga, Xurosonning bir qismini hamda Habushon, Niso, Obivard viloyatlarini Boysunqur Mirzoga, Eronning g'arbiy o'lkalari hamda Iroqi Ajamning bir qismini Sulton Muhammadga, Fors viloyatini

<sup>225</sup> Аҳмедов Б. Давлатшоҳ Самарқандий. "ФАН", Т.:1967. -52-53 б.

<sup>225</sup> Мухаммаджонов А. Темур ва темурийлар салтанати. -Т.: "Қомуслар бош тахририяти", 1996. -51-6



Abdulla Mirzoga suyurg'ol tariqasida in'om qiladi. Shohrux shu yo'l bilan mamlakatni boshqarish yengil bo'ladi deb o'ylagan. Biroq, natija u kutgandek bo'lib chiqmaydi. Bunga Shohrux keyinroq nevarasi Sulton Muhammadning (Boysunqur Mirzoning o'g'li) qilmishlaridan so'ng ishonch hosil qiladi. Sulton Muhammad Eronga hokim qilib tayinlangach, bobosiga noiblik qilishdan bo'yin tovlab, o'zbo-shimchalik bilan o'z yerlarini kengaytirishga kirishadi. Shohrux itoatsiz nabirasiga qarshi qo'shin tortishga majbur bo'ladi<sup>226</sup>. "Davlatshoh tazkisasi"da bu voqea mana bunday bayon qilingan: ...Shahzoda bobosining yorlig'i bilan Ray, Qum, Nehovand va uning muzofotining saltanati, Bag'dodgacha (bo'lgan) yerlarga hokim etildi va uch yil bobosining noyibi bo'lib, o'sha diyorda hukmronlik qildi<sup>227</sup>. Oxiri g'urur va yoshliqdan hukumat va komronlikning erkaligi bilan ulug' bobosiga qarshi isyon ko'tardi va Hamadonga qasd qildi. O'sha diyorning hokimi hoji Husaynni o'ldirdi va Hamadonni fath qilgandan so'ng, Isfahonga lashkar tordi va uni ham egalladi. Isfahon hokimi saodatmand amir Hovandshohni (esa) bandga oldi.

Uning (bu) isyoni xabari Shohrux sultonga yetgach, umaro bilan bu xususida kengash o'tkazdi. Umaro podshohi islomning nabiralari-dan biri ustiga yurish qilishni lozim topmadilar va dedilarki, "Iroq viloyatida Sulton Muhammaddan yetukroq hech kim yo'q, maslahat shulki, podshoh undan ranjimasa, chunki o'z farzandiga qasd qilish podshoh shuhratidan yiroqdir. (Yaxshisi) shahzoda uchun sarupo yuborish kerak va Iroqni unga musallam qilish munosib ko'rinadi". Bu maslahat podshohga ma'qul bo'ldi va shunday qilishni istadi. (Ammo) Gavharshod begim bu maslahatga rozi bo'lmadi, chunki (u) Alouddavlaning tarafini olar edi. Zamonsultoni (Shohrux) xotiniga ko'pincha (bunday) der edi: "Men qartayib va notovon bo'lib qoldim... mulk albatta farzandlarimga merosdir. (Buning) ikki-uch kun avval yoki keyin sodir bo'lganining qanaqa mushkulligi bor..." (Lekin) xotin podshohni yana ehson va marhamat yo'lidan qaytardi. Yer yuzining podshohi majburan Sulton Muhammad qasdidan Iroqqa qarab yurdi, ammo nomus yuzasidan Bog'dodga, Iskandar ibn Qora Yusuf<sup>228</sup>ga

<sup>226</sup> Usha erda. -52-6

<sup>227</sup> Аҳмедов Б. Давлатшоҳ Самарқандий. "ФАН", Т.:1967. -68 б.

<sup>228</sup> Искандар ибн Қора Юсуф – Қора Қуюнлу сулоласидан бўлиб, 1420-1437 йиллари Озарбайжонда хукмронлик қилган, Бу ерда сўз Искандардан сўнг хукмронлик қилган Жаҳоншоҳ (1437-1467) ҳақида бораётир.

qarshi yurish qilayotganligini e'lon qildi... (Shunday qilib) yer yuzining podshohi sakkiz yuz elliginchi yili (1447 y.) Hirotdan (chiqib) Iroqqa qarab yurdi. Sulton Muhammad o'sha vaqtda Sherozni qamal qilish bilan mashg'ul edi. Shohrux sultonning Rayning Fashovar (qishlog'i)ga kelib tushgani xabarini eshitib, Sheroz ustidan qaytdi. Fors hokimi amirzoda Ibrohim<sup>229</sup> jiyaning istilosidan xalos bo'ldi<sup>230</sup>. Sulton Muhammad Raydan chiqib Gardiston va Bog'dod tomonga qarab chekingan.

Shohrux sulton Qum va Sova atrofiga kelib tushdi va... Isfahonning ulug' va ayonlarini jazoga buyurdi. (Shohrux) qishni Fashovar va Rayda o'tkazadigan bo'ldi... (O'sha yili) Shohrux sulton Ray mamlakatida rahimdil tangrining panohiga yetishdi. (Bu voqeadan so'ng) yigitlar va shahzodalarning ko'pchiligi Sulton Muhammad tomoniga o'tib ketdilar va u mustaqillik va barkamol saltanat egasi bo'ldi. (Sulton Muhammad) tamom Iroqi Ajam, Fors, Kirmon, Xuziston va Basra hamda O'rta Yer dengizigacha bo'lgan yerlarni egalladi va taxtu tasarrufiga kiritdi<sup>231</sup>.

Shohruxning uzoq hukmronlik davrida Temur davlatining asosiy qismi uning qo'l ostida saqlanib qolsa-da, ammo bu ulkan mamlakat ikki qismga bo'lingan edi. Ulardan biri Amudaryodan janubda joylashgan Shohrux davlati bo'lib, uning markazi Hirot shahri edi. Ikkinchisi esa, Amudaryodan shimolda Movarounnahr va Turkistonda vujudga kelgan Ulug'bek davlati bo'lib, Samarqand uning poytaxti edi. O'n besh yoshli Mirzo Ulug'bek Movarounnahr bilan Turkistonga hokim bo'lib tayinlandi<sup>232</sup>. Amalda davlatni boshqarish, Shohruxga yaqin bo'lgan amaldor Shohmalik<sup>233</sup> ixtiyorida edi<sup>234</sup>.

Ulug'bek davlati janubda Amudaryo, g'arbda Buxoro vohasiga tutashib ketgan O'rganjiy dashti (Markaziy Qizilqum)ning sharqiy chekkalari, shimolda Sirdaryoning quyi oqimidagi Sig'noq va O'tror shaharlari, sharq va shimoli-sharqda Sharqiy Turkiston bilan chegaralanar edi. Dastlab uning xokimiyati faqat Samarqand, Buxoro

<sup>229</sup> Амирзода Иброҳим – Шохрухнинг кичик ўғли.

<sup>230</sup> Аҳмедов Б. Давлатшоҳ Самарқандий. Т.: "ФАН", 1967. -69-б.

<sup>231</sup> Usha erda. -70-б.

<sup>232</sup> Абдураззоқ Самарқандий. Матлаи Маъдайн ва Мажмаи Баҳрайн. II жилд. Биринчи қисм (1405-1429 йиллар воқеалари). -Т.: "O'zbekiston", 2008. -161 б.

<sup>233</sup> Usha erda. -162 б.

<sup>234</sup> Абдулахад Муҳаммаджонов. Темур ва теурийлар салтанати. -Т.: "Қомуслар бош таҳририяти", 1996. -52 б

va Nasaf viloyatlari bilan cheklangan. Chunki Shohrux Farg'onani O'zgangacha Amirak Ahmadga, Hisori Shodmonni Muhammad Jahongirga<sup>235</sup> in'om qilib, Ulug'bekni birmuncha cheklab qo'yadi. Turkiston esa Shayx Nuriddinning tasarrufida bo'lib, o'sha vaqtlarda u Ulug'bek bilan Shohruxni tan olmagan. Shuning uchun mamlakatda notinchlik bo'lgan.

Shayx Nuriddin Turkiston bilan qanoatlanmasdan, 1410-yili u Muhammad Jahongir bilan hamda yangi va Sayram viloyatlarining hokimi amir Abduxoliq shuningdek oq'rdalik xonzodalardan Chingiz O'g'lonlar bilan ittifoq tuzib, Temuriylarga qarshi isyon ko'taradi. O'sha yili 20 aprelda Samarqand yaqinidagi Qizilravot mavzeidagi isyonkor ittifoqchilar bilan Mirzo Ulug'bek bilan Shohmalikning qo'shinlari o'rtasida jang bo'ladi. Mirzo Ulug'bek jangda mag'lubiyatga uchrab Kalifga chekinadi. Shohrux 1410 yilning yozida isyonni bostirish uchun katta kuch bilan Samarqandga yetib keladi<sup>236</sup>. Shayx Nuriddin isyoni bostirilgach, Sirdaryoning o'ng sohilida joylashgan shaharlar: Toshkent, Yassi, Sabron, Sayram, Yangi qaytadan Temuriylar davlati tarkibiga qo'shib olinadi. Bu o'lkalarni idora qilish Ulug'bekka zimmasiga yuklanadi<sup>237</sup>.

O'sha paytlarda Ulug'bek bilan Shohmalikning munosabatlari buzilib, Shohmalik Ulug'bekni davlat ishlariga yo'latmasdan, xatto u bilan hisoblashmay qo'yadi. Shu sababdan Shohrux 1412 yilda Shohmalikni Samarqanddan olib ketishga majbur bo'ladi. Movarounnahr va Turkistonni boshqarish 18 yoshli Ulug'bekning qo'lga o'tadi<sup>238</sup>.

Temuriylar davrida iqtisodiy hayotda asosiy o'rin tutgan qishloq xo'jaligi, birinchi navbatda sug'orma dehqonchilik ishlariga katta ahamiyat berildi. XIV asr oxiri va XV asrning birinchi yarmida Movarounnahr va Xurosonda katta-kichik daryo va soylardan yirik irrigatsiya tarmoqlari chiqarilib, korizlar qazildi, suv omborlari va hovuzlar barpo etilib, suv tansiq bo'lgan ayrim viloyat va vohalar, shahar-u qishloqlarning suv ta'minoti yaxshilandi. Qo'riq va bo'z

<sup>235</sup> Абдураззоқ Самарқандий. Матлаи Маъдайн ва Мажмаи Баҳрайн. II жилд. Биринчи қисм (1405-1429 йиллар воқеалари). -Т.: "O'zbekiston", 2008. -163 б.

<sup>236</sup> Ўша ерда.-182 б.

<sup>237</sup> Ўша ерда.-53 б.

<sup>238</sup> Муҳаммаджонов А Темур ва темурийлар салтанати. -Т.: "Қомуслар бош тахририяти", 1996. -54 б.

yerlar o'zlashtirilib, obikor yerlarning maydoni kengaytirilib, yangi-yangi qishloqlar, chorbog'lar va sayilgoh bo'stonlar barpo etildi<sup>239</sup>.

XV asrning birinchi yarmida Movarounnahr va Xurosonda Shohrux va Ulug'bek hukmronlik qilgan yillarda irrigatsiya ishlari ayniqsa kengaygan. Dehqonchilik vohalarining suv ta'minoti tartibga solingan. Dashtlarga suv chiqarilib yangi yer maydonlari o'zlashtirilgan. Bu borada xususan sohibqironning dasht joylardan yangi yerlarni ochish, korizlar qazib, bog'lar barpo qilish<sup>240</sup> va qarovsiz qolgan tashlandiq yerlarni sug'orib, obod etish uchun amalga oshirgan har qanday faoliyati, Temuriylar tomonidan qo'llab - quvvatlangan. Hatto bunday sohibkorlar bir-ikki yil davomida hamma soliq va to'lovlardan ozod etiladi.

Bu davrda Temuriylar va ularning viloyat hokimlari tomonidan Samarqand, Buxoro, Qashqadaryo, Marv vohalarida, Tus hamda Hirot va uning atrofida yirik sug'orish inshootlari barpo etilib, ayrim dehqonchilik viloyatlarining suv ta'minoti tubdan yaxshilanadi. Temuriylar hukmronlik qilgan davrda amalga oshirilgan eng yirik sug'orish inshootlaridan biri Samarqand vohasida Zarafshon daryosidan suv olgan Darg'om anhoridan chiqarilgan qadimgi Anhor kanalining qayta tiklanishi bo'ldi. Zamonasining eng yirik sug'orish tarmog'i hisoblangan bu kanal orqali Zarafshon daryosi suvining bir qismi Qashqadaryoga tashlanib, uning adog'ida joylashgan dehqonchilik yerlari suv bilan ta'minlanadi. Ulug'bek hukmronligi davrida (1409-1449) Buxoro vohasining janubi-sharqiy chegarasiga yondoshgan Somonjuq dashtiga suv chiqarilib, yangi yerlar o'zlashtirilgan.

Mo'g'ullar bosqini davrida Mug'rob daryosining buzib tashlangan bosh to'g'oni Sultonbandining Shohrux tomonidan tiklanishi va sug'orish tarmoqlarining loyqadan tozalanishi tufayli Marv shahri va Murg'ob vohasi suv bilan yetarlicha ta'minlangan hamda suvsizlikdan qiynalgan shahar atrofidagi yerlarga qayta suv chiqarilib, dehqonchilik yer maydoni kengaytirildi. Sulton Husayn Mirzo hukmronlik qilgan davrda esa, uning tashabbusi bilan Marviruddan yangi kanal chiqarilib, kattagina yer maydoni sug'orilib obod etiladi.

<sup>239</sup> Муҳаммаджонов А Темур ва темурийлар салтанати. -Т.: "Қомуслар бош тахририяти", 1996. -65 б.

<sup>240</sup> Ўша ерда. -66-б.

Bu davrda Hirot va Mashhad shaharlari atroflarida Alisher Navoiyning tashabbusi bilan amalga oshirilgan sug'orish ishlari ayniqsa diqqatga sazovordir. Navoiy Tus viloyatining yuqori qismida joylashgan Chashmagul mavzeida Turuqband suv omborini qurdiradi. O'n farsax (60-70 km) uzunlikda maxsus kanal qazilib, Turuqband suv omborida jamg'arilgan suv Mashhadga olib kelinadi<sup>241</sup>. Natijada Mashhad shahrida suv ta'minoti yaxshilangan, shahar atrofidagi yerlarga ham suv chiqarilib, obod etiladi. Bu davrda muhandislik sug'orish inshootlari qurish ishlari takomillashgan. Temuriylar va ularga taqlid qilgan viloyat hokimlari tomonidan Movarounnahr va Xuroson shaharlari atrofida istirohat bog'lari barpo etish munosabati bilan ko'plab sug'orish tarmoqlari chiqarilib, ular toshhovuz, darg'ot, nova chig'ir, charxpalak, qaynama, sharshara, osma ko'prik, xandaq, tazar, sardoba kabi turli-tuman suv inshootlari bilan jihozlangan.

Bu davrda qishloq xo'jaligida g'alla, sabzavot va poliz ekinlarining ma'lum bo'lgan deyarli hamma navlari yetishtirilgan. Bog'dorchilikka zo'r ahamiyat berilgan, mevali daraxtlarning ko'pdan-ko'p navlari o'stirilib, mamlakat aholisi yozda tarmeva, qish va bahor mavsumlarida esa quruq mevalar bilan ta'minlangan. Xo'jalikning asosiy turlaridan yana biri chorvachilik edi. Mamlakatning iqtisodiy hayotida ayniqsa yaylov chorvachiligi: yilqichilik, qo'ychilik, jumlayan qorako'lchilik, tuyachilik, qoramolchilik muhim o'rin tutgan. Shubhasiz, qishloq xo'jaligi sohasida yetishtirilgan moddiy boyliklar xoh u dehqonchilik, xoh chorvachilik mahsulotlari bo'lmasin mehnatkash xalqning og'ir va mashaqqatli mehnati tufayli vujudga keltirilgan. Biroq, uning taqsimoti mamlakat aholisi yuqori tabaqalari va amaldorlarning manfaatlariga moslashtirilgan.

Avvalgi davrlarda bo'lganidek, butun XV asr davomida Movarounnahr va Xurosonda yer va mulkchilikning asosan to'rt shakli: "mulki devoniy" - davlat yerlari, "mulki" - xususiy yerlar, "mulki vaqf" - madrasa va boshqa diniy idoralar tasarrufidagi yerlar va nihoyat "jamo'a yerlari" bo'lgan. Dehqonchilik yerlarining katta qismi davlat mulki hisoblangan. Bu yerlarga avvalgidek mamlakat hukmdori - sulton yoki amirlar egalik qilgan. Temuriylar davrida ham davlat yerlarini suyurg'ol tarzida in'om qilish keng tarqalgan<sup>242</sup>.

Suyurg'ol yerlari maydoni, sharti hamda yer va yorliqqa ega bo'lgan shaxslarning tabaqasi jihatidan turlicha bo'lgan. Odatda, shahar yoki viloyatlardan tortib, to alohida qishloqqacha suyurg'ol shaklida in'om etilgan. Butun bir shahar yoki viloyatlar ko'pincha hukmron sulola namoyandalari yoki yirik harbiy va davlat mansabdorlariga berilgan. Bunday suyurg'ol yer va mulklar ko'pincha avloddan-avlodga meros bo'lib qolgan<sup>243</sup>. Suyurg'ol egasiga o'z suyurg'oli doirasida amaldorlar tayinlash, soliqlar va turli to'lovlarni to'plash hamda aybdorlarni jazolash huquqi berilgan. Abdurazzoq Samarqandiyning yozishicha, Shohrux davrida Xorazm - Shoh-malikning; Farg'ona - Mirzo Ahmadning; Tus, Mashhad, Obivard, Nisoni o'z ichiga olgan Xuroson - Boysung'ur Mirzoning; Qobul, G'azna va Qandahor viloyatlari Mirzo Qaydu Bahodirning suyurg'oli edi. Suyurg'ol yorlig'iga ega bo'lgan viloyat hukmdorlari markaziy hokimiyatga faqat nomigagina qaram bo'lib, odatda, ular deyarli mustaqil edi.

Suyurg'ol egalari tobeligini kuchaytirish maqsadida markaziy hokimiyat ba'zan ular tasarrufiga yer maydonlarini qisqartirar yoki ularning ma'muriy va adliya jihatidan haq-huquqlarini cheklab qo'yar edi. Suyurg'ol egasi markaziy hukumatga bo'ysunmagan taqdirda suyurg'ol huquqidan mahrum bo'lar va hokimiyat uning viloyatini boshqa shaxsga berar edi. Bo'ysunmagani uchun Shohrux 1414 yilda Mirzo Iskandarni, 1415 yilda esa Mirzo Boyqaroni suyurg'oldan mahrum qilgan.

Temuriylar davrida maydoni jihatdan mayda va suyurg'ol egasining haq-huquqi ancha-muncha cheklangan suyurg'ol yerlari ham bo'lgan. Bunday mayda suyurg'ol yerlari, odatda, xizmat ko'rsatgan kichik mansabdagi harbiylardan tortib, oliy hukmdorning gvardiyasidagi muntazam qo'shinlarigacha berilgan. Boburning yozishicha, Sulton Husayn Boyqaroning 14 minglik gvardiyasi va 40 minglik muntazam qo'shini (g'ul)ning har bir askariga 80 jarib, ya'ni 40 tanobdan yer berilgan<sup>244</sup>. Navkarlarga berilgan bu yerlardan ham mutlaqo soliq va to'lovlar olinmagan.

Dehqonchilik maydonlarining boshqa kattagina qismi mulk maqomidagi xususiy yerlardan iborat edi. Shubhasiz, yirik mulkdorlarning

<sup>241</sup> Мухаммаджонов А. Темур ва темурийлар салтанати. -Т.: "Қомуслар бош тахририяти", 1996. - 67- б.

<sup>242</sup> Темур Тузуқлари. Т.: "Ғофур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат", 1996. - 73 б.

<sup>243</sup> Мухаммаджонов А. Темур ва темурийлар салтанати. -Т.: "Қомуслар бош тахририяти", 1996. -68- б.

<sup>244</sup> Жариб-958 кв.м.; таноб - 2-2,5 минг кв.м.

katta yer maydonlari ham, xususiy mulk yerlari qatoriga kirgan. Mulk yerlarining katta qismi ma'muriy, harbiy va diniy arboblarning tasarrufida bo'lgan. Masalan, eng yirik mulkdorlardan Xo'ja Ahrorning 1300 ga yaqin yer-mulki bor edi. Bu mulklarning 300 qo'shga<sup>245</sup> teng bo'lgan<sup>246</sup>.

Bu davrda hukmdor tomonidan yirik mulk egalari biron xizmati uchun tarxonlik yorlig'i berish urf bo'lgan. Tarxonlik yorlig'ini olgan mulkdorlar barcha soliq, to'loq va majburiyatlardan ozod qilingan. Tarxonlik yorlig'i, odatda, amir, bek, saroy amaldorlari, sayidlar va boshqa yuqori tabaqa vakillariga berilgan. Bunday yorliqni olishga muyassar bo'lgan mulkdor ismiga "tarxon" so'zi qo'shib aytilgan. Tarxonlar ko'pchiligi juda boy bo'lgan. Masalan, bu davrda Hirot atrofidagi mulklar Darveshali Tarxon, Samarqand va Buxoro atrofidagi katta yer maydonlari Abuali Tarxon qo'lida edi. Bobur Abuali Tarxonning shohona hayotini tasvirlar ekan, uning hashamatli saroyi, xizmatida uch ming kishidan iborat xizmatkoru navkarlari, o'tkazgan dabdabali to'y-tomoshalari, bergan qimmatbaho sovg'a-salomlari, xalqqa qilgan jabr-zulmlari to'g'risida yozadi.

Temuriylar hukmronligining so'nggi davrida Buxoro, Samarqand, Shahrisabz va boshqa viloyatlarning dehqonlaridan hamda shahar aholisidan yig'iladigan davlat daromadlarining anchagina qismi tarxonlar qo'lida edi. Movarounnahrda ular katta iqtisodiy bazaga ega bo'lgan. Mamlakatning siyosiy hayotida ham tarxonlarning nufuzli kuchli bo'lib, katta siyosiy huquqdan foydalanar edilar. Hatto o'zaro nizo janjallar vaqtida tarxonning qo'llab-quvvatlashi birorta viloyat hokimining taqdirini belgilashda ba'zan hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan.

XV asrda ham avvalgi davrlardagidek katta yer maydonlari va sug'orish tarmoqlari, shuningdek ko'plab do'kon, korxonalar, obijuvoz, bozor, karvonsaroylar, masjid, madrasa, xonaqoh, maqbara va mozorlarga birlashtirilgan, ular mulki vaqf deb atalgan<sup>247</sup>. Temuriylar davrida ham Movarounnahr va Xurosonda ko'plab masjid, madrasa, xonaqoh, maqbara va shifoxonalar bino qilinib, ularning barchasi vaqf mulkiga ega edi. Vaqf mulklaridan tushgan daromad masjid, madrasa, shifoxona va xonaqohlarning ta'miri, jihozi, shuningdek mutavalli,

<sup>245</sup> Бир қўш – бир жуфт хўкиз билан мавсумда ҳайдаб экиш мумкин бўлган ер майдони.

<sup>246</sup> Мухаммаджонов А. Кўрсатилган асар. 69-б.

<sup>247</sup> Темур Тузуқлари. Т.: "Ғофур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат", 1996.-73-б.

mudarris, tabib va talabalarga beriladigan nafaqalar hamda langarxona (musofirxona) va shifoxonalarning kundalik xarjlari (oziq-ovqat, yoqilg'i va yoritqichlari) uchun sarf etilgan.

Bu davrda dehqonchilik yerlarining ma'lum bir kichikroq qismi qishloq aholisining umumiy tasarrufida bo'lgan. Bunday yerlar qishloq to'plari yoki jamoalarining mulki hisoblangan<sup>248</sup>. Jamoa yerlari mulkchilikning qadimiy turlaridan bo'lib, ular ko'proq tog' oldi nohiyalarning suvga muhtoj joylarida keng tarqalgan. Bunday jamoa mulkchiligi, odatda, tog' jilg'alarining suvi jamg'arilgan yoki yer osti suvlarini yuzaga chiqarish uchun qishloq jamoalarining kuchi bilan barpo etilgan mashaqqatli va murakkab suv inshootlari – kulfakli hovuzlar (mayda suv omborlari) va korizlar vositasida o'zlashtirilgan yerlarda vujudga kelgan. Ko'pchilikning ishtiroki va mablag'i bilan barpo etilgan sug'orish inshootlari va ular vositasida o'zlashtirilgan yerlar jamoa mulkiga aylangan. Mulchilikning bunday turi Temuriylar hukmronligi davrida unchalik keng tarqalmagan bo'lsa-da, har qalay mavjud edi.

XV asrda Movarounnahr va Xurosonda yer egalari dehqon, ekin maydonlariga ishlov beruvchilarni esa muzoriy (ziroatchi) deb yuritilgan. Ziroatchilar qishloqning mehnatkash tabaqasiga mansub bo'lib, ular to'rt guruhga bo'lingan: 1) davlat yerlari (devon mulki) da yashovchi muzoriylar; 2) mulkdorlarning yerlarini ishlovchi muzoriylar; 3) o'z yeriga ega bo'lgan ziroatchilar; 4) vaqf mulklarida yashovchi muzoriylar.

Muzoriy davlat yoki vaqf yerlarida ham, tarxon yoki suyurg'ol egalari kabi yirik mulkdorlarning yerlarida ham yollanma ziroatchi bo'lib, dehqonchilik qilgan. Ularning hosildan oladigan hissasi yer egalari yerdan tashqari, urug'lik, omoch, ho'kiz, ot va arava kabilarni berganiga qarab belgilangan. Qanday yerda dehqonchilik qilishidan qat'iy nazar muzoriy hamma vaqt soliqlarni to'lar va majburiyatlarni o'tar edi.

Dehqonchilik yerlaridan olinadigan asosiy soliq hiroj (yoki mol) deb atalgan. Xiroj, asosan hosil yetilib, uni yig'ib olish vaqtlarida mahsulot, ba'zan pul holida to'langan. Soliq hosilga va yerning unumdorligi hamda suv bilan ta'minlanganligiga qarab belgilangan. Jumladan, daryo, buloq va koriz suvlari bilan sug'oriladigan obikor

<sup>248</sup> Мухаммаджонов А. Кўрсатилган асар. 70-б.



yerlardan xiroj hosilning uchdan bir qismi miqdorida olingan. Agar yer egasi xirojni pul hisobida to'lashga rozi bo'lsa, unda hosilning uchdan bir qismi bozor narxi hisobida pulga chaqilgan. Masalan, 1461 yilda Sulton Abusaid vazirlari Xo'ja Muhiddin Sheroziy va Xo'ja mavlono Amiriy Samarqandiyning Movarounnahrda yuborib, ularga dudong, ya'ni oltidan ikki (33,3%) miqdorida xiroj olishni buyurgan<sup>249</sup>.

Agar hosilning cho'g'i pastroq bo'lsa, xiroj to'qqizdan ikki, ya'ni 22% miqdorida to'langan. Lalmikor yerlarning unumdorligi obikor yerlarga nisbatan past bo'lgani uchun, lalmikorlik bilan mashg'ul bo'lgan muzoriylar umumiy hosilning oltidan bir, ya'ni 16,5 % miqdorida soliq to'laganlar<sup>250</sup>.

Amir Temurning ba'zi bir vorislari uning davrida joriy etilgan soliq miqdori va to'lov tartibini buzmaslikka, suiiste'mollikni oldini olishga harakat qilganlar. Tartibga rioya qilmagan ayrim ma'murlarni jazoga tortganlar. Shunga qaramasdan, soliq yig'uvchilarning o'zboshimchaligi muttasil davom etib turgan. Masalan, Husayn Boyqaro ma'murlari aholiga o'zboshimchalik bilan favqulotda soliq solgani oqibatida 1470 yilda Muhammad Yodgor boshchiligida Hirot aholisi qo'zg'olon ko'targan. Navoiyning say-harakati va o'zboshimcha ma'murlarning jazolanishi bilan qo'zg'olon bostirilgan. Sulton Husayn farmon chiqarib Hirot va uning atrofida yashovchi dehqonlar, muzoriylar va hunarmandlarni ikki yil davomida favqulodda soliqlardan va qo'shinni boqish uchun solinadigan to'lovlardan ozod qilishga majbur bo'ladi<sup>251</sup>.

Bu davrda Movarounnahrning Samarqand, Buxoro, Toshkent, Shohruxiya, Andijon, Termiz, Shahrisabz, Qarshi va boshqa ko'pgina shaharlari o'zining geografik qiyofasi, aholisining kasb – kori, ichki va tashqi aloqalari bilan o'rta asr Sharqining hunarmandchilik va gavjum savdo markazlariga aylanadi. Hunarmandchilik rivojlanib, turli-tuman tarmoqlari bo'yicha ixtisoslanishning kuchayishi, shaharlarning tarixiy topografiyasini ham o'zgartirib yuboradi. Shaharlarda hunarmandchilik mahallalarining soni ortib, kasb-hunar bilan bog'liq bo'lgan yangi-yangi guzarlar, ko'chalar, bozor-rastalari, tim va toqlar (usti gumbazli bozor) – chorsular vujudga kelgan. Ko'pgina shaharlarda

<sup>249</sup> Мухаммаджонов а. Темур ва теурийлар салтанати. -Т.: "Қомуслар бош тахририяти", 1996. 71- б.  
<sup>250</sup> Ўша ерда. 72- б.  
<sup>251</sup> Ўша ерда.

zargaron (zargarlik), misgaron (misgarlik), so'zangaron (ignasozlik), sovutsozon (sovutsozlik), sangtarashon (toshtaroshlovchilar), shishagaron (shisha pishiruvchilar), charmgaron (ko'nchilik), kamongaron, pichoqsozlik, egarchilik kabi hunarmandchilik mahallalari bo'lgan.

Hunarmandchilik sohasida to'qimachilik, kulolchilik, chilangarlik (metall buyumlar yasash), temirchilik va binokorlik yetakchi o'rinni egallagan. Bu davrda shahar va qishloq aholisi, dashtlarda yashovchi yarim ko'chmanchi va ko'chmanchi chorvadorlar o'rtasida to'qimachilik mahsulotlariga talab g'oyat katta edi. Shaharlarda ip, ipak, jun, zig'ir va kanop tolasidan turli xildagi rangdor, guldor hamda nafis va dag'al gazmollar ko'plab to'qib chiqarilgan. Masalan, o'sha paytlarda oq, yashil, malla, zangori, binafsha va suvrang ip kalavalaridan karbos, ya'ni bo'z, guldor chit, oq surp, nafis zarlar berilgan mayin doka – futa; jundan olachalar; kanop tolasidan qatib kabi turli xil gazlamalar to'qilgan. Bu matolar nisbatan arzon bo'lib, undan ichki kiyimlar, ustki liboslarning astarlari, ko'rpa – to'shaklar tikilgan<sup>252</sup>. Mahalliy va chetdan keltirilgan ipakdan turli nav shoyi gazlamalar to'qish keng yo'lga qo'yilgan. Shoyi matolar, qirmizi va zangori duxobalardan zarbof liboslar tikilgan. Shoyi matolar va zardo'zi buyumlar zeb-ziynat darajasida qadrlanar va ulardan, asosan saroy ayonlari va mulkdor tabaqa vakillari kiyingan va foydalangan. Bu davrda jundan har xil gulli, qalin patli va taqir gilamlar, paloslar ham to'qilar va namatlar bosilgan. Namat, uy - ro'zg'orda faqat to'shama sifatida emas, balki harbiy ihota kiyim-boshlar tayyorlashda ham keng ishlatilar edi<sup>253</sup>. Gilam, palos va namatlar shaharli hunarmandlardan tashqari, qishloq, xususan chorvador aholi tomonidan ham ko'plab tayyorlanar edi. Shaharlarning to'qimachilik mahallalari va guzarlarida, ularga yaqin joylarda pillakashlar, kalavachilar hamda mato va kalavalariga bo'yoq beruvchi nilchi rangrezlar, chitga gul bosuvchi muxrkash va chitgarlar istiqomat qilishgan.

Bu davrda kulolchilik ham rivojlanib, sirlangan sopol buyumlar badiiy jihatdan rango-rangligi, shakli va turining xilma-xilligi hamda sifatligi bilan ajralib turgan. Ularning aksariyati sidirg'a oq sirli bo'lib, sirtiga to'q zangori yoki yashil, ba'zan qora yoki qizg'ish naqshlar tushirilgan. Norin tovoqlari, shoh kosa, lagan va ko'zalari, moychiroq

<sup>252</sup> Мухаммаджонов а. Темур ва теурийлар салтанати. -Т.: "Қомуслар бош тахририяти", 1996. 75- б.  
<sup>253</sup> Ўша ерда. 76- б.

va shamdonlari badiiy jihatdan yuksak darajada bo'lgan. Sirsiz arzon idish tovoqlar, xum va xumchalar hamda bolalar uchun yasalgan mayda o'yinchoqlar mehnat ahlining keng tabaqalariga juda asqotgan. Bularidan tashqari kulollar suv quvurlari, chiqir va charxpalak ko'zchalari (digir), koriz lag'mi gardishi (gyol) va boshqa ko'pgina sopol buyumlar pishirganlar. Ayni vaqtda binokorlik ashyolari ishlab chiqaradigan koshinpazlik, parchinsozlik, g'isht va g'isht taxtalar pishiradigan sohalar ham rivojlandi<sup>254</sup>.

XV asrda metaldan qurol - yarog' va ro'zg'or buyumlari yasash takomillashdi. Jumladan, mix yasovchilar, taqachilar, sim yasovchilar, pichoqchilar kabi turli xil buyum yasovchi ustalar bo'lgan. Samarqand saltanat poytaxti sifatida avvalgidek qurol - yarog' yasaladigan markaz bo'lib qoladi. Shaharda maxsus sovutsozlar mahallasi qaror topgan edi. Qurolsozlikda qiliich, qalqon, o'q-yoy, dubulg'a va sovutlar hamda jibalar yasalardi. Mis va jezdan turli xil uy-ro'zg'or buyumlari yasalgan va mayda mis chaqalar zarb qilingan<sup>255</sup>. Samarqandda shishasozlik yaxshi rivojlangan. Shishasozlar ko'zacha, qadah, siyohdon, doridon, surmadon, tuvak va sumaklar va boshqa turli xil ro'zg'or buyumlarini yasaganlar<sup>256</sup>.

Temuriylar davrida tosh yo'nish va unga sayqal berish, o'ymakor naqshlar va hushxat yozuvlar bitish san'ati takomillashgan. Samarqandda Bibixonim jome masjidi hovlisida Quranni qo'yish uchun marmardan ishlangan ulkan lavh (kursi), Ulug'bekning Go'ri Amirida Temur qabriga qo'ydirgan nefrit toshi, Shohi Zinda va boshqa sag'analarning marmar toshlari va ularga ishlangan jimjimador naqshlar, o'ymakorlik bilan bitilgan oyat, marsiya kabi bitiklar xalq hunarmandchiligining yuksak badiiy asar na'munalaridan bo'lib, ularda tosh yo'nuvchilarning mehnati va san'ati bilan xattotlarning zo'r mahorati uyg'unlashib ketgan.

Mirzo Ulug'bek davrida obodonchilikka e'tibor yanada kuchaygan. Shaharda yangi - yangi imoratlar qad ko'tardi. Jumladan, shahar maydoninig o'rtasida u bir-biriga ro'baro' madrasa va xonaqoh bino qilib, bu ikki maqomni qurib tamomlash borasida bir necha yil

<sup>254</sup> Usha erda. 78- b.

<sup>255</sup> Muḥammadjonov a. Temur va temuriylar saltanati. -T.: "Qomuslar bosh taxririyati", 1996. 77- b.

<sup>256</sup> Usha erda. 79- b.

davomida say - harakatlar ko'rsatdi<sup>257</sup>. Yana Samarqandning shimoli-sharqida mos bir joyni tayin qildi hamda shuhratli hakimlarning ixtiyori bo'yicha u ishni boshlashga muvofiq bir tole muqarrar qilindi. U (rasadxona)ning binosi davlat asosidek poydor, poydevori esa saltanat qoidasidek ustuvor qilib mustahkamlandi, imoratini tiklash va ustunlarni ko'tarish ...omon tarzda bajarildi<sup>258</sup>. Samarqand va Xirotda qurilish ishlarining avj olishi binokor ustalarga talabni kuchaytirgan. Quruvchilik takomillashib, binokorlar orasida me'mor, muhandis, g'isht teruvchi, suvoqchi-ganchkor, ganchkor-gaqqosh, tosh yo'nuvchi va duradgorlarning mavqei ortdi. Binokor ustalar, kasblariga ko'ra, g'isht terib imorat qaddini bino qiluvchilar, parchin va tirixlar qoplab imoratga pardo beruvchi "ustod"larga ajraldi.

Movarounnahr va Hurosonning markaziy shaharlarida tepasi tim qilib yopilgan yangi-yangi bozor - chorsularning soni ko'payib, rastalar kengaygan. Shaharlarda ichki savdo gavjumlashib, shaharlar bilan dehqonchilik vohalari va ko'chmanchi chorvador dasht aholisi o'rtasida savdo-sotiq aloqalari kengaydi<sup>259</sup>.

Temur va uning mahalliy noiblari Xitoy va Hindistonda O'rta Osiyo orqali Yaqin Sharq va Yevropa mamlakatlariga yo'nalgan asosiy xalqaro savdo "Buyuk ipak yo'li"ni egallab, savdo karvonlari qatnovi xavfsizligini ta'minlashda muhim chora - tadbirlar ko'rishgan, Sharq bilan G'arb o'rtasida savdo - sotiq va elchilik aloqalarini har tomonlama rivojlantirishga katta e'tibor berishgan. XV asrda Temuriylar davlatining qo'shni mamlakatlar bilan savdo aloqalari yanada gavjumlashadi. Ayniqsa Xitoy, Hindiston, Eron, Volga bo'yi va Sibir bilan muntazam savdo-sotiq qilingan. Xitoydan asosan ipak, shoyi matolar, xususan atlas va parchalar, chinni, la'l, gavhar va mushk; Hindistondan nafis oq rangli ip matolar, nil bo'yoqlar, xushbo'y ziravorlar (muskat yong'og'i, qalampirunchoq, dolchin va anbar); Erondan surp, marvarid va durlar; Rusiya, Tatariston va Sibirdan qimmatbaho mo'yna teri va mum olib kelingan. Yevropa mamlakatlaridan Samarqandga olib kelingan mollar orasida farang gazmollari, movuti, Cherkas pichoqlari bo'lgan. Samarqanddan chet

<sup>257</sup> Абдураззоқ Самарқандий. Матлан Саъдайн ва Мажмаи Баҳрайн. (II жилд, биринчи қисм). (1405-1429 йиллар воқеалари). -Т.: "O'zbekiston" 2008. 377-6.

<sup>258</sup> Usha erda. 379-380 b.

<sup>259</sup> Muḥammadjonov A. Temur va temuriylar saltanati. "Qomuslar bosh taxririyati", -T.: "Qomuslar bosh taxririyati", 1996. 82-6.

mamlakatlarga, xususan, Rusiya, Tatariston va Sibirga, asosan arzon narxli ip matolar, duxoba, shoyi, qog'oz, quruq meva, guruch, paxta va kalava iplar chiqarilgan. Movarounnahr va Xurosondan Xitoyga yilqi olib ketilgan<sup>260</sup>.

Chet davlatlar bilan o'zaro savdo-sotiqni kengaytirishda Temuriylarning qo'shni mamlakatlar bilan olib borgan elchilik aloqalari katta rol o'ynagan. XV asrning birinchi choragida Shohrux va Ulug'bek davlatlari bilan Xitoy o'rtasida muntazam elchilar almashinib turildi<sup>261</sup>. Bu to'g'rida Abdurazzoq Samarqandiy o'zining kitobida "Doy-Ming xon tarafidan elchilar Samarqand diyoriga yetib kelib, Shohrux bahodir uchun noma topshirdilar", degan fikrni keltirib, Xitoy temuriylar bilan savdo qilishdan manfaatdor bo'lganligini ko'rsatishga harakat qilgan. Doy Ming xon Xalil Sultonni maqtab Shohruxdan uni "yaxshi tarbiyat qilishing kerak", - deb Xalil Sulton bilan muosabatlarining yaxshi bo'lganligini bildirgan. Xitoy elchilarining ishlari bitganidan keyin, ularga ijozat berilib, qaytib ketdilar. Elchilik rasmi bo'yicha ular bilan birga Shayx Muhammad qo'shib jo'natildi<sup>262</sup>. Har ikkala davlat o'rtasidagi savdo va elchilik aloqalari bu davrda yanada rivoj topdi. Deyarli har ikki - uch yilda Samarqand bilan Hirotga Xitoy elchilari, Xonbaliq (Pekin) ga esa Movarounnahr va Xuroson elchilari va savdogarlari qatnab turishgan. 1417 yil 18 aprel -17 may kunlari Doy-Ming xon yana elchi yuborib, "birdamlik eshigi ochilmog'i lozimdir, toki raiyatlar va savdogarlar o'z istak - ixtiyorlari bilan borib kelsinlar, yo'llar bexavotir bo'lsin", - degan mazmunda maktub jo'natadi. Elchilar bilan Onhazrat Ardasher tavochini hamroh qilib Xitoyga yubordilar<sup>263</sup>. 1418 yilda Ardasher boshliq Shohrux elchilari Xitoyda bo'lib, 1419 yil 21 sentabr -20 oktabr kunlari bunga javoban Li Do va Jong Ku Xitoydan Samarqand va Hirotga elchi bo'lib kelishgan. Elchilar Ulug'bek va Shohruxga o'zaro do'stlik munosabatlarini rivojlantirish xususida takliflar yozilgan maktub va katta sovg'a-salomlarni topshiradilar<sup>264</sup>.

<sup>260</sup> Мухаммаджонов А. Темур ва temuрийлар салтанати. "Қомуслар бош тахририяти", - Т.: "Қомуслар бош тахририяти", 1996. 84-б.

<sup>261</sup> Бўриев О. Элчилар йўл юрдилар...// Шарқшунослик. -Т.:1990. -64-66 б.

<sup>262</sup> Абдураззоқ Самарқандий.Матлаи Саъдайн ва Мажмаи Баҳрайн. (II жилд, биринчи қисм). -Т.: "O'zbekiston" 2008. 222, 225- б.

<sup>263</sup> Ўша ерда. 226-б.

<sup>264</sup> Абдураззоқ Самарқандий.Матлаи Саъдайн ва Мажмаи Баҳрайн. (II жилд, биринчи қисм). -Т.: "O'zbekiston" 2008. 347-349-б.

1420 yilda Shohrux va Ulug'bek 530 nafardan iborat elchilik karvonini Xitoyga jo'natishgan. Shohrux elchilarga Shodixoji bilan amir Ko'kcha, Ulug'bek elchilariga Sultonshox bilan Muhammad Baxshiy boshchilik qiladilar. G'iyosiddin Naqqosh kotib etib tayinlanadi. Temuriylarning elchilari Xitoyda ikki yildan ortiqroq bo'lib, 1422 yilda o'z vatanlariga qaytib keladilar<sup>265</sup>.

Shohrux va Ulug'bek zamonida Tibet va Hindiston bilan ham yaxshi qo'shnichilik munosabatlari o'rnatildi. 1421 yilda Tibetdan Samarqand va Buxoroga elchilar keladi<sup>266</sup>. 1441-1444 yillarda Shohrux Hindistonga Bijanagar saroyiga tarixchi Abdurazzoq Samarqandiy boshchiligida elchilar yuboradi. U Kermon viloyati, Ho'rmuz va Fors qo'ltiqlari orqali Hindistonga qilgan sayohatini yozib qoldiradi<sup>267</sup>. Shohrux o'z elchilarini Misr sultoni qabuliga jo'natgan, 1439-1440 yillarda esa o'z saroyida Misr elchilarini qabul qilgach, Mulk (ishlari) bo'yicha sohib ixtiyor bo'lgan amir Jaloluddin Feruzshoh murtazoyi a'zam Sayid Shamsuddin Muhammad Zamzamiyni (elchilikka) tayin qildi<sup>268</sup>. Abdurazzoq Samarqandiy 1447 yili Shohruxning topshirig'i bilan Gilonga bordi. Uning hokimi amir Muhammad bilan muzokaralar olib bordi. O'sha yili u Misrga elchi qilib tayinlandi, lekin Shohruxning vafoti (1447 fil 12 mart) tufayli bu missiya amalga oshmay qoldi<sup>269</sup>.

Amir Temur avlodlari Buyuk Ipak yo'lini rivojlantirish maqsadida jiddiy harakatlar qilganlar. Ular Xitoy bilan tinchlik bitimlarini ham tuzishgan. Jumladan, 1388-1500 yillar davomida Toshkent, Samarqand, Xuroson, Sheroz, Hirot, Isfahon kabi shaharlardan 120 dan ortiq elchi guruhlari Xitoyga borgan. Ularning ko'pchiligi o'rta hisobda 8-10 kishidan iborat bo'lgan. Ayrim elchilar guruhiga 200 kishi atrofida savdogarlar qo'shilib borgan. Savdogarlar Xitoyga ot, tuya, eshak kabi chorva mollari, qimmatbaho toshlar va ulardan yasalgan buyumlar, dorivorlar va har xil mahalliy hunarmandchilik

<sup>265</sup> Ўша ерда. 421-452-б.

<sup>266</sup> Мухаммаджонов А. Темур ва temuрийлар салтанати. "Қомуслар бош тахририяти", Т.:1996. -85 б.

<sup>267</sup> Абдураззоқ Самарқандий.Матлаи Саъдайн ва Мажмаи Баҳрайн.(II жилд, иккинчи қисм). "O'zbekiston" -Т.: 2008.-112-117, 119-163 б.

<sup>268</sup> Ўша ерда. 133-б.

<sup>269</sup> Аҳмедов Б. Ўзбекистон халқлари тарихи манбалари. "Ўқитувчи", -Т.:1991. 152-б.

mahsulotlarini olib borishgan. Xitoydan esa, asosan, ipak mato, chinni idishlar, choy, ravoch va dorivorlar olib kelingan<sup>270</sup>.

Mamlakat iqtisodini ko'tarishda Ulug'bekning 1428 yilda o'tkazgan pul islohoti ham ma'lum ma'noda katta ahamiyatga molik ish bo'ldi. Tashqi savdodan keladigan daromadni oshirish maqsadida "tamg'a" bojini birmuncha oshirdi<sup>271</sup>.

Umuman olganda mamlakatning iqtisodini ko'tarishda ichki va tashqi savdo, hunarmandchilik, dehqonchilik hamda chorvachilikning rivojlanishi katta ahamiyatga ega bo'ldi. Bu davrda Movarounnahrda hunarmandchilikning ixtisoslashish jarayoni tezlashib, uning ko'plab yangi sohalari vujudga keldi. Ba'zi hunarmandchilik mahsulotlari badiiy yetuklik darajasiga ko'tarildi. Hunarmandchilikning yuksalishi ko'p jihatdan ichki va tashqi savdoning umumiy holatiga bog'liq edi. Shuning uchun ham Temuriylar davrida mamlakatning iqtisodiy hayotda muhim o'rin tutgan tijoratchilikning kengayishiga, shaharlarda karvonsaroylar, karvon yo'llari kesishadigan joylarda katta-kichik rabotlar, yomlar, xonaqohlar, cho'l zonalarida sardobalar qurilishiga, karvonlarning xavfsizligini ta'minlashga katta e'tibor berildi. Boshqa mamlakatlar bilan diplomatik aloqalarning yaxshi yo'lga qo'yilishi karvonlar qatnovini jonlanishi ichki va tashqi savdoning rivojlanishiga samarali ta'sir ko'rsatdi.

Temuriylar davrida Movarounnahr va Xurosonda ilm-fan hamda madaniy hayotda katta yuksalish ro'y berdi. Bu davr o'z mohiyati bilan Sharq renessansining, uyg'onish davrining o'ziga xos bosqichi bo'ldi.

Temuriylar davri madaniy hayotida Ulug'bek davri (1409-1449) alohida diqqatga sazovordir. Mirzo Ulug'bek 1394 yil 22 mart oyida Eronning g'arbidagi Sultoniya shahrida, bobosi Temurning harbiy yurishi paytida tug'ildi. U Shohrux Mirzoning to'ng'ich o'g'li bo'lib, unga Muhammad Tarag'ay ismi berilgan, lekin bolaligidan u Ulug'bek deb e'zozlanganligi tufayli, bu ism unga butun umr hamrohlik qildi. Ulug'bekning bolalik yillari bobosi Temurning harbiy yurishlarida o'tdi. 1405 yil Xitoyga qilinayotgan yurishining boshlanishida Amir Temurning vafot etishi tufayli boshlanib ketgan taxt uchun kurashlarda Shohruxning qo'li baland keldi. Lekin Shohrux o'ziga poytaxt qilib

<sup>270</sup> Хўжаев А. Буюк ипак йўли: муносабатлар ва тақдирлар. -Т.: "ЎзМЭ", 2010. 203-б.  
<sup>271</sup> Мухаммаджонов А. Темур ва темурийлар салтанати. "Қомуслар бош тахририяти". Т.:1996. -86 б.

Hirotni tanlab, Movarounnahr poytaxti Samarqandni esa o'g'li Ulug'bekka topshirdi<sup>272</sup>.

Shohrux to'ng'ich o'g'li Ulug'bekni 1411 yili Movarounnahr va Turkistonning hokimi etib tayinlaydi. Ulug'bek 17 yoshida hokim bo'lib, bobosidan farqli o'laroq harbiy yurishlar bilan qiziqmas, ko'proq ilm – fanga moyil edi<sup>273</sup>. Ulug'bek ilmi riyoziyot va ilmi falakiyot sohasiga katta e'tibor berdi. U Samarqandda 1417-1420 yillar ichida madrasa qurdiradi.

Ulug'bek madrasasi o'sha davrda turli sohalarda ilmiy va ijodiy izlanishlar olib borgan allomalarning munozara va muhokama maskaniga aylangan. Madrasada Ulug'bekning o'zi ham dars bergan. Bu haqda Abu Tohirxoja Samarqandiy o'z asarida quyidagilarni yozadi: "Madrasaning imorati bitgandan keyin Ulug'bek mirzo u yerda Qozizoda Rumiyni mudarrislikka belgiladi. Ba'zi vaqt o'zi ham dars aytmoqqa kirishar edi"<sup>274</sup>. U handasa (geometriya), riyoziyot (matematika), ilmi nujum (astronomiya), tarix, adabiyot, mantiq va musiqa ilmlarini yaxshi bilardi. Quron, hadis va fiqh (musulmon qonunchiligi) ilmlaridan ham xabardor edi. Mirzo Ulug'bekning ilmiy salohiyati, uning ahli qalam va ulamo xususidagi g'amxo'rlik ko'rsatganligi haqida uning ustozlari va safdoshi G'iyosiddin Jamshid Koshoniyning otasiga yozgan maktubini keltirish mumkin<sup>275</sup>. O'sha maktubda u, "...Islom podshosi, Tangri taolo uning davlatini abadiy qilsun, o'zi olim kishidur. Men bu gaplarni hurmat yuzasidan aytayotg'onim yo'q. Bor gapim shulkim, birlamchidan ul kishi muqaddas "Quron"ning katta qismini yoddan biladurlar, ani sharhlab bera oladurlar. Har kuni xalq oldida andin ikki surani o'qiydurlar, lekin bironta xato qilmay to'g'ri o'qiydurlar. Sarf ila nahvni (etimologiya va sintaksis ilmini) yaxshi biladurlar, arabchani ko'p chiroyli yozadurlar. Shu bilan birga fiqhni, mantiqni, ilmi adabni, musiqaning nazariy asoslarini yaxshi biladurlar. Riyoziyot ilmining barcha sohasida keng ma'lumotga egadurlar. Bu bobda shu darajaga yetishganlarkim, ot ustida o'ltirg'onlari holda 818 yil rajab oyining o'ninchisi birlan o'n beshinchisi o'rtasi, shanba kuni, yil fasllarining

<sup>272</sup> Маънавият юлдузлари. Т.: "Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси", 2001. -172 б.

<sup>273</sup> Ўша ерда.

<sup>274</sup> Абу Тоҳирхожа. Самария.Наршахий.Бухоро тарихи. Баёний.Шажараи Хоразмшохий. Ибрат.Фарғона тарихи. Т.: "Камалак", 1991. -25 б.

<sup>275</sup> Ахмедов Б. Амир Темурни ёд этиб. Т.: "Ўзбекистон", 1996. -67-68 б; Ж.Ибодов, Г.Матвиевская. Улугбек шоғирди –Али Қушчи. Т.: "ФАН", 1994 й. - 6 б.



qaysi ayyomiga to'g'ri kelishini surishtirib qoldilar. (Hech kim aytib berolmagach), oning o'zi, otdin tushmagan holda, quyoshning uzunligini daraja va daqiqasigacha hisoblash yo'li bilan oni yechib berdilar. Haqiqatdan ham hisob-kitob qilg'onda raqamlarni yodda tutib qolish lozim. (O'sha paytda) bir odam yoddan hisob-kitob qilishga harakat qilib ko'rdi, lekin xotirasi yaxshi emas erkan. U oni daraja va daqiqalarigacha hisoblab berolmadi. Yoddan Hisob-kitob qilib berish zamondoshlardin Ulug'bekdin (boshqa) hech kimning ilgidin kelmaydur. Ushbuni ham qayd etmoqchimanki, Ulug'bek Mirzo ushbu ilmda (riyoziyot ilmida) tengi yo'qdur. Osmon havodislari xususida asosli dalillar keltiradurlar. To'g'ri xulosalar chiqarishga qodirdurlar. Zoti oliylari Nosiriddin Tusiyning "Tazkira"si hamda Qutbiddin Mahmud ibn Mas'ud Sheroziyning "At-tuhfa ash-Shohiy" asarlari bo'yicha shu darajada zo'r dars o'qiydurlarkim, ortiqcha izohlashga muhtojlig'i yo'qturur... A'lohazrat, davlatpanoh, kun aro (madrasada) dars va mashg'ulotlarda ishtirok etadurlar, ishtirok etganlarida ham riyoziyotdin dars berishni yaxshi ko'radurlar. O'sha mashg'ulotlarga banda ham qatnashatug'on bo'lib qoldim"<sup>276</sup>.

Ulug'bek zamonida fan taraqqiyoti yaqqol ko'zga tashlanadi. U Ilmi nujum, ilmi riyoziyot, ilmi tabobat (meditsina), surat al-ard (geografiya), tarix, kimyo va boshqa fanlar rivojlandi<sup>277</sup>. Bu haqda Abdurazzoq Samarqandiy o'z kitobida yozadi, - "O'z bilimni nurlarini butun jahonga oftob shu'lasi yanglig' zohir qilishni, idrok yorug'ligini tuproq chuqurligidan eng yuqori falak gumbaziga yetkazishni, yulduzlar rasadi sadosini gardun gumbazi bo'ylab tarqatishni va bu ulug' ish tantanasini yer yuzida yangratishni istadi. Shunga binoan, u zamon Aflotuni mavlono Salohuddin Muso Qozizodayi Rumiy, Mirzo Ulug'bek o'zi tarbiyalab inoyat tili bilan "farzandim", deb atagani davron Batliymusi bo'lmish mavlono Alouddin Ali qushchi, - bu ikki donishmand tadqiqotchi Samarqandda muqim yashar edi - hamda Mirzo Ulug'bek Koshondan Samarqandga keltirgani ulug' mavlono G'iyosuddin Jamshid va hurmatli mavlono Muinuddinlar kabi barcha ilmlar bo'yicha va ma'qulu mafhum, xususan riyoziy ham hikamiy tadqiqotlar bo'yicha asr mo'jizasi va davr nodirasi bo'lmish hukamolar

<sup>276</sup> Аҳмедов Б. Амир Темурни ёд этиб. -Т.: "Ўзбекистон", 1996. 67-68 б.

<sup>277</sup> Сагдуллаев А., Аминов Б., Мавлонов Ў., Норкулов Н. Ўзбекистон тарихи: давлат ва жамият тараққиёти. -Т.: "Академия", 2000. 140-б.

va mashhur bilimdonlar, utorid zehnlı muhandislaru "Majistiy" kashf etuvchi faylasuflar bilan birgalikda bir anjuman tuzdi va aqli kullning qo'llovi bilan osmon qismlarida har bir qismning kayfiyatidan voqif bo'lgan, xayol sayyohining dadil qadamlari bilan yuqoriyu quyi olamning uzunlik va kenglik masofasini bosib o'tadigan va jismlarning oraliq ham sathlarini aniqlashda biror muhmal daqiqa yoki soniyani e'tiborsiz qoldirmaydigan ana shu donishmandlar bilan munajjimlikning nozikliklarini o'qib olishu tavqimlarning sirlarini tushunib yetish sohasida so'z martabasi darajalarini falak ul- aflokka yetkazib suhbatlar qurdi"<sup>278</sup>. Ayniqsa, Ulug'bek madrasasi va rasadxona, ilmiy hayotda katta rol o'ynadi. Abu Tohirxoja Samarqandiy "Samariya"da bu voqealarni quyidagicha bayon etadi: "Madrasa solingandan to'rt yil keyin 833 (1428 y.) Ulug'bek, Qozizoda Rumiy, mavlono G'iyosiddin Jamshid, mavlono Muiniy Koshiy, mavlono Salohiddin Muso bilan Ko'hak pushtasining etagida, Obi rahmat arig'ining yoqasida rasadxona binosiga boshladi. Rasadxonaning tevaragida buyuk-buyuk hujralar tuzdi. Rasadxona tepasining etagida go'zal chorbog' va chinnixona yasatib, ko'pincha unda turar edi"<sup>279</sup>.

Rasadxonada Ulug'bek bilan birga Qozizoda Rumiy (1435 yilning fevralida vafot etgan), G'iyosiddin Jamshid al-Koshiy (tug'ilgan va vafot etgan vaqtlari aniqlanmagan), Alovuddin Ali Qushchi ( u 1475 yili Istambulda vafot etgan) kabi olimlar ishlagan. Keyinchalik bu akademiyada Hasan Chalabiy ibn Muso ibn Mahmud Qozi Zoda Rumiy (Salohiddin Muso Qozi Zoda Rumiyning o'g'li), Mu'iniddin al-Koshiy, Mansur ibn Mu'iniddin al-Koshiy va boshqa olimlar ishlashgan. Olib borilgan astronomik kuzatishlar asosida "Ulug'bek ziji" vujudga kelgan<sup>280</sup>. Bu haqda Abu Tohirxoja Samarqandiy "Samariya"da quyidagilarni bayon qilgan: "Ulug'bek Mirzo hijriy 841 (melodiy 1437 yil)dan boshlab munajjimlar orasida e'tiborli bir kitob sanalgan "Ziji Ko'ragoniy"ni yozdi"<sup>281</sup>. Abdurazzoq Samarqandiy ham o'zining "Matlai sa'dayn va majmai bahrayn" ("Ikki saodatli yulduzning chiqish va ikki dengizning qo'shilish joyi") nomli asarida

<sup>278</sup> Абдураззоқ Самарқандий.Матлаи Саъдайн ва Мажмаи Баҳрайн. -Т.: "Ўзбекистон" 2008. -379 б.

<sup>279</sup> Абу Тохирхожа. Самария.Наршахий.Бухоро тарихи. Баёний.Шажараи Хоразмшохий. Ибрат. Фарғона тарихи. Т.: "Камалак" 1991. -25 б.

<sup>280</sup> Абдурахмонов А. Улугбек академияси. - Т.: "Қомуслар Бош таҳририяти", 1993. -15 б.

<sup>281</sup> Абу Тохирхожа. Самария.Наршахий.Бухоро тарихи. Баёний.Шажараи Хоразмшохий. Ибрат. Фарғона тарихи. Т.: "Камалак" 1991. -25 б.





Salohiddin Muso bilan<sup>288</sup> ilmi falakiyot rasadxonasini qurish rejasini tuzib qo'ygan edilar. Ali Qushchi ham bu ishga g'ayrat bilan kirishib, ustozlariga yordam berish paytida ularning boy tajribasidan baxramand bo'ldi. Shu holda ilm olishni tugallab, mustaqil va ijodiy fikrlovchi olimga aylandi<sup>289</sup>. Rasadxonani bitirish jarayonida yuqorida nomlari zikr etilgan olimlar vafot etib, Ulug'bekning asosiy tayanchi Ali Qushchi bo'lib qoladi<sup>290</sup>. Ali Qushchi ilmi falakiyot rasadxonasi ishlarini boshqaradi va "Ziji Kuragoniy"ni yozishda qatnashdi. Ali Qushchining asarlari<sup>291</sup> Ulug'bek "Zij"dek shuhrat qozonmagan bo'lsada uning ijodi fan tarixida muhim o'rin tutadi. U o'rta asrlardagi Movarounnahrda rivoj topgan aniq fanlar sohasidagi buyuk olimlarning eng so'nggi namoyandasi bo'lishi bilan birga Usmonli turklardagi birinchi eng yirik va ko'zga ko'ringan olim bo'lgan<sup>292</sup>. Ulug'bek vafotidan so'ng Eronning Kermon shahriga keladi va shu yerda saroy olimi lavozimida xizmat qiladi, hamda madrasada matematika va astronomiya fanlaridan dars beradi. Kermonda o'zining ilmiy maktabini tashkil etadi va Samarqand akademiyasi ilmiy izlanishlari an'anasini davom ettiradi. Ali Qushchi maktabi o'n yilga yaqin faoliyat ko'rsatadi. Bu davr ichida Ali Qushchi Mirim Chalabiy, Husayn Birjandiy va boshqalar singari bir necha shogirdlarni tarbiyalab voyaga yetkazadi.

Ali Qushchi Istambulda yashagan chog'ida ham olimlarni o'z atrofiga to'playdi va Turkiyada ham fanning turli sohalari rivojlani-shiga o'z hissasini qo'shadi. Hozirgi zamon turk tarixchilarining e'tirof etishicha, Istambulga Ali Qushchi kelgunga qadar "ilmi hay'atda u daraja biror sohib vuqufi bo'lmagan edi". Istambulga Ali Qushchi kelishi bilan bu mamlakatda qisqa muddat ichida astronomiya fani sohasidagi ishlar yo'lga qo'yildi. Natijada Mirim Chalabiy va boshqa atoqli zotlar yuzaga keldi<sup>293</sup>.

<sup>288</sup> Абу Тохирхожа. Самария. Наршахий. Бухоро тарихи. Баёний. Шажаран Хоразмшохий. Ибрат. Фарғона тарихи. Т.: "Камалак" 1991. -25 б.

<sup>289</sup> Ибодов Ж., Матвиевская Г. Улугбек шогирди -Али Қушчи. Т.: "ФАН", 1994 й. - 6-7 б.

<sup>290</sup> Абу Тохирхожа. Самария. Наршахий. Бухоро тарихи. Баёний. Шажаран Хоразмшохий. Ибрат. Фарғона тарихи. Т.: "Камалак" 1991. - 25 б.

<sup>291</sup> Маънавият юлдузлари. -Т.: "Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси", 2001. -195-198 б.

<sup>292</sup> Маънавият юлдузлари. -Т.: "Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси", 2001. -194 б.

<sup>293</sup> Ўша ерда. 195-б.

Ulug'bek akademiyasi an'analarini davom ettiruvchilardan ikkinchisi otasi bo'yicha Salohiddin Qozizoda Rumiyning, onasi bo'yicha Ali Qushchining nabirasi - Muhammad ibn Muso ibn Mahmud Qozizoda Rumi, taxallusiga ko'ra "Mirim Chalabiy"dir. U taxminan 1430-1435 yili Samarqandda tug'ilgan. Ma'lumotni Samarqand madrasasida olgan. U 1451 yili Ali Qushchi bilan Kermon shahriga kelib, ilmiy pedagogik faoliyatini boshlaydi. Bobosi bilan Istambulga borib u yerda 1475 yilgacha yashaydi. U bu yerda ko'p ustozlarining ishlariga sharhlar yozgan, ustozlari tugata olmagan risolalarni oxiriga yetkazgan. Chalabiy 1475 yildan so'ng Kichik Osiyoning turli shaharlarida yashagan<sup>294</sup>. Umrining oxirida u Anatoliyada sulton Salim (1512-1520) ning saroyida qozi lavozimida xizmat qilgan. XVI asr boshida sulton Boyazid II (1481-1512) ning iltimosiga ko'ra "Ziji jadidi Ko'ragoniy"ning sharhidan iborat "Amallar qoidasi va jadvallarni to'g'rilash" ("Dastur al-amal va tasxix al-jadval") asarini yozgan. Chalabiyning yana bir asari "Vatar va sinus haqida risola" deb ataladi, ammo bu asarning qo'lyozmasi hozirgacha topilgan emas. U turli xil astronomik asboblar to'g'risida ham risolalar yozgani haqida ma'lumotlar bor. Nemis olimlaridan German Gankel va Brunmyullerlar Mirim Chalabiyning ilmiy faoliyatini tatqiq etib, unga yuksak baho berishgan.

Samarqand akademiyasi ilmiy ishlari an'analarini davom ettiruvchilardan yana biri Mullo Abduali Najmiddin ibn Muhammad ibn Husayn Birjandiydir. U XV asrning ikkinchi yarmida Eronning Birjand shahrida tug'ilgan. Matematika va astronomiyaga taluqli ilmlarni Ali Qushchidan o'rgangan. Avval Eronning turli shahar va viloyatlarida yashagan, keyin esa Hirotda vazir Habibulloxon saroyida xizmat qilgan. Birjandiy yunon, hind olimlari, shuningdek, o'z ustozlarining asarlariga sharhlar bitgan. O'zi ham matematika va astronomiyaga doir original asarlar yaratgan. U Hirotda madrasasida dars berib, atrofiga iqtidorli yoshlarni to'plab, ular bilan birgalikda ilmiy ishlar olib borgan. Birjandiy madrasa toliblari uchun matematika va astronomiyadan o'quv qo'llanmalar ham yaratgan. U 1528 yili vafot etgan.

U yozgan sharhlar : Ptoleme "Almegesti"ning Nasiriddin Tusiy tomonidan arabchaga tajrimasiga yozilgan sharh; "Ulug'bek ziji"ga sharh; Chag'miniy risolasiga sharh va boshqalardir<sup>295</sup>.

<sup>294</sup> Абдурахмонов А. Улугбек академияси. -Т.: "Қомуслар Бош тахририяти", 1993. - 22-б.

<sup>295</sup> Абдурахмонов А. Улугбек академияси. -Т.: "Қомуслар Бош тахририяти", 1993. -23 б.

Yuqorida keltirilgan fikrlardan xulosa qilsak, Ulug'bek "Zij"ni o'rta asrlardagi eng mukammal astronomik asar bo'lib, tezda zamondoshlarining diqqatini o'ziga jalb etdi. Eng avvalo bu asar Samarqandda Ulug'bek atrofida to'plangan olimlar ijodiga ta'sir ko'rsatdi. "Zij"ni o'rganish shundan dalolat beradiki, u asosan amaliy qo'llanishga mo'ljallangan bo'lib, nazariy masalalarni bayon etishni Ulug'bek oldiga maqsad qilib qo'ymagan. Shuning uchun bo'lsa kerak, "Zij"ni birinchi bo'lib Samarqand olimlarining o'zi, xususan Ali Qushchi sharhlaydi. Undan keyingi sharhlarni Mirim Chalabiy va Husayn Birjandiylar yozadi<sup>296</sup>.

"Zij"ning G'arbiy Ovroppa faniga ham ta'siri katta bo'ldi. G'arbiy Ovropo Temur va uning farzandlarini, ayniqsa Ulug'bekni XV asrdanoq bilardi. Ali Qushchining Istambuldagi faoliyati tufayli Ulug'bekning olimligi haqidagi xabar ham Ovropoga tarqaladi<sup>297</sup>. Jumladan, 1643 yildan boshlab, Oksford universitetining professori Djon Grivs "Ulug'bek ziji"ni ilmiy tadqiq qilishni boshladi va uning yulduzlar katalogidan olingan 98 ta yulduzning holatini e'lon qildi. 1648 yili esa "Ulug'bek ziji"ning geografiya qismini alohida nashr etdi<sup>298</sup>. Ingliz olimi va sharqshunosi Tomas Xayd (1636-1703) 1665 yili "Zij"dagi turg'un yulduzlar jadvalini forscha va lotinchada nashr etadi<sup>299</sup>.

Ovropo olimlari akademiya xodimlarining matematik merosini ham o'rgandilar. Jumladan, X.Xunner va K.Fogellarning ta'kidlashicha, Konstantinopol yunonlari ular yurtini turklar boshqara boshlaganidan buyon o'nli kasrlardan foydalanishar ekanlar. Demak, G'iyosiddin al-Koshiyning bu kashfiyoti Konstantinopolga Ali Qushchi kelganidan so'ng tarqalgan.

Marhum G.Sobirov Yan Bidman 1489 yili arifmetika va algebradan tuzgan o'quv qo'llanmasida Ali Qushchi kashf etgan "musbat" va "manfiy" atamalarini ishlatganligini yozadi<sup>300</sup>. Ulug'bek va uning akademiyasi G'arbiy Ovroppoda qanchalik mashhur bo'lganligini chex astronomi Yan Geveliyning "Astronomiya darakchisi" asariga bitilgan gravyuradan ham bilish mumkin.

<sup>296</sup> Маънавият юлдузлари. Т.: "Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси", 2001й. -178 б.

<sup>297</sup> Ўша ерда. 179-б.

<sup>298</sup> Абдурахмонов А. Улугбек академияси. -Т.: "Қомуслар Бош тахририяти", 1993. 24- б.

<sup>299</sup> Маънавият юлдузлари. Т.: "Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси", 2001. 179- б.

<sup>300</sup> Абдурахмонов А.. Улугбек академияси. -Т.: "Қомуслар Бош тахририяти", 1993. 24- б.

Shunday qilib, Ulug'bek akademiyasi va uning namoyandalari tomonidan amalga oshirilgan ilmiy ishlar Turkiya orqali Italiya va Ispaniyaga, undan G'arbiy Ovroppoga o'tgan va G'arbiy Ovroppoda astronomiya va matematikaning rivojlanishiga salmoqli hissa qo'shgan<sup>301</sup>.

Amir Temur va temuriylar davrida tabobat ilmiga, davolash, orastalik ishlariga, bu sohadagi qurilishlarga katta ahamiyat berilgan. Amir Temur hakimlar, tabiblar, munajjimlar va muhandislarni (sakkizinchi toifa) ham davlat tayanchi hisoblab, ularning saltanat korxonasi rivojiga beqiyos xizmat qilishni teran anglagan. "Hakimlar va tabiblar bilan ittifoqda, - deb davom etadi u - bemorlarni davolatardim. Munajjimlarimdan sayyoralarning qutlug' va qutsiz kunlari, ularning harakati va aylanishini aniqlab olardim. Muhandislar bilan ittifoqda oliy imoratlar bino qilib, bog'u-bo'stonlarning tarhini (loyihagini) chizdirdim"<sup>302</sup>.

Temur zamonida har bir shaharda shifoxona bo'lgan, ularda tajribali tabiblar ishlaganlar. Samarqandda esa «Dorush-shifo» (Shifo maskani) nomli yirik kasalxonaga bo'lib, unga o'z zamonasining taniqli tabibi – Mir Sayyid Sharif Sheroziy (1330-1414) rahbarlik qilgan. Shifoxonalarda ishlovchi tabiblarga yaxshi maosh to'langan. O'sha davrda tabiblar o'rtasida mohir jarrohlar ham bo'lgan. Shulardan biri Tojiddin Hakim edi. U murakkab operatsiyalardan biri, ko'z kataraktasini operatsiya yo'li bilan muvaffaqiyatli davolagan. Bu jarrohni antiseptika usulining asoschisi desa bo'ladi.

Temuriylar davrida yirik tabiblardan yana biri Hakim Kirmoniy edi. Uni ikkinchi Ibn Sino deb atardilar. Uning 1464 yilda yozilgan "Xosiyatlar dengizi" nomli kitobi mashhurdir. Shuningdek o'sha davrlarda Nurbaxshiy Bahouddavla Sharq tabiblaridan birinchi bo'lib, bolalarda uchraydigan ko'k yo'tal, otashak (zaxm) kasalliklari haqida ma'lumot bergan va ularni davolagan.

Bu davrda "Shifo" kasalxonasi tibbiy maktab uchun o'quv-amaliyot ba'zasini rolini o'ynagan. Qutbiddin Odam Xurosonning eng mashhur tabiblaridan bo'lgan. Uni hatto Sharqning namunasi deb ataganlar U ham "Shifo" kasalxonasida xizmat qilgan.

Samarqandga kelib ijod qilgan tabobat ilmining yirik vakillaridan Burxoniddin Nafis ibn Evaz hakim al-Kirmoniydir. Hakim al-

<sup>301</sup> Абдурахмонов А.. Улугбек академияси. -Т.: "Қомуслар Бош тахририяти", 1993. 26-б.

<sup>302</sup> Ахмедов Б. Мир Темурни ёд этиб. -Т.: "Ўзбекистон", 1996. -9 б.



Kirmoniy asli kirmonlik bo'lib, Ulug'bekning taklifi bilan Samarqandga kelib tabiblik qiladi. U o'zbek tabibi Najmiddin Samarqandiyning "al-Asbob va-l-alomat" ("Kasallik sabablari va alomatlari") asariga sharh yozib, Ulug'bekka hadya qiladi. Uning yana bir risolasi "Sharq al-Mo'jaz" ("Qisqarta"ning sharhi) bo'lib, u Sharq tabobat tarixiga, Ibn Sinoning keyingi olimlarga ko'rsatgan ta'siriga bag'ishlangandir<sup>303</sup>. Ibn Sinoning tibbiyot va mantiqqa bag'ishlangan risolalariga ko'plab sharhlar bitiladi. Shulardan biri "Halli mo'jaz" ("Qisqartmaga sharh") deb atalib, uning muallifi Jalolliddin Muhammad ibn Muhammad al-Oqsaroyi (XIV asrda yashagan) bo'lib, Ibn Sinoning "Qonun"ini sharhlab bergan<sup>304</sup>.

Zayniddin Vosifiy o'zining "Badoi ul-vaqoye" risolasida ibn Sinoning hayoti va ijodiga to'xtalib, uni qomusiy olim sifatida ta'riflaydi. Alisher Navoiy esa "Hayratul abrор" asarida ibn Sinoni boshqa olimlarga o'rnatib ko'rsatadi<sup>305</sup>.

Xulosa qilib qilib aytganda, Temuriylar davrida boshqa fanlar qatorida tibbiyot ilmi ham qadrlangan. Shifokorlik ilmini rivojlantirishda o'tmish me'rosini o'rganish va ilmiy asarlar yozib, ularni targ'ib qilish jarayoni keng tarqalgan. Bu davrda Movarounnahr va Xurosonda ko'plab masjid, madrasa va maqbaralar qatorida shifoxonalar ham qurilib, ular asosan vaqf mulklari bo'lgan. Vaqf mulklaridan tushgan daromadlardan boshqa muassasalar qatorida shifoxonalar ham ta'mirlangan, jihozlangan. Shuningdek, mutavalli, mudarris va tabiblarga maosh, talabalarga beriladigan nafaqalar hamda musofirxona va shifoxonalarning kundalik xarajatlari (oziq-ovqat, tozalik va yoritgichlar) uchun sarf etilgan<sup>306</sup>.

Miniatyura san'atining Samarqandda yuzaga kelishida Amir Temurning hissasi katta bo'lgan. U Samarqandni poytaxtga aylantirish maqsadida, bu yerga yurishlardan ko'plab hunarmandlar, olimu-fuzalolar qatorida, xattotlarni va rassomlarni ham o'zi bilan birga olib kelgan. Jumladan, Amir Temur tomonidan Bog'doddan olib kelingan Abdul Hayyo Samarqanddagi rassomlik ustaxonasiga boshliq qilib tayinlangan. Zamondoshlarining aytishicha, Abdul Hayyo kabi hech

<sup>303</sup> Хайруллаев М.М., Ўринбоев А, Бўриев О. ва бошқалар. Темурийлар бунёдкорлиги давр манбаларида. -Т.: "Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси", 1997. - 20 б.

<sup>304</sup> Ўша ерда. - 18 б.

<sup>305</sup> Ўша ерда. - 19 б.

<sup>306</sup> Мусаев Н. Ўрта Осиёда деҳқончилик маданияти ва аграр муносабатлар тарихидан. (Тош даври охиридан - XX аср бошларига қадар). -Т.: "Фан", 2005. -118 б.

kim zo'r chizmagan. Uning shogirdi Muhammaad al-Hayyoning ishlagan miniatyuralari ichida ustoz Abdul Hayyoning ishidan ko'chirgan nuxsalari mavjud. U keyinchalik Xirotda, Boysunqur saroyidagi kutubxonada ishlagan. Abdul Hayyoning yana ko'zga ko'ringan shogirdlaridan Pir Axmad Bog'ishamol bo'lib, bu nisbat o'zi ishlagan joyga ishora bo'lib, u Samarqand atrofidagi Bog'ishamolda, devorlarga rasm chizib, Amir Temurning xayrli ishlariga hissa qo'shgan<sup>307</sup>.

Miniatyura rassomchiligining taraqqiyoti adabiyotning rivoji bilan bog'liq bo'lgan. Musavvirlar Firdavsiy, Nizomiy, Dehlaviy, so'ngra Jomiy va Navoiy asarlariga rasmlar ishlagan. XV asrda "Jome' ut-tavorix", "Tarixi Rashiddiy" kabi tarixiy asarlariga ham miniatyuralar ishlangan. "Zafarnoma" va "Temurnoma" asarlarida jang lavhalari tasvirlangan. Badiiy asarlarning ba'zilarida Muhammad Payg'ambarning (niqobda) odamlar orasida turgan holati va me'rojga chiqishlariga oid lavhalar uchraydi.

XV asr miniatyuralarining aksariyatida Layli va Majnun, Farhod va Shirin lavhalari tasvirlanadi. Umuman miniatyura san'ati bu davrda Iroq, Eron, Xuroson, Movarounnahr va Hindistongacha bo'lgan hududda badiiy-estetik hodisa edi. Bu hodisa Temuriylar bilan bog'liq bo'lib, temuriylarning Bog'dod, Sheroz, Tabriz, Hirot, Samarqand, Dehli kabi markazlarida bir necha miniatyura maktablari vujudga keldi.

Samarqand miniatyura maktabi XIV-XV asrning birinchi yarmida qaror topgan bo'lib, turli turkumda yaratilgan bu miniatyuralarda Sharqiy Turkiston san'atiga xos bo'lgan turkiy obrazlarda Xitoy rassomchiligining ta'siri sezilib turadi. Samarqanddagi saroy musavvirlari Abul Xayya va uning shogirdlari Pir Ahmad Bog'i Shamoliy, Muhammad bin Mahmudshoh, Darvesh Mansurlar va boshqalar ishlagan rasmlarda nafislik, noziklik va bo'yoqlar tanlashga ustalik bilan yondoshilgan. Ular yaratgan miniatyuralarning ko'pchiligi temuriylar davriga xos ov-shikor mavzusiga bag'ishlangan. 1420 yildan keyin Boysunqur Mirzo Hirotida hattotlik va naqqoshlik ustaxonasi tashkil qilgach, bu rassomlarning ayrimlari Hirotga ko'chirilgan. Abul Hayya asarlariga ishlagan miniatyuralarda Amir Temur va temuriylarning qiyofalari aks etsa, badiiy asarlarga ishlagan

<sup>307</sup> Пугаченкова Г.А. Среднеазиатские миниатюры. 16-18 веков в избранных образцах. Т.: «Главная редакция энциклопедий», 1994. -11 с.

rasmlarida ham ular turli holatlarda tasvirlangan. Xalil Sulton davrida ishlangan ayrim miniatyuralar grafik tarzida, badiiy jihatdan o'ziga xos "siyohi qalam" uslubida ishlangan. Amir Temur hayotlik davrida uning saroy devorlariga shoh va shahzodalar bor bo'yicha tasvirlab, haqiqiy portret janrini Kamoliddin Behzod shakllantirdi.

Umuman, Amir Temur va temuriylarning qiyofalari tasvirlangan ko'plab miniatyuralar dunyoning turli kutubxonalarida saqlanmoqda. Chizilgan suratlar aksariyatida, chizilgan davr yoki rassom, joy, maktab ko'rsatilmagan. Biroq bu miniatyuralarda nur sochib turgan quyoshsimon sherning boshi tasvirlangan tug' - Amir Temurning gerbi Xalil Sulton va Ulug'bek zarb qilgan tangalarda uchraydi<sup>308</sup>. Shuningdek, tabiat tasvirida to'q yashil va jigarrang ko'pligi, kiyimlar turkiy millatga xos bo'lgandigidan bu miniatyuralar Samarqand miniatyurachilik maktabiga mansub deyish mumkin. Chunki, Hirot va Sheroz miniatyuralari qahramonlarining kiyimlari boshqacharoqdir. Samarqand maktabi miniatyurachilari vakillari kompozitsiya yaratish va manzara tasvirida mahoratlidir.

Ulug'bek davrida mashhur bo'lgan hattot va musavvir asli Obivardlik Sulton Ali Bovardiy miniatyuralari chiziqlarning keskinligi, ranglarning yorqinligi bilan o'ziga xosdir. Samarqand maktabiga xos bo'lgan 18 ta miniatyura Nizomiyning "Xamsa" asariga va 49 ta miniatyura "Shohnoma" asariga ishlangan bo'lib, ular hozir Turkiya kutubxonasida saqlanadi. Ulug'bek davrida as-So'fiyning "Siljimas yulduzlar ro'yxati" asariga ishlangan miniatyuralarda xaritalar qizil va qora doiralalar bilan katta va kichik yulduzlarning joylashishi ko'rsatilgan bo'lib, grafik tarzida rang bermay, qora siyohda chizilgan. Sharq miniatyurachiligida oddiy xalq hayoti mavzusi temuriylar davrida paydo bo'lgan. Masalan, "Samarqand masjidini qurish", "Iskandar devorini bunyod etish", "Ko'chmanchilar turmushi", "Jamshidning oddiy xalqqa hunar o'rgatishi" mavzusidagi miniatyuralar bunga misoldir<sup>309</sup>.

XV asrda Xurosonda va ayniqsa Xirotda ilmu fan va madaniyat taraqqiyotidan guvohlik beruvchi mana bu ma'lumotlarni ham diqqatingizga havola qilamiz: "Ammo shahzoda Boysunqur...

<sup>308</sup> Мусаев Н.У., Азимов Х.И. Маданиятшунослик. (Ўқув қўлланма). Т.: "Тошкент давлат юридик институти", 2009.- 154 б.

<sup>309</sup> Мусаев Н.У., Азимов Х.И. Маданиятшунослик. (Ўқув қўлланма). Т.: "Тошкент давлат юридик институти", 2009.- 155 б.

hunarparvar va hunarmandlikda jahonda mashhur bo'ldi. She'riyat va hattotlik uning zamonida rivoj topdi. Hunarmand va fazl egalari uning ovozi eshitib, atrof va tevarakdan uning xizmatiga keldilar. Hush xat kotiblardan qirq kishi uning kutubxonasida kitobat qilish bilan mashg'ul edilar. Mavlono Ja'far Tabriziy kotiblarning peshqadami edi. (Boysunqur mirzo) hunarmandlarni rioyat qilar, shuaroni do'st tutar edi...(o'zi) turkiy va forsiy she'rlarni yaxshi aytardi va olti qalam bilan xat yozar edi<sup>310</sup> va juda chiroyli yozardi<sup>311</sup>.

Ibrohim sulton ham Ulug'bek va Boysunqur singari ilmu fan va madaniyat ravnoqiga homiylik qilgan shaxsdir. Uniing o'zi ham yetuk shoir va ajoyib xattot bo'lgan. Bu xususda Davlatshoh quyidagilarni yozadi:

"Ammo shahzoda Ibrohim sulton ibn Shohruh sulton sakkiz yuz yettinchi yilning rajab oyida<sup>312</sup> forsning saltanati bilan nomdor bo'ldi va podshohlik taxtiga o'tirdi. Ibrohim sulton hunarmand, hunarparvar va iste'dodli shahzoda edi... (u) she'r va husni xatda zamonasining va iste'dodli shahzoda edi... (u) she'r va husni xatda zamonasining (ya'ni saromadi edi. Aytadilarki, (u) Forsning qonun va daftarlarini (ya'ni yorliqlar, kirim va chiqim daftarlarini) o'z xati bilan bitar edi. (U) husni xatda katta martabaga yetishdikim, Yoqut<sup>313</sup>ning xati uning xati oldida nuqsondan naql qilar edi. (Ko'chirilgan kitoblarni) joyiga yuborar va sotar edi Noqidlar<sup>314</sup>dan biror kishi (uni aslida) farq qilolmas edi. Shu kunlarda imoratlarning tepasiga, Forsning masjid va madrasalariga yozilgan yozuvlar shahzodanikidir. Uning sharafligi xati ziyatlanagan qo'llanmalar (hanuz) kotiblar orasida mavjuddir"<sup>315</sup>.

Davlatshoh Samarqandiy o'z tazkirasida, "Mavlono Sharafuddin Ali (Yazdiy) shahzoda Ibrohim sulton ibn Shohruh bahodir zamonida Fors va Iroqda akobirlarning marji<sup>316</sup> edi va mazkur shahzoda mavlononing sharafligi suhbatiga tolib bo'lardi va mavlono xususida uning zo'r e'tiqodi bor edi. (Shu sababdan) mavlonodan sohibqironning (ya'ni amir Temurning) maqomat, holat va tarixini

<sup>310</sup> Олти қалам билан хат ёзар эди -хатнинг асосий турларидан яъни насх, настъалик, сулс, девоний, рукоъи, райхоний хатлари.

<sup>311</sup> Аҳмедов Б. Давлатшоҳ Самарқандий. -Т.: "ФАН", 2009. - 55 б.

<sup>312</sup> Саккиз юз ўн еттинчи йилнинг ражаб ойида - 1414 йилнинг сентябрь ойида. Ёқут

<sup>313</sup> Ёқут-машхур "Китоби мўъжам ал-булдон" асарининг муаллифи

Хамавий(тахминан 1179-1229) Ёқут ўз замонасида машхур хаттотлардан бўлган.

<sup>314</sup> Ноқидлар-Асл пул ёки қўлёзмани сохтадан ажрата билладиган кишилар.

<sup>315</sup> Аҳмедов Б. Давлатшоҳ Самарқандий. -Т.: "ФАН", 2009. - 65-66 б.

<sup>316</sup> Маржи-қайтиб бериладиган жой, мурожат қилинадиган ер, мурожаатгоҳ.

iboralar qaydiga keltirishini so'radi va mavlono qartayib qolgan vaqtida shahzoda Ibrohimning iltimosi bilan ul kitobni bitdi va unga "Zafarnoma" deb nom qo'ydi<sup>317</sup>, deb yozadi.

Temuriylar davrida madaniyatning yuksalishi badiiy hunarmandchilikning turli shakllarida namoyon bo'ldi. Badiiy hunarmandchilik asosan me'morchilik bilan bog'liq bo'lmay, koshinkorlik kulolchiligi, yog'och va tosh o'ymakorligi bilan ham bog'liq edi. Qabr toshlariga qisman o'simliksimon, asosan geometrik nazmlarda hattotlik namunalari bilan so'zlar bitilgan. Bu yozuvlar chuqur o'yiqlarda bitilgan. Qabrtoshlar sag'ana yoki supa shaklida bo'lib, bo'z rangli marmardan, ayrim hollarda o'ta noyob toshlardan tantana idishlari ishlangan. Yog'och o'ymakorligi Go'ri Amir, Shohi Zinda, Yassaviy maqbaralari eshiklarida keng qo'llanilgan. Shuningdek, XV asrga oid ustunlar naqshlar bilan ishlangan. Amir Temur va Ulug'bek davrlarida metall o'ymakorligi yanada taraqqiy etgan. Idishlar oltinsimon bronza, latun, qizil misdan ishlangan. Naqshlar o'yib, bo'rtma usulda, qimmatbaho toshlar qadalib tayyorlangan. Yassaviy maqbarasi ulkan – shamdonlar, ayniqsa ikki tonnali qozon bronza quyish san'atining yuksak namunasi<sup>318</sup>.

Amaliy san'atning kulolchilik idishlariga yashil, zangori tusdagi yorqin, sodda o'simliksimon naqshlari qora bo'yoqlar bilan tushirilgan. Bu davrda paydo bo'lgan oppoq idishlarga sir ustidan kobalt yordamida naqsh berilishi yangilik edi. Sopol buyumlardagi naqshlar mo'yqalamda chizilgan. Temuriylar davriga mansub sopol buyumlarida kulol-rassom turli uslubda och havo rangdan to lojuvardga qadar ranglarni qo'llagan. Amir Temur va temuriylar davrining amaliy san'at turlaridan to'qimachilik, gilamdo'zlik, kashtalik yuksak san'at darajasiga ko'tarildi<sup>319</sup>.

Temur va temuriylar hukmronligi davrida Samarqand va Hirot Movarounnahr va Hurosonning yirik madaniyat markazlariga aylandi. Zamaxshariy, A.Jurjoniy, Muhammad Solih, Ali Shoshiy, Ismoil Buxoriy, Abduraxmon Jomiy, Sakkokiy, Vasmfiy singari zabardast ilm-urfon va madaniyat arboblarning shu davrda yetishib chiqqanligi va ijod qilganliklari ham bejiz emasdir. Ular orasida buyuk ajdodimiz

Alisher Navoiy alohida o'rin tutadi<sup>320</sup>. Alisher Navoiy o'z davrida bu shoirlar nomini hurmat bilan tilga oladi, ularni ardoqlab kuylaydi, ulug'laydi. Shuni ham aytib o'tish lozimki, Alisher Navoiyning so'zicha, Temurning podsholik davridan e'tiboran turkiy adabiyot keng taraqqiy eta boshlaydi<sup>321</sup>. Yana Navoiy Temur haqida bunday deb yozgan edi: "Temur Ko'ragon... agarchi nazm aytmogga iltifot qilmaydurlar, ammo nazm va nasrni andoq xub mahal va mavqeda o'qubdurlarkim, aningdek bir bayt o'qug'oni ming yaxshi bayt aytqonicha bor. Tabarruk haysiyatidankim, ul hazratning muborak ismi bu muxtasarda bo'lg'ay va ul latoyifdin biri bila ixtisor qilinur"<sup>322</sup>.

Amir Nizomiddin Alisher Navoiy temuriylar saltanatida martabaga erishgan muborak zotlardan edi. Xuroson podshosi Sulton Husayn Boyqaro unga o'z saroyidagi oliy unvonlardan birini – muhrdor vazifasini in'om etadi. Podshohlikning qizil muhri (ol-tamg'a) Alisher Navoiyda turadi<sup>323</sup>. U bir necha vaqt bu vazifada turgandan so'ng shu mansabdandan istefoga chiqib, amir Nizomiddin Shayx Ahmad Suhayliyni muhrdor etib tayinlashni podshohdan iltimos qiladi. Uning bu iltimosi qabul qilinadi<sup>324</sup>.

Alisher Navoiy o'zbek xalqining ulug' shoiri va mutafakkiri, buyuk olim va davlat arbobi, jahon adabiyotining betakror siymolaridan biridir. Uning butun hayoti va faoliyati insonning baxt-siyomalaridan biridir. Uning uchun kurashga, xalqning osoyishtaligiga, mamlakat saodati uchun kurashga, xalqning obodonchilik ishlariga, ilm-farovonligiga, urushlarning oldini olishga, obodonchilik ishlariga, jumladan, fan, san'at va adabiyotning ravnaqiga bag'ishlanadi. Jumladan, Hirotning obod va go'zal bo'lishi, o'zining ko'rkam bog'-rog'lari, Hirotning imoratlari, saroylari bilan dovrug'i ketishi asosan, Alisher Navoiyning say'-harakatlari bilan bog'liqdir. Zeroki, u Hirot va Navoiyning ba'zilarining zamonamizgacha saqlanib qolgan. Tarixchi Xondamir "Makorim ul-axloq" asarida Alisher Navoiy o'z hisobidan qurdirgan binolarni birma-bir sanab o'tadi. U Hirot shahrida "Ixlosiya", "Nizomiya", "Shifo'iya" madrasalarini, "Xalosiya" xonaqohini, Marv

<sup>320</sup> Каримов. Ш. Ўзбекистон тарихи ва маданияти. (Маърузалар тўплами). -Т.: "Ўқитувчи", 1992. 85-б.

<sup>321</sup> Мўминов И. Амир Темурнинг Ўрта Осиё тарихида тутган ўрни ва roli. -Т.: "Фан", 1993. 24-б.

<sup>322</sup> Ўша ерда. 24-25-б.

<sup>323</sup> Аҳмедов Б. Амир Темурни ёд этиб. -Т.: "Ўзбекистон", 1996. -245 б.

<sup>324</sup> Аҳмедов Б. Амир Темурни ёд этиб. -Т.: "Ўзбекистон", 1996. -247 б.

<sup>317</sup> Аҳмедов Б. Давлатшоҳ Самарқандий. -Т.: "ФАН", 2009. -65 б.

<sup>318</sup> Мусаев Н.У., Азимов Ҳ.И. Маданиятшунослик. (Ўқув қўлланма). -Т.: "Тошкент давлат юридик институти", 2009. 155-б.

<sup>319</sup> Ўша ерда. 156-б.

shahrida esa "Xusraviya" madrasasini bino qildirgan. "Ayniqsa, -deb yozadi Xondamir,- "Ixlosiya" madrasasi bilan "Xalosiya" xonaqohi bino qilingan zamondan to shu kunga qadar yigirma yil muddat ichida dunyoning har taraf va har burchagidan bu ikki muborak joyga minglab talabalar kelib, oz fursatda turli ilm va fanlarni o'rganishga muvaffaq bo'lib, olqishlar va maqtovlar bilan o'z vatanlariga qaytganlar"<sup>325</sup>. Alisher Navoiy haqidagi muhim ma'lumotlar "Davlatshoh tazkirasida"da ham quyidagicha bayon qilingan: "...bu ulug' amir... holis mulki va pokiza amlokni, xudo yo'liga berib, bu mamlakatda madrasalar, masjidlar, rabotlar<sup>326</sup>, boshqa xayrli (binolar) va dorushshifo<sup>327</sup>ga sarfladi va bunga taxminan besh yuz tumon kepaki<sup>328</sup> (puli) ketdi... bir nechta dorussaltanat Hirotdadir. Madrasalari, masjidlari, xonaqoh, dorushshifo va hammomi jannatning salsabili va anhuri unga rashki keladigan Injil nahrining bo'yidadir, kim, tamom rub'i maskun<sup>329</sup> ning musofirlari bundayin go'zal va benuqson imoratni (aslo) ko'rmaganlar. Yana biri Raboti ishqdirdir... hozirda boshqa bir qancha oliy imoratlar qurishga farmoyish qilayotir. Shu jumladan sayid Qosim Anvariyning qabri ustiga qurilgan imorat, Nishobur tobelaridan (bo'lgan) Raboti Dizobod, Ayozi hos<sup>330</sup> ning qayta va ilgariyidan ham chiroyli va mustahkam (qilib) qurilgan raboti...(undan tashqari), Xuroson muzofotida, Tus viloyatining tepasida bo'lgan mashhur va jahonning pokiza buloqlaridan bo'lgan (bir) buloq suvini Mashhadga olib keltirdi. (Shu bilan) Mashhadning muqim xalqini suvsizlik azobidan xalos qildi... Podshoh va akobirlar buni qilishga ojiz edilar. Bu ariqning uzunligi qariyb o'n farsaxdir... Bu ulug' amir hayru ehsoni bilan qurilgan boshqa imoratlarni tafsil qilib bo'lmaydi, chunki (ular) sanoq va hisobdan tashqaridir..."<sup>331</sup>.

<sup>325</sup> М.М.Хайруллаев, А.Ўринбоев, О.Бўриев ва бошқалар. Темурийлар бунёдкорлиги давр манбаларида. Т.: "Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси", 1997.- 21 б.

<sup>326</sup> Работ – йўловчилар кўниши учун қурилган бино; бекат.

<sup>327</sup> Дорушшифо- шифохона, дорихона.Хондамирнинг айтишича, бу ерда тиб илмини ўқитишдан ташқари,турли дору дармонлар тайёрланган ва беморлар олиб келиб даволанган.

<sup>328</sup> Беш юз туман кепакки-Мовароуннаҳрда 1318-1326 йиллари ҳукмронлик қилган Кепакхон томонидан жорий қилинган пул; қумуш динор. Бир динор оғирлиги ярим мисқолдан бўлган бдирхамга баробар. Бир туман – 10.000.

<sup>329</sup> Рубъи маскун-Ер юзининг инсон яшайдиган, обод қисми.

<sup>330</sup> Аёз хос – Ҳазнавийлар сулоласидан бўлган Султон Маҳмуднинг (999-1030) энг яқин кишиси Абу Наҳм (1057 йили вафот этган).

<sup>331</sup> Б.Аҳмедов. Давлатшоҳ Самарқандий.Т.: "ФАН",1967.-79-80.

Buyuk Navoiy o'zbek adabiy tili va klassik adabiyotini jahonga tanitdi. Yaqin va O'rta Sharq xalqlari adabiyoti taraqqiyotida yangi sahifalar ochdi, o'z davri madaniy hayotining homiysi va sarvari bo'lib, ko'plab ilm-fan va adabiyot zahmatkashlarini yetishtirdi, hamda keyingi kelajak avlodlar uchun boy madaniy va adabiy meros qoldirdi.

Ikki tilda, o'zbek va fors-tojik tillarida ijod qilib, zullisonayn (ikki til egasi) sifatida shuhrat qozondi. O'zbek tilidagi she'rlariga "navo" – kuy so'zidan olib "Navoiy", fors tilidagi she'rlariga "fano" – vaqtincha, o'tkinchi so'zdan olib "Foniy"taxallusini qo'llaydi.

1488-1501 yillar orasida Alisher Navoiy bir qancha ilmiy va badiiy asarlar yaratdi: tarixiy manbalar va "Shohnoma" kabi badiiy asarlar asosida "Tarixi mulki Ajam" ("Ajam podsholari tarixi")ni, shoir va<sup>332</sup> ma'rifatparvar Sayid Hasan Ardasher haqida "Xoloti Sayid Hasan Ardasher" biografik – badiiy asarini (1490), muammo janri haqida "Risolai muammo"ni (1491) yozadi, 1491 yilda 400 dan oshiq XV asr shoirlari haqida ma'lumot berib, asarlaridan na'munalar keltirgan "Majolisun-nafois" ("Go'zal majlislari") tazkirasini yaratishga kirishadi, ustoz va do'sti, ulug' shoir va mutafakkir Abdurahmon Jomiy haqida "Hamsatul-mutahayyirin" ("Besh hayrat") asarini (1492-1494) yaratadi, shu yillari Husayn Boyqaro va asarini (1492-1494) yaratadi, shu yillari Husayn Boyqaro va boshqalarga yozgan maktublarini jam etib "Munshaot" ("Maktublar") ni tuzdi, aruz nazariyasi haqida "Mezonul-avzon" ("Vazilar o'lchovi") asarini, ma'rifatparvar va shoir Pahlavon Muhammad haqida "Xoloti Pahlavon Muhammad" biografik-badiiy asarini, 1496 yilda tasavvuf va Pahlavon Muhammad haqida "Nasoimul-muhabbat" ("Muhabbat shabadalari") so'filar haqida "Nasoimul-muhabbat" ("Muhabbat shabadalari") risolasini bitadi.

O'zbek lirikasini yangi taraqqiyot pog'onasiga ko'targan Alisher Navoiy ozarbayjon, tojik, turkman, turk va boshqa xalqlar lirik she'riyatining taraqqiyotiga ham samarali ta'sir etdi. Alisher Navoiy she'rlariga nazira bitish, muxammas bog'lash adabiy an'anaga aylandi. Uning ko'pgina she'rlari shu kunga qadar xalq kuylari va klassik maqomlarga jo'r bo'lib kelmoqda, bastakorlar Alisher Navoiy she'rlariga yangi kuylar bitmoqdalar.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, XV asrda A. Navoiy ko'p turkiy urug' va qabilalarni birlashtirib, o'zbek xalqini katta xalq

<sup>332</sup> Ш.Каримов. Ўзбекистон тарихи ва маданияти. (Маърузалар тўплами). Т.: "Ўқитувчи", 1992.- 85 б.



shakliga keltirdi. Ularni bir din, bir e'tiqodga birlashtirib, o'zbek tilini rivojlantirdi. Yozuv va til – tarix ko'zgusi bo'lib, tarixdan bahramand xalq esa kuchli xalq bo'lib qoladi<sup>333</sup>.

Temur va temuriylar davri Turkiston xalqlari tarixida alohida o'rin tutadi. Chunki bu davrda ziroatchilik, hunarmandchilik va savdo-sotiq rivojlangan, ilm-fan va madaniyat gurkirab ravnaq topgan davr bo'lgan. Bu davr haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lsak, mustaqil va qudratli davlatlarimiz tarixini o'rgansak, ularni yaxshi bilsak, bu yo'lda oldimizga qo'ygan rejalarimiz muvaffaqiyat bilan amalga oshar edi<sup>334</sup>.

**Xulosa:** Amir Temur o'z oldiga qo'yilgan vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirdi. O'rta Osiyoda mo'g'ullar hukmronligiga barham berib, o'zi tashkil etgan markazlashgan davlatiga katta qiyinchiliklar bilan bo'lsada tinchlik va xotirjamlikni ta'minlab, siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy sohasida katta yutuqlarga erisha oldi. U mamlakati hududlarini kengaytirib, tobe etilgan yurtlardan har xil sohalardagi mutaxassis-olimlarni, hunarmand ahlini Samarqandga olib keldi. Buning natijasida Temur va uning vorislari davrida, mamlakat rivojlanish pallasiga kirdi. Ulug'bek davrida ilm-fan rivojlandi. Qator olimlar ishtirokida, qizg'in munozaralar natijasida vujudga kelgan "Ziji Ko'rogoniy" kabi mashhur asarlar jahon koinot ilmi taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shdi. Yevroppa xalqlari Ulug'bekni tanidi. Undan andoza oldi.

Temuriylar davrida hunarmandchilik taraqqiy etib, uning ko'p sohalari rivojlandi. Shishasozlik taraqqiy etdi. Samarqandda qog'oz ishlab chiqarildi. Ilgari Movarounnahrda odat bo'lmagan o'simliklarni ekishga e'tibor kuchaydi. Jumladan, kanop o'simligi ekilib, undan to'qimachilikda foydalanadigan kanop iplari ishlab chiqarildi. Binokorlik sohasida o'zgarishlar bo'ldi. Binolar usti sirlanib, koshinlandi. Binolarga arab yozuvida "Kurfa" uslubida, chiroyli naqshga o'xshab, yozuvlar tushirildi.

Miniatyura san'ati ravnaq topdi. Behzod maktabi taraqqiy etdi. Xattotlik san'ati rivojlandi. Xusayn Bayqaro saroyida ijod etgan Sulton Ali Mashhadiy xar kuni Navoiy bilan Bayqaroning yozgan baytlarini chiroyli "nastaliq" xati bilan kitob qilib yozgan. Musiqa san'ati xam

<sup>333</sup> Каримов Ш. Ўзбекистон тарихи ва маданияти. (Маърузалар тўплами). -Т.: "Ўқитувчи", 1992. 87-б.

<sup>334</sup> Ахмедов Б. Амир Темурни ёд этиб. -Т.: "Ўзбекистон", 1996. 73-б.

taraqqiy qildi. Amir Temur o'z harbiy taktikasida ham musiqa asboblardan keng foydalandi. Harbiy boshliqlarga jang oldidan nog'ora va karnaylar chalilib, jangchilarning ruhini ko'tarish topshirildi. Harbiy taktika usullari chog'ida cholg'u asboblardan keng foydalandi.

Tashqi siyosatda Amir Temur o'zini mohir diplomat sifatida namoyon qila oldi. U qator Yevropa davlatlari bilan do'stlik va savdo munosabatlarini olib bordi. Uning vorislari bo'lgan Shohruh va Ulug'bek davrida ham shunday munosabatlar o'rnatilib, yo'lga qo'yildi. Lekin temuriylar o'rtasidagi toju-taxt talashishlar davlatni inqirozini tezlashtirdi.

#### Nazorat savollari:

1. Amir Temurning Movarounnahr xalqlari uchun ko'rsatgan xizmatlari nimalardan iborat?
2. Amir Temurning jahon tarixida tutgan o'rini ko'rsatib bering.
3. Amir Temur nima sababdan Xorazmga besh marta yurish qildi?
4. Sarbadorlar haqida nimalarni bilasiz?
5. To'xtamish bilan oxirgi jangi qachon va qayerda bo'lgan, uning tarixiy ahamiyatini aytib bering?
6. Hindistonda bo'lgan janglarda Amir Temur fillar bilan bo'lgan to'qnashuvda qanday tadbir qo'llagan?
7. Shohruh davlatinig Xitoy va boshqa davlatlar bilan diplomatik aloqalari qanday bo'lgan?
8. Ulug'bek shox va olim.
9. Ulug'bek davrida qurilgan binolar qaysi shaharlarda qad ko'targan?
10. Ulug'bek yozgan tarixiy asarning nomini ayting.
11. Temuriylar davrida naqqoshlik va musavvirlik qanday rivojlandi?
12. Temuriylar davlatining inqirozga yuz tutishiga nima sabab bo'lgan.

#### Mavzuga oid test savollari:

1. XIV asrning o'rtalarida Chig'atoy ulusiga qarashli bo'lgan hududlarda siyosiy vaziyat qanday edi?
  - a) Mo'g'ul xukmdorlari o'rtasidagi toju – taxt, davlat va mol – dunyo uchun bo'lgan kurash kuchaydi.
  - b) Movarounnahrda mahalliy zodagonlar o'rtasida ziddiyat kuchayib, bir – birlari bilan yovlashib, saltanatni talon-taroj qilar edilar.

s) Amir Qazog'onning vafotidan keyin mamlakat mayda qismlarga bo'linib ketdi.

d) Hamma javoblar to'g'ri.

2. Mamlakatning parokandaligidan foydalangan Mo'g'ul xoni Tug'luq Temur qachon Movarounnahrda yurish boshladi?

a) 1360 yili yanvar oyida

b) 1361 yili mart oyida

s) 1361 yili yanvar oyida

d) 1362 yili mart oyida

3. Nima sababdan Amir Temur Janubiy Xorazm hududlarini o'zining ixtiyorida bo'lishi kerak deb hisoblagan?

a) Janubiy Xorazm hududlari Chig'atoy ulusiga qarashli bo'lgan

b) Xorazmning Oltin O'rda tarkibida bo'lgan, ya'ni To'xtamishga qarashli qismi Temur davlatiga katta xavf tug'dirmoqda edi

s) Uni Movarounnahr tarkibiga qo'shib olish, shubhasiz Temur davlatining yaxlitligi va qudratini mustahkamlar edi

d) Hamma javob to'g'ri.

4. Temur va To'xtamish qo'shinlari o'rtasida so'nggi shiddatli jang qachon va qayerda sodir bo'ladi?

a) 1393 yilda Azoq va Kubon o'rtasida

b) 1394 yilda Elburako'hda

s) 1395 yilda Shimoliy Kavkazda Tarak daryosi vodiysida

d) 1396 yilda Cherkasda

5. Temur bilan Boyazid qo'shinlari o'rtasidagi jang qachon va qayerda boshlanadi?

a) 1401 yilning 12 aprelida Busra yonida

b) 1402 yilning 28 iyulida Anqara yonida

s) 1403 yilning 1 iyunida Anqara yonida

d) 1404 yilning 28 iyulida Busra yonida

6. Samarqanda bo'lib, Temur tarixini yozgan Ispan elchisi.

a) Fra Alfonso Pag'om de Santa Mariya

b) Rui Gonsales de Klavixo

s) Gomes de Salasar

d) to'g'ri javob yo'q.

7. Amir Temur saltanat ishlarida o'zining pirlari maslahatlaridan foydalangan. Nomlarini to'g'ri ko'rsating.

a) shayx Zaynuddin Abubakr Toyobodiy, sayyid Baraka, Abul Maoliy

b) Mir Sayyid Sharif Jurjoniy, Ala-al mulk, Ali Akbar

s) Muso, Iso, Mustafo, Sulaymon Chalabiy

d) A va B

8. Amir Temur o'z mamlakatini boshqarishda aholini ma'lum ijtimoiy qatlamlarga bo'lgan. Ular nechta guruhga bo'lingan?

a) sakkizta

b) to'qqizta

s) o'n bitta

d) o'n ikkita

9. Amir Temur o'zidan keyin taxtga valiahd etib kimni belgilagan?

a) o'g'li Mironshohni

b) o'g'li Shohrux mirzoni

s) nevarasi Pirmuhammadni

d) nevarasi Xalil Sulton Mirzoni

10. Kim va qachon o'zini Movarounnahrning oliy hukmdori deb e'lon qiladi?

a) o'g'li Mironshoh, 1405 yilning 8 mart

b) o'g'li Shohrux, 1405 yilning 5 aprel

s) nevarasi Xalil Sulton Mirzo, 1405 yilning 18 mart

d) nevarasi Pirmuhammad, 1405 yilning 15 aprel

11. Shohruxning qo'l ostidagi ulkan davlat ikki qismga bo'lingan edi.

Ularni ko'rsating:

a) biri Amudaryodan janubda joylashgan Xuroson, markazi Hirot shahri

b) biri Amudaryodan shimolda Movarounnahr

s) Turkistonda vujudga kelgan Ulug'bek davlati, poytaxti Samarqand

d) hamma javoblar to'g'ri

12. Temuriylar davrida maydoni jihatdan mayda va suyurg'ol egasining haq-huquqi ancha-muncha cheklangan suyurg'ol yerlari kimlarga berilgan?

a) xizmat ko'rsatgan kichik mansabdagi harbiylarga

b) oliy hukmdorning muntazam gvardiyasidagi askarlarga

s) navkarlarga

d) hamma javoblar to'g'ri

13. Tarxonlik yorlig'i, kimlarga berilgan?

a) amir, bek

b) saroy amaldorlari, sayidlar

s) savdogar, karvonboshilar

d) A va B

14. Temuriylar davrida vaqf mulkiga ega bo'lgan yer egaligi.

a) masjid, madrasa,

b) xonaqoh, maqbara, shifoxonalar

s) A va B

d) to'g'ri javob yo'q

15. Ulug'bek tomonidan yozilgan tarixiy kitobning nomini ayting.
- "Tarixi arba' ulus" ("To'rt ulus tarixi") nomi
  - "Ulusi arba'-yi Chingiziy" ("Chingiziylarning to'rt ulus (tarixi)")
  - "Ziji jadidi ko'ragoniy" ("Ko'ragoniyning yangi astronomik jadvali")
  - A va B

### INTERAKTIV METOD (Aqliy hujum)

Talabalarni 2 guruhga bo'lib savollar beriladi.

1-guruh

1. Amir Temur shaxsini tariflab bering.
2. Amir Temur qanday vaziyatda siyosiy qurash maydoniga qirib keldi.
3. Temuriylar davridagi soliq turlari, miqdorini bilasizmi
4. Amir Temurning harbiy sarqardaliq faoliyati haqida nimalar deya olasiz.
5. Mirzo Ulug'bek amalga kiritgan ichki davlat siyosatining muhim jihatlari ko'rsatib bering.
6. Qanday omillar Amir Temur va Temuriylar davrida shakllandi va moddiy va manaviy madaniyatning ravnaq topishini ta'minladi.

2-guruh

1. XV asrning boshida Movorounnaxrda qanday ijtimoiy siyosiy vaziyat vujudga keldi?
2. Amir Temur davrida shakllangan boshqaruv tizimi qanday tamoyillarga asoslangan edi?
3. Amir Temurning xorijiy elatlarga uyushtirgan harbiy yurishlaridan qo'zda tutilgan maqsadlar nimalarda iborat bo'lgan?
4. Mirzo Ulug'bek shaxsini tariflang.
5. Temuriylar sulolasi inqirozining asosiy sabablarini bilasizmi?
6. Ulug'bek atamasi haqida so'zlab bering

**Savollardan so'ng o'qituvchi ta'lim texnologiyasi yordamida darsni mustahkamlaydi**

#### KLASTER

O'qituvchi Klaster texnologiyasi haqida tushuntirish berganidan qeyin mavzuga o'tadi. O'qituvchi guruhga mavzuning o'zagini tashkil qiluvchi savolni beradi. Jumladan, Temuriylar davlatidagi ijtimoiy-iqtisodiy ahvolni taxlil qilib bering, - degan, savolni tashlaydi. Savolga,

talabalar aylana ichiga yuqoridagi savolni yozib, shu so'zdan kelib chiquvchi va dalil bo'luvchi javoblar aylana atrofida yoziladi. Bu javoblarni yanada kengroq ochuvchi javoblar, kichik aylanalarga yoziladi. Guruhdagi javoblar tugaguncha kichik aylanalarni to'ldiradilar. Talabalarning javoblari tugagach, olingan javoblar bir-biriga bog'lanib, xulosa qilinadi. Guruh sardori oxirida Klasterni prezentatsiya qiladi.

#### "KLASTER" METODI

"Klaster" (to'plam, bog'lam) metodi puxta o'ylangan strategiya bo'lib, uni talabalar bilan yakka tartibda, guruh asosida tashkil etiladigan mashg'ulotlarda qo'llash mumkin. Klasterlar ilgari surgan g'oyalarni umumlashtirish, ular o'rtasidagi aloqalarni topish imkoniyatini yaratadi. Metoddan foydalanishda quyidagi shartlarga rioya qilish talab etiladi:



Nimani o'ylagan bo'lsangiz, uni qog'ozga yozing! Fikringizning sifatiga o'ylab o'tirmay, shunchaki yozib boring!



Yozuvingizning orfografiyasi yoki boshqa jihatlari e'tibor bermang!



Belgilangan vaqt nihoyasiga yetmaguncha, yozishdan to'xtamang! Agar ma'lum muddat o'ylay olmasangiz, u holda qog'ozga biror narsaning rasmini chiza boshlang!



Muayyan tushuncha doirasida imkon qadar ko'proq yangi g'oyalarni ilgari surish, ular o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik, bog'liqlikni ko'rsating!

## II BOB. O‘ZBEKISTON HUDUDLARINING XONLIKLARGA BO‘LINIB KETISHI, UNING SABABLARI VA OQIBATLARI

### § 2.1. Shayboniylar davlati, uning siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy hayoti


**Tayanch iboralar:** Oltin O‘rda, Shayboniy, Bobur, Movarounnahr, obodonchilik, Xuroson, hokimiyat, xon, yer egaligi, Vaqf yerlar, ashtarxoniyalar, Buxoro amirligi, Xiva xonligi, Qo‘qon xonligi.

XI-XVI asrlarda Sirdaryoning shimoliy qismi, Balxash ko‘lidan Dnepr daryosining quyi oqimlarigacha bo‘lgan katta hudud Dashti Qipchoq deb atalgan. Bu hududda Jo‘ji ulusi nomi bilan Oltin O‘rda davlati tashkil topdi. XVI asr oxirlarida Oltin O‘rda xonligi Amir Temur tomonidan tor-mor etilgandan keyin, parchalanib bir necha xonliklarga bo‘linib ketdi. Volga daryosining o‘rta va quyi oqimlarida Qozon va Ashtarxon (Xojitarxon) xonliklari va Qrim xonligi vujudga keldi. Dashti Qipchoqning sharqiy qismida esa Oq O‘rda tashkil topdi. Bu katta hudud qiyot, mang‘it, do‘rmon, qo‘shchi, o‘rtachi, nayman, tuba, toymas, jot, xitoy, uyg‘ur, qorluq, ushun, (usun), karlavut, ichki, ming, tangut, qo‘ng‘irot, va boshqa qabilalar yashagan. Bu ulus O‘zbeklar davlati, uning aholisi “o‘zbeklar” deb atalgan<sup>335</sup>.

Dashti Qipchoqning sharqiy qismi bo‘lgan Oq O‘rdada shayboniylardan bo‘lgan Abulxayrxon (1428/29-1468/69) tarqoq bo‘lgan mayda xonliklarni birlashtirib, katta davlatga asos soldi. Keyinchalik mang‘it urug‘lari ham Abulxayrxon qo‘l ostiga birlashtirildi. Qozoq urug‘lari XV asrning 40 – yillarida Abulxayrxonga bo‘ysunishdan bosh tortib Chu va Yettisuv vohasiga ko‘chib ketdilar va keyinchalik Qozoq xonligiga asos soldilar<sup>336</sup>. Abulxayrxon o‘limidan keyin shayboniylar xonadonidagi ichki ziddiyatlarni kuchayishi natijasida davlat zaiflashib bordi. Lekin Muhammad Shohbaxt davriga kelib, u xokimiyatni o‘z qo‘liga oladi.

<sup>335</sup> Бобобеков Х., Каримов Ш., Содиқов М., Усмонов Қ., Холбоев С., Шамсуддинов Р. Ўзбекистон тарихи. Қисқача маълумотнома. “Шарқ”. Тошкент. 2000. – Б.-114.

<sup>336</sup> Ўша ерда.





Muhammad Shohbaxt Abulxayrxonning Shoh Budog' nomli o'g'lidan tug'ilgan nabirasi bo'lib, tarixda u Muhammad Shayboniyxon (1451-1510) nomi bilan tanilgan<sup>337</sup>. U Movarounnahr hayoti bilan yaqindan tanish bo'lib, Muhammad Shayboniyxon Buxoroda birinchi marta bo'lganida u yerda ikki yil turib, madrasada mashhur ilohiyat olimi mavlono Muhammad Xitoyidan ta'lim olgan, mashhur shayx va olim xoja Muhammad Porso(1419 yili vafot etgan)ning izdoshlaridan Hofiz Husayn Busriy va uning xalfasi xoja Mahmudlar bilan yaqin munosabatda bo'lgan<sup>338</sup>. U iste'dodli shoir va zamonasining o'qimishli, bilimdon kishilaridan bo'lgan.

Temuriylar davlatining zaiflashganligi, tarqoqlikning kuchayishi va hokimlikka da'vogarlarning o'zaro to'xtovsiz urushlari shayboniylarning Turkistonga hujumi uchun zarur sharoitni yaratdi.

XV asrning 90-yillaridan boshlab, Muhammad Shayboniyxon Movarounnahrning O'tror, Sayram, Turkiston (Yassi) shaharlarini o'z hukmi ostiga olgandi. 1500 yili Samarqand, va Buxoro shaharlarini bosib oldi. 1501 yili Zahiriddin Muhammad Bobur qo'shinlarini yengib, ikkinchi marta Samarqand shahrini egalladi. 1503 yili Mahmudxon, Ahmadxon va Bobur boshliq turklar, mo'g'ullar va qalmlqlarning birlashgan qo'shinlarini yengib, Toshkent va Shohruxiya shaharlarini, 1504 yili esa Farg'onani, 1506 yili janubda Hisor, Balx, g'arbda -Xorazmni egallaganidan keyin butun Turkiston uning ixtiyoriga o'tdi. U Samarqandni o'ziga poytaxt sifatida tanlandi. Buxoroni ukasi Mahmud Sultonga, Toshkent vohasini amakilari Ko'chkinchi Sulton va Suyunchixonlar ixtiyoriga berdi. Shundan keyin Shaybonixon e'tiborini Xurosonga qaratdi. 1507 yili uning qo'shinlari Hirotni egalladilar. 1508-1509 yillarda Shaybonixon shimolda qozoqlarga zarba bergach, o'zini oliy qo'mondon deb e'lon qiladi<sup>339</sup>.

1510 y. Eron shohi Ismoil Safaviy Xurosonga yurish boshladi. Shayboniyxon ham o'z navbatida Movarounnahrda kelishi kutilgan yordamchi kuchlarni kutmasdan Safaviyga qarshi urush e'lon qildi. Bu haqda "Musaxxir al - bilod"da quyidagicha bayon qilingan. "Muhammadxon Shayboniy g'azot urushiga ko'p ishtiyok va mayli bo'lgani jihatdan nusrat panoh sipoh yig'ilguncha to'xtab turmay,

<sup>337</sup> Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи. Тошкент "Шарк". 2001й.-Б.-236-237.

<sup>338</sup> Ахмедов Б.Тарихдан сабоқлар. "Ўқитувчи". Тошкент.1994.-Б.-248.

<sup>339</sup> Мусаев Н.У. Ўрта Осиёда деҳқончилик маданияти ва аграр муносабатлар тарихидан. (Тош даври охириларидан – XX аср бошларига қадар)."Фан". Тошкент. 2005.-Б.123.

humoyun maktabidagi bor-yo'g'i bir nechta kishisi bilan sha'bon oyining (1510 4 yil dekabr) oxirida jumu kuni Marv qalasidan tashqari chiqib, dushman bilan yakkama-yakka olishish uchun oldingga otildi. G'anim ko'pligi va kuchliligi haqida o'ylab ham o'tirmadi. Ulug' amirlar xo'jasta farjom xonga "yaqinlaringiz va nusrat nishon askarlar kelmaguncha dushman bilan urushmaslik lozim", degan so'zlarni uqtirishga qanchalik urinmasinlar, foydasi bo'lmadi. Xoqon dilidagi din taassubi amirlar maslahatidan kuchliroq chiqdi. Muhammad Shayboniy g'ayrati ko'pligi va qudrati zo'rligidan moddiy va ruhiy narsalar yaratuvchisiga tavakkal qilgancha ansorlar yordamisiz va boshqalar ko'magisiz la'nati dushmanlarga qarshi urushib, g'azot va jihad sharafini topmoq istagani uchun yonidagi ozgina askar bilan jangga kirmoqqa jazm qilib, din dushmanlari orqasidan bostirib bordi"<sup>340</sup>.

Murg'ob daryosi vohasida bo'lgan hal qiluvchi jangda Shayboniyxonning 17000 kishilik qo'shini yengildi, uning o'zi asir olinib qatl etildi. Muarrixning yozishicha,- " Alqissa, dushman qo'shini ul qahramonlik va qilich urush va nayza sanchish, mardi maydonlikni ko'rgach, urush maydoniga orqa o'girib, jilovini qochish vodiysiga burdi. Muhammadxon Shayboniy bu holni ko'rgan zahoti hursand va shod bo'lib, zafar jarchisini ko'rmoqqa umid bog'ladi. Xonning dovyurak askarlari dushmanni taqib qilgancha o'lja olishga tushib ketishdi. Xon yonida esa shogird pesha jangchi va xon dargohining ayrim xos kishilari qoldi.Ular soni hammasi bo'lib ikki yuz nafardan ko'p emasdi. Chunki, boshqa dilovar va mulozimlar g'animat mol va o'lja qo'lga kiritish bilan mashg'ul edilar. Shoh Ismoil bundan xabar topgach, fursatni g'animat bilib, tuyalar qatori orqasida pistirmada qo'ygan dev kelbatli uch-to'rt ming kishisi bilan Muhammadxon Shayboniy ustiga ot soldi va birinchi hamladayoq xon atrofidagi oz sonli guruhni yer bilan yakson qildi. Jon Vafobiy, Qanbarbiy ham dushmanning o'sha ko'p sonli askariga duch kelib, har ikki amir shahidlik darajasiga yetdilar. Dargohning bir nechta yaqin oradagi chahorbog' tomonga oshiqdilar. Taqdir qalami jahon oluvchi xonning peshonasi lavhiga ajal yozuvini o'sha payt uchun bitgan ekan, mazkur chorbog'da jangga kirishib, shahodat darajasiga yetishli. Dev siyrat turkmanlar xudo belgilagan taqdir bo'yicha xonning boshini tanidan

<sup>340</sup> Мухаммадёр ибн Араб Қатаған. Мусаххир ал-Билод. –Т.: "Янги аср авлоди", 2009. - 119-б.

Amir Temur va temuriylar davrida qaror topgan tartib-qoidalar, xususiyatlar bilan birga ko'chmanchi o'zbeklar davlatiga xos analar ham mavjud edi. Davlat boshqaruvida islomiy shariat va odat g'onun -

qoidalariga amal qilingan. Shayboniylar davrida yer egaligi- Mulki sultoniy- davlatga qarashli yerlar, mulki xolis- xususiy shaxslarga tegishli yerlar, vaqf- diniy maxkamalarga, madrasa va masjidlar, qabristonlarga qarashli yerlar, qishloq jamoalari egalik qiladigan yerlar bo'lgan.<sup>346</sup>

Shayboniylar istilosidan keyin O'rta Osiyoda yerlarning asosiy qismi davlat ixtiyorida bo'lib, bunday yerlar "Amloki podshohiy" yoki "Amloki sultoniy" deb atalgan. Tarixda ilgandan "Mulki devoniy" nomi bilan mashhur bo'lgan yerlar Buxoro amirligi va Xiva xonliklarida ular tugatilguncha qadar mavjud bo'lgan. Amlok yerlarga ekin ekiladigan yerlar va yaylovlardan tashqari, shaharlarda jamoatchilik tomonidan foydalaniladigan yerlar, bazan undagi inshootlar ham kirgan. Davlat yerlariga ishlov berilmaydigan yoki tashlandiq, xo'jasiz "o'lik yerlar" ham kiritilgan. Bunday yerlardan xonning ruxsati bilan ayrim feodallar foydalanishi mumkin bo'lgan. Bularidan tashqari, urug' yoki qishloq jamoasi ixtiyorida yaylovlar, to'gaylar ham mavjud bo'lgan.

Vaqf yerlari- diniy muassasalar- masjid, madrasa, mozor va hokazolar ixtiyoriga berilgan. Vaqf yerlarini idora qilish huquqi yerlardan ruhoniyalar ko'proq o'z manfaatlari yo'lida foydalanganlar.<sup>347</sup>

Shayboniylar davrida 40 dan ortiq turli soliqlar va jarimalar mavjud bo'lgan. Yerdan olinadigan asosiy soliq xiroj bo'lib, u ishlab chiqarilgan mahsulotning 5/1 miqdorida pul yoki mahsulot bilan olingan. Zakot solig'i savdogarlar va chorvadorlardan olinib, uning hajmi 40/1 miqdorida bo'lgan.

Shahar aholisi: hunarmandlar va do'kondorlar maxsus soliq - tamga to'laganlar. Undan tashqari, yirik boylar va sudxo'rlarga tegishli savdo rastasida do'konlarni ma'lum haq evaziga ijataga olib, o'z mahsulotlarini sotganligi uchun taxti joy solig'i to'langan.

<sup>346</sup> Сагдуллаев А., Аминов В., Мавлонов У., Норкулов Н. Ўзбекистон тарихи: давлат ва жамият тараккоти. - Т.: "Академия", 2000. - 162 б.  
<sup>347</sup> Муцаев Н. У. Ўрта Осиёда деҳқончилик маданияти ва аграр муносабатлар тарихидан (Тош даври охирига қадар). "Фан", Тошкент, 2005. - Б. 127-129.

judo qilib, Shoh Ismoil huzuriga olib bordilar. Shoh Ismoil esa ilohiy etib, hurmatli kishilarga nazru sadaqalar ulashdi.<sup>341</sup>

Bobur Ismoil Safaviy yordamida Samarqandni egalladi va Jome masjida shoh Ismoil nomini xutbaga qo'shib o'qidi. Bu mahalliy aholiga ma'qul bo'lmadi. 1512 yil Ismiy Safaviy tomonidan Boburni qo'llab tutish uchun yuborilgan qizil boshliqlar Qarshi shahrini talab, Buxoro sari yo'lga tushdilar. Biroq, o'zbek sultoni Ubaydulloxon tomondan tor- mor qilindi. Bobur esa Hisorga chekindi.<sup>342</sup>

Shayboniylar mansub Ko'chkinixon (1510-1530), Abdusaidxon (1530-1533) va Ubaydullaxon (1533-1540) lar boshqardilar. Ubaydullaxon layoqatli va shijoatli siyosatchi sifatida mamlakat birligini ta'minlashga harakat qildi, uning davrida (1533yil) poytaxt Samarqanddan Buxoroga ko'chirildi va Buxoro xonligi deb ataldi. U xonlikni tashqi va ichki dushmanlardan himoya qilishda, uni mustahkamlashda muhim rol o'ynadi.<sup>343</sup> Jumladan, Movarounnahr o'lkasini bo'ylab, xutba va tanga Ubaydullohxon nomi bilan ziyinat topdi. Uning davlati zamonida Movarounnahr yurti, ayniqsa, Buxoro nihoyatda obodonchilik va farovonlikka erishdi.<sup>344</sup> Ubaydullaxon Xuroson uchun kurashlarda eronliklar hujumini qaytarib turdi. Ammo, uning vorislari o'rtasidagi o'zaro nizolar natijasida markaziy hokimiyat bo'lindi va zaiflashdi. 1540-yilga kelib Buxoroni Ubaydulloxning o'g'li Abdullazxon (1540-1550), Samarqandni esa Ko'chkinixonning o'g'li Abdulatif (1540-1551) boshqardilar. 1550 y. Abdullazxon o'limidan keyin Buxoroda hokimiyatni Baroqxon egalladi.<sup>345</sup>

Shayboniylar davlati o'z mohiyatiga ko'ra yirik davlat bo'lib, oliy hokimiyat cheklanmagan huquqlarga ega bo'lgan davlat boshlig'i - xon tomondan boshqarilgan. Xonning siyosiy tizimida, boshqaruvda

<sup>341</sup> Уша ериа-121-122-6.  
<sup>342</sup> Муцаев Н. У. Ўрта Осиёда деҳқончилик маданияти ва аграр муносабатлар тарихидан (Тош даври охирига қадар). "Фан", Тошкент, 2005. - Б. 123-124.  
<sup>343</sup> Ўзбекистон республикаси. Энциклопедия. "Ўзбекистон миллий энциклопедияси". Тошкент, 2006. - Б. 150-151.  
<sup>344</sup> Мухаммадёр ибн Араб Катран. Мусаххир ал-Билад. - Т.: "Янги аср авлоти", 2009. - Б. 134.  
<sup>345</sup> Муцаев Н. У., Каримова М. Ж., Тогаев М. А. Ўзбекистон тарихи. Ўқув қўлланма. Тошкент. «ИЮД PRINT» - Б. 201-202.



Boshqa dinga mansub (xristian, yahudiy, buddiy) savdogarlar o'z mahsulotining 5/1 qismini jizya solig'i tarzida to'laganlar<sup>348</sup>.

Shayboniy davrida sug'orma dehqonchilik tizimiga katta e'tibor berilgan. Amudaryo, Sirdaryo, Zarafshon, Murg'ob daryolari va irmoqlaridan samarali foydalanishga harakat qilingan. Abdullaxon II davrida Zarafshon daryosida bunyod etilgan<sup>349</sup> suv ayrigich vodiy bo'ylab suv taqsimotini yaxshilashga xizmat qilgan bo'lsa, yana bunyod etilgan to'g'on ( Abdullaxon bandi) o'z davrining muhandislik inshooti bo'lib, u suv to'plashni va sarflashni tartibga solib turgan. Uning davrida yana Zarafshon daryosiga qurilgan Puli Mehtar, Puli Jondor<sup>350</sup> va boshqa sug'orish inshootlari qishloq xo'jaligida muhim ahamiyat kasb etgan.

XVI asrda oxirida chorvador qabilalar ham o'troqlasha bordi. Buxoro, Samarqand va Toshkent shaharlarida hunarmandchilik va savdo yaxshi rivojlandi. Abdullaxon davrida Buxoroda "chorsu" gum-bazli bino, karvonsaroy, madrasa masjidlar qurildi. Ular bugungacha saqlanib qolgan<sup>351</sup>.

Abdullaxon II zamonida Buxoro xonligida ziroatchilik, huarmandchilik, savdo-sotiq rivojlandi, madaniy hayot ancha yuksaldi. Juda ko'p sug'orish inshootlari (Zarafshon suv ayrigich ko'prigi, Tuyatortar kanali, o'ziga xos Oqchopsoy suv ombori, Vaxshdan chiqarilgan ko'plab ariqlarning qurilishi) ziroatchilikni birmuncha rivojlantirdi. Bu vaqtlarda Buxoro xonligida bug'doyning o'n navi, sulii, qo'noq, jo'gori, mosh, no'xat, makkajo'xori, loviya, sholi, paxta, kunjut, beda, arpa, sabzavot va poliz ekinlari; bog'dorchilik, polizchilik va ipakchilik rivojlangan edi<sup>352</sup>. Bu davrda to'qimachilik, kulolchilik, metallga ishlov berishda qurolsozlik, temirchilik, degrezchilik, misgarlik va yana duradgorlik va boshqa sohalarda mehnat qilgan hunarmand ustalar maxsuloti ko'p xollarda yuksak san'at asari darajasiga ko'tarila oldi. Hunarmandchilikning asosiy markazlari Samarqand, Toshkent, Buxoro, Qarshi, Balx, Xo'jand, Marg'ilon, Andijon, Toshkent, Jizzax O'ratepa, Shahriabz kabi yirik

<sup>348</sup> Сагдуллаев А., Аминов Б., Мавлонов Ў., Норкулов Н. Ўзбекистон тарихи: давлат ва жамият тараққиёти. -Т.: "Академия", 2000. -165 б.

<sup>349</sup> Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи. "Шарқ". Тошкент. 2001. -Б.249.

<sup>350</sup> Мусаев Н.У. Ўрта Осиёда деҳқончилик маданияти ва аграр муносабатлар тарихидан. (Тош даври охиридан – XX аср бошларига қадар). "Фан". Тошкент. 2005. -Б.126-127.

<sup>351</sup> Ўзбекистон тарихи. 2- жилд. "Фан". Тошкент. 1993. -Б.-16.

<sup>352</sup> Б.Ахмедов. Тарихдан сабоқлар. Тошкент. "Ўқитувчи". 1994й. -Б.400.

shaharlar edi. Samarqand va Buxoroda hunarmandchilik turlarining 60 dan ortiq bo'lganligi manbalarda qayd etilgan<sup>353</sup>. Movarounnahrlik kosiblar turli metall buyumlar, ip va ipak matolar, a'lo navli qog'ozlar ishlab chiqarganlar<sup>354</sup>

Ishlab chiqarilgan mahsulotlar mamlakatning ichki va tashqi savdosida mahsulotlarni ayriboshlashda muhim bo'lib, savdo sotiq mamlakat iqtisodiyotining muhim tarmog'i bo'lgan. Asosiy savdo markazlari bo'lgan Samarqand, Toshkent, Buxoro, Qarshi, Balx, Andijon kabi shaharlardan tashqari ko'pgina katta qishloqlarda ham bozorlar mavjud bo'lgan. Turli viloyatlar o'rtasida iqtisodiy savdo aloqalari olib borilgan. Abdullaxon II markazlashgan davlatga asos solishga harakat qildi. Uning hukmronlik qilgan davrida 1557 yilda Shahrisabz, 1569 yilda Samarqand, 1558-1572 yillarda, o'rtada tanaffuslar bilan Badaxshon, Balx, va Xisor, 1582 yilda Toshkent, Sayram, Turkiston, Farg'ona, 1583 yilda Xuroson, 1595 yilda esa Xorazm egallandi. Xurosonning markazlari bo'lgan Xirot, Mashhad, Seyiston, Garmsir va yana Qarag'andadan Xilmand daryosigacha bo'lgan hududlar, Qandahor, Sibir xonligidan Mashhadgacha bo'lgan hududlar markaziy hokimiyat bo'lgan Buxoroga birlashadi<sup>355</sup>.

Bu davrda Buxoro xonligidagi ichki va tashqi savdo keng rivojlandi. Karvon yo'llari bo'yida ko'plab inshootlar: karvonsaroylar, rabotlar, sardobalar barpo etildi, savdo karvonlari xavfsizligini ta'minlash choralari ko'rildi.<sup>356</sup> U savdo- hunarmand doiralari manfaatini ko'zlab Sibir xonligida o'zining ta'sirini o'rnatishga harakat qildi. Abdullaxon II Sibir taxtida o'tirgan Yodgorni taxtdan mahrum qilish choralari ko'rdi. 1563 yilda shayboniyar sulolasiga mansub bo'lgan Kuchumxon, Buxorodan qo'shin bilan kelib, Yodgorni taxtdan ag'darib tashlab, hokimiyatni qo'lga kiritgan<sup>357</sup>. Kuchumxonning Ahmad Garoy nomli akasi Buxoroda turgan va keyinchalik Abdullaxon tomonidan harbiy qism bilan Kuchumxonga yordam berish uchun Sibirga yuborilgan. Sibirdagi ishlab chiqarishning qoloqligi davlat apparatini, jumladan, harbiy, ruhoniy,

<sup>353</sup> Мусаев Н.У., Азимов Ҳ.И. Маданиятшунослик. Ўқув кўлланма. 2009. -Б.166.

<sup>354</sup> Б.Ахмедов. Тарихдан сабоқлар. Тошкент. "Ўқитувчи". 1994й. -Б.400.

<sup>355</sup> Шамсутдинов Р., Каримов Ш., Убайдуллаев Ў. Ватан тарихи. (XVI-XX аср бошлари). Иккинчи китоб. "Шарқ". Тошкент. 2003. -Б.20-21.

<sup>356</sup> Мусаев Н.У., Азимов Ҳ.И. Маданиятшунослик. Ўқув кўлланма. 2009. -Б.167.

<sup>357</sup> Ҳ.Зиёев. Сибирь, Волга ва Урал бўйларидаги ўзбеклар. (Энг қадимги даврлардан XX аср бошларигача) "Шарқ". Тошкент. 2003. -Б.-12.

zodogonlarni va umuman xonlikni kiyim-kechak, qurol-aslaha, oziq-ovqat, zebi-ziynat va boshqa mollar bilan yetarli darajada ta'minlay olmas edi. Sibirning bunday hayotiy narsalarga ehtiyojini O'rta Osiyo shaharlarigina qondirishi mumkin edi. Shu bois, Buxoro xonligi Sibir xonligi uchun yagona ittifoqchi va homiy bo'lib qoldi<sup>358</sup>. Jumladan, Kuchumxon 1572 yilda Shayx va Sayidlar singari din peshvolarini yuborishni so'rab, Buxoroga elchilarni yuborgan. Abdullaxon Sibir elchisini qabul qilib, uni maxsus farmon bilan Urgench shahriga yuborgan. Farmonga ko'ra, Urgench hokimi Sibir elchilarini qabul qilib olishi va ularga din peshvolarini qo'shib yuborishi lozim deb hisoblangan. Kuchumxonning iltimosi bajarilib, 1000 kishi Yarim Sayid va Sharbat Shayx boshchiligida Sibirga uning saroyiga yetib borganlar<sup>359</sup>.

1596 yilda rus humati Tyumen shahrining boshlig'iga bergan farmoniga ko'ra, "Buxoroliklar mollari bilan, Tyumenga kelgan takdirida, ularga ruslar va tatarlar bilan bojsiz savdo-sotik kilishga ijozat berilishi lozimligi, kelajakda ularning turli mollari bilan kelishlarini ta'minlashda, ularga katta izzat va g'amho'rlik ko'rsatib, hech qanday to'sqinlik qilmasdan, shahardami, tashkaridami, o'zlari xohlagan joylarida savdo qilishlariga ruxsat berish"<sup>360</sup> kerakligi aytilgan.

Buxoroliklar Kuchumxon davridayoq Sibirning mahalliy aholisi bilan aloqa o'rnatib, ular mamlakatning shimoliy chekkasiga kirib borar va vog'ullar hamda samoyedlarda, balki ostyaklarning o'zida buxoroliklar O'rta Osiyodan olib keltirilgan mollar evaziga Sibirdan qimmatli mo'ynalarni olib o'z vatanlariga olib kelganlar. Ular O'rta Osiyodan keltirgan mollaridan tashqari, mahalliy mollar bilan bo'ladigan savdoni ham o'z qo'llariga olganlar<sup>361</sup>.

Shayboniylar davrida ham Amir Temur va temuriylar davridagidek Movarounnahr va Xurosonda rivojlangan yuksak madaniyat an'analari Shayboniylar davrida ham davom etgan va boyitilgan. Bu davrda adabiyotning turli janrlarida, tarixnavislik,

<sup>358</sup> Ўша ерда. -Б.-13.

<sup>359</sup> Ўша ерда. -Б.14.

<sup>360</sup> Х.Зиёев. Сибирь, Волга ва Урал буйларидаги ўзбеклар. (Энг қадимги даврлардан XX аср бошларигача) "Шарқ". Тошкент. 2003. -Б.-22.

<sup>361</sup> Ўша ерда. 41-42.

hattotlik sa'ati, epigrafiya, memorchilik va madaniyatning boshqa bir qator sohalarida katta yutuqlar qo'lga kiritilgan.

Boshlang'ich ta'lim beradigan maktablarda, diniy va dunyoviy bilimlar berilgan. Jamiyatga o'qimishli, bilimli kishilarni tayyorlab beradigan madrasalar asosiy madaniyat o'chog'i bo'lgan. Bu davrda oliy ta'lim darajasidagi madrasalar uch bosqichda amalga oshirilgan. O'qish 21 yilni tashkil etgan.

Adabiyot sohasida Muhammad Solix, Xoja, Afsadiy, Vosifiy, Majlisiy, Ubaydiy, Baqoiy, Shaydo, Oshiq, Aziziy, Nisoriy, Mushfiqiy, Naxliy, Mutrifiy va boshqa ko'plab so'z san'atkorlari o'z ijodi bilan nom qozondilar. O'zbek va tojik mumtoz adabiyotini rivojlantirishga katta hissa qo'shgan bu adabiyot vakillari bilan boburiylar hukmronlik qilayotgan Hindiston, shuningdek, Eron Turkiya, Ozarbayjon va Sharqiy Turkistondagi so'z san'atkorlari orasida ijodiy aloqalar mavjud bo'lgan<sup>362</sup>.

Shayboniylar hukmronligi davrida ijtimoiy-iqtisodiy hayot sohasida va madaniyatda Amir Temur va temuriylar davridagi an'analarni davom ettirib, boyitib borilgan. Shaharsozlik, me'morchilikda va hunarmandchilikda katta yutuqlarga erishildi. Ichki va tashqi savdo yaxshi rivojlandi. Bu shayboniylar davrida o'zbek davlatchiligi tarixida muhim ahamiyatga ega bo'lgan davrlardan biri bo'lganligini ko'rsatadi.

## § 2.2. O'rta Osiyo ashtarxoniylar hukmronligi davrida

Shayboniylardan keyin Buxoro taxtini egallagan sulola-Ashtarxoniylar (kelib chiqishi Astraxondan bo'lganligi uchun) Jo'chixon naslidan bo'lib, XIV asrning 80-yillaridan boshlab Astraxan hukmronlik (Xoji tarxon) va uning airofidagi yerlar va xalqlar ustidan hukmronlik qilgan. 1556 yil Astraxanni Rusiya bosib olgandan keyin ashtarxoniylardan Yormuhammadxon bolalari va qarindoshlari bilan Iskandarxon hukmronligi yillarida (1561-1583) Buxoroga keldi. Iskandarxon Yormuhammad va uning hamrohlarini izzat-hurmat bilan kutib olib, qizi Zuhraoyimni uning o'g'li Jonibek sultonga uzatgan. Zuhraxonimdan U uch o'g'il (Dinmuhammad, Boqi Muhammad, Vali

<sup>362</sup> Мусаев Н.У., Азимов Х.И. Маданиятшунослик. Ўқув қўлланма. 2009. -Б. 167.



Muhammad) ko'rgan. Dinmuhammad Abdullahon II zamonida Niso va Abivard hokimi bo'lgan. Abdulmo'min o'ldirilgandan keyin amirlar va ruhoniylar naslidan toju taxtga munosib boshqa biron kishi topilmagach, Jonibek sultonni xonlik taxtiga o'tkazmoqchi bo'ldilar. Lekin katta o'g'li Dinmuhammad nomiga xutba o'qildi. Ammo u Hirot yaqinida safaviylar bilan bo'lgan urushda halok bo'ldi. Oxiri taxtga Jonibek sultonning o'rtancha o'g'li Boqi Muhammad o'tqazildi. Shundan boshlab, Buxoro xonligi yana bir o'zbek sulolasi - ashtarxoniylar qo'liga o'tdi<sup>363</sup>. Oliy hokimiyatni 150 yildan ortiqroq (1601-1756) davr mobaynida o'z qo'llarida saqlab kelgan ashtarxoniylar davrida markaziy davlat hokimiyati juda zaiflashdi, o'zaro urushlar nihoyatda avj oldi. Abdullaxon II ning say harakati bilan barpo etilgan ulkan Buxoro xonligi hududi qisqarib ketdi<sup>364</sup>.

1605 y. hokimiyatni egallagan Valimuhammadni saroy ayonlari va zodagonlar til biriktirishib, 1611 y. taxtdan tushirdilar. Uning o'rniga Dinmuhammadning o'g'li Imomqulixon (1611-1642) o'tqazildi. U qalmlar, qoraqalpoqlar va qozoq biylari bilan bo'lgan janglarda o'z mavqeini ancha mustahkamlab oldi. U 1613 yili qozoqlarni yengib, Toshkentni egalladi. O'g'li Iskandarga otaliq belgilab, uni Toshkentga noib qilib jo'natdi. Biroq, Iskandarning soliq siyosatidan norozi bo'lgan Toshkent aholisi qo'zg'olon ko'tarib, uni va amaldorlarini o'ldirdilar. Imomqulixon Toshkentni bir oy qamal qilib, shahar aholisidan qattiq o'ch oldi. Imomqulixon 30 yildan ortiq hukmronligi davrida o'zaro urushlarga va uluslar amirlarining mustaqillikka intilishlariga barham bergan bo'lsada, feodal tarqoqlikni bartaraf eta olmadi. U 1642 yili haj safariga jo'nab, 1643 yili Madinada vafot etdi<sup>365</sup>.

Imomqulixonidan keyin taxtni egallagan ukasi Nodirmuhammadxon (1642-1645) davrda ichki ziddiyatlar avj oldi. U muxoliflar tazyiqi bilan taxtdan voz kechishga majbur bo'ldi. Hokimiyat uning o'g'li Abdulazizxon qo'liga o'tdi (1645-1680). Bu davrda mamlakatda ichki ziddiyatlarga barham berilmadi, aholining ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli yaxshilanmadi. Abdulazizxonning ukasi

<sup>363</sup> Б.Ахмедов. Тарихдан сабоқлар. Тошкент. "Ўқитувчи". 1994й. -Б.400.

<sup>364</sup> Сағдуллаев А., Аминов Б., Мавлонов Ў., Норкулов Н. Ўзбекистон тарихи: давлат ва жамият тараққиёти. -Т.: "Академия", 2000. -Б.174.

<sup>365</sup> Мусаев Н.У. Ўрта Осиёда деҳқончилик маданияти ва аграр муносабатлар тарихидан. (Тош даври охириларидан – XX аср бошларига қадар). "Фан". Тошкент. 2005. -134-135.

Subhonqulixon davrida (1680-1702) ichki nizolar va feodal tarqoqliklar yanada kuchaydi. Uning o'g'li Ubaydullaxon (1709-1711) davrida ham vaziyat o'zgaradi.

Tinimsiz ichki nizolar, ashtarxoniylar davlatiga putur yetkazdi. Ayrim nufuzli amirlar mamlakatdagi og'ir ahvoldan foydalanib, Abulfayzxonni taxtga o'tqazdilar (1711-1747). Jur'atsiz Abulfayzxon amirlar qo'lida bamisoli qo'g'irchoq bo'lib, maishatbozlikka berildi. Bundan foydalangan Eron shohi Nodirshoh Shimoliy Hindistonni zabt etib qaytayotganda Abulfayzxon uning huzuriga, Peshovarga munosib sovg'a va hadyalar bilan elchilarini yuboradi. Elchilarga juyboriy xojalarning kattasi – Shayxul islom boshchilik qilgan. Abulfayzxon o'z elchilari orqali Nodirbek shoh bilan jangu jadal qilishga quvvatsiz ekanligini tan olib, Nodirni Buxoroga mehmondorchilikka taklif etgan. Abulfayzxon so'zlari Nodirshohga juda ham ma'qul tushdi, u elchilarga hurmat- izzat ko'rsatadi. Va Abulfayzxon nomiga yozib yuborgan maktubida uning taklifini qabul qilganini, hozir yo'lga tushib, so'ng Balxga va u yerdan Buxoroga borajagini bayon qildi. elchilardan Buxoro xonligiga hind buyumlaridan tortiq qiladi. Nodirshohdan javob kelgach, Abulfayzxon Xorazm xoni Ilbarsga maktub yozib, uni ham urushsiz Nodirshohga bo'ysundirishga da'vat etadi, ammo Ilbars rad javobini beradi<sup>366</sup>.

Nodirshoh Buxorodan Xiva xoni Ilbarsga elchi va maktub yuborib, unga bo'ysunishni taklif qiladi. Maktubda Nodirshoh o'zining Eron va Hindistondagi fath va g'alabalarini sanab o'tib, so'ng Ilbarsxonga /Abulfayzxonning maslahatiga ko'ra elchilar yuborganini uqtiradi. Nodirshoh elchilari Ilbarsxonni Hazoraspeda uchratadilar va o'z vazifalari haqida xabardor qiladilar. Xiva xoni uch kishidan iborat elchilarni qatl ettiradi<sup>367</sup>.

Nodirshoh o'z askarlariga Hazoraspeda emas, balki Xonqaga hujum qilishga buyruq berib, Ilbarsni sarosimaga solib qo'yadi. Ilbars tezda jang maydoniga yetib keladi, uch kun davom etgan to'qnashuv natijasida eronliklar g'alaba qiladilar. Ilbars qo'lga tushib qatl etiladi. Nodirshoh buyrug'i bilan xorazmliklardan 6 ming kishi askarlikka olinib Eronga olib ketiladi. Buxoroda Ibodullo boshchiligida qo'zg'olon ko'tariladi va Abulfayzxon unga qarshi kurashish uchun Eron shohidan yordam so'raydi. Nodirshoh avval Hasanson va

<sup>366</sup> Низомиддинов И. Абдулкарим Бухорий. "Фан". Тошкент. 1966. -Б.19-20.

<sup>367</sup> Ўша ерда.

Behbudxon boshchiligida 12 minglik qo'shinni Buxoroga yordamga jo'natadi va ko'p o'tmay, Muhammad Rahim mang'itga ham o'z askarlari bilan Buxoroga qaytib, eronliklarga madad berishga buyurdi<sup>368</sup>.

Muhammad Rahimxon qo'shini Chorjo'yga kelganda, Nodirga qilingan suiqasd va uning o'limi haqidagi xabar keladi. Lekin Muhammad Rahimxon buni sir tutib, Buxoroga kirib oladi. Abulfayzxonni huzuriga kirish yo'li bilan uni qo'lga tushiradi. Ibodullo qo'zg'olonini bostirib, uni qatl etib, g'alaba bilan Buxoroga qaytib kelgan eronliklar Abulfayzxonning mahbus etilganini bilib, bunga qarshi norozilik bildiradilar, qurol kuchi bilan Buxoroni egallashga tayyor ekanliklarini aytib, Rahimxonning Nodirshoh o'lgan deb yozgan xatiga ishonmay shaharni qamal qiladilar. Rahimxon esa eronlik askarlar orasidagi afg'onlarga kishi yuborib, Nodirshoh o'ldirilganligi (1747 yili) va Afg'onistonda abdali – afg'onlar davlati barpo etilgani xabarini yetkazib, ularni, agar xohlasalar Buxoroda qolishlari mumkinligini aytadi. Shundan so'ng afg'onlar qorong'i tunda eronliklarni tashlab, Buxoroga, qochib o'tadilar, shu kuni Rahimxon Abulfayzxonni qatl ettiradi<sup>369</sup>. Uning o'rniga o'g'li Abdulmo'min, bir yildan so'ng, ukasi Ubaydulloni xon deb e'lon qilsa-da, amalda hokimiyat Muhammad Rahimbiy boshchiligidagi yangi, mang'itlar sulolasi ixtiyoriga o'tadi (1753)<sup>370</sup>.

Ashtarxoniylar davrida o'zaro nizolar tufayli hokimiyat zaiflashgan sari xususiy yer egaligi va o'zbek urug'lari hukmronligi kuchayib bordi. Davlat boshqaruvida Otaliqdan devonbegi (moliya vaziri), undan keyin parvonachi (shikoyatlarni qabul qiluvchi va ko'rib chiquvchi), ko'kaldosh, inoq (o'zbek urug'laridan chiqqan amirlar), qushbegi (xon qarorgohining boshlig'i), mirshabboshi, mehtar, dasturxonchi, to'pchiboshi, shayxulislom, qozikalon va b. lavozimlar bo'lgan<sup>371</sup>. XVII asrda yer inom qilish rasmi yanada ko'paygan. XVI asrda bo'lgani kabi suyurg'ol va yangi xil tanho in'omi keng tarqalgan. Davlat zaiflashgan sari yer egaligi kengayib, o'zbek qabilalarining hukmronligi kuchayib borgan. Jumladan, Qo'ng'iroq, Nukuz, Qipchoq,

<sup>368</sup> Низомиддинов И. Абдулкарим Бухорий. "Фан". Тошкент. 1966. - Б. 19-20.

<sup>369</sup> Ўша манба. - Б. 22.

<sup>370</sup> Мусасев Н.У., Каримова М.Ж., Тоғасев М.А. Ўзбекистон тарихи. Ўқув қўлланма. Тошкент. «IJOB PRINT». - Б. 205.

<sup>371</sup> Ўша манба. - 203-206 б.

Mang'it kabi urug' guruhlarining nomi bilan atalgan joylar paydo bo'lgan. Bu davrda sun'iy sug'orish ishlariga 1614-1615 yillarda Imomqulixon buyrug'i bilan Qashqadaryodan Qarshi cho'liga kanal chiqarilib, natijada bir qator qishloqlar va qarovsiz yerlar obod bo'lgan. 1633-1634 yillari Qo'shqo'rg'onda ham uning buyrug'i bilan kanal qazilgan. Sun'iy sug'orish tizimlarini, inshootlarini ta'mirlash, tozalash ishlari muttasil ravishda olib borilgan. Lekin XVI asrdagi kabi keng ko'lamdagi sun'iy sug'orish qurilishiga oid ishlar kamroq bo'lganligini manbalardan ko'rish mumkin.

Dehqonchilikda g'allachilik, paxtachilik, polizchilik, g'allachilik, bog'dorchilik rivojlangan. Birgina bug'doyni o'zidan 20 xii ekilgan<sup>372</sup>.

Bu davrda to'quvchilik, temirchilik, qurolsozlik, duradgorlik, zargarlik, kulolchilik rivojlangan. Ayniqsa, shoyi, har xil buyumlar ishlab chiqarish, terini ishlash kengaygan. Shahar hayotida ichki va tashqi savdning o'rni katta bo'lgan. Jumladan, sadogarlardan Moskva, Eron, Xitoy va Hindistonga o'zlarida ishlab chiqarilgan mahsulotlarni olib borganlar. U yoqlardan esa matolar, tikishda ishlatiladigan har xil iplar, chinni idishlar, choy, zebu-ziyatlar ranglar olib kelishgan<sup>373</sup>.

Subhonqulixon davrida 1692 yilda Muhammad Bodi as - Samarqandiy tomonidan Buxoro poeziyasining antologiyasi tuzilgan. Bu Bu tazkirada o'sha davr poeziyasining antologiyasi tuzilgan. Bu tazkirada o'sha davr adabiy arboblardan 150 nafari to'g'risida tarjimai holi yoritilgan. Subhonqulixonning o'zi ham ilm-ma'rifatli hukmdor bo'lgan. U ko'proq tibbiyotga qiziqqan. Subhonqulixon Buxoroda maxsus shifoxona- (dori-sh-shifo) qurdirgan. Unda bemorlar davolanar va tibbiyot fani o'rganilar edi<sup>374</sup>. Bu yerda maxsus tibbiyot kutubxonasi ham bo'lgan.

1541 yilda Muhammad Husayn Miroki Samarqandiy tibbiyot va dorishunoslikka oid ilmiy asar yozdi. Katta shaharlarda tabiblar kishilarni davolash bilan shug'ullangan. Samarqandda ishlagan tabib Sulton Ali kasalliklar va davolash haqida umumiy ma'lumot beradigan "Dastur ul-iloj" degan asar yozgan<sup>375</sup>. Subhonqulixon yaxshigina shoir

<sup>372</sup> Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи. "Шарк". Тошкент. 2001. - Б. 272.

<sup>373</sup> Бобобеков Х., Каримов Ш., Содиков М., Усмонов Қ., Холбоев С., Шамсутдинов Р. Ўзбекистон тарихи. Қисқача маълумотнома. "Шарк". Тошкент. 2000. - Б. 126.

<sup>374</sup> Шамсутдинов Р., Каримов Ш., Убайдуллаев Ў. Ватан тарихи. (XVI-XX аср бошлари). Иккинчи китоб. "Шарк". Тошкент. 2003. - Б. 44.

<sup>375</sup> Бобобеков Х., Каримов Ш., Содиков М., Усмонов Қ., Холбоев С., Шамсутдинов Р. Ўзбекистон тарихи. Қисқача маълумотнома. "Шарк". Тошкент. 2000. - Б. 130

ham bo'lgan. "Nishoniy" taxallusi bilan she'rlar yozgan. Uning shaxsiy kutubxonasi bo'lib, unda ko'plab noyob kitoblar saqlangan. Jumladan uning shahsan o'z qalamiga mansub bo'lgan manbalar va Subhonqulixonning o'zi haqida yozilgan asarlar ham bo'lgan<sup>376</sup>.

Siyosiy vaziyat qanday bo'lishidan qat'i nazar ashtarxoniyalar, ilm, fan san'at, me'morchilikka katta e'tibor berishgan. Jumladan, Buxoroda Abdulazizxon, Ubaydullaxon madrasalari, Boqi Muhammadxon, Ubaydullaxon masjidlari, Subhonqulixon Registonda qurdirgan hovuz va Buhorodagi kasalxona, Balxda Nazr Muhammadxon, Subhonqulixon madrasalari va boshqalar shu davrlarda qurilgan.

### § 2.3. Buxoro amirligi davrida siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot

Mang'it xonadonining birinchisi Rahimxon ibn Hakim otaliq ibn Xudoyor otaliq ibn Xudoyqulibiy ibn Chovushbiy edi. Mang'it rasman 1756 y. 16 dekabrda xonlik taxtiga o'tiradi. Bu haqda "Tuhfat ul-Xoniy"da yozilishicha, farroshlartoj kiydirilaigan xonaga gilam va poyondozlar to'shadilar va taxtni o'rnatdilar. Munajjimlar toj kiyish uchun maqbul vaqtni belgilashar, keyin amir va boshqa amaldorlar, obro'li din vakillari (Mahdumi A'zam Kosoniy, Sayyid ota, Xo'ja Muhammad Islom Jo'yboriy va Xoja Ahror avlodi vakillari) taklif etilardi. Xonaga ko'zlari bog'liq Muhammad Rahimxonni olib kirib, oq kigiz ustiga o'tkazishdi. Kigizning to'rt burchidan obro'li to'rt urug': mang'it, o'tarchi, bahrin va saroy urug'i vakillari, kigiz chetlaridan esa yuqorida aytilgan to'rtovlon ko'zga ko'ringan din arboblari va obro'li to'qsabo, sadr, rais va sarkardalardan bir necha kishi ushlab turishdi. Shundan so'ng, yangi hokimni taxtga o'tkazish va ziyofat, xonga sovg'a taqdim etish boshlandi. Xon esa marosimda qatnashayotgan kishilar yelkasiga qimmatbaho to'n yopardi. Muhammad Rahimxonning nomiga xutba o'qitilib, katta qishloq va asosiy shaharlarda uning nomi bilan tanga zarb etildi<sup>377</sup>. Muhammad Rahimxon amirlik mansabiga o'tirgach, ko'plarni in'om va ehsonlar

<sup>376</sup> Шамсутдинов Р., Каримов Ш., Убайдуллаев Ў. Ватан тарихи. (XVI-XX аср бошлари). Иккинчи китоб. "Шарк". Тошкент. 2003. -Б.45.

<sup>377</sup> Саидкулов Т. Ўрта Осиё халқлари тарихининг тарихшунослигидан лавҳалар. (1-қисм) Ўқув қўлланма. "Ўқитувчи". Тошкент. 1993. -Б.95.

bilan o'ziga rom qildi. U tabiatida hasad va g'ayrlik xislati o'ta kuchli va jabru sitamni o'ziga kasb qilgan bir kishi edi. Ammo, shu zolimligiga qaramay. Ko'plab shoir va fozillar suhbatini ham topgandi<sup>378</sup>.

Buxoroda Muhammad Rahimbiy 12 yil hukmronlik qiladi. Uning davrida eronliklar ta'siri kuchayadi. Vaziri Davlatbiy, qushbegi va Buxoro qoziyul quzzoti mir Nizomiddin va boshqa ko'pgina amaldorlar eronliklardan bo'lgan. Muhammad Rahimbiy davrida Buxoro xonligiga Buxoro, Samarqand, Miyonqol, Qarshi, Huzor, Kerki va Chorjo'ygacha bo'lgan viloyatlar bo'ysundirilib, Shahrisabz Hisor va Toshkent mustaqil bo'lgan. Bu davrda Buxoro xonligi bilan Afg'oniston o'rtasida do'stona munosabatlar o'rnatilgan. Buxoroning o'zida bir necha ming afg'onlar yashab, ulardan ponsodboshi (500 kishiga boshliq), yuzboshi va ellikboshi mansablariga tayinlanganlar bo'lgan<sup>379</sup>. Muhammad Rahimbiy boshchiligida qaror topgan mang'itlar sulolasi davrida (1753-1920) olib borilgan urushlar va aholi boshiga solingan og'ir iqtisodiy zulmlar amirlik iqtisodiyotini izdan chiqardi<sup>380</sup>. Ayniqsa, Doniyolbiy otaliq davrida (1758-1785) feodal tarqoqlik kuchaydi, ko'tarilgan qo'zg'olonlar qiyinchilik bilan bostirildi. Uning davrida hokimiyat asosan vazir Davlat qushbegi bilan qoziyul quzzotlar qo'lida bo'lib, xon saroyida eronliklarning nufuzi ortib borgan. Saroy va boshqa o'lka xokimliklari orasida buzuvlik va talon- taroj kuchaygan<sup>381</sup>. 1785 yilga kelib, keksa Doniyolbiy o'z o'g'li Shohmurod foydasiga taxtdan voz kechadi. O'zining xalqparvarligi bilan Amiri Ma'sum degan nom olgan Shohmurod davrida talay siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar sodir bo'ldi. Jumladan, Shohmurodbiy amirlik ishlari saroyi asosini adolat kursisi ustiga o'rnatib, adolatning chaman saroyi sitam shoxini fano shamshiri bilan kesib, sipoh va raiyatni o'z qanoti ostiga oldi va o'sha kunisiyoq poraxo'rlikda nom chiqargan Buxoro qozi kalonini so'roq qilib, gunohini bo'yniga qo'ygach, boshini kestirdi. Hukumati davomida biror soat davlat ishidan behabar bo'lmadi<sup>382</sup>. Uning vorisi Amir

<sup>378</sup> Мухаммадхакимхон Тўра. Мунтахаб Ат – таворих. "Янги аср авлоди". Тошкент. 2010. -Б. 20.

<sup>379</sup> Низомиддинов И. Абдулкарим Бухорий. "Фан". Тошкент. 1966. -Б. 22-23.

<sup>380</sup> Бобобеков Х., Каримов Ш., Содиков М., Усмонов Қ., Холбоев С., Шамсутдинов Р. Ўзбекистон тарихи. Қисқача маълумотнома. "Шарк". Тошкент. 2000. -Б. -131.

<sup>381</sup> Низомиддинов И. Абдулкарим Бухорий. "Фан". Тошкент. 1966. -Б. 23.

<sup>382</sup> Мухаммадхакимхон Тўра. Мунтахаб ат-таворих (Хўқанд ва Бухоро тарихи, саёҳат ва хотиралар). -Т.: "Янги аср авлоди", 2010. -31-б.

Haydar (1800-1826) davrida notinchlik hukm surdi, jumladan ichki urushlar natijasida Turkiston, Marv shaharlari qo'ldan ketdi. 1821-1825 yillar mobaynida davom etgan qo'zg'olonlar zo'rg'a bostirildi.

Amir Haydar vafotidan keyin uning o'g'li Nasrullo hokimiyatni egalladi (1826-1860). U taxtga o'tirgach boshqa da'vogarlarini o'ldirtirib yuborib, tarixda "jallod amir" degan nom oldi. Bu haqda Muhammadhakimxon To'rani yozishicha, "Iffatlik panohi shohlar onasi Mohlar oyimning ham o'sha ikki badbaxt zoti past fohishalar bilan birga necha bir xoru zorlikda tomog'iga o'lim sharbatini quyishdi"<sup>383</sup>. Bu davrda avj olgan urushlar tufayli mamlakatda parakandalik hukm surdi.

XIX asrning I yarmida Buxoro amirligida 2 mln atrofida aholi istiqomat qilar edi. Ularning asosiy qismi Zarafshon vodiysida (350 mingga yaqin), Qashqadaryo vohasida (500 ming), Surxondaryo vohasida (200 ming), Sharqiy Buxoroda (500 ming) yashagan. Eng yirik shaharlar-Buxoroda 60 ming, Samarqandda 50 ming kishi istiqomat qilgan<sup>384</sup>.

Amirlik yakka hokimlik tizimidagi davlat bo'lib, amirdan keyingi eng katta amaldor qushbegi (bosh vazir) edi. Viloyat va tuman boshliqlari qushbegi tavsiyasi bilan tayinlangan. Amirlikda 27 ta beklik bo'lgan. Manbalarga ko'ra mahalliy ma'murlar 30 ming kishidan iborat bo'lgan. Qo'shinlar asosan otliqlar va sipohlardan iborat bo'lib, ularni yuzboshi, mingboshi va lashkarboshilar boshqargan. Harbiy ta'lim berishga layoqatli kishilar va markazlar deyarli bo'lmaganligi uchun qo'shinlar ko'proq jismoniy mehnat bilan band bo'lishgan<sup>385</sup>.

Amir Muzaffarning (1860-1885) hukmronligi boshidayoq amirlikning hududi birmuncha qisqardi. Katta qiyinchilik bilan bo'ysundirilgan Shahrisabz-Kitob bekliklari yana Buxoroga bo'ysunishidan bosh tortilar<sup>386</sup>. Uning hukmronligi davrida mang'itlar va ular hukmi ostida yashagan aholi uchun tahlikali davr bo'ldi, chunki O'rta Osiyoga Rossiyaning hujumi avj oldi. Samarqandning ruslar tomonidan egallab olinishi, Kitob, Shahrisabz va b. bekliklarning

<sup>383</sup> Muhammadhakimxon Tura. Muntaxab at-tavorix (X'ukand va Buxoro tarixi, sa'xat va хотирлар). -T.: "Янги аср авлоди", 2010. -Б. 661.

<sup>384</sup> Мусаев Н.У., Азимов Х.И. Ўзбекистон тарихи. Ўқув қўлланма. Тошкент. 2013. -Б. 142.

<sup>385</sup> Ўша ерда. 142.

<sup>386</sup> Сағдуллаев А., Аминов Б., Мавлонов Ў., Норкулов Н. Ўзбекистон тарихи: давлат ва жамият тараққиёти. -Т.: "Академия", 2000. -Б. 198.

mustaqillik uchun kurashlari amir Muzaffar hokimiyatini qiyin ahvolga solib qo'ydi<sup>387</sup>. Amir Muzaffarning davrida lashkar ham zaiflashdi, otasi davrida harbiy yurishlarda chiniquqan sarkardalar qatl qilindi. Ular o'rniga "tagi past kishilar va g'ulomlar" tayinlanadi. "Rusiya o'lkaga bostirib kirganda esa, - deb yozadi Ahmad Donish, - tagi past, nodon va g'ayratsiz sarkardalar juftakni rostlab qoladilar, to shu vaqtgacha ulardan ozor chekib kelgan askarlar g'ulomlarga xizmat qilishni or bilib ketdilar. Natijada barcha viloyatlar Rusiya qo'liga tushdi"<sup>388</sup>. Rossiya bosqiniga dosh bera olmay mang'itlar boshqargan Buxoro amirligi qaramlikni bo'yniga olishga majbur bo'lganligini, - Ahmad Donish o'z risolasida yozib qoldirgan<sup>389</sup>. O'ziga qaraganda bir necha barobar kuchli bosqinchi chor Rossiyasi mustamlakachilarga qarshi teng bo'lmagan janglar olib borib, yengilgan va 1868 yilda sharmandali sulh bitimini imzolashga majbur bo'lgan Amir Muzaffarxon o'z mustaqilligini yo'qotib, Rossiyaning vassaliga aylandi<sup>390</sup>.

Amir Muzaffarxondan o'g'li Abdulahad (1885-1910) ga Buxoro taxti meros bo'lib o'tadi. Unga qarshi bir qator noroziliklar bo'ladi. Jumladan, 1909 yil hijriy yangi yil sayli vaqtida Shahrisabz va Qarshida halq amirlikka qarshi bosh ko'taradi. Bu chiqishlar shavqatsizlik bilan bostiriladi. 1886-1887 yillarga oid hujjatlarning shavqatsizlik bilan bostiriladi. Abdulahadxon G'ulom va cho'rilarga rasman guvohlik berishicha, Abdulahadxon G'ulom va cho'rilarga rasman ozodlik berish to'g'risida farmon chiqaradi. U 1910 yilda vafot etgach, taxt vorisi bo'lgan o'g'li Olimxon (1910-1920) ga nasib etadi. U 1881 yilda tavallud topgan. Olimxon 1893-1896 yillarda Sankt-Peterburgda o'qigan<sup>391</sup>. Bu haqda Amir Sayid Olimxonning "Buxoro xalqining hasrati tarixi" kitobida yozilishicha, "...o'n uch yoshligimda milodiy yilning ming sakkiz yuz to'qson uchida buyuk shahanshoh bo'lmish padari buzukvorim hazratlari amru farmonlari bilan bir necha mo'tabar namakxo'r-yaqin do'stlar hamrohligida Peterburgga borishga azm qildim. Tartib- qoida yuzasidan u yer maktablarida yetti yil o'qitilar

<sup>387</sup> Мусаев Н.У., Каримова М.Ж., Тоғасев М.А. Ўзбекистон тарихи. Ўқув қўлланма. Тошкент. «UOD PRINT» -Б. 210.

<sup>388</sup> Шамсутдинов Р., Каримов Ш., Убайдуллаев Ў. Ватан тарихи. (XVI-XX аср бошлари). Иккинчи китоб. "Шарк". Тошкент. 2003. -Б. 82-83.

<sup>389</sup> Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи. "Шарк". Тошкент. 2001. -Б. 285.

<sup>390</sup> Шамсутдинов Р., Каримов Ш., Убайдуллаев Ў. Ватан тарихи. (XVI-XX аср бошлари). Иккинчи китоб. "Шарк". Тошкент. 2003. -Б. 82-83.

<sup>391</sup> Ўша ерда. -Б. -83.

edi. Binobarin, padari buzukvorim istagiga ko'ra ta'limotni tezlashtirish maqsadida o'qish muddati uch yil deb qaror qilindi. Bu uch yil davomida ta'lim olib mamlakat tartib qoidalarini biladigan darajada bilim hosil qildim, o'qishlarni tugatib, imtihon topshirdim<sup>392</sup>. 1898 yilda Qarshi viloyatiga hokimlikka yuboriladi. Bu haqida Olimxon,-... padari buzukvorim menga Buxoroyi sharifga qarashli bo'lgan o'lkalardan biri Nasaf viloyati hukmronligini marhamat qildilar<sup>393</sup>, - deb yozgan. O'n ikki yil hokimligi davrida Olimxon bir qator qurilishlar qiladi. Jumladan, Qarshi shahrida Qashqadaryo ustida uzunligi 122 m, eni 8,2 daryo tubidan balandligi 5,35 m bo'lgan ustunlari g'isht va tosh ohakdan ko'priq qurdiradi. Qo'priq ustida to'rta ravoq (qorovulxona) bunyod etadi. Yana Olimxonning hukmronligi davrida xalq manfaati nuqtai nazaridan bir qator foydali ishlarni ham amalga oshirgan<sup>394</sup>. Uning o'zi kitobida yozishicha: taxtga o'tirganimgan so'ng bu banda dargohi oliyda mamlakatning bir yillik xiroj to'lashdan ozod qilish farmoyishini berdim<sup>395</sup>. Shu tariqa faqir- fuqarolarni ko'p xursand qildim, deydi yana, Buxoroyi sharif arkining yaqinida, Baloyi havz deyilgan joyda o'z nomimga bir ibodatga masjid bino qildirdim. Buxoro minorasining past tomonida bozorning ichki tomonida o'z nomimdan Dor-ul-ulum – Bilim uyi bo'lgan bir madrasa qurdirdim; har xil ilmdan dars beruvchi muallimlar tayin ettirdim. Mazkur madrasada istiqomat qiladigan talabalar sarf-xarajatlari, maosh kiyim -kechagi ham o'z tarafimdan belgilanib, unga bir nafar nozir tayin etdim; ularning yemak-ichmak, maosh va kiyim kechaklarini muayyan bir vaqtda yetkazdirardim. Bozor va yo'l obodonligiga ko'p harakat qildim, uch yil ichida Buxoro mamlakati ancha obod bo'ldi, unga zeb-ziynat va tartib-intizom o'rnatdim. Mening sayi -xarakatimdan Buxoro aholisi va butun mamlakat mamnun bo'ldi<sup>396</sup>, - deydi. Albatta, Amir Olimxonning o'z o'tmishi tarixi to'g'risidagi bildirgan fikr- mulohazalari uning hukmronlik yillarida xalqqa o'tkazgan zulmkorlik siyosatini, davlatni boshqarish va idora etishda yo'l qo'ygan juda ko'plab xato va kamchiliklarini aslo oqlay olmaydi. Olimxon amirligi davrida

<sup>392</sup> Amir Сайид Олимхон. Бухоро халқининг ҳасрати тарихи. "Фан" Тошкент. -Б.6-7.

<sup>393</sup> Ўша ерда. -Б.7.

<sup>394</sup> Шамсутдинов Р., Каримов Ш., Убайдуллаев Ў. Ватан тарихи. (XVI-XX аср бошлари). Иккинчи китоб. "Шарқ". Тошкент. 2003. -Б.83.

<sup>395</sup> Amir Сайид Олимхон. Бухоро халқининг ҳасрати тарихи. "Фан" Тошкент. -Б.8.

<sup>396</sup> Ўша ерда.

mamlakatdagi iqtisodiy, ijtimoiy- siyosiy turmush yanada og'irlashdi<sup>397</sup>. Bu haqda Fitratning "Amir Olimxonning hukmronlik davri" nomli kitobida keltirilishicha,- Amir Olimxonning 10 yildan ortiq yoki ko'proq podshohlik davrida uning tomonidan biron marta umaro va hokimlarning bajargan ishiga: "Nega bu ish shunday bo'ldi?", "Aslida bunday bo'lishi kerak yoki kerak emas",- deb hukm qilinganligi ma'lum emas. Amir Imomqul xazinachi, Burhoniddin qozikalon, Izomiddin raisi kalon va qushbegi Mirzo Urganjiydan tashqari o'z xizmatchilaridan hech kimni tanimas edi. Mamlakatning barcha ishlarini ularning ixtiyoriga topshirib, o'zi aysh – ishrat bilan shug'ullanib yurdi. Lekin musiqa olamidan, o'yindan juda xabardor edi<sup>398</sup>. Xalq gardaniga tushgan soliqlar yildan – yilga oshib borgan. Jumladan 1913 yilgi ma'lumotlarga ko'ra, amirning yillik daromadi oltin hisobida 30 millionga teng bo'lgan. Shu boylikning katta qismi shahsan amirning ayshu-ishrati va be'mani noahloqiy tadbirlariga sarflangan. Amir Olimxon o'z davlati hududida xalqning umumiy manfaatlariga javob beraoladigan siyosat yurgizmaydi<sup>399</sup>. Jadidlarni qo'llab, ularning maslahati bilan ish ko'rmaydi. Oxir oqibat o'zi yakkalanib sovetlar tomonidan amirlik egallanib, xukumatni tashlab sarson-sargardon bo'lishiga sabab bo'ladi.

Mang'itlar hukmronligi davridaoliy hukmdor "Amir" unvoni bilan mamlakatni boshqargan. Buxoro amirligi davrida ham o'z tizimi, qonun-qoidalari, boshqaruv tartiblari va butun mohiyati bilan , Movarounnahrda o'rta asr musulmon davlatlari bo'lgan shaybonixon va ashtarxoniylar davlat tizimidan aytarli farq qilmagan. Davlat mutloq va ashtarxoniy davlat tizimidan aytarli farq qilmagan. Davlat mutloq qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatga ega bo'lgan amir tomonidan boshqarilgan. Davlat hayotiga tegishla masalalar .bosh qarorgoh bo'lgan Arkda hal etilgan. Arkda Amir,uning oilasi, qushbegi, shirg'ovul,to'pchiboshi, mirzaboshi va boshqa saroy amaldorlari yashagan<sup>340</sup>. Amirlik ma'muriy jihatdan 24 beklikka (Amir Nasrullo hukmronligi davrida, Buxoro tarkibida 30 beklilik bo'lgan<sup>341</sup>),

<sup>397</sup> Шамсутдинов Р., Каримов Ш., Убайдуллаев Ў. Ватан тарихи. (XVI-XX аср бошлари). Иккинчи китоб. "Шарқ". Тошкент. 2003. -Б.84.

<sup>398</sup> Фитрат. Amir Olimxonning hukmronlik davri. "Minxoj". Тошкент. 1992. -Б.45.

<sup>399</sup> Шамсутдинов Р., Каримов Ш., Убайдуллаев Ў. Ватан тарихи. (XVI-XX аср бошлари). Иккинчи китоб. "Шарқ". Тошкент. 2003. -Б.84-85.

<sup>340</sup> Сағдуллаев А., Аминов Б., Мавлонов Ў., Норкулов Н. Ўзбекистон тарихи: давлат ва жамият тараққиёти. -Т.: "Академия", 2000. -Б.198-199.

<sup>341</sup> Ўша китоб. - Б.199.



bekliklar esa o'z navbatida tumanlarga bo'lingan. Buxoro bekligi eng katta beklilik hisoblanib, u qator tumanliklardan iborat bo'lgan. Uni amir nomidan qushbegi boshqargan. Har bir beklilik hokimi o'z daromadining bir qismini har yili tortiq sifatida amirga yuborib turgan<sup>342</sup>.

Amirlikda yer egaligining uch turi: amlak, mulk va vaqf yerlari mavjud bo'lgan. Dexqonlarning bir qismi (25 %) yersiz bo'lib, ijaraga olgan yerlari hisobiga kun kechirishgan. Ular o'z mehnatlari uchun 10 so'mdan 20 so'mgacha haq olishgan. Hunarmandlarning ham ahvoli og'ir bo'lib, ular asosiy soliq (zakot)dan tashqari, boshqa soliqlar ham to'lashgan<sup>343</sup>.

Buxoro amirligida hunarmandchilikning turli sohalarini rivojlantirgan. To'qimachilik hunarmandchilikning yetakchi tarmog'i bo'lib qolgan. Uning taraqqiyotining birinchi sababi ichki va tashqi bozorda bu turdagi mahsulotga talabning katta bo'lganligi, ikkinchi tomondan mahalliy xom ashyo manbalari bo'lgan jun, paxta va ipakning yetarli miqdorda bo'lganligiga bog'liq bo'lgan. To'qimachilikning ip yigirish, matolar (bo'z, alaga, chit) to'qish, tayyor kiyimlar to'qish, gilamchilik va boshqa sohalar ancha rivojlangan edi. Buxoroning zarbof to'nlari, Shahrisabzning Iroqi do'ppilari, Samarqandlik ustalarning ipak buyumlari, ayniqsa mashhur bo'lgan<sup>344</sup>.

Buxoroning mashhur ganch, yog'och o'ymakorligi, naqqoshlik, duradgorchilik, kulolchilik sohalaridaiham asosan mahalliy hunarmandlar band edilar. Samarqandda ishlab chiqarilgan qog'oz mashhur bo'lgan<sup>345</sup>.

Buxoro amirligida asrlar davomida shakllangan maktab va oliy ta'lim beruvchi madrasalar faoliyati yuksalib borgan. Boshlang'ich ta'lim maktablari mamlakatdagi barcha yirik qishloqlarda, shaharlarning hamma mahalla-guzarlarida mavjud bo'lib, bu yerda bolalarning dastlabki savodi chiqarilgan. Bu maktablarning yutug'i

<sup>342</sup> Бобобеков Х., Каримов Ш., Содиков М., Усмонов Қ., Холбоев С., Шамсутдинов Р. Ўзбекистон тарихи. Қисқача маълумотнома. "Шарқ". Тошкент. 2000. -Б. 134.

<sup>343</sup> Мусаев Н.У., Каримова М.Ж., Тогаев М.А. Ўзбекистон тарихи. Ўқув қўлланма. Тошкент. «IJO PRINT» -Б. 210.

<sup>344</sup> Сагдуллаев А., Аминов Б., Мавлонов Ў., Норқулов Н. Ўзбекистон тарихи: давлат ва жамият тараққиёти. -Т.: "Академия", 2000. -Б. 198-204-205.

<sup>345</sup> Мусаев Н.У. Ўрта Осиёда деҳқончилик маданияти ва аграр муносабатлар тарихидан. (Тош даври охириларидан – XX аср бошларига қадар). "Фан". Тошкент. 2005. - 158.

murakkab bo'lgan arab alifbosini bolalarga o'rgatilganligi bo'lgan. Oliy ta'lim maskani bu madrasalar bo'lib, amirlikning barcha shaharlarida mavjud bo'lgan. XIX asr boshlarida Buxoroda vaqf yerlaridan keladigan daromad hisobidan 108 ta madrasa bo'lib, ularning 60 tasi asosiy ta'lim maskanlari sifatida mashhur bo'lishgan. Madrasada o'qitish 3 bosqichda amalga oshirilgan. Ular 1. Past qadam; 2. miona; 3. peshqadam. Madrasa o'qituvchilari – mudarrislar va boshqalarning yillik maoshi (250-350 tillo), talabalar nafaqasi (3 tildan 4 tillogacha), madrasadagi kutubxona xarajatlari, ta'mirlash ishlari va boshqalarga asosiy mablag'lar har bir madrasaga birlashtirilgan vaqf yerlaridan keladigan daromadlar hisobiga qoplangan<sup>346</sup>.

Madrasalarda talabalar Quroni, fiqh, shariat asoslarini, diniy ahloqiy adabiyotlarni hamda til, adabiyot, tarix falakiyot, mantiq, falsafa, shuningdek xandasa (matematika) va boshqa bir qancha aniq fanlarni ta'lim olishgan<sup>347</sup>.

Amir Haydar saroyida Munshi (amir kotibi) lavozimida xizmat qilgan Mirzo Sodiqning she'riy devon va she'riy usulda bitilgan "Mang'it hukmdorlari tarixi" asari o'sha davrdagi adabiy rivojiga sezilarli hissa qo'shgan asarlardan hisoblanadi. Bu davrda yashab ijod qilgan shoir Hoziq, shoir Mujrimlar ijodida xalqparvarlik, jabr zulmga qarshi isyonkorlik kayfiyati kuchli bo'lgan. Buning oqibatida hukmron tabaqa vakillari tomonidan siquvga olingan shoir Hoziq amir zulmidan qochib Shahrisabzga ketgan bo'lishiga qaramasdan, u Buxorodan yuborilgan maxfiy jallold tomonidan o'ldiriladi. Shavqiy taxallusi bilan she'rlar yozgan Kattaqo'rg'onlik Muhammad Sharif, "Chor darvish", "Maxfiloro", "To'tinoma" kabi asarlar muallifi Mullo Qurbon Xiromiylarning o'rni katta bo'lgan<sup>348</sup>.

Ahmad Donish ijtimoiy ilmlar sohasida Markaziy Osiyoning o'tmish tarixi fani, adabiyoti, davlatchiligi, dini kabi masalalariga oid hamda o'ziga xos mazmunga ega bo'lgan she'riy asarlar yaratish bilan birga tabiiy ilmlar, xususan, astronomiya, kosmotologiya muammolari ustida ham tadqiqotlar olib borib, qator asarlar yozib qoldirgan. U

<sup>346</sup> Сагдуллаев А., Аминов Б., Мавлонов Ў., Норқулов Н. Ўзбекистон тарихи: давлат ва жамият тараққиёти. -Т.: "Академия", 2000. -Б. 198-208.

<sup>347</sup> Мусаев Н.У., Азимов Х.И. Маданиятшунослик. Ўқув қўлланма. Тошкент. 2009. -Б. 174.

<sup>348</sup> Сагдуллаев А., Аминов Б., Мавлонов Ў., Норқулов Н. Ўзбекистон тарихи: давлат ва жамият тараққиёти. -Т.: "Академия", 2000. -Б. 198-209.

o'zining "Munozir al-Kavokib" ("Yulduzlarni kuzatish") degan asarida falakiyot ilmiga oid muhim masalani hal qilgan<sup>349</sup>.

Buxoroda me'morchiligida XVII asrning birinchi yarmida Nodir devonbegi madrasasi va xonaqohi (Ko'kaldosh madrasasi yonida), Mag'oki ko'rpa -Juma masjidi qurildi. (1637). Abdulazizxon madrasasi bunyod etildi (1652).Buxoroning janubi-g'arbiy qismida Xiyobon (1654-1655) va Jo'ybori Kalon (1670-1671) madrasalari qurildi. Registon qayta tiklandi.Ark devori yaqinida ilgari qurilgan payondabiy Otaliq masjidi (1617) yoniga "Dorushshifo" (kasalxona) binosi (1682), maydonning g'arb tomonida Shodimbiy va shimol tomonida Buxori Go'spand madrasalari (1670-1671) bund etilgan. Bolo xovuz masjidi (1712, ayvoni 1714 yilda qurilgan), Xalifa Xudoydod majmui (masjid, madrasa, sardobaa va mozor, 1777-1855), Rahmonqulixon madrasasi (1794-1795), Ernazar elchi madrasasi (1794-1795), Tursunjon madrasasi (1796-1797),Xalifa Niyozqul madrasasi (1807) va Chor minorlar. qurilgan<sup>350</sup>.

#### § 2.4. Xiva xonligi va uning tarkibiga kirgan xalqlarning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayoti

1505 yili Xorazmni Shayboniyxon bosib oladi. Eron shohi Ismoil safaviy Shayboniyxonni mag'lub etgach, Xorazm Eron davlatiga qaram bo'lib qoladi. Biroq qizilbosh eroniylar hukmronligi uzoq davom etmaydi. Bir yil o'tar- o'tmas, 1511 yilda Xorazm o'zbek xonlari hukmronligida o'z mustaqilligini tiklab oladi. Vazir qal'asi qozisi Umar va Baqirg'on qishlog'idan mulla Said Hisomiddin boshchiligida qo'zg'olon ko'tarilgan. Ikki yil davom etgan kurash natijasida eroniylar mamlakatdan quvib chiqarilgan va xorazmliklar taklifi bilan 1511 yili Vazir shahrini egallagan shayboniylardan Elbarsxon Xorazm hukmdori deb tan olingan. Shu tariqa *Xiva xonligiga* asos solindi. Elbarsxon davrida (1511-1516) Turkmanistonning janubiy qismi, Eronning shimolidagi Saraxs, shuningdek Orol

<sup>349</sup> Хайруллаев М.Маънавият юлдузлари.(Марказий Осиёлик машхур сиймолар, аломалар, адиллар. "Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти.Тошкент.2001.-Б.340.

<sup>350</sup> Бобобеков Х.,Каримов Ш.,Содиқов М.,Усмонов Қ., Холбоев С., Шамсутдинов Р.Ўзбекистон тарихи. Қисқача маълумотнома. "Шарқ". Тошкент.2000.-Б.135.

va Mang'ishloq qo'shib olingan<sup>351</sup>. Elbarsxon vafoti(1525)dan keyin, o'zaro kurashlar natijasida taxtni egallagan Avanihxon Buxoro xoni Ubaydullaxon bilan bo'lgan jangda o'ldirildi, Xorazm Buxoro xonligiga bo'ysundirilib, Ubaydullaxonning o'g'li Abdulazizxon uning hokimi etib tayinlandi. Ko'p vaqt o'tmay, Xorazm yana mustaqillikka erishdi. Biroq, 1593 y. Abdullaxon Xorazmni yana Buxoroga tobe etdi. 1598 y. uning o'limidan keyin Xiva o'z mustaqilligini qayta tikladi<sup>352</sup>. Abdullaxon Xorazmni o'ziga bo'ysundirish uchun to'g'on qurib, Amudaryo oqimini o'zgartiradi. Poytaxt Xivaga ko'chirilgandan so'ng Xorazmdagi bu davlat poytaxt shahar nomi bilan Xiva xonligi deb atala boshlagan<sup>353</sup>.

1602 y. taxtni Xiva hokimi Hoji Muhammadning o'g'li Arab Muhammadxon egalladi. Bu davrda ham ichki va tashqi kurashlar to'xtamadi. Jumladan, Xiva xonligiga qo'shni bo'lgan qalmaq va qozoq urug'lari bir necha marta hujumlar uyushtirdilar. Lekin ular tormor qilinib, Arab Muhammadxon tomonidan bo'ysundirildi. Bu davrda siyosiy tarqoqlikka xos o'zaro ichki kurashlar avj oldi. Arab Muhammadxonning o'g'illari – Xabash va Elbars sultonlar otasiga qarshi hokimiyat uchun kurashdilar<sup>354</sup>. Arab Muhammadning o'g'li Elbars otasini taxtdan ag'darib taxtni egalladi. Elbarsxonning akasi Asfandiyorxon turkmanlar yordamida ukasidan taxtni tortib oldi va o'z hukmronligi davri (1623-1644)da asosan turkman zodagonlariga tayanib ish yuritdi. Asfandiyorxon davrida ichki tarqoqlik va ziddiyatlar oqibatida xalqning noroziligi kuchaydi. Bundan foydalangan zodagonlar Abulg'oz Bahodirxonni unga qarshi qo'ydilar<sup>355</sup>.

Shayboniylar sulolasidan bo'lgan Abulg'oz Bahodirxonni 1630 y. Asfandiyorxon Eron bilan munosabatlarini buzmaslik maqsadida Eron shohi Tahmasp I huzuriga garov tariqasida yuborgan edi. Abulg'oz Bahodirxon 10 y. Eronda tutqunlikda yashagan. 1639 y. tutqunlikdan qochib, Mang'ishloqqa kelgan. 1643 y. Orolbo'yi o'zbeklari uni xon

<sup>351</sup> Ўзбекистон миллий энциклопедияси.Ўзбекистон Республикаси. 12 том. Тошкент. 2006йил.-Б.154.

<sup>352</sup> Мусаев Н.У. Ўрта Осиёда деҳқончилик маданияти ва аграр муносабатлар тарихидан. (Тош даври охирларидан – XX аср бошларига қадар)."Фан". Тошкент. 2005.-158.

<sup>353</sup> Сағдуллаев А.,Аминов Б.,Мавлонов Ў.,Норқулов Н. Ўзбекистон тарихи: давлат ва жамият тараққиёти. -Т.: "Академия",2000.-Б.198-236.

<sup>354</sup> Бобобеков Х.,Каримов Ш.,Содиқов М.,Усмонов Қ., Холбоев С., Шамсутдинов Р.Ўзбекистон тарихи. Қисқача маълумотнома. "Шарқ". Тошкент.2000. -Б.136.

<sup>355</sup> Б. Мусаев Н.У.,Каримова М.Ж.,Тоғаев М.А. Ўзбекистон тарихи. Ўқув қўлланма. Тошкент. «IJD PRINT» -Б. 210.

qilib ko'tarishgan<sup>356</sup>. U akasi vafotidan keyin 1644 yilda Xiva taxtiga o'tirgan<sup>357</sup>. Abulg'ozixon Xorazm tarixida yirik davlat arbobi va tarixnavis ijodkor sifatida muhim o'rin tutadi<sup>358</sup>. Abulg'oz Bahodirxon davri (1645-1663)da mamlakat tarqoqligiga barham berish, hokimiyatni mustahkamlash harakati boshlandi<sup>359</sup>. Jumladan, uning hukmronligi davrida markaziy davlat hokimiyati birmuncha mustahkamlanadi. Ko'chmanchi turkman qabilalari va qalmiqlarga qarshi muvaffaqiyatli kurallar olib borildi<sup>360</sup>. Biroq, u dardga chalinib taxtni o'g'li Anushaxonga topshirdi va bir yildan keyin vafot etdi. Anushaxon davri (1663-1687)da otasi kabi davlatni har tomonlama mustahkamlash siyosatini olib boradi. U Movarounnahrda tez- tez hujumlar qilib, ko'pgina qishloqlarni, Buxoro Samarqand atroflarini talon- taraj qiladi<sup>361</sup>. Buxoro qo'shinlari G'ijduvon yaqinida Xiva qo'shinlarini yengdilar. Buxoro xoni Subhonqulixon bosqinchilik urushlariga barham berish maqsadida, Xivadagi muxolif kuchlar yordamida Anushaxonning ko'zini ko'r qildirdi va eshik og'asi Shohniyozni taxtga (1688-1702) o'tqazdirdi<sup>362</sup>.

1714 y. Xiva taxtni Sherg'ozixon egallaydi. 1717 y. Pyotr I tashabbusi bilan Xivaga Bekovich-Cherkasskiy boshchiligida qariyb 1750 kishidan iborat harbiy ekspeditsiya uyushtirildi<sup>363</sup>. Xiva xoni Sherg'ozixon tomonidan rus qo'shinlari iliq kutib olindi. 6 ming rus askarini oziq-ovqat va yashash joyi bilan ta'minlashni yengillashtirish uchun ularni 3 qismga bo'lish haqidagi xon taklifiga binoan, rus harbiylari 3 ga bo'linib, turli qishloqlarga joylashtirildi. Shundan so'ng bu otryadlar Xivaliklar tomonidan butunlay qirib tashlandi<sup>364</sup>. 1728 y.

<sup>356</sup> Мусаев Н.У., Азимов Х.И. Ўзбекистон тарихи. Ўқув қўлланма. Тошкент. 2013.-Б.142.

<sup>357</sup> Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Ўзбекистон Республикаси. 12 том. Тошкент. 2006 йил.-Б.154.

<sup>358</sup> Сагдуллаев А., Аминов Б., Мавлонов Ў., Норқулов Н. Ўзбекистон тарихи: давлат ва жамият тараққиёти. -Т.: "Академия", 2000.-Б.198-237.

<sup>359</sup> Мусаев Н.У., Азимов Х.И. Ўзбекистон тарихи. Ўқув қўлланма. Тошкент. 2013.-Б.142.

<sup>360</sup> Сагдуллаев А., Аминов Б., Мавлонов Ў., Норқулов Н. Ўзбекистон тарихи: давлат ва жамият тараққиёти. -Т.: "Академия", 2000.-Б.198-237.

<sup>361</sup> Бобобеков Х., Каримов Ш., Содиков М., Усмонов Қ., Холбоев С., Шамсутдинов Р. Ўзбекистон тарихи. Қисқача маълумотнома. "Шарқ". Тошкент. 2000.-Б.138.

<sup>362</sup> Мусаев Н.У., Азимов Х.И. Ўзбекистон тарихи. Ўқув қўлланма. Тошкент. 2013.-Б.142.

<sup>363</sup> Мусаев Н.У. Ўрта Осиёда деҳқончилик маданияти ва аграр муносабатлар тарихидан. (Тош даври охиридан – XX аср бошларига қадар). "Фан". Тошкент. 2005.-Б.160.

<sup>364</sup> Сагдуллаев А., Аминов Б., Мавлонов Ў., Норқулов Н. Ўзбекистон тарихи: давлат ва жамият тараққиёти. -Т.: "Академия", 2000.-Б.238-239.

Sherg'ozixon madrasa qurilishida ishlayotgan mashhadlik qullar tomonidan o'ldirilgan. Shundan keyin qozoq va qalmiqlarning xonlik hududiga hujumi kuchaydi. Xivaning nufuzli kishilari yordamida taxtni qozoq sultoni Elbarsxon (1728-1739) davrida o'zaro nizolar bir o'zaro. 1740 y. Eron shohi Nodirshoh Xivaga yurish qildi va Xorazmda Eron hukmronligi o'rnatildi. 1741 y. xivaliklar Kichik Juz xoni Abdulkayrxonning o'g'li Nurali yordamida qo'zg'olon ko'tarib mustaqillikni tikladilar<sup>365</sup>.

1763 yildan Xivada qo'ng'irot urug'i inoqlari hukmronligi boshlandi. Taxtga bir necha xonlar kelishgan bo'lsa-da, davlatni asosan Inoq Muhammad Amin 1770 yilda turkmanlarning qarshiligini sindirib, 1782 yilda Buxoro amirligi hujumini qaytarib, xonlikda qo'ng'irotlarni amaldagi hokimiyatini mustahkamlagan. Avaz Muhammad inoq davrida Xivada markaziy hokimiyat mustahkamlanib, iqtisodiy ahvol birmuncha yaxshilangan. Bu bilan XIX asr boshlarida qo'ng'irotlar sulolasi hokimiyatni rasman egallashga zamin tayyorlagan<sup>366</sup>.

Elto'zarxon Inoq 1804-1806 yillarda xon unvoni bilan mamlakatni boshqardi. Uning vorisi Muhammad Rahim I (1806-1825) Xiva xonligini birlashtirishni nihoyasiga yetkazdi. Uning davrida bir qancha siyosiy, iqtisodiy, ma'muriy islohotlar o'tkazildi. Xon saroyi qoshida doimiy faoliyat ko'rsatuvchi Kengash (Devon) ta'sis etildi. Islohotlar o'tkazilib soliqlar tartibga solindi. Bundan xazina daromadlari oshdi. 1811 yilda Orol aholisi bo'ysundirildi<sup>367</sup>.

Oloqulixon (1825-1842) davrida Xiva qo'shinlarining Xurosonga yurishlari kuchaydi, Marv shahri uchun Buxoro amirligi bilan tez-tez urushlar bo'lib turgan. Bu haqida mahalliy tarixchi Mirzo Olim Maxdumning yozishicha, - Oloqulixon Buxoro tavob'otidin G'ijduvongacha kelib, g'orot qilib ko'p xalqni asir qilib olib ketdi. Xivaning bir tarafida Rafnik nomli bog'i benazir bino qildi. Va andin boshqa imorati oliy, tahtoniy, favqoniy va anvoi va ashjor va gulzorlar bino qildi. Oxiri "kulli shay'un holik" (Barcha narsa halokatga mahkum)

<sup>365</sup> Мусаев Н.У. Мусаев Н.У. Ўрта Осиёда деҳқончилик маданияти ва аграр муносабатлар тарихидан. (Тош даври охиридан – XX аср бошларига қадар). "Фан". Тошкент. 2005.-Б.160.

<sup>366</sup> Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Ўзбекистон Республикаси. 12 том. Тошкент. 2006 йил. - Б.154.

<sup>367</sup> Сагдуллаев А., Аминов Б., Мавлонов Ў., Норқулов Н. Ўзбекистон тарихи: давлат ва жамият тараққиёти. -Т.: "Академия", 2000.-Б.238-240.

mazmunicha, 1258-nci hijriy, shavvol oyida 1842 noyabr Xiva shahrida vafot qildi<sup>368</sup>.

Rahimqulixon (1842-1845) davri haqida ham tarixchi Mirzo Olim Maxdum quyidagilarni yozgan. Rahimqulixon uch yil hukmronlik qilgan 1261/1845 yil sanai hijriyda vafot qilgan. Andin keyin Muhammad Aminxon (1846-1855) Xorazmga xon bo'ldi. Bu Muhammadaminxon Urganj xonlarining zubda(si) va ahli baytining umdasi edi. Ta'miri bilod, islohi umuri mulk va husni tadbiru siyosat ila mamlakatni obod ayladi. Minorai mutaadida va masojiji karima va madorisi hasanalar bino qildi<sup>369</sup>.

Xiva xonlari bu davrda Sirdaryoning Orol dengiziga quyiladigan joyidan Turkmaniston hududidagi Kushkagacha bo'lgan yerlarni boshqargan. 1855 yilda Saraxsni qamal qilish paytida Muhammad Aminxonning xalok bo'lishi mamlaqatda parokandalikka sabab bo'lgan.

Said Muhammad hukmronligi davrida (1856-1864) turkmanlar va qoraqalpoqlar yashagan hududlarga hujumlar uyushtirildi, natijada bu xalqlarning ko'pchiligi ko'chib ketdi<sup>370</sup>.

1859 yilda Orolbo'yi qabilalari Xivaga qarshi qo'zg'olon ko'taradilar. Turkmanlar tomonidan qo'llab-quvvatlangan Muhammad Panoh Orol bo'yini ruslarga topshirish rejasini tuzadi va Orenburg gubernatoriga xat jo'natadi. Lekin Xiva xonining Qo'ng'irotni katta qo'shin bilan kelib egallashi natijasida Orenburg general-gubernatorining Sirdaryo flotiliyasi boshlig'i Butakovga bergan Amudaryoga o'tish haqidagi buyrug'i bajarilmay qolib, Orol bo'yida yana Xiva xonligining xokimiyati tiklanadi<sup>371</sup>.

Xiva xonligining so'nggi mustaqil hukmron Feruz taxallusi bilan ijoy qilgan Muhammad Rahimxon II (1864-1910) bo'lgan. Uning davrida xonlikning siyosiy, iqtisodiy, madaniy jihatdan o'sishi kuzatildi. Lekin 1873 yili Rossiya imperiyasi Xiva xonligini bosib olgan. Muhammad Rahimxon II va K.P.Kaufman imzolagan Gandimiyon shartnomasiga ko'ra, Xiva xonligi Rossiyaga qaram

<sup>368</sup> Мирзо Олим Махдум хожи. Тарихи Туркистон. Тошкент. "Янги аср авлоди" 2008.- Б.195-196.

<sup>369</sup> Ўша китоб.-Б.195-196-197.

<sup>370</sup> Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Ўзбекистон Республикаси. 12 том. Тошкент 2006йил.-Б.155.

<sup>371</sup> Сагдуллаев А., Аминов Б., Мавлонов Ў., Норкулов Н. Ўзбекистон тарихи: давлат ва жамият тараққиёти. -Т.: "Академия", 2000.-Б.238-241.

davlatga aylangan<sup>372</sup>. Bu haqda tarixchi Mirzo Olim Maxdum hoji o'zining tarix asarida keltirishicha, - Muhammadrahimxon Xivaga xon bo'lgandin keyin 1291 /1873-1874 yil sanai hijriyda Rossiya askari Xorazmga borib, Hazorasni istilo qilib, Xivaga yigirma chaqirim masofa yaqin borg'onda xonning akobirlaridin Eltuzar inoq tuhfa va hadyalari birlan istiqbolga chiqdilar. Ikkinchitarafdin Orenburg askari yetushub, shaharga zanbaraklar ota boshladi. Aholi ham ularga muqobil bo'lishib, ichkaridin mudofaa qila boshlaganda xon ularni man' qilg'onida so'zi nufuz qilmay, shul fursatda xonning muxoliflari vaqtni g'animat bilib, xonning birodari Otajon to'rani xon ko'tardilar. Muhammadrahimxon Xivadan chiqib, yamut toifasi tarfiga mutavajjih bo'ldi. Rusiya askarining sardori Xivaga uch chaqirim kelganda yangi xonning bobosi va Muhammadniyoz devonbegi bilan istiqbolga chiqdilar. O'shal yil o'n uchinchi robbi I, yigirma to'qquz javzoda / 30 aprel 1874 yili rusiyaliklar Xivaga doxil bo'lub, yangi xonni va uning sohibi mashvarati Muhammadmurod devonbegini naqdina va boshqa amvolu ajnoslari Rusiya xazinasiga zabt qilindi. Muhammadrahim birodari va Boboxonning xat va da'vatlari birla o'zi va birodari Sayyidmurod to'ra va Muhammadmurod to'ra va soir aqrabolari birlan o'n sakkizinchi rabbi' ul-avvalida Rusiya sardoriga muloqot qilib andin keyin rusiyalar ilan Xivaga o'z poytaxtiga qaytib kirdilar. Rusiya hukmdorlari Xorazmning doxiliya idorasini aning ixtiyoriga berib, Muhammadrahimxonni qaytadan Xivaga xon qilib, ba'zi shart-sharoitlar qilishib qaytdilar<sup>373</sup>.

Davlat tizimi. Xiva xonligi xon tomonidan saroy amaldorlari yordamida boshqariladigan, yakka hokimchilikka asoslangan davlat bo'lgan. Xonlikdagi eng yuqori unvon xon bo'lib, u siyosiy, harbiy va diniy hokimiyatga ega edi. XIX asr boshiga kelib, xon huzurida doimiy faoliyat ko'rsatuvchi Kengash (Devon) bo'lgan. Eng yuqori lavozimdagi amaldorlar a'zo bo'lgan bu kengashning vakolatlari cheklangan, barcha qarorlar amalda xon tomonidan qabul qilingan bo'lsa-da, lekin saroy ayonlarining, qabila boshliqlarining, mahalliy hokimlarning davlat boshqaruvidagi o'rnini e'tirof etish zarur O'zaro siyosiy nizolarni bartaraf etadigan, markaziy hokimiyatni joylarda

<sup>372</sup> Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Ўзбекистон Республикаси. 12 том. Тошкент. 2006йил.-Б.155.

<sup>373</sup> Мирзо Олим Махдум хожи. Тарихи Туркистон. Тошкент. "Янги аср авлоди" 2008.- Б.195-196-200.

mahalliy boshqaruvni amalga oshiradigan bu amaldorlar amalda davlat boshqaruvida katta kuchga ega bo'lganlar. Ayniqsa, markaziy davlat hokimiyati zaiflashgan davrlarda bu narsa yaqqol ko'zga tashlangan. Xonlikdagi barcha mansab va unvonlar 3 toifaga: harbiy- ma'muriy, harbiy va diniy amallarga bo'lingan<sup>374</sup>.

Xiva xonliga ma'muriy-hududiy jihatdan Hazorasp, Gurlan, Xonqa, Qo'hna Urganch, Qo'shko'prik, Pitnak, G'azovot, Qiyot, Shohabbos, Shovot, Toshhavuz, Urganch, Xo'jayli, Shumanoy, Qo'ng'irot kabi beklklarga bo'lingan. Xonlikda 40 mingga yaqin qo'shin bo'lib, ular soliqdan ozod qilingan. Harbiy mansabdorlarga lavozimiga qarab oyiga 10, 20, 50, 100 oltin tanga maosh berilgan. Buxoro qo'shinlari kabi, ular ham qilich, o'q-yoy, nayza bilan, qisman pilta miltiqlar bilan qurollanishgan<sup>375</sup>.

Xiva xonligi janubda Eron, sharqda Buxoro amirligi, g'arbda Kaspiy dengizi va shimolda qozoq juzlari bilan chegaradosh bo'lgan. Amudaryo sohillarida joylashgan Xiva, Urganch, Qiyot, Ko'hna Urganch, Hazorasp, Qo'ng'irot, Xo'jayli xonlikning yirik shaharlari edi. 1598 yildan boshlab Xiva xonlikning poytaxti bo'lgan. Shahar Ichon qal'a va Dishan qal'adan iborat bo'lib, Ichon qal'da xon qarorgohi va harami, 17 ta masjid, 22 ta madrasa, karvonsaroy va bozor joylashgan. 1842 y. Dishan qal'a devor bilan o'ralgan. Unda hunarmandlar, savdogarlar, mardikorlar va qisman dehqonlar istiqomat qilishgan<sup>376</sup>.

Voha iqtisodining asosini dehqonchilik, va chorvachilik, hunarmandchilik va savdo-sotiq tashkil etib, dehqonchilikda Amudaryo quyi oqimidan olingan ko'plab kanallar va ariqlar muhim o'rin tutgan.

Xonlikda bug'doychilik keng rivojlangan bo'lib, bu ekin Pitnakdan Shohabbosgacha bo'lgan hududda ayniqsa ko'p ekilgan. Bug'doy yig'ib olingan dalalarga qovun, mosh, jo'xori ekilgan. Sug'oriladigan yerlarga bug'doyning saranchi navi ekilgan. Jo'xori Shohabbosdan Qo'ng'irotgacha bo'lgan hududda yashovchi o'zbeklar tomonidan yetishtirilgan. Paxtachilik asosan Gurlan, Yangi Urganch,

<sup>374</sup> Сагдуллаев А.,Аминов Б.,Мавлонов Ў.,Норкулов Н. Ўзбекистон тарихи: давлат ва жамият тараққиёти. -Т.: "Академия",2000.-Б.241-242.

<sup>375</sup> Мусаев Н.У.,Каримова М.Ж.,Тогаев М.А. Ўзбекистон тарихи. Ўқув қўлланма. Тошкент. «IJOB PRINT» - Б.213.

<sup>376</sup> Мусаев Н.У.,Азимов Х.И. Ўзбекистон тарихи. Ўқув қўлланма. Тошкент. 2013.-Б.145.

Xiva, Xonqa, Shohabbosda rivojlangan. Paxtadan yog' olingan. Tolasidan hunarmandlar mato to'qishgan. Suv ko'p talab qilinmagan yerlarga (Hazorasp, Qo'ng'irot, Toshhovuz, Ilalli, Kazovot, Mang'it va Gurlan) kunjut, no'xat, mosh, arpa va boshqa ekinlar ekilgan. Sabzavot- polizchilik mahsulotlaridan qovunning bir necha navlarini, tarvuz, bodring, qovoq, qalampir, piyoz, sarimsoq, lavlagi, sabzilar ekilgan. Yana bog'dorchilik ham ancha rivojlangan bo'lib olma, gilos, olxo'ri, o'rik, uzum ko'plab yetishtirilgan<sup>377</sup>. Xonlikda me'morchilik shahar rivoji bilan bog'liq ravishda taraqqiy etgan. Poytaxt shahar xonlikdagi eng yirik shahar bo'lib, u 3 qismdan: xon qarorgohi, saroy (Ichon qal'a, Dushon qal'a), shahar va shahar atrofi-rabotdan iborat bo'lgan. XIX asr boshlarida shaharda 22 ta madrasa, 17 ta masjid, bir necha karvonsaroy, hammom va yopiq bozorlar mavjud bo'lgan. Hazorasp, Urganch, Toshxovuz, Vazir, Shohabbos, Gurlan, Xonqa, Xo'jayli, Qo'ng'irot kabi o'rta kattalikdagi shaharlar (ular ham mudofaa devori bilan o'ralgan), Pitnak, G'azovot, Mang'it va boshqa kichik shaharlar bo'lgan. Xivada ko'plab imoratlar, saroylar, madrasalar, masjidlar, xonaqohlar, kavonsaroylar, yopiq bozorlar qurilgan<sup>378</sup>.

## § 2.5. Qo'qon xonligining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayoti

Qo'qon xonligiga asos solgan ming qabilasining boshlig'i Shohruxbiy ibn Ashur Muhammaddir<sup>379</sup>. U taxmiinan 1669-1670 yillari tavallud topgan. Ming urug'i XVIII asrning boshlarida siyosiy hukumatni xo'jagon sulolasining qo'lidan kuch bilan tortib olgan edi<sup>380</sup>.

Xo'jalar yoki xo'jagon sulolasi – ruhoniylar nasab Sharqiy Turkistonning hokimlari bo'lgan. Sulolaning asoschisi Maxdumi

<sup>377</sup> Сагдуллаев А.,Аминов Б.,Мавлонов Ў.,Норкулов Н. Ўзбекистон тарихи: давлат ва жамият тараққиёти. -Т.: "Академия", 2000. –Б.241-242.

<sup>378</sup> Мусаев Н.У., Азимов Х.И. Маданиятшунослик. Ўқув қўлланма. Тошкент. 2009.- Б.183-184.

<sup>379</sup> Абд ал- Қодир ибн Муҳаммад- Амин ўзининг "Маджма ал-ансоб ва -л-ашддор" асаридида минг сулоласининг Қўқон тахтида хукмронлик қилган вакиллари шажарасини шу тарзда берган.

<sup>380</sup> Мирзо Олим Махдум хожи. Тарихи Туркистон. "Янги аср авлоди". Тошкент. 2008. Б.5.



A'zamxo'ja Ahmad ibn Sayyid Jaloliddin bo'lib, u "Xo'jagon" tariqatiga mansub. U hijriy 956 yili tavallud topib, milodiy 1542 yili vafot etgan. Bu xo'jalarr Sharqiy va G'arbiy Turkistonda hukm surgan chig'atoy hokimlari davrida katta mansab va vazifalarga ega bo'lib, iqtisodiy-siyosiy kuchlarga sohib bo'ladilar. Sulolaning buyuk namoyondalari bo'lmish Offoqxo'ja Qoshg'ariydan (XVII a.) Sharqiy Turkiston hamda Farg'onada faoliyat ko'rsatgan xo'jalar kelib chiqqan. Offoqxo'ja o'g'illari Xonxo'ja (Xo'ja Yahyo ibn xo'ja Hidoyatulloh ibn xo'ja Muhammadyusuf ibn Xo'ja Muhammadamin ibn Mahdumi A'zam Dahbediy va Kunxo'ja (Xo'ja Burhoniddin) Sharqiy Turkistondagina emas, O'rta Osiyoda ham katta obro'ga ega bo'lgan<sup>381</sup>.

Bu xo'jalar – Oqxo'jalar va Qoraxo'jalarga bo'lingan. Qoraxo'jalardan bo'lmish Offoqxo'ja Sin hukumatini tan olgan. Maxdumi A'zamning o'g'li Muhammadamin Oqxo'jalarga mansub bo'lib, Sin hukumatini tan olmagan. Uning avlodlari Xitoy Sharqiy Turkistonga bostirib kirganda G'arbiy Turkiston, ya'ni Qo'qon xonligiga kirib qoladi<sup>382</sup>.

XVIII asr boshlarida Buxoro xonligidagi iqtisodiy va siyosiy tushkunlikdan foydalangan Farg'ona vodiysi aholisi mustaqillikka erishdi. Hokimiyatni ming urug'idan bo'lgan Shohruhbiy qo'lga kiritib (1709-1722) *Qo'qon xonligiga* asos soldi<sup>383</sup>. U xo'jalar bilan ittifoq tuzib, Chodak xo'jalaridan birining qiziga uylanadi. 1709 yili urug' zodogonlari hamda xo'jalari roziligi bilan Shohruhbiy xonlik taxtini egalladi. Uning qasri Eski qo'rg'ondan Qo'qonga ko'chiriladi. Shohruhbiy davrida O'sh, O'zgan, Xo'jand hali mustaqil bo'lib, Qo'qon davlatining shimoliy chegarasi Namanganning Shohidoni-gacha cho'ziladi<sup>384</sup>. Shohruhxon hukmdorligini ibtidosin oxiri umri-gacha Targ'ova va Chamashda umr o'tkarib, hukumat yurguzub, vafot qilibdur. Anin Abdurahimbiy va Abdulkarimbiy va Shodibiy degan uch o'g'il olami vujudga kelibdur<sup>385</sup>. Shohruhbiy o'limidan keyin

<sup>381</sup> Ўша ерда. -Б.5-6.

<sup>382</sup> Ўша ерда.

<sup>383</sup> Мусаев Н.У., Каримова М.Ж., Тоғаев М.А. Ўзбекистон тарихи. Ўқув қўлланма. Тошкент. «JOD PRINT» - -Б.214.

<sup>384</sup> Мирзо Олим Махдум хожи. Тарихи Туркистон. "Янги аср авлоди". Тошкент. 20008. - Б.6.8

<sup>385</sup> Мирзо Олим Махдум хожи. Тарихи Туркистон. "Янги аср авлоди". Тошкент. 20008. - Б.45.

o'g'li Abdurahimbiy 1721yil iyul oyida taxtga o'tiradi. Uning davrida (1721-1734) Qo'qon shahri poydevori qo'yildi, Xo'jand, O'ratepa, Jizzax shaharlari egallandi. Keyinchalik, bu shaharlar Buxoro amirligi bilan qo'ldan-qo'lga o'tib turdi. Abdurahimbiy vafotidan keyin uning ukasi Abdulkarimbiy (1733-1748) davrida Qo'qonda qarorgoh, saroy, madrasa va b. inshootlar qurildi. Qo'qon shahri devor bilan o'ralib, Isfara, Qatag'on, Marg'ilon, Toshkent va Haydarbek nomli darvozalari bo'lgan<sup>386</sup>. 1741-1745 yillarda Farg'ona jung'orlar hujumiga duch keladi. Abdulkarimbiy qipchoq- qirg'izlar hamda O'ratepa hokimi fozilbiy yuz yordamida ular bilan urushlar olib boradi. Shu vaqtda Abdulkarimbiy ham To'raqo'rg'on va Samarqandga Abdulfayzxon iltimosiga binoan yurishlar qildi. 1745 yili Miyonkolda xitoy qipchoqlar Ibodullohbiy rahbarligida bosh ko'tardi. XIX asrning boshlarida Xitoy hukumati tazyiqi ostida Sharqiy Turkistonda Farg'ona vodiysiga qalmoqlar, uyg'urlar, qirg'izlar, qoraqalpoq, va qozoq-qipchoqlar ko'chib kelishadi. 1749 yili Abdulkarimbiy qalmoq (jung'orlar) bilan sulh tuzadi. Sulh shartnomasiga ko'ra, qalmoqlar vataniga qaytganiga qadar qozoq dashtlarida yashab turish huquqiga ega bo'ladi. Qo'qon xonligi davrida esa ularga o'troq xalq bilan savdo-sotiq qilishga ijozat beriladi. Qalmoqlar Qo'qon hududiga bostirib kirmaslikni zimmalariga oladi. Yana ittifoq to'liq ishonarli bo'lishi uchun jung'or-qalmoqlar o'z tomonidan bir shahzodani Ho'qandga jo'natadi va Ho'qanddan Bobobek ibn Abdulkarimbiy ko'chmanchilar qarorgohiga yuboriladi<sup>387</sup>.

1750 yili Abdulkarimbiy vafot etadi. Uning o'g'li Abdurahmon taxtga o'tiradi, lekin 9 oy o'tib u Marg'ilonga hokim etilib, Abdurahimbiyning ikkinchi o'g'li Erdonabiy taxtga o'tiradi<sup>388</sup>. Xo'qand shahriga qaytaribdur. Xo'qand shahriga kelganidan keyin hamma ulamo, fuzalo va umarolar yig'ilishib, hammalari bilittifoq qaytadin Erdonabekni xonligiga ittifoq qilishib, duo va fotiha aylabdurlar. Erdonaxon Xo'qand shahrida muddati o'n ikki yil hukmronlik qilubdur<sup>389</sup>. Uning vafotidan keyin Qo'qon aslzodalari Norbo'tabiyni xon qilib ko'tardilar (1770-1800). U xonlik hududini

<sup>386</sup> Мусаев Н.У., Каримова М.Ж., Тоғаев М.А. Ўзбекистон тарихи. Ўқув қўлланма. Тошкент. «JOD PRINT» - -Б.214.

<sup>387</sup> Мирзо Олим Махдум хожи. Тарихи Туркистон. "Янги аср авлоди". Тошкент. 20008. - Б.7-6.

<sup>388</sup> Ўша ерда. -Б.8-6.

<sup>389</sup> Ўша ерда. -Б.53-6.

kengaytirib, Chust, Namangan, Xo'jandni bo'ysundirdi, Toshkentga uyushtirgan hujumi muvaffaqiyatsiz tugadi. Norbo'tabiy o'rniga taxtga o'tirgan o'g'li Olimbek 1807 y. Toshkentga 12 ming kishilik qo'shin yuborib, uni egalladi. Olimbek xon unvonini joriy etdi. Uning davrida Chimkent, Sayram, Turkiston shaharlari bo'ysundirildi. 1810 yili Olimxon o'ldirilgach, taxtga ukasi Umarxon (1810-1822) o'tirdi<sup>390</sup>. Bu haqida Mirzoolim Mushrif, -Umarxonga ...ulamo va fuzalo va mashoyix "jannatmakon" laqab qo'ydilar. Farg'ona taxtgohiga o'lturdi. Chunon uslub va odob va adl birla hukmronlig' qildikim, shariat hukmin ko'kdin baland marotib va me'roj berdi. Ulamo va fuzalo donishlari qadr topdi. Sipoh va askarlari nizom, oroyish topib, davlatidin xalq ko'nglida ravshanlik paydo bo'ldi.,-deb yozgan<sup>391</sup>. Umarxon hukmdorligi davrida Qo'qon xonligining davlat tuzumi, davlat ishlarini yurgizish qonun- qoidalari, diniy ishlar tartibga keltirilib, mamlakat chegaralari aniqlab olindi. Endi Qo'qon davlatining chegarasi shimolda Turkiston va Dashti Qipchoqqacha, g'arbda Samarqandgacha, Janubda Ko'histon hamda Ko'lob, Hisor va Shahrisabzgacha, Sharqda esa Sharqiy Turkistongacha yetadi.<sup>392</sup> Uning davrida adabiyot, xalq ta'limi va san'atga e'tibor kuchaydi. Umarxon 1822 yili vafot etgach, uning vorisi Muhammadalixon 1822 yili Ma'sumxon To'ra, shayx ul- islom Domullo Zokirxo'ja eshon va tog'alari Qosim beklarbegi tomonidan xonlik taxtiga ko'tariladi<sup>393</sup>. Muhammadalixon davrida (1822-1842) bosqinchilik urushlari kuchaydi. 1834 y. Qorategin, Kulob, Hisor, Badaxshon, Darvoz va Matcho bo'ysundirildi. XIX asrning 20-30 yillarida Yettisuv qo'lga kiritilib, Bishkek, To'qmoq va b. bir necha harbiy istehkomlar qurildi. Bular vaqt o'tishi bilan savdo - hunarmandchilik markazlariga aylandi. Qozoq yerlarida esa 1817 y. Oqmasjid qal'asi, keyinroq Avloyoota shahri bunyod etildi<sup>394</sup>.

<sup>390</sup> Мусаев Н.У. Ўрта Осиёда деҳқончилик маданияти ва аграр муносабатлар тарихидан.(Тош даври охирларидан – XX аср бошларига қадар). "Фан". Тошкент. 2005.- 165.

<sup>391</sup> Мирзоолим Мушриф. Ансоби ус-салотин ва таворих ул-хавоқин. (Кўқон хонлиги тарихи). "Ғафур Ғулум номидаги Адабиёт ва санъат". Тошкент. 1995. -Б.19-6.

<sup>392</sup> Мирзо Олим Махдум хожи. Тарихи Туркистон. "Янги аср авлоди". Тошкент. 20008. - Б.9-6.

<sup>393</sup> Ўша ерда -Б.10-6.

<sup>394</sup> Мусаев Н.У., Азимов Ҳ.И. Ўзбекистон тарихи. Ўқув кўлланма. Тошкент. 2013. -Б.145-146.

Bu davrda Qo'qon va Buxoro o'rtasida munosabatlar keskinlashdi. 1842 y. Buxoro amiri Nasrullo O'ratepa, Xo'jand va Qo'qonni egallab, Madalixon, ukasi Sulton Mahmud, onasi-shoira Nodirabegim va ularning oila a'zolarini o'ldirib, shaharni talon-taroj qildirdi. Bu voqeani Mirzo Olim Maxdum xoji, quyidagicha yozgan,- "Xo'qand sipohiyarlari Muhammadalixon va Sulton Mahmudxonni olib, shahardin chiqib qochibdurlar. Amiri Buxoro shaharga doxil bo'lub, to'rt soat shaharni talon- taroj qilmoqga amr qilib, hattoki, madrasalardagi kitoblar va masjidlardagi joynomozlar qolmay, hammasini olomonni mang'itiya yag'mo va toroj qilib, erkak va zaifalarni yalang'och va barahna aylabdur. To'rt soatdan keyin amir askarlarini talon- tarojdan to'xtatib, Muhammadalixon va Sulton Mahmudxonning onasini bir necha ulug'larning zaifalari ilan dastgir aylab, qatl qilib, ulardin boshqa Muhammadalixonni bir necha davlatxohlari ilan Muhammadalixonning o'g'li Muhammadalixonni<sup>14</sup> yasharlik holatida qatl qilibdur"<sup>395</sup>.

Amir Nasrulloh Ibrohim parvonachi mang'itni Qo'qonda hokim etib, o'zi Buxoroga qaytadi. Ibrohim parvonachi "Xayol" ikki oy hukmronligi davrida yangi- yangi soliqlar solib, Farg'ona xalqiga jabr-hukmronligi davrida yangi- yangi soliqlar solib, Farg'ona xalqiga jabr-hukmronligi davrida yangi- yangi soliqlar solib, Farg'ona xalqiga jabr-sitam yetkazadi. 70 kundan so'ng Qo'qon xalqi qipchoq va qirg'iz jamoalari kuchlari bilan mang'itlarni Qo'qondan haydab, taxtga Sheralixonni (1842-1845) ko'taradilar<sup>396</sup>. Sheralixon katta qipchoq qo'shini bilan Qo'qonga kirib keladi. Ibrohim dodxoh va uning ukasi Ishaq Mang'it Xo'jand orqali Buxoroga qochib qolishga muvaffaq bo'ladi. Amir ularni qattiq jazolab, mol-mulkini tortib oladi<sup>397</sup> va 1842 yil kuzida 20 ming qo'shin bilan yana Qo'qonga yurish qiladi. Qo'shin safida garovga olingan 250 ta qo'qonlik amaldorlar bo'ladi. Qo'qonliklar taslim bo'lish taklifini rad qilishadi. Madalixon davrida yuzboshi bo'lgan Musulmonqul qipchoq, qo'qonliklarni taslim qildirishga ko'ndiraman deb, amirning ruxsatini oladi. O'zi esa, qo'qonliklarni taslim bo'lmaslikka undab, shahar mudofasini kuchaytirishga bosh bo'ladi. Xiva qo'shinlarini Buxoro chegaralariga bostirib kelganligi haqidagi xabarni eshitgan Nasrulloxon garovga

<sup>395</sup> Мирзо Олим Махдум хожи. Тарихи Туркистон. "Янги аср авлоди". Тошкент. 20008. - Б.97-6.

<sup>396</sup> Ўша ерда -Б.11.

<sup>397</sup> Сагдуллаев А., Аминов Б., Мавлонов Ў., Норкулов Н. Ўзбекистон тарихи: давлат ва жамият таракқиёти. -Т.: "Академия", 2000. -Б.219.

olingan amaldorlarni ozod qilib, o'zi Buxoroga qaytadi. Qo'qonni Buxoroga tobe'likdan saqlab qolgan Musulmonqul qipchoq mingboshi lavozimini oladi. Boshqa lavozimlar ham qipchoq beklariga topshiriladi<sup>398</sup>.

1845 yilda O'shda yana bir qo'zg'olon boshlanadi, uni bostirish uchun Musulmonqul boradi. Uning yo'qligidan foydalangan Olimxonning o'g'li – Murod Sheralini o'ldirib, o'zini xon deb e'lon qiladi. Musulmonqul O'shdan Namanganga kelib o'zining qizini Sheralixonning o'g'li Xudoyorga turmushga beradi. Va u bilan Qo'qonga kelib, Murodxonni o'ldirib, yosh Xudoyorxonni xon deb e'lon qiladi<sup>399</sup>.

Xudoyorxon uch marotaba (1852-1858, 1862-1863, 1865-1875) taxtga o'tirdi. Jumladan, Toshkent lashkarboshilari va ashroflari Muhammadniyoz qushbegi, Muhammadqosim parvonachi - mingboshi, Muhammad-Rajab qo'rboshi, Madyoqub qo'shbegi, Muhammadyusuf mirzaboshi qipchoqlar (aslida Musulmonqul tarafdorlari)ni yo'q qilish maqsadida Normuhammad qushbegi mingboshining roziligini oladilar. Oliy xon hukumatini Xudoyorxonga berishni maslahat qilib, qo'shin yig'ishadi va Qo'qonga kelishadi. Chorbog'i to'ra nomli bog'ga tushib, Xudoyorxon bilan til birlashtirib, Qo'qon oqsoqollarining roziligini olishadi. Qo'qon shahri va uning atroflaridagi joylarda qipchoqlar qirg'ini - qatliomi boshlanadi. Qipchoqlardan Utabbyi va Normuhammad qushbegilar tirik qoladilar. Birinchisini xon, ikkinchisini Toshkent ashroflari himoya qiladilar. Endi Xudoyorxon amalda (1852) o'z hokimiyatida mustaqil bo'ldi. O'tabbyi qo'shbegi mingboshilik lavozimiga ko'tarildi<sup>400</sup>. Qo'qon xonligida olib borilgan doimiy urushlar xonlikni inqirozga olib keldi.

XIX asrning I yarmida Qo'qon xonligi sharqda Sharqiy Turkiston, g'arbda Buxoro amirligi va Xiva xonligi bilan chegaradosh, nisbatan yirik davlat edi. Xonlikda aholi nisbatan zich joylashgan bo'lib, uning hududida taxminan 3 mln kishi yashagan. Jumladan, Qo'qon shahrida 80 ming, Toshkent shahrida 60 mingga yaqin aholi istiqomat qilgan. Qo'qon xonligida *Bosh vazir* xondan keyingi ikkinchi shaxs hisoblangan. Davlat boshqaruvida *qushbegi, otaliq, devonbegi,*

<sup>398</sup> Ўша ерда.-Б.220.

<sup>399</sup> Бобобеков Х.,Каримов Ш.,Содиқов М.,Усмонов Қ., Холбоев С., Шамсутдинов Р.Ўзбекистон тарихи. Қисқача маълумотнома. "Шарқ". Тошкент.2000.-Б.145.

<sup>400</sup> Мирзо Олим Махдум хожи. Тарихи Туркистон. "Янги аср авлоди". Тошкент.20008. - Б.18.

*mingboshi, shayxulislom, qozikalon, parvonachi, shig'ovul, sarkor, inoq, dasturxonchi, amin, yasovulboshi* kabi mansabdorlar ishtirok etishgan. Xonlikda harbiy ishlarni mingboshi boshqargan. Qo'shinda yuzboshi, o'nboshi lavozimlari bo'lgan. Qo'shinlar qilich, nayza va pilta multiqalar bilan qurollangan. Qo'qon xoni zaruriyat tug'ilganda 12 ming aravaga ega bo'lgan 60 mingga yaqin sipohni to'play olgan. Qo'qon xonligi 15 beklikga bo'lingan. Ularning yarmidan ko'pini xonning farzandlari yoki yaqin qarindoshlari boshqarishgan<sup>401</sup>.

Harbiy- ma'muriy amaldorlar uchun saroy xazinasidan belgilangan tartibda yillik maosh va "tanxo", "tarxon", shaklidagi yer-mulklar berilgan. Harbiy yurishlar paytida qo'lga kiritiladigan o'ljaning bir qismi ham muayyan tartibda ularga berilgan<sup>402</sup>.

Hunarmandchilik tarmog'ini texnikasi qoloq, oddiy va unda ishlab chiqarilgan mahsulotlarning miqdori aholi ehtiyojini yetarli darajada qondira olmagan. Qo'qon, Marg'ilon va Namangan shaharlarida ip va ipak matolar (atlas, shoyi, beqasam, adras, chit, bo'z va b.) to'qilgan.

Yer osti boyliklaridan neft, oltin, kumush, mis, rux, temir. Qo'rg'oshin, va boshqalar ma'lum miqdorda qazib olingan. Qo'qon xonligi, asosan, Buxoro va Xiva xonliklari, Eron, Afg'oniston. Hindiston. Qashqar, Xitoy va Rossiya bilan savdo- sotiq qilgan. Qo'qon xonligidan chet davlatlarga quritilgan chet davlatlarga quritilgan mevalar, jun teri, ipak, gilam. Paxta va ipak matolar chiqarilgan. Tashqi matolardan esa turli metall rudalari, metall buyumlar qand va boshqa mahsulotlar keltirilgan<sup>403</sup>.

Xonlik hududida suv manbalarining yetarli ekanligi dehqonchilikda yuqori hosil olishga asos bo'lardi. Ekinlar yetishtirish butun O'rta Osiyo mintaqasiga xos bo'lib, donli ekinlar yetishtirish (g'allachilik, jo'xori) polizchilik, bog'dorchilik, sabzavotchilik. Sholikorlik anchagina yaxshi rivojlangan edi. XIX asrga kelib xonlikda paxta maydonlari ham to'xtovsiz kengayib bordi. Paxtaning asosiy xaridori Rossiya edi<sup>404</sup>.

<sup>401</sup> Мусаев Н.У., Азимов Х.И. Ўзбекистон тарихи. Ўқув қўлланма. Тошкент. 2013.-Б.146.

<sup>402</sup> Сағдуллаев А.,Аминов Б.,Мавлонов Ў.,Норкулов Н. Ўзбекистон тарихи: давлат ва жамият таракқиёти. -Т.: "Академия",2000.-Б.227.

<sup>403</sup> Бобобеков Х.,Каримов Ш.,Содиқов М.,Усмонов Қ., Холбоев С., Шамсутдинов Р.Ўзбекистон тарихи. Қисқача маълумотнома. "Шарқ". Тошкент.2000.-Б.150-151.

<sup>404</sup> Сағдуллаев А.,Аминов Б.,Мавлонов Ў.,Норкулов Н. Ўзбекистон тарихи: давлат ва жамият таракқиёти. -Т.: "Академия",2000.-Б.227.

Qo'qon, Marg'ilon, Andijon, Toshkent, Chimkent, O'ratepa va boshqa shaharlar yirik savdo markazlari sifatida nom chiqargan edilar. Shaharlar va qishloqlar iqtisodiy savdo munosabatlar mamlakatda ichki savdoning taraqqiyotini belgilovchi asosiy omil edi. Yirik shaharlarda ixtisoslashgan bozorlar, ko'plab karvon-saroylar bo'lib, ularning soni savdo-sotiq rivojini ko'rsatib turuvchi muhim belgidir. Ichki savdo munosabatlarida mahalliy mahsulotlar asosiy o'rin tutardi. Chetdan mahsulotlar ichida turli metallar, fabrika mahsulotlar (Rossiyadan), choy (Xitoy va Hindistondan) va qo'shni davlatlardan olib kelinadigan ba'zi hunarmandchilik buyumlarini aytib o'tish mumkin. Tashqi bozorga chiqarildigan mahsulotlarning asosini qishloq xo'jalik mahsulotlari (paxta, jun, ip, matolar. Quruq mevalar va boshqa mahsulot) tashkil etib, ular XIX asrdan boshlab bevosita Rossiyaga chiqarila boshlangan<sup>405</sup>.

Xonlikda oliy ta'lim beruvchi ko'pgina madrasalar shaharlarda joylashgan. Boshlang'ich maktablar xonlikning har bir yirik aholi punktida bo'lgan. Ularda arab tilida xat savodi chiqarilib, o'qish-yozish o'rgatilgan. Boshlang'ich maktablarda ham madrasalarda ham asosiy e'tibor diniy ta'lim berishga qaratilgan. Qur'on, shariat, fiqh (musulmon qonunchiligi) asoslarini o'qitish madrasalarining asosiy vazifasi hisoblanib, dunyoviy fanlar, ayniqsa, aniq fanlar taraqqiyotida bir qadar turg'unlik ko'zga tashlanadi. Dunyoviy fanlardan adabiyot, tarix, nutq, mantiq, aljabr va xandasa ( geometriya) kabi fanlar o'qitilgan. XIX asrda Qo'qonda 15 ta madrasa faoliyat ko'rsatgan<sup>406</sup>.

O'zbek adabiyoti rivojiga katta ta'sir ko'rsatgan Qo'qon adabiy muhitining shakllanishi xonlikda madaniyat taraqqiyotini belgilovchi muhim mezon bo'ldi. XIX asr boshida Qo'qon xoni Umarxonning xomiyligi Qo'qon adabiy muhitini shakllantirgan va rivojlantirgan qator talantli ijodkorlarni yuzaga chiqargan edi. XVIII asr oxiri XIX asr boshlarida Qo'qonda yashab ijod qilgan Mahmur, Gulxaniy, Fazliy, Mushrif, G'oziy. Sodiq, Xijlat, Hoziq, Xotiflar bo'lgan<sup>407</sup>. Qo'qon adabiyotining rivojiga katta hissa qo'shgan iste'dodli shoir Huvaydo (1780-1781) hisoblanadi. Uning ijodi Maxmur, Muqimiy, Furqat kabi shoirlar ijodiga katta ta'sir ko'rsatgan. Uning g'azallari

<sup>405</sup> Мусаев Н.У., Азимов Х.И. Маданиятшунослик. Ўқув кўлланма. Тошкент. 2009. -Б.179.

<sup>406</sup> Сагдуллаев А., Аминов Б., Мавлонов Ў., Норкулов Н. Ўзбекистон тарихи: давлат ва жамият тараққиёти. -Т.: "Академия", 2000. -Б.229-230.

<sup>407</sup> Мусаев Н.У., Азимов Х.И. Маданиятшунослик. Ўқув кўлланма. Тошкент. 2009. -Б.180.

"Devoni Huvaydo" to'plamiga jamlangan. Yana uning "Rohati dil" asari ham yetib kelgan. Maxmur taniqli hajvchi shoir bo'lib, uning "Hapalak", "Qozimhammad Rajab avj", "Hojiniyoz", "Munojot", "Hakim Turobiy hazor xalta", "Qozi xo'ja sakbon", "Karimqul mehtar", "Takabbur" kabi asarlari yetib kelgan<sup>408</sup>. Qo'qon adabiy muhitida o'zbek masalchiligining yirik vakili Muhammad Sharif Gulhaniy katta o'rin tutadi. Uning "Zarbulmasal" asari majoziy timsollar -yapaloq qush va boyo'g'li o'rtasidagi qudashlik mojarolari orqali turli toifadagi, har xil fe'l atvordagi tabaqalar, kishilar munosabatini, mamlakatdagi vayronagarchilikni tavsirlaydi<sup>409</sup>. Nodirabegim, Uvaysiy, Zebiniso kabi ijodkorlarning asarlari xalq orasida mashhur bo'lgan. Ular o'z asarlarida el-yurt farovonligi va obodonligini orzu qilib, xalqqa zulmni qoraladilar, hukmdorlarni insofqa, diyonatga chaqirdilar<sup>410</sup>.

#### Nazorat savollar:

1. O'rta Osiyo nima uchun xonliklarga bo'linib ketdi?
2. Xonliklar davrida nima uchun O'rta Osiyo xalqlari siyosiy va iqtisodiy jihatdan birlashmadi?
3. Shayboniylar hukmronligi temuriylar boshqaruvidan qaysi jihatlari bilan farq qiladi?
4. Nima uchun Ashtarxoniylar davrida feodal tarqoqlik kuchaydi?

#### Mavzuga oid test savollari:

1. Temuriylar davlatining inqirozi sabablari.
  - A. A. Temur tomonidan mamlakatni suyurg'ol qilib berishi.
  - B. Temuriy shaxzodalar o'rtasidagi nizolar.
  - V. Shayboniy boshliq o'zbeklarning kirib kelishi.
  - G. A, B va V.
  - D. Hammasi to'g'ri.
2. Shayboniyxon Movarounnahrni qaysi yillarda bosib oldi?
  - A. 1498 -1501y.
  - B. 1500-1501y.
  - V. 1504-1507y

<sup>408</sup> Сагдуллаев А., Аминов Б., Мавлонов Ў., Норкулов Н. Ўзбекистон тарихи: давлат ва жамият тараққиёти. -Т.: "Академия", 2000. -Б.230-231.

<sup>409</sup> Мусаев Н.У., Азимов Х.И. Маданиятшунослик. Ўқув кўлланма. Тошкент. 2009. -Б.180.

<sup>410</sup> Мусаев Н.У. Ўрта Осиёда деҳқончилик маданияти ва аграр муносабатлар тарихидан. (Тош даври охириларидан – XX аср бошларига қадар). "Фан". Тошкент. 2005. -Б.173.



- G. 1504-1508y.  
 D. To'g'ri javob yo'q.
3. Nima uchun Shayboniyxon eron shoxi Ismoil shoxdan yengildi?  
 A. Son jihatdan qo'shini kam bo'lgani uchun.  
 B. Shayboniy zodogonlari Shoyboniyxonga yordamga kelmadilar.  
 V. Ismoil shox qo'shinlari xar tomonlama kuchli bo'lgani uchun.  
 G. Shayboniyxon qo'shinida o'zaro kelishmovchiliklar bo'lgani uchun.  
 D. Hammasi to'g'ri.
4. Shayboniylardan Movarounnahrda nechta xon hukmronlik qilgan?  
 A. 10ta.  
 B. 11ta.  
 V. 12ta.  
 G. 9ta.  
 D. 13ta.
5. Shayboniyxonlar sulolasining qaysi vakili Markazlashgan davlat tuzishga muvofiq bo'ldi?  
 A. Shayboniyxon.  
 B. Ubaydullaxon.  
 V. Ko'chkinchixon.  
 G. Abdulazizxon.  
 D. Abdullaxon II.
6. Ashtarxoniylar sulolasining hokimiyatga kelish sabablari.  
 A. Abdullaxonning shayboniy avlodlarini qirib yuborganligi.  
 B. Xiva va Buxoro xukumdorlari o'rtasidagi nizolar.  
 V. Ashtarxoniylar sulolasining qarindoshligi.  
 G. Juybor xojalarining ta'siri.  
 D. To'g'ri javob yo'q.
7. Qaysi xukumdor davrida mamlakat Shayboniyxon davridagi xolga kelgan?  
 A. Ubaydullaxon.  
 B. Abu Saidxon.  
 V. Abdullaxon II.  
 G. Ko'chkinchixon.  
 D. Abdulazizxon.
8. Buxoro amirligi nechta beklilikdan iborat edi?  
 A. 19 ta.  
 B. 20 ta.  
 V. 25 ta.  
 G. 27 ta.

- D. 30 ta.
9. Hududiy jihatdan eng yirik xonlikni ko'rsating.  
 A. Buxoro amirligi.  
 B. Xiva xonligi.  
 V. Quqon xonligi.  
 G. Xiva va Buxoro.  
 D. Hammasi to'g'ri.
10. Xonliklarda hokimiyatni qaysi turi mavjud bo'lgan?  
 A. Respublika.  
 B. Konstitusion monarxiy.  
 V. Unitar davlat.  
 G. Monarxiy.  
 D. Cheklangan monarxiy.
11. Qo'qon xonligiga kim asos solgan?  
 A. Shohruhbiy.  
 B. Xudoyorxon.  
 V. Muhammad Abdurahimbiy.  
 G. Olimxon.  
 D. To'g'ri javob yo'q.
12. Amiri Ma'sum ("Begunoh amir") nomini olgan amir.  
 A. Doniyolbiy.  
 B. Shohmurod.  
 V. Haydar.  
 G. Nasrullo.  
 D. Said Muzaffarxon.
13. XVIII asrning ikkinchi yarmida Rossiya-Buxoro savdo va diplomatik aloqalarini rivojlantirishga hissa qo'shganlar.  
 A. Ernazar Maqsudov.  
 B. Polvonquli qo'rchi.  
 V. Mirzo Sodiq Munshiy.  
 G. Muhammad Sharif Shavqiy.  
 D. A va B.
14. Xorazm tarixida yirik davlat arbobi va tarixnavis ijodkor.  
 A. Isfandiyor.  
 B. Abulg'ozixon.  
 V. Elbars.  
 G. Anushaxon.  
 D. Subhonqulihon.
15. Bayoniyning qaysi asarlari Xiva xonligi tarixini o'rganishda asosiy manbalar hisoblanadi?

- A. "Shajarai Turk", "Shajarai tarokima".
- B. "Shajarai xorazmshohiy", "Xorazm tarixi".
- V. "Firdavs ul-iqbol", "Zubdat ut-tavorix".
- G. "Riyoz ud-davla", "Gulshan ul-davlat".
- D. "Jomiy' ul-voqeoti sultoni", "Shohid ul-iqbol".

### INTERAKTIV METOD (Aqliy hujum)

Talabalarni Ikki guruhga bo'lib savollar beramiz

1 guruh

1. Shayboniyxon qachon Movarounnahr hududlariga yurish qildi?
2. Zaxriddin Muhammad Bobur qachon Shayboniyxon bilan to'qnash keldi?
3. Shayboniyylar sulolasi qancha vaqt xuqumronliq qildi?
4. Shayboniyylar sulolasi vaqillaridan qaysi xonlar mamlakatni birlashtirish uchun kurash olib bordi?
5. Ashtarxoniylar qanday xuqumronliq qildilar?
6. Nima uchun iqtisodiy tushqunliqqa yuz tutdi?
7. Xiva xonligi qachon tashkil topdi?
8. Qo'qon xonligining vujudga kelishi xaqida gapiring?
9. Xiva xonligida qo'ng'irotlar sulolasining huqumronligi xonligidagi ijtimoiy siyosiy ahvoli haqida gapiring.
10. Xonliklarning Rossiya bilan munosabatlari haqida gapiring.

2 guruh

1. Temuriylardan kimlar shayboniyxonlarga qarshi qurash olib bordi?
2. Nima uchun shayboniyxon Movarounnahr yerlarini bosib olishga muvofiq bo'ldi?
3. Shayboniylarning davlat boshqaruv tizimi qanday edi?
4. Nima uchun Ashtarxoniylar sulolasi xoqimiyatga keldi?
5. Ashtarxoniylar sulolasi davrida Buxoro xonliqlarini ijtimoiy siyosi axvoli qanday edi?
6. Turkistonning xonliqlarga bulinib ketish sabablarini ayting.
7. Buxoro Amirligiga qaysi sulola asos soldi?
8. Buxoro amirligidagi ijtimoiy siyosiy axvolini so'zlab bering.
9. Quqon xonligining XVIII-XIX asrning birinchi yarmidagi ijtimoiy siyosiy axvoli xaqida gapirin.


10. O'zbek xonliqlarining ilg'or Yevropa mamlakatlaridan texnikadan orqada qolish sabablarini ayting.


Shu tarzda takliflar berilgandan so'ng muxokama qilinib o'qituvchi mustahkamlab boradi va ta'lim texnologiyasi yordamida darsni mustahkamlaydi.

### "VENN DIAGRAMMASI" STRATEGIYASI


Strategiya talabalarda mavzuga nisbatan tahliliy yondashuv, ayrim qismlar negizida mavzuning umumiy mohiyatini o'zlashtirish (sintezlash) ko'nikmalarini hosil qilishga yo'naltiriladi. U kichik guruhlarini shakllantirish asosida aniq sxema bo'yicha amalga oshiriladi. Yozuv taxtasi o'zaro teng to'rt bo'lakka ajratiladi va har bir bo'lakka quyidagi sxema chiziladi:

### "VENN DIAGRAMMASI" STRATEGIYASI





Strategiya talabalar tomonidan o'zlashtirilgan o'zaro yaqin nazariy bilim, ma'lumot yoki dalillarni qiyosiy tahlil etishga yordam beradi. Undan muayyan bo'lim yoki boblar bo'yicha yakuniy darslarni tashkil etishda foydalanish yanada samaralidir.  
 Uni qo'llash bosqichlari quyidagilardan iborat:



Guruhlar	Diagrammaning tartib raqami	Topshiriqlar mazmuni
1-guruh	1-diagramma	Buxoro amirligi haqida ma'lumot bering
	2-diagramma	Xiva xonligi haqida ma'lumot bering
	3-diagramma	Qo'qon xonligi haqida ma'lumot bering
2-guruh	1-diagramma	
	2-diagramma	
	3-diagramma	
3-guruh	1-diagramma	
	2-diagramma	
	3-diagramma	

## GLOSSARIY

**AVORIJA** (arab.)- soliq olinadigan joylarning ro'yhati. Bu atama ayniqsa somoniylar davrida nihoyatda mashhur bo'lgan. XVII-XVIII asrlarda Buxoro xonligida soliq to'laydigan joylarning ro'yxati ham shu nom bilan yuritilgan.

**ADNO** (arab. – eng past) 1) XIX-XX asr boshlarida Xiva xonligida 5 tanobgacha yeri bo'lgan pastki tabaqadagi dehqonlar. 2) Madrasa talabalarining boshlang'ich o'quv guruhi.

**ADRA** – Xiva xonligida sug'orilmaydigan yerlar.

**AJZCHI** – Amir Temur va Temuriylar davrida harbiy safarga o'tlangan qo'shinni mashaqqatli joylardan olib o'tish maqsadida mahalliy aholi ichidan tanlab olingan yo'l ko'rsatuvchi.

**AYL** – Amir Temur qo'shinida o'n kishilik harbiy bo'linma.

**AMLOK** (Arab.)- 1. XVI-XX asr boshlariga qadar O'rta Osiyo xonliklarida mavjud bo'lgan davlatga qarashli yer egaligi; Mulk, yer-suv, kishi tasarrufidagi narsa va buyumlar amlok deyiladi; 2. Buxoro amrligida soliqni taqsimlash birligi hisoblangan. 3. XVI-XX asr boshlarida Buxoro va Qo'qon xonliklarida mavjud bo'lgan yer egaligining bir turi bo'lib, davlat oldidagi xizmatlari uchun shaxzodalar, lashkarboshilar va amaldorlarga inom qilingan yer-suv amlok deyiladi.

**AMLOKDOR** (arab.)- Buxoro amrligiga qarashli eng kichik bo'linma – amlokni boshqaruvchi kishi. Amlokdor boy tabaqa vakillaridan bo'lib, bek tomonidan tayinlangan. Amlokdorga bir necha qishloq qaram bo'lgan. Amlokdor qo'lida kotib, mirob, amin, oqsoqollar xizmat qilganlar. Amlokdorlar o'z yerlarini dehqonlarga ijaraga berganlar. Amlokdorlar xiroj yig'ish, dehqonlar yetishtirgan hosilni hisobga olish, soliq to'lamaganlarni jazolash, jarima solish kabi ishlar bilan shug'ullanganlar.

**ANUSHTEGINIYLAR** – xorazmshohlar davlatini boshqargan sulola. Saljuqiylarning Xorazmdagi noibi Anushtegin (? - 1097) nomidan olingan. Anushteginning vorislari Xorazmni mustaqil davlatga aylantirib, 1097-1231 yillarda Anushteginiylarning qudrati shu darajada ortdiki, xatto ular endi "xorazmshoh" degan unvonni ep ko'rmay, o'zlarini "sulton" deb atay boshladilar. Sulola vakillari: Qutbiddin Muhammad (1097-1127), Otsiz (1127-1156), El Arslon (1156-1172), Takash (1172-1200), Muhammad (1200-1220), Jaloliddin (1220-1231).

**ARZBEGI** (arab.) Amir Temur davrida dargoxdagi muhim vazifalardan biri. U dargoxga arz-dod, shikoyat bilan kelganlar hamda mamlakatda sodir bo'layotgan voqealarga o'z munosabatini bildiruvchilarni qabul qilishni uyushtirish, tushgan ariza, shikoyat, taklifnomalarni oliy xukmdorga yetkazib turishga ma'sul hisoblangan.

**ARK** – qadimgi davr, o'rta asrlarda hamda so'nggi davrda O'rta Osiyo hududida shaharlarning hokimlar joylashgan ichki mustahkamlangan qismi – "o'rda", sitadel. Yozma tarixiy manbalarda ko'xandiz, diz, koh, qasr, qal'a, hisor nomlari bilan ham tilga olinadi. Arkda asosan hukumat idoralari, amaldorlarning uylari, devonxona, tanga zarb qiladigan zarbxonalar ark ichida bo'lgan. Odatda ichki shahar – ark ham mudofaa devori bilan o'rab olingan.

**ASHTARXONIYLAR.** Movarounnahmi idora qilgan sulola (1601-1756yy.) 1556 yilda Astraxan (Xoji tarxon) xonligi Rossiya tomonidan bosib olingach, Jo'jixon nasliga mansub bo'lgan Astraxan xoni Yormuhammad o'z oila a'zolari va qarindoshlari bilan Buxoroga keladi. Buxoro xoni Iskandar Yormuhammad va uning hamrohlariga o'z mamlakatidan boshpana va Yormuhammadning o'g'li Jonibek sultonga o'z qizi Zuhrani xotinlikka beradi. Shu nikohdan uch o'g'li (Dinmuhammad, Boqimuhammad, Valimuhammad) dunyoga keladi. Buxoro xoni Abdulmo'min o'ldirilgandan so'ng, shayboniylar naslidan valiaxd yo'qligi uchun Jonibekning o'g'li Boqimuhammad xon taxtiga keladi. Shundan so'ng Buxoro xonligida ashtarxoniylar sulolasining xukmronligi boshlangan.

**BANOKAT** (Sharqiya, Shohruhiya ham deb atalgan) – Sirdaryoning o'ng sohilida, Ohangaron (Iloq) daryosining Sirdaryoga qo'shilish joyidagi karvon yo'li yoqasida joylashgan qadimiy shahar xarobasi (I-XVIII asrlar). Tadqiqotlarga ko'ra, dastlab (I a.) uning mudofaa devorlari bo'lmay, atrofdagi daryo va jarliklar tabiiy mudofaa vazifasini bajargan. Ilk o'rta asrlar (V-VI a.) da burjli mustahkam mudofaa devori bilan o'ralgan. XII-XIII asr boshlarida shahar yanada kengaygan. Mo'g'ullar istilosi davrida Banokat vayron bo'lgan. 1392 yilda Amir Temur Banokatni qayta tiklab, o'g'li Shohrux sharafiga Shohruhiya deb atagan. O'zaro urushlar oqibatida XVIII asr boshlarida vayron bo'lgan.

**BARANG'IR**, barang'or, burong'or (turkiycha – o'ng) – qadimgi turk-mo'g'ul xalqlari hayotida ishlatilgan harbiy-ma'muriy tushuncha. 1) Chingiziylar saltanati barpo etilguniga qadar mo'g'ullar mamlakati o'ng qanot – barang'ir va so'l qanot – juvang'arga taqsimlangan. Chingizxon saltanatida ham bunday bo'linish saqlangan. Jo'ji ulusi ham o'ng va chap qanotlarga bo'lingan. O'ng qanot – Oq O'rda Botu va Shaybon, so'l qanot

Ko'k O'rdada Jo'jining katta o'g'li O'rdaga tegishli mulklardan iborat bo'lgan; 2) Amir Temur va Temuriylar, o'zbek xonliklari davrida qo'shinning o'ng qanoti.

**BARGUSTIVON** – qadimda jangovor otlarning ustiga yopiladigan yopinchiq, himoya vositasi.

**BARLOS** (turkiy) – O'zbek xalqi tarkibiga kirgan yirik urug'laridan biri bo'lib, sohibqiron Amir Temur ham shu urug'ga mansub bo'lgan. Temuriylar davrida bu urug'dan bek va amirlar yetishib chiqqan.

**BAXSHI** (mo'g'ulcha va buryatcha – baxsha, bag'sha – ustod, ma'rifatchi) – xalq dostonchiligi. Qo'shiq va dostonlarni yoddan kuylovchi, aytuvchi, avloddan-avlodga yetkazuvchi san'atkor.

**BAQQOL** (arab. – ko'katfurush, sabzavotfurush, g'allafurush) – o'rta asrlarda bozor, guzar va mahallalardagi do'konchalarda mayda-chuyda ro'zg'or mollari, kundalik yegulik oziq-ovqat maxsulotlarini sotuvchi mayda savdogar.

**BEGOR** – O'rta Osiyoda o'rta asrlarda mavjud bo'lgan majburiy ishlab berish majburiyati bo'lib, mehnatkash xalq xon va mahalliy hukmdorlar tarafidan davlat va feodallarning turli qurilishlarida tekinga 12 kunlik ishlab berish majburiyati (hashar). Begor O'rta Osiyo va Eronda VIII asrdan, Hindiston va Afg'onistonda esa X asrdan mavjud. Begor majburiyati XVIII-XIX asrlarda ham bo'lgan. Begorni o'rta asr yevropasidagi barshchinaga qiyoslash mumkin.

**BEKLARBEGI** (turk.) O'rta Osiyoda mavjud bo'lgan yuqori ma'muriy unvon va lavozim. Viloyat, katta shahar hokimlari ana shu unvonga ega bo'lishgan. Bu unvon ko'chmanchi xalqlar orasida ko'p ishlatilgan. Beklarbegi lavozimi O'rta Osiyoda XIX asr oxirigacha shakllangan. Beklarbегining asosiy vazifasi soliq va turli boshqa feodal 14 majburiyatlarning o'z vaqtida to'lanishini ta'minlash, xon farmonlarini amalga oshirish, tegishli masalalarni biy, otaliq, oqsoqollar kengashi bilan kelishib xalq etish bo'lgan. Beklarbegilar qo'l ostidagi viloyatlarga alohida vazir, shayxulislom, sadr kabi mansablar ham bo'lib, ular bevosita beklarbegiga bo'ysunganlar.

**BOTMON** (turk.) Sharq mamlakatlari, jumladan, O'rta Osiyoda qadimgi davr va o'rta asrlarda mavjud bo'lgan og'irlik o'lchov birligi. Botmon turli davrlarda, turli joylarda miqdori o'zgarib turgan. Jumladan, XIX asrda bir botmon Xivada 20,16 kg dan 40,95 kg gacha, Buxoro va Samarqandda -8 pud, ya'ni 131,44 kg, Farg'onada -8-10 pud, ya'ni 131,44 kg dan 163,800 kggacha, Toshkentda -10,5 pud, ya'ni 171,99 kg ga teng bo'lgan. Shuningdek, O'rta Osiyoda botmon yer o'lchovi sifatida ham qo'llanilgan, ya'ni bir botmon og'irlikdagi bug'doy sepilishi mumkin

bo'lgan yer bir botmon hisoblangan. Bu taxminan bir gektaga teng sotx o'lchov belgisi bo'lgan.

**BUXORO XONLIGI** – Temuriylar davlatining inqirozidan boshlab Vatanimiz tarixining Xonliklar davri boshlandi. Buxoro xonligi rasman 1510 yildan 1920 yilgacha mavjud bo'ldi. Buxoro xonligida uchta sulola hukmronlik qildi. Bular: Shayboniylar sulolasi (1510-1601), Ashtarxoniylar sulolasi (1601-1753) va Mang'itlar sulolasi (1753-1920). Shayboniylar va Ashtarxoniylar sulolasidan chiqqan hukmdorlar nasl-nasabi jihatidan Chingizxon (1151-1227) ning uzoq avlodlari hisoblanardilar. Shuning uchun ham ular "xon" unvoni bilan yuritilganlar. Buxoro poytaxt qilib belgilanishi tufayli davlatning rasmiy nomi tarixiy adabiyotlarda Buxoro xonligi nomini oldi. Mang'itlar sulolasi mahalliy qabilalardan chiqqan bo'lib, Chingizxonga qarindosh hisoblanmas edi. Shuning uchun ham sulola vakillari o'zlarini "xon" emas, balki "amir" deb atadilar. Davlatning rasmiy nomi ham Buxoro Amirligi deb yuritildi. Oxirgi Buxoro amiri 1920 yilda taxtdan ag'dariladi.

**BUYUK IPAK YO'LI** – G'arb bilan Sharqni bir necha asr mobaynida bir biriga bog'lab kelgan yo'llardan biri bo'lib, bu yo'l fanga 1877 yilda nemis olimi K.Rixtgofer tomonidan shunday nom bilan kiritildi. Unga qadar bu yo'l "G'arbiy meridional yo'l" deb atalib kelinardi. Buyuk Ipak yo'li 12 ming km. uzunlikda bo'lib, u Sariq dengiz sohillaridan boshlanib, Sharqiy Turkiston, Markaziy Osiyo, Eron, Mesopotamiya, Suriya orqali O'rta yer dengizi sohillarigacha davom etgan.

Qadimgi va o'rta asr davlatlarining hukmdorlari Ipak Yo'lidagi savdoni o'z nozoratiga olishga doimo harakat qilishgan. I-III asrlarda Ipak yo'li savdosi Kushonlar nazorati ostida bo'lgan bo'lsa, III-VII asrlarda O'rta Osiyo va Sharq orqali o'tgan ipak yo'lining nazorati sug'diylarning qo'lida bo'lgan. VIII asrdan boshlab Ipak yo'lidagi savdo nazorati arablar qo'lga, IX-X asrlarda Somoniylar, XI-XII asrlarda qoraxoniylar, saljuqiylar va xorazmshohlar qo'lga o'tdi. XIII asrga kelib, Chingizxon ipak yo'lining barcha tarmoqlari bo'ylab nazoratni qo'lga kiritdi. Lekin bu davrga kelib Buyuk Ipak yo'lidagi qizg'in savdo-iqtisodiy aloqalarga putur yetgan edi. XIV asrning 70-yillaridan Amir Temur siyosiy hokimiyatni qo'lga olib, qudratli saltanatga asos solgach, el-yurtda barqarorlik ta'minladi. Buyuk Ipak yo'lidagi savdo-iqtisodiy aloqalar yangidan rivojlanish pallasiga kirdi.

Buyuk ipak yo'lining nufuzi XVI-XVII asrlarga kelib pasaya boshladi. Buyuk geografik kashfiyotlar tufayli savdo-sotiq quruqlik orqali emas, suv yo'li orqali amalga oshirila boshlandi. Chunki dengiz orqali savdo ancha xavfsiz bo'lib, bundan tashqari Osiyo mamlakatlaridagi o'zaro urushlar va



siyosiy beqaror vaziyat ham Buyuk ipak yo'lining inqiroziga sabab bo'lgan.

Ipak yo'li birgina iqtisodiy ahamiyat kasb etmay, balki u diniy, madaniy meros yutuqlarini tarqatuvchi, mamlakatlararo diplomatik aloqalarni ta'minlovchi yo'l ham edi.

**VASSAL** – 1) Ilk o'rta asrlarda G'arbiy Yevropada xo'jayin(senior, feodal)ga qaram bo'lgan xizmatkor (dehqon); 2) XIX asrning ikkinchi yarmi-XX asr boshlarida bir davlat tomonidan ikkinchi davlatni siyosiy jihatdan o'ziga to'la qaram qilib olib, u yerda o'z siyosatini yurgizish vassallik deb atalgan. Masalan: 1868 yilda Chor Rossiyasi Buxoro Amirligini, 1873 yilda Xiva xonligini bosib olgach, imzolangan shartnomaga ko'ra bu ikkita xonlik Rossiyaning vassaliga aylantirilgan.

**VAQF** (arab. – to'xtash, pauza) – o'rta asrlarda masjid, mozor, xanaqo, madrasa va maqbaralar uchun ajratilgan yerlar. Bunday yerlar musodara etilgan, davlat hamda yirik yer egalari tomonidan hadya etilgan yerlar hisobiga vujudga keltirilgan edi. Masjid, madrasa, qabristonlarning asosiy sarf-xarajatlari, shuningdek, talaba, mudarris hamda mutavallilarga beriladigan nafaqa va maoshlar hammasi vaqf yerlaridan olinadigan daromad hisobidan qoplanar edi. Vaqf mulklarini mutavallilar boshqarganlar.

Hozirda O'zbekistonda vaqflar tugatilgan. Ammo xorijiy Sharqdagi barcha musulmon mamlakatlarida hozirgacha vaqf mavjud.

**VAQFI-DAHYAK** – Davlat hazinasi uchun soliq undiriladigan vaqf yerlari

**VAQFI-HOLIS** – soliqlardan ozod qilingan vaqf yerlari

**DAVODOR** (ing.) XIV – XV asrlarda Temur va temuriylar davlatida mavjud bo'lgan kichik darajadagi amallardan bo'lgan. Davodor lavozimi asosan Sultonning maxsus kotibi vazifasiga teng keladigan mansab bo'lgan.

**DARRA** – 1) XX-asr boshlarigacha Turkistondagi xonliklarda tan jazosiga hukm qilinganlarni jazolash uchun ishlatilgan kamchining bir turi. Eni 4-5 sm li 2-3 qavat qayish tasmadan tikilib dastasi yog'ochdan ishlangan. Badanga qattiqroq tegishi uchun tasmalar orasiga qum solib tikilgan; 2) bolalar va o'smirlar o'rtasida o'tkaziladigan darrasoldi o'yinida ishlatish uchun eshib, ikki qavat qilib buralgan belbog' yoki ro'molcha.

**DASHTI QIPCHOQ** (lot.)- Sirdaryoning quyi oqimi hamda Balxash ko'lidan Dnepr daryosining quyi oqimlarigacha bo'lgan hududlarning XI-XVI asrdagi nomi Bu yerlarda ko'chmanchi qipchoq qabilalari yashagani uchun u yerlar shunday (deb atalgan. Dashti qipchoq atamasini dastlab Nosir Xusrav (1003-1088yy.) qo'llagan.Shu davrdan boshlab arab va fors

tillaridagi asarlarda bu atama keng qo'llanilgan. Dashti qipchoq ikki qismdan:1. Sharqiy qism- Yoyiq daryosidan Sirdaryoning quyi oqimi va Balxashgacha bo'lgan yerlar; 2.G'arbiy qism -ya'ni Yoyiq va Volgadan to Dneprgacha bo'lgan yerlardan iborat bo'lgan. Dashti qipchoqning bir qismini XIII asrning 20-yillarida Jaba Nuyon va Subutay baxodir boshchiligidagi mo'g'ullar bosib olgan. 1239 yili Dashti qipchoqni Chingizxonning nabirasi Botuxon egallaydi. Va bu ulkan hududda tarixda Jo'chi ulusinomi bilan mashxur bo'lgan Oltin O'rda davlati tashkil topadi. XIV asrning boshlarida Jo'chi ulusi ikki qismga bo'linib ketadi. Dashti qipchoqning sharqiy qismida Oq o'rda davlati tashkil topdi. XIV asrning 60- yillaridan boshlab Dashti qipchoqning sharqiy qismidagi bu Oq O'rda davlati tarixiy manbalarda "o'zbeklar mamlakati" deb, uning aholisi esa "o'zbek"lar, aniqrog'i, "Dashti qipchoq o'zbeklari" deb atala boshladi. XV asrning 20-yillaridan boshlab, sharqiy Dashti qipchoqni asta- sekin Abdulxayrxon egalladi va u bu hududda ko'chmanchi o'zbeklar davlatiga asos soldi. Abdulxayrxon vafotidan keyin (1468 yil) Dashti qipchoqda uning avlodlari va qarindoshlari hukmronlik qildilar. Dashti qipchoqning asosiy aholisi ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi bo'lib, chorvachilik va ovchilik, daryo va ko'l bo'ylaridagi aholi esa dehqonchilik, shaharlardagi aholi esa hunarmandchilik va savdo bilan shug'ullangan.

**DEVORZAN** – paxsakash, loy va g'ishtdan devor uruvchi.

**DEVONBEGI**(Fors.)- devon boshlig'i. O'rta asrlarda soliq yig'uvchi muassasa boshlig'i bo'lib, keyinchalik unga mamlakatning barcha moliya ishlari yuklatilgan.Buxoro amirligida devonbegi turli davlat ishi sohalari bo'yicha devonlar hamda viloyatlardagi devonlarni boshqargan. Qo'qon xonligida devonbegi biror viloyat xokimi ixtiyorida bo'lib,chetdan keladigan savdo karvonlaridan boj to'plagan. Xiva xonligida esa devonbegilar ko'p bo'lib, ular elchilik, yasovullik va boshqa ishlarni boshqargan.

**DEGREZ** (toj. "deg" – qozon, "rez" – quymoq fe'lining hozirgi zamon o'zagi) – cho'yandan qozon quyuvchi usta-xunarmand.

**DEYGISH** – daryoning o'z qirg'og'ini to'satdan yuvib ketishi. Bu asosan Amudaryo uchun xos.

**DORUG'A** (mo'g'ul)- ushbu atama ikki xil ma'noni anglatadi. 1. Xokim. Mo'g'ullar, temuriylar va shayboniylar xukmronligi davrida dorug'alar, shahar xokimi bo'lishgan. Ularning zimmasiga viloyat va shaharni idora qilish, aholi ro'yhatini olish, uni hisob-kitob qilish va ulardan soliq undirish vazifalari yuklangan; 2. Mirshablar boshlig'i. So'nggi feodalizm davrida O'rta Osiyo xonliklarida mirshablar boshlig'i dorug'a deb yuritalgan.

**YERGA EGALIK** – yer egalarining tegishli huquq va majburiyatlarini shart qiluvchi yuridik asoslarga muvofiq yuridik yoki jismoniy shaxslar tomonidan belgilangan yer maydonini haqiqiy egallash; xo‘jalik muomalasi va bozor mexanizmi bilan birgalikda ishlab chiqarishning muhim vositalaridan biri sifatida yerni tasarruf qilish shakli.

**YOBU**, Jobu – o‘zbek urug‘i. Yobular qozoqlar tarkibida ham bo‘lgan. Tarqoq holda Zarafshonning o‘rta va quyi oqimida, Qarshi cho‘lida yashaganlar. Chorvachilik va dehqonchilik bilan shug‘ullanishgan. Yobu avlodlari o‘zbek xalqi tarkibiga singib ketganlar.

**YOVAR** – Qo‘qon xonligida yuz jangchidan iborat to‘pchi qism qo‘mondoni. Ushbu harbiy unvon egasi xirojdan ozod etilgan.

**YOM**, jom (mo‘g‘ulcha – yo‘l) – o‘rta asrlarda taxminan bir kunlik yo‘lda elchilar va choparlar to‘xtab o‘tishi uchun qurilgan bekat. Bu yerda qo‘noqlarga oziq-ovqat, tunash uchun joy, ot-ulovga yem xashak berilgan. Jo‘nab ketish oldidan otlari almashtirib ham berilgan. Yomlar XIII asrda tashkil etilgan. Yom xizmatchisi yomchi deb atalgan.

**YOSOL** – qo‘shin safi. Yosol tuzish-qo‘shinni yurish, ko‘rik yoki jang oldidan safga tizish.

**JAYXUN** (forscha “jay” – xovuz, suv ombori, sug‘orish kanali, “xun” – qon, qizil) – qizil daryo, yoki qizil suv. Amudaryoning o‘rta asrlardagi nomi. Ba‘zi tadqiqotchilar bu so‘zni Tavrotdagi Gixon daryosi nomining arabcha izohlanishidir deb hisoblasalar boshqalari forscha “justan” (“izlanmoq”) va “xun” (“qon”) so‘zlaridan kelib chiqib “Qon izlovchi” daryo tarzida ham talqin qiladilar. Jayxunning qadimiy nomi O‘kuz (turkiycha; katta daryo) qadimgi yunonlar uni buzib Oksus (Oks) deb ataganlar.

**JALLOB** – savdogar, olib sotar. Asosan, chorva mollari, shuningdek tuya va yilqi bilan savdo qilgan.

**JAND** – Hozirgi Qizil O‘rdadan quyiroqda Sirdaryoning so‘l qirg‘og‘ida joylashgan o‘rta asr shahari.

**JARIB** – o‘rta asrlarda amalda bo‘lgan yuza, hajm, og‘irlik va yer o‘lchov birligi. Sharq mamlakatlarida, jumladan O‘rta Osiyoda VII asrdan boshlab qo‘lanilgan. Yuza o‘lchov birligi sifatida bir jarib bir tanobga teng: 1J.=1 tanob = 3600 kv.gaz.

Og‘irlik o‘lchov birligi sifatida turli joyda jaribning miqdori turlicha VII-IX asrlarda 1 jarib – 22,825 kg, X-asrda esa 32,5 - 108,3 kg oralig‘ida bo‘lgan.

**ZAKOT** (arab.) – islom dinining besh asosiy talablaridan biri bo‘lib, mol-mulk va daromaddan beriladigan sadaqa, xayr-exson, soliq. Shariatga muvofiq, muayyan boylikka ega bo‘lgan katta yoshdagi musulmon zakot

beradi. Zakot miqdori pul daromadlarining qiriqdan bir ulushiga teng. Dehqonlar va cho‘ponlardan olingan zakot miqdori birmuncha yuqori bo‘lgan. Zakot kambag‘allar, yetim- yesirlar, kasallar va xech kimi yo‘q ayollar o‘rtasida taqsimlanishi lozim bo‘lgan.

**IZOFA** – Amir Temur qo‘shinining zahira (rezerv) qismi.

**IXROJOT** – Buxoro xonligi (Shayboniylar) davrida davlat muassasalari, qo‘shin va xon xonadoni xarajatlarini qoplash uchun to‘lanadigan soliq.

**IQTO** ( arab.)- o‘rta asrlarda Yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlarida xukmdor tomonidan feodalga katta xizmatlar evaziga inom qilingan chek yer.Odatda, iqto umrbod berilmay, xukmdor uni istagan vaqtida olib, boshqa kishiga tortik qilish mumkin bo‘lgan. Iqto haqidagi ma‘lumotlar VII asr oxiriga mansub arab manbalarida uchraydi. IX asrga kelib xalifa tomonidan arab amiriga idora qilish uchun berilgan viloyatlar ham iqto deb atala boshlagan. Amir o‘zi hukmronlik qilayotgan ushbu viloyatlar solig‘ini butunlay yoki qisman o‘zlashtirish huquqiga ega bo‘lgan. Iqto yerlari davlat mulki hisoblangan. Lekin IX asrdan boshlab yer egasining xususiy mulkiga aylana boshlagan. Temuriylar davridagi iqto o‘rnida “tiyul” va “suyurg‘ol”, boburiylar saltanati davrida esa “jog‘ir” atamaları qo‘llanilgan.

**KITOBA** – binolar bezagida ko‘pincha peshtoq tepasiga, eshiklarning tepa qismiga bitilgan yozuvlar qatori. Unda hikmat yoki tarix (sana), ba‘zan ustalarning ism-shariflari bitilgan bo‘ladi.

**KITOBODOR** – Buxoro amirligida amir kutubxonasi va barcha viloyatlar kitobdordlari boshlig‘i.

**LAVVOH** – qo‘lyozma kitob sahifalariga jilo beruvchi usta, rassom.

**LAVH** (arab. – taxta) – 1) o‘rta asr maktablarida talabalar savod chiqarish uchun ishlatgan yozuv taxtasi; 2) o‘qish vaqtida ustiga kitob, nota ochib qo‘yiladigan maxsus kursicha (taglik). Samarqanddagi Bibixonim masjidining hovlisida, Toshkentdagi temuriylar tarixi davlat muzeyida marmardan ishlangan katta lavh bor.

**MUBOSHIR** (arab. – ish yurituvchi) – biror ishga boshchilik qiluvchi, boshqaruvchi, boshliq. 1) Somoniylar va saljuqiylar davrida amir va sultonlarning ishonchli kishisi; 2) XVII-XVIII-asrlarda Buxoro xonligida markaziy davlat idorasining moliya devonidagi amaldor.

**MUHRKANLIK** -Muhr yasash kasbi. Muhrkanlik qadimdan O‘rta Osiyoda keng tarqalgan. Amir Temur saroyida Buxoro, Qo‘qon va Xiva xonligi saroylarida va boshqa joylarda muhrkanlik ustaxonalari bo‘lgan.Muhrkanlar xonlikdagi turli idora va muassasalar hamda amaldorlarning muhrlari tayyorlangan.

**NUMIZMATIKA** (lot. numisma – tanga) – tangashunoslik fani. Qadimiy tangalardagi belgi-rasmlar, tasvirlar, tamg'alar va yozuvlar orqali ijtimoiy-siyosiy tarixning ayrim jihatlarini o'rganuvchi tarixning yordamchi fan sohasi. Numizmat – tanga va nishonlarni yig'uvchi numizmatika fanining mutaxassisi.

**NOZIR** (arab. – nazoratchi) – 1) O'rta Osiyo xonliklarida saroy ta'minoti va uning xarj qilinishini nazorat qilib turuvchi mansabdor; 2) XX asr boshlarida Buxoro va Xorazm Xalq Respublikalarida (1920-1924 y.y.) savdo, sanoat, harbiy va boshqa sohalar bo'yicha xalq nozirlari tayinlangan bo'lib, ular o'sha soha bo'yicha ishning borishiga javobgar hisoblanganlar.

**OTAR** – yaylovda qo'shib boqish va saqlash uchun shakllantirilgan qo'y podasi. Otar uchun jinsi, yoshi, nasldorlik xususiyatlari bo'yicha bir xil zotli qo'ylar, sovliqlar esa qochirish muddatlarini hisobga olgan holda olinadi.

**OHUN** – oliy unvonli madrasa o'qituvchisi (mudarrisi).

**PESHTOQ** – madrasa, masjid, maqbara, karvonsaroy va boshqa jamoat binolarining old tomoni – kirish qismi. Peshtoq binoning hashamatli baland, bezakdor me'moriy bo'lagi bo'lib, odatda bino devori sathidan biroz bo'rttirib chiqariladi. Asosiy o'rnini markaziy ravoq, uning ikki yonidagi dahanasi va tepasidagi ikki uchburchak qanos va kitoba tashkil etadi.

**RAVOQ** – toqning bir turi; bino devorlaridagi deraza va eshik o'rinlarining yuqori qismiga qo'yiladigan mehrobii yoysimon qurilma.

**RIBO** (arab. – sudxo'rlik) – pulga foyda (foiz) olish; sudxo'rlik. Ilk islomda savdo qilish va u orqali foyda ko'rish rag'batlantirilgani holda, pulga evazsiz foyda olish qat'iyani taqiqlangan va bu ta'qiq Qur'onda ham o'z ifodasini topgan (Baqara surasi, 275-276 oyatlar). Hozir ham musulmon mamlakatlaridagi bank va moliya ishlarida unga amal qilinadi.

**SALG'UT** – Xiva xonligidagi asosiy soliq turi – yer solig'i.

**SANAD** – Samarqanddagi Ulug'bek madrasasida kamida 15-16 yil tahsil olib, uning dasturi bo'yicha fanlarni to'la o'zlashtirgan va imtihonli saboqlarda o'z bilimini namoyish eta olgan tolibi ilmlarga beriladigan shahodatnoma.

**SOHIBQIRON** (arab.) – Quyosh tizimidagi katta sayoralardan ikkisining bir- birini to'sishi paytida tug'ilgan odam. Rivoyatlarga qaraganda, Amir Temur ikki sharofatli yulduz -Zuhro va Mushtariy sayoralari bir-birlariga yaqinlashgan paytda tug'ilgan ekan. Sohibqiron so'zining asl ma'nosi – bahtli podshoh, -qudratli podshoh demakdir.

2. Sharq mamlakatlarida obro'li g'olib podshohlariga berilgan unvon. O'rta Osiyoda dastlab Amir Temurga shunday unvon berilgan.

**SUYURG'OL** - (mo'g'ulcha — in'om, sovg'a) — biror hukmdor (xon, sulton, shoh) tomonidan saltanat oldida alohida xizmat ko'rsatgan arkonni davlat yoki sarkardalarga va shahzodalarga berilgan inom. O'rta Osiyoda Suyurg'ol Amir Temur hukmronligi davrida (1370-1405) keng tus olgan.

**TASHTXONA** – O'rta asrlarda podshohlar saroyida idish-tovoq va boshqa mehmondorchilik anjomlari saqlanadigan xona.

**TUG'RO** (turkiycha) – Sharq mamlakatlarida podshoh va xonlarning farmonlari boshida ularning unvoni – nom va amallarini ko'rsatuvchi maxsus bezakli yozuv, ramziy belgi, sarlavha o'rnidagi so'z, jumlaning bezak sifatida yozilishi.

**TO'LG'AMA** – dushman qo'shinlarining qanotini aylanib o'tib, orqadan hujum qilish jang uslubi. O'rta asrlarda mo'g'ul va turkiylar, xususan Shayboniyxon boshliq ko'chmanchi o'zbeklar temuriylar bilan bo'lgan janglarda shu harbiy taktikani qo'llab, qator janglarda temuriylarni sarosimaga tushirganlar. Amir Temur armiyasida bunday taktik amaliyotni qo'llovchi harbiy qism qunbul (qutbul) deb atalgan. To'lg'ama atamasi "Boburnoma"da qayd etilgan. Bobur ushbu taktik amaliyotni shayboniylardan o'rganib, 1526 yildagi Panipat jangida sulton Ibrohim Lo'diyga qarshi qo'llab g'alaba qozongan.

**USHR**, ashur, ashar (arab.) – 1) o'ndan bir ulush; 2) musulmon mamlakatlarida natura (ba'zan pul) shaklida daromadning o'ndan bir qismida undirilgan soliq turi. Ushr solig'i har yili dehqonchilik, chorvachilik, baliqchilik mahsulotlari va boshqalardan olingan. Ushr olingan yer-suv "mulki ushuriya" deb atalgan.

Turli davrlarda ushr shakli mahalliy shart-sharoitga ko'ra o'zgarib turgan. Eron, Buxoro amirligida ushr – "dahyak" deb yuritilgan. O'rta Osiyoda bu soliq turi XX asr boshigacha bo'lgan.

**XANDAQ** – qal'a tevaragiga qazilgan va suv to'latilgan zovur; maxsus mudofaa inshooti.

**XATIB** (afg'on. "xat" – tepa, tepalik, "xatib" – tepaliklar) – odatda masjidida juma va diniy bayram kunlari, ya'ni hayit namozlari paytida xutba o'qiydigan dindor.

**CHIBIK PULI** – Xiva xonligida ommaviy ishlarda qatnashishdan ozod etilgani uchun to'lanadigan haq.

**SHINAK** – shahar, qal'a, qo'rg'on kabi mudofaa inshootlari devoridan dushmanni kuzatish, undan saqlanish va hujumni qaytarish maqsadida o'q otish uchun devorning maxsus tuynukchasi, pana joy.

**SHIRK** (arab.) – Oллоhning sherigi bor deb bilish, ko'pxudolik. Islomga ko'ra, Oллоhdan boshqa "iloh"larga, shuningdek, butlar va

3) o'rtaslarida boshqa musulmon davlatlarida ham saroy gvardiyasi askarlari g'ulomlar deb atalgan.

**HAMAL** – quyoshning yillik ko'rinma harakat yo'lidagi o'n ikki burjdan biri.

**HARKON (JURJON)** – Kaspiy dengizining o'rtaslaridagi nomi. Dengizning janubiy sohillo'yi hududlari Gurgon yoki Jurjoniya deb yuritilgan.

**HAFTIYAK** (fors. – yettidan bir) – Qur'oni karimning yettidan bir qismi bitilgan kitob. Yosh qorlarga qulay bo'lsin uchun Qur'on suralaridan bir nechta (13-14 ta) tanlanib, giroat kitobi shakliga keltirilgan. O'rtaslar Turkiston maktablarida bolalar arab alifbosini o'zlashtirganlaridan so'ng o'rgatila boshlangan. Haftiyakdan so'ng Qur'oni karimni o'qishga o'tilgan.

**HACHI** – Xiva xonligida himoya dambalari qurish va ularni mustahkamlashda g'atnashish majburiyati.

**HASHAM** – hukmdorga yaqin kishilar.

odamlarga sig'inish katta gunoh, kufri hisoblanadi. Ollohdan o'ziga topinuvchilar mushriklar deyiladi.

**SHIXNA** – Buxoro xonligida mirshablarning ikkinchi bir nomi.

**VANICHARLAR** (turkcha – yangi go'shin) – Usmoni Turk imperiyasida (1299-1922) davlat xazinasiidan maosh olib turgan muntazam piyoda go'shinlar. Sulton Murud I davri (1359-1389 yillar)da tashkil etiladi. Sipohiy va o'tliq go'shinlar bilan birga yanicharlar turk go'shinining asosni tashkil etganlar. Sulton Mahmud II davri (1808-1839) da tugatilgan. 1402 yilda bo'lib o'tgan Angara jangida Amir Temur sulton Boyazid yanicharlarini mag'lubiyatga uchratgan edi.

**YARIMCHI** – Xiva xonligida xon va boshqa xususiy mulk yerlarda hostining yarmini olish sharti bilan yerlarga ishlov beruvchi dehqonlar.

**O'ZBEK ULUSI** – Oltin O'rda va Dashi Qipchoqning sharqiy qismi (Janubiy-G'arbiy Sibir)da Abulxayrxon asos solgan (1428) davlat va uning aholisi. Ilgari bu hududlar Shaybon ulusi deb atalgan. Poytaxti Tura shahri bo'lgan. O'zbek ulusi temuriylar davlatiga shimoldan doimo xavf solib, Movarounnahrtdagi siyosiy jarayonlarga aralashib turgan. Abulxayrxon vafoti (1468)dan so'ng O'zbek ulusi inqirozga yuz tutgan.

**O'N BOSHI** (turk.) -Amir Temur armiyasi va O'rtasyo xonliklari go'shinlaridagi eng kichik o'n nafarlik guruh – harbiy bo'lim.

**O'RTASRLAR** – tarix fanida jahon tarixining qadimgi dunyo tarixi bilan yangi tarix oraliqidagi davrni ifodalash uchun qabul qilingan atama. O'rtasrlar tushunchasi XV-XVI asrlarda italyan tarixchilari asarlarida vujudga kelgan. Jahon tarixida o'rtasrlar davri G'arbiy Rim imperiyasining qulashi (476 yil)dan Buyuk geografik kashfiyotlar va ingliz buyua inqilobi (1640 yil)gacha bo'lgan davr oraliqini, Vatanimiz tarixida V-XIX asrlarni o'z ichiga oladi.

**G'OZIV** – islom dini uchun g'ayri dinlarga qarshi muqaddas urush-g'azovot ishtirokchisi. Sharhiga ko'ra, bunday urushda oti va quroi-yarog'i bor har bir musulmon erkak g'atnashishi shart bo'lgan. Kambag'allar, qullar, nogiron va keksalar bundan ozod etilgan.

**G'UL** – 1) o'rtasrlarda turkiy xalqlar va mo'g'ullar go'shinining markazida va qanotlar oldida, hukmdor huzurida turuvchi maxsus harbiy qism. Arabcha qalb deyilgan; 2) bandidlarning oyoq va bo'yninga kiygizib go'yiladigan jazolash asbobi, kishan.

**G'ULOMLAR** – 1) o'rtasrlarda musulmon mamlakatlaridagi qullar. 2) Abbosiylar xalifaligi davrida, Ma'mun hukmronligi davrida (813-833) chet ellardan sotib olingan yosh qullardan tuzilgan o'tliq askarlar gvardiyasi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

### I. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari

1. Mirziyoyev SH.M. Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 21.12.2022. <https://www.xabar.uz/jamiyat/shavkat-mirziyoyevning-oliy-majlis-va-ozbekiston-xalqi>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni// <https://lex.uz/docsZ5841063#5844198>.
3. Mirziyoyev Shavkat Miromonovichning O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining yigirma sakkiz yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagisi — Jonajon O'zbekistonim, mangu bo'l omon! mavzuidagi nutqi.
4. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2021.258-bet.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni //Xalq so'zi, 2017, 8 fevral.
6. Karimov I. Amir Temur davridagi bunyodkorlik va hamkorlik ruhi bizga namuna bo'laversin. Asarlar 4-jild. -T.: "O'zbekiston", 1996.
7. Karimov I. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. -T.: "Ma'naviyat", 2008.

### II. Adabiyotlar

8. Abdurazzoq Samarqandiy. Matlai Ma'dayn va Majmai Bahrayn. II jild. Birinchi qism (1405-1429 yillar voqealari). Toshkent, "O'ZBEKISTON", 2008.
9. Abu Tohirxoja. Samariy.Narshaxiy.Buxoro tarixi. Bayoniy.Shajarai Xorazmshohiy.Ibrat.Farg'ona tarixi. Toshkent, "Kamalak", 1991.
10. Abduraxmonov A. Ulug'bek akademiyasi. Toshkent, "Qomuslar Bosh tahririyati", 1993.
11. Azamat Ziyo.O'zbek datchiligi tarixi. Toshkent, "Sharq", 2001.
12. Amir Sayid Olimxon. Buxoro xalqining hasrati tarixi. Toshkent, "Fan" 1991.
13. Ahmedov N. Amir Temur rivoyat va haqiqat. Toshkent, "Qomuslar Bosh tahririyati", 1996.
14. Ahmedov B. Davlatshoh Samarqandiy. Toshkent, "Fan", 1967.

15. Ahmedov B.O'zbek ulusi. Toshkent, "A.Qodiriy nomidagi xalq merosi", 1992.
16. Ahmedov B. Amir Temurni yod etib. Toshkent, "O'zbekiston", 1996.
17. Axmedov B.Tarixdan saboqlar. Toshkent, "O'qituvchi", 1994.
18. Ahmedov B. O'zbekiston tarixi manbalari. (Qadimgi zamon va o'rta asrlar). Toshkent, "O'qituvchi", -T. 2001.
19. Boburnoma. Toshkent, "Yulduzcha", 1990.
20. Bo'riyev O. Elchilar yo'l yurdilar. // Sharqshunoslik. Toshkent, 1990.
21. Bobobekov H., Karimov SH., Sodiqov M., Usmonov Q., Xolboyev S., Shamsutdinov R. O'zbekiston tarixi. Qisqacha ma'lumotnoma. Toshkent, "Sharq", 2000.
22. Dadaboyev H. Amir Temurning harbiy mahorati. Toshkent, "Yozuvchi", 1996.
23. Ziyoyev H.Sibir, Volga va Ural bo'ylaridagi o'zbeklar. ( Eng qadimgi davrlardan XX asr boshlarigacha) Toshkent, "Sharq", 2003.
24. Ibn Arabshoh.Ajoib al-makdur fi tarixi taymur. (Temur tarixida taqdir ajoyibotlari) II - kitob T.: "Mehnat", 1992.
25. Ibodov J., Matviyevskaya G. Ulug'bek shogirdi -Ali Qushchi. Toshkent, "FAN", 1994.
26. Ivanin M.Ikki buyuk sarkarda:Chingizxon va Amir Temur. Toshkent, Yangi asr avlodi».2017.
27. Ismoilova J. H., Levteyeva L.G. O'zbekiston xarbiy san'ati tarixi. Toshkent, O'zbekiston NMIU.2013.
28. Karimov SH.Shamsutdinov R. Vatan tarixi. Toshkent, "O'qituvchi", 1997.
29. Karimov. SH.O'zbekiston tarixi va madaniyati. (Ma'ruzalar to'plami). Toshkent, "O'qituvchi",1992.-B. 85, 87.
30. . Karimova M.J. XIX asrning II yarmi - XX asr boshlarida turkiston xalqlarining qo'shni mamlakatlar bilan savdo aloqalari. (Farg'ona vodiysi misolida). Toshkent, "Hayot" Nashriyoti,2014.-B. 124.
- 31.Karimova M.J. Farg'onada ijtimoiy-iqtisodiy hayot. (XIX asrning II yarmi) Moziydan sado №1. 2007. -B.45.
32. Karimova M.J. Qo'qon xonligi va Rossiya o'rtasida savdo aloqalari. SamDU Ilmiy tadqiqotlar axborotnomasi.Ilmiy-nazariy uslubiy jurnal. № 4. 2007. -B. 31-33
33. Karimova M.J. Shaharlashuv va hunarmandchilik rivoji. "Tafakkur" №4 2010.-B. 92-93.



34. Karimova M.J. "Temur tuzuklari" da yerga egalik. "Muloqot". Milliy, ijtimoiy-siyosiy, tarixiy-badiiy jurnal. 2006 yil №1-2 son. 9-10 betlar.
35. Karimova M.J., Axmedova M.A., Alimova M.M. Ulugbek kak pokrovitel nauki i iskusniy diplomat. Yejemesyachniy nauchniy jurnal «Molodoy ucheniy», №6(65), chast V. Rossiya, g..Kazan.2014. – S. 597 – 603. E-mail: [info@moluch.ru](mailto:info@moluch.ru); <http://www.moluch.ru/>.
36. Karimova M.J., Axmedova M.A., Alimova M.M. Ulugbek velikiy uchyoniy i nastavnik. Yejekvartalniy jurnal «Nauchniy aspekt» № 1 – 2015 tom 1. OOO «Aspekt» g.Samara, 2015 g. -S. 68-76.
37. Karimova M.J., Djabbarova Y.D., Kurdoshev B.F. Amir Temur va temuriylar davridagi diplomatik aloqalar. Amir Temur va temuriylar davridagi ilm-fan va madaniyat rivojining jahon tamaddunidagi o'rni. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya tezislari. 9 aprel 2016 yil. -B.31-38. Karimova M.J., Alimova M.M., Jabbarova Y.D. Amir Temur – pokrovitel kulturi. Yejekvartalniy jurnal «Nauchniy aspekt» № 1 . OOO «Aspekt» g.Samara, 2016 g. -S. 46-56.
39. Karimova M.J., Alimova M.M., Jabbarova Y.D. "Temuriylar davridagi yer zgaligi". Mejdunarodniy nauchniy jurnal "INTERNAUKA" №2 – 2017.1 t. -B.40 –42.
40. Karimova M.J., Axmedova M.A., Alimova M.M. "Temuriylar davrida ijtimoiy-iqtisodiy hayot". Mejdunarodniy nauchniy jurnal "INTERNAUKA" №2 – 2017.1 t. B.43 –46.
41. Karimova M.J. Amir Temur davridagi diplomatik aloqalar. "O'zbekiston teleradiojurnalistikasi taraqqiyoti va transformatsiya jarayonlari" mavzuida IV Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Toshkent-2017y.-B.160-163.
42. Karimova M.J. Amir Temur davrida ilm fan va tabobatning rivojlanishi. Qoraqalpoq respublikasi Ajiniyaz nomidagi Nukus shahar Pedagogika instituti, "ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb masalalari: rivojlanish istiqbollari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy anjuman materiallari II bo'lim. Nukus. 2018y.-B.100-102.
43. Karimova M.J. Temuriylar davrida ilm fan va tabobat rivoji. Qoraqalpoq respublikasi Ajiniyaz nomidagi Nukus shahar Pedagogika instituti, "ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb masalalari: rivojlanish istiqbollari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy anjuman materiallari II bo'lim. Nukus. 2018y.-B.105-106.
44. Karimova M.J., Alimova M.M. Amir Temur davlatida boshqaruv tizimi. Mejdunarodniy nauchniy jurnal "INTERNAUKA" №18 –2019.3 t.-B.54 –57.
45. Karimova M.J. Crafts and trade in the Kokand Khanate. Data Created 20/07/20 The Social Science Research Network (SSRN) "Scopus indexed", mnogoprofilniy jurnal. 2020. -P.1-17.
46. Karimova M.J. Amir Temur va temuriylar davri madaniyati. QarDU XABARLARI. Ilmiy-nazariy, uslubiy jurnal. Jurnal 2009 yilda tashkil etilgan. Yiliga 4 marta chop etiladi. Maxsus son (Ijtimoiy fanlar) Qarshi – 2020.-B. 258-263.
47. Karimova M.J. Trade Relations between the Kokand Khanate and Russia Mendeley Date posted: October 27, 2020-R.1-12 <https://papers.ssrn.com/abstract=3688544>
48. Karimova M.J. Turkestan and Russia at the beginning of the XX century trade relations between. Mendeley data. Published: 31 March 2022. Version 3 DOI:10.17632/4st7s2bhr9.3 <https://data.mendeley.com/>
49. Karimova M.J. Turkestan at the End of the Nineteenth Century Trade Relations with Russia. Email: [muyassar.karimova61@gmail.com](mailto:muyassar.karimova61@gmail.com) Tarih: Crossroads Central Asia History eJournal :: SSRN Vol. 2, No. 9: March 11, 2022.
50. Lyusyen Keren. Amir Temur saltanati. T.: "Ma'naviyat", 1999.
51. Ma'naviyat yulduzlari. Toshkent, "Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi", 2001.
52. Mirzo Muhammad Haydar Ayoziy. Tarixi Rashidiy. Toshkent, "O'ZBEKISTON", 2011.
53. Mirzo Olim Maxdum hoji. Tarixi Turkiston. Toshkent, "Yangi asr avlodi", 20008.
54. Mirzoolim Mushrif. Ansob us-salotin va tavorix ul-xavoqin. (Qo'qon xonligi tarixi). Toshkent, "G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at", 1995.
55. Muhammad Haydar mirzo. Tarixi Rashidiy. Toshkent, "SHARQ", 2010.
56. Muhammadyor ibn Arab Qatag'an. Musaxxir al-Bilod. Toshkent, "Yangi asr avlodi", 2009.
57. Muhammadhakimxon To'ra. Muntaxab at-tavorix (Xo'qand va Buxoro tarixi, sayohat va xotiralar). Toshkent, "Yangi asr avlodi", 2010.
58. Muhammadjonov A. Temur va temuriylar saltanati. Toshkent, "Qomuslar bosh tahririyati", 1996.
59. Musayev N.O'rta Osiyoda dehqonchilik madaniyati va agrar munosabatlar tarixidan. (Tosh davri oxirlaridan – XX asr boshlariga qadar). Toshkent, "Fan" 2005.

60. Musayev N.U., Karimova M.J., Tog'ayev M.A. O'zbekiston tarixi. O'quv qo'llanma. Toshkent, «IJOD PRINT», 2019.
61. Musayev N.U., Azimov H.I. O'zbekiston tarixi. O'quv qo'llanma. Toshkent, "TDYUI", 2013.
62. Musayev N.U., Azimov H.I. Madaniyatshunoslik. (O'quv qo'llanma). Toshkent, "TDYUI", 2009.
63. Muiniddin Natanziy. Muntaxab ut-tavorixi muinny. Toshkent, "O'ZBEKISTON" T.:2011.
64. Mo'minov I. Amir Temurning O'rta Osiyo tarixida tutgan o'rni va roli. Toshkent, "Fan", 1993.
65. Narzulla Ahmedov. Amir Temur rivoyat va haqiqat. Toshkent, "Qomuslar Bosh tahririyati", 1996.
66. Nizomiddin Shomiy. Zafarnoma. Toshkent, "O'zbekiston", 1996.
67. Nizomiddinov I. Abdulkarim Buxoriy. Toshkent, "Fan". 1966.
68. Pugachenkova G.A. Sredneaziatskiye miniatyuri. 16-18 vekov v izbrannix obrasax. Toshkent, «Glavnaya redaksiya ensiklopediy», 1994.
69. Rahmonov M. Temur va temuriylar davri san'atiga bir nazar.// Amir Temur va Temuriylar davrida madaniyat va san'at. (Maqolalar). Toshkent, "G'ofur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at", 1996.
70. Rui Gonsales de Klavixo. Amir Temur Yevropa elchilari nigohida. Buyuk Amir Temur tarixi. Toshkent, "G'ofur G'ulom", 2007.
71. Rui Gonsales de Klavixo. Samarqandga- Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi. (1403-1406 yillar). Toshkent, "OZBEKISTON", 2010.
72. Sagdullayev A., Aminov B., Mavlonov O., Norqulov N. O'zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti. Toshkent, "Akademiya", 2000.
73. Saidqulov T. O'rta Osiyo xalqlari tarixining tarixshunosligidan lavhalar. (1-qism) O'quv qo'llanma. Toshkent, "O'qituvchi", 1993.
74. Sodiqov H. Amir Temur saltanatida xavsizlik xizmati. Toshkent, "Art Flex", 2010.
75. Turg'un Fayziyev. Temuriylar shajarasi. Toshkent, "Yozuvchi", "Xazina" 1995.
76. Umarov A. Musavvirlik san'ati haqida.// Amir Temur va Temuriylar davrida madaniyat va san'at. (Maqolalar). Toshkent, "G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at", 1996.
77. Fitrat. Amir Olimxonning hukmronlik davri. Toshkent, "Minhoj". 1992.
78. Shamsutdinov R., Karimov SH., Ubaydullayev O'. Vatan tarixi. (XVI-XX asr boshlari). Ikkinchi kitob. Toshkent, "Sharq", 2003.
79. Sharafuddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. Toshkent, "SHARQ", 1997.

80. Sherxon Qorayev. Sohibqiron ijod ahliga qanday munosabatda bo'lgan? Amir Temur tavalludining 685 yilligiga. 06.04.2021. <https://qashqadaryozg.uz/read/so-ib-iron-izhod-a-liga-andaj-munosabatda-b-lgan>

81. Shirinov T.SH., Karimova M.J. "Yozma manbalarda Mirzo Ulug'bekning ilmiy faoliyati haqida ma'lumotlar". "Amir Temur va temuriylar davridagi ilm-fan va madaniyat rivojining jahon tamaddunidagi o'rni" Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Toshkent, 2017. -B.19-23.

82. Shirinov T.SH., Karimova M.J. Ulug'bek ilm-fan xomiysi. Amir Temur va temuriylar davridagi ilm-fan va madaniyat rivojining jahon tamaddunidagi o'rni. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya tezislari. 9 aprel 2016 y. -B.56-57.

83. Xayrullayev M.M., A.O'rinboyev, O.Bo'riyev va boshqalar. Temuriylar bunyodkorligi davr manbalarida. Toshkent, "Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi", 1997.

84. Xayrullayev M. Ma'naviyat yulduzlari. (Markaziy Osiyolik mashhur siymolar, alomalar, adiblar. Toshkent, "Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2001.

85. Xo'jayev A. Buyuk ipak yo'li: munosabatlar va taqdirlar. Toshkent, "O'zME", 2010.

86. Herman Vamberi. Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi. Toshkent, "G'ofur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at", 1990.

87. Hilda Hukhem. Yetti iqlim sultoni. Toshkent, "Adolat", 1999.

88. Temur Tuzuklari. Toshkent, "G'ofur G'ulom nomidagi nashriyot matbaa birlashmasi, 1991.

89. Temur Tuzuklari. Toshkent, "G'ofur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at", 1996.

90. Temur tuzuklari. Toshkent, "O'zbekiston". 2018.

91. Temur va Ulug'bek davri tarixi. Toshkent, "Qomuslar bosh tahririyati", 1996.

M.J. KARIMOVA

# O'ZBEKISTON TARIXI

O'QUV QO'LLANMA



Muharrir: O.Fozilova  
Dizayner-sahifalovchi: K.Raxmatov

Nashr. lits. № AA 0016. 19.08.2019-y.  
«EFFECT-D» nashriyoti  
100000, Toshkent shahri, Abay ko'chasi, 16-A uy.  
email: info@effectnashr.uz

24.10.2023 da nashrga ruxsat etildi. Format 60x84 1/16.  
Shartli b.t. 9,75. Hisob. b.t. 10,25. Times garniturası.  
30 nusxa. 79-buyurtma.